

ONA TILI VA ADABIYOT

DAVLAT TEST MARKAZI

2019

TEST TOPSHIRIQLARI
TO'PLAMI

Mutaxassislar tavsiyalari

Bilimlarni onlayn tekshirish xizmati

Tekshirish uchun javoblar varaqalari

DTM



Suratga chegaralangan sohani to'liq oling



JAVOBLAR VARAQASI

	A	B	C	D		A	B	C	D		A	B	C	D
1	☐	☐	☐	☐	11	☐	☐	☐	☐	21	☐	☐	☐	☐
2	☐	☐	☐	☐	12	☐	☐	☐	☐	22	☐	☐	☐	☐
3	☐	☐	☐	☐	13	☐	☐	☐	☐	23	☐	☐	☐	☐
4	☐	☐	☐	☐	14	☐	☐	☐	☐	24	☐	☐	☐	☐
5	☐	☐	☐	☐	15	☐	☐	☐	☐	25	☐	☐	☐	☐
6	☐	☐	☐	☐	16	☐	☐	☐	☐	26	☐	☐	☐	☐
7	☐	☐	☐	☐	17	☐	☐	☐	☐	27	☐	☐	☐	☐
8	☐	☐	☐	☐	18	☐	☐	☐	☐	28	☐	☐	☐	☐
9	☐	☐	☐	☐	19	☐	☐	☐	☐	29	☐	☐	☐	☐
10	☐	☐	☐	☐	20	☐	☐	☐	☐	30	☐	☐	☐	☐

F.I.Sh:

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
1	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
2	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
3	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
4	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
5	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
6	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
7	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
8	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
9	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
0	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐

Test varianti raqami

JAVOBLAR VARAQASI

	A	B	C	D		A	B	C	D		A	B	C	D
1	☐	☐	☐	☐	11	☐	☐	☐	☐	21	☐	☐	☐	☐
2	☐	☐	☐	☐	12	☐	☐	☐	☐	22	☐	☐	☐	☐
3	☐	☐	☐	☐	13	☐	☐	☐	☐	23	☐	☐	☐	☐
4	☐	☐	☐	☐	14	☐	☐	☐	☐	24	☐	☐	☐	☐
5	☐	☐	☐	☐	15	☐	☐	☐	☐	25	☐	☐	☐	☐
6	☐	☐	☐	☐	16	☐	☐	☐	☐	26	☐	☐	☐	☐
7	☐	☐	☐	☐	17	☐	☐	☐	☐	27	☐	☐	☐	☐
8	☐	☐	☐	☐	18	☐	☐	☐	☐	28	☐	☐	☐	☐
9	☐	☐	☐	☐	19	☐	☐	☐	☐	29	☐	☐	☐	☐
10	☐	☐	☐	☐	20	☐	☐	☐	☐	30	☐	☐	☐	☐

F.I.Sh:

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
1	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
2	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
3	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
4	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
5	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
6	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
7	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
8	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
9	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
0	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐

Test varianti raqami

JAVOBLAR VARAQASI

	A	B	C	D		A	B	C	D		A	B	C	D
1	☐	☐	☐	☐	11	☐	☐	☐	☐	21	☐	☐	☐	☐
2	☐	☐	☐	☐	12	☐	☐	☐	☐	22	☐	☐	☐	☐
3	☐	☐	☐	☐	13	☐	☐	☐	☐	23	☐	☐	☐	☐
4	☐	☐	☐	☐	14	☐	☐	☐	☐	24	☐	☐	☐	☐
5	☐	☐	☐	☐	15	☐	☐	☐	☐	25	☐	☐	☐	☐
6	☐	☐	☐	☐	16	☐	☐	☐	☐	26	☐	☐	☐	☐
7	☐	☐	☐	☐	17	☐	☐	☐	☐	27	☐	☐	☐	☐
8	☐	☐	☐	☐	18	☐	☐	☐	☐	28	☐	☐	☐	☐
9	☐	☐	☐	☐	19	☐	☐	☐	☐	29	☐	☐	☐	☐
10	☐	☐	☐	☐	20	☐	☐	☐	☐	30	☐	☐	☐	☐

F.I.Sh:

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0
1	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
2	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
3	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
4	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
5	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
6	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
7	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
8	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
9	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐
0	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐	☐

Test varianti raqami

KIRISH

To'plamdan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga 2019-2020-o'quv yili uchun kirish test sinovlarida foydalanilgan test topshiriqlari o'rin olgan. Test topshiriqlari mazkur fan bo'yicha umumiy o'rta maktab hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quv dasturlarida keltirilgan mavzular doirasida shakllantirilgan. To'plam o'qituvchilar, oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan abituriyentlar va keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Shuningdek, to'plamda testologiya sohasida ko'p yillardan beri faoliyat yuritayotgan fan mutaxassislari tomonidan fan mavzularini o'zlashtirish, test topshiriqlarini yechish bo'yicha maslahat va tavsiyalar berilgan.

To'plamning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, kelgusida abituriyent fan mavzularini qay darajada o'zlashtira olganligini tekshirishga imkon beruvchi onlayn xizmat ko'rsatish tizimini ishga tushirish rejalashtirilgan. Tizimdan foydalanishda to'plamga ilova qilingan javoblar varaqalari yordam beradi. Xizmat ko'rsatish tizimidan foydalanish tartibi haqida batafsil ma'lumotni Davlat test markazining <http://dtm.uz> rasmiy saytidan olish mumkin.

Abituriyentlarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirib borishlaridagi faolliklari keng jamoatchilik bilan Davlat test markazi o'rtasidagi muloqotni rivojlantiradi va bu o'z navbatida test topshiriqlari bazasi hamda test sinovlari jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Barcha abituriyentlarga omad tilagan holda, ushbu to'plam fan bo'yicha bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun xizmat qilishiga umid qilib qolamiz.

Davlat test markazi

ABITURIYENTLARGA MASLAHAT

Abituriyentlar bilan suhbat jarayonida aksariyat hollarda «Bilib turib shoshildim» yoki «Bilib turib boshqasini belgilab qo'ydim, hayajonlanib qoldim» va shu kabi fikrlarni eshitamiz. Ana shunday xatoga yo'l qo'ymaslik uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Tasavvur qiling, test jarayonlari boshlandi, test topshiriqlarini bajarish uchun belgilangan joyga o'tirdingiz.

2. Shoshilmang, avvalo, test topshiriqlarini bajarishda nimalarga ahamiyat berish kerakligi haqidagi ma'lumotlarni diqqat bilan tinglang.

3. Test topshiriqlari kitobidagi savollarni diqqat bilan o'qib chiqing. Siz, eng avvalo, savolning mohiyatini tushunib oling, buning uchun savolni shoshilmasdan o'qib chiqing.

4. Sizga savol va uning javobi osondek ko'rinsa ham, belgilashga shoshilmang, barcha javob variantlarini o'qib chiqing va yana bir tahlil qilib oling, ishonch hosil qilganingizdan so'nggina belgilang.

5. Agar sizga biror test topshirig'i qiyinchilik tug'dirsa, ortiqcha vaqt sarflamang, yaxshisi, shu savol raqamini belgilab qo'ying, barcha savol-topshiriqlarni bajarib bo'lganingizdan keyin shu savolni yana qayta ko'rib chiqing.

6. Siz savollar kitobidagi barcha test topshiriqlarini xuddi shu tarzda o'qing va belgilab chiqing.

7. Savollar kitobidagi barcha test topshiriqlarini bajarib bo'lgandan so'ng, javoblar varag'ini oling va diqqat bilan bo'yab chiqing.

8. Har bir test topshirig'ini bajarish uchun ketadigan vaqtni to'g'ri taqsimlab chiqing.

9. Test topshiriqlarini bajarish uchun vaqtingiz yetarli ekanligiga va ortiqcha hayajonga asos yo'qligiga o'zingizda ishonch hosil qiling.

Yuqoridagi tavsiyalarga rioya etsangiz, bu, albatta, yaxshi natijalarga erishishingizga yordam beradi.

Siz qaysi javob varianti asosida test topshirig'ini bajargan bo'lar edingiz?

A) savolni darhol olib o'qiyman, albatta, tanish bo'lgan javob variantini belgilab chiqaman

B) savolga emas, javob variantlariga qarayman va keyin savolni o'qiyman

C) savolni o'qib chiqishga shoshilmayman, o'zim to'g'ri deb tanlagan javob variantini belgilayman

D) savolni aniq tushunib olaman, barcha javoblar variantini o'qib chiqaman va to'g'riligiga ishonch hosil qilgan javobni belgilayman

«ONA TILI VA ADABIYOT» FANIDAN ABITURIYENTLARGA TAVSIYALAR

Ona tili va adabiyot fani o'quvchilarda ijodiy fikrlash, nutqning ravon va to'g'ri bo'lishida asosiy o'rin tutadi. Abituriyent nafaqat test topshiriqlarini to'g'ri bajarishi, balki kelajakda mazkur fan bo'yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishi ham kerak. Bu esa abituriyentdan test topshiriqlarini bajarishda chuqur bilimga ega bo'lishni talab etadi. O'z bilimiga ishongan o'quvchigina kelajakda talaba bo'lishi va jamiyat uchun foydali kadrqa aylanishi mumkin. Test topshiriqlarini bajarishda nazariy bilimlarga ega bo'libgina qolmay, balki bilimlarni amalda qo'llay bilish ham muhimdir.

Namuna sifatida quyidagi test topshirig'ini tahlil qilamiz.

Joni halqumiga kelgan Sattor alam qilganidan baqirib yig'lay boshladi.

Qaysi javobda ushbu gap tarkibidagi gap bo'laklari shartli belgilar asosida tartib bilan to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) ~~~~~ ——— =====
- B) ——— ~~~~~ ——— =====
- C) ~~~~~ ——— ---- =====
- D) ~~~~~ ——— =====

Ushbu test topshirig'ini bajarishda abituriyent to'g'ri javobni topishda gap bo'laklarining turg'un bog'lanma (joni halqumiga kelgan), qo'shma so'z (alam qilganidan), ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi (yig'lay boshladi) bilan ifodalanishiga e'tibor qaratishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday birliklarni ichki uzv(qism)larga ajratish orqali abituriyent noto'g'ri variantlardan birni tanlab qo'yishi mumkin. Yuqoridagi testda *Joni halqumiga kelgan* iborasi *Sattor* so'ziga yaxlit holda bog'langan holda sifatlovchi aniqlovchi bo'lib kelgan. *Sattor* so'zi gap kesimining qo'shimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma'nosini bildirgan holda kim? so'rog'iga javob bo'ladi va gap egasi sanaladi. *Alam qilganidan* qo'shma fe'li nima sababdan? so'rog'iga javob bo'ladi va sabab holi, *baqirib* so'zi qay tarzda? so'rog'iga javob bo'ladi va ravish holi, *yig'lay boshladi* ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi esa nima qildi? so'rog'iga javob bo'ladi va kesim vazifasida kelgan. Bunday gap bo'laklari o'zining quyidagi shartli belgilari asosida joylashadi.

- A) ~~~~~ ——— =====

Noto'g'ri variantlarda esa iboraning ichki qismlarga ajralishi asosida joylashgan gap bo'laklarining shartli belgisi berilgan. Abituriyent ana shu holatlarga e'tibor qaratsa, to'g'ri javob topishda qiyinmaydi.

Shuningdek, quyidagi tavsiyalarga amal qilinsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

✓ O'zingiz to'g'ri deb bilgan javob variantini noto'g'ri deb bilgan javob variantlari bilan solishtiring.

✓ Ona tili fanidan test topshiriqlarini bajarishda ko'proq ilmiy va mantiqiy fikrlashga e'tibor qarating.

✓ Adabiyot fanidan test topshiriqlarini bajarishda esa xotirangiz, badiiy tahlil va badiiy sar mutolaasi Sizga yordamga keladi.

✓ Unutmang, test topshiriqlarini bajarishda quruq qoidalar va raqamlarni yodlash bilan ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi.

Til haqida umumiy ma'lumot. Fonetika

1. *O'g'lim, sen uzumini yegin-u, bog'ini surishtirma.*
Ushbu gapda tarkibidagi barcha undoshlari jarangli til undoshlariga mansub bo'lgan so'z qanday sintaktik vazifa bajargan?
A) kesim B) undalma
C) ega D) to'ldiruvchi
2. Qaysi gapdagi ega vazifasidagi so'z tarkibida ishtirok etgan undoshlarning barchasi jarangli til undoshlari sanaladi?
A) Ilm olish oson ish emas, unga har kim chidayvermaydi.
B) Javohir yo'lda adashib qolgan bir cholni ko'rib qoldi.
C) Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar.
D) Shunda botir o'g'lonlar yurt himoyasiga o'tlanibdilar.
3. Quyida berilganlardan tarkibidagi barcha undoshlari jarangli til undoshlariga mansub bo'lgan yasama so'zlarni aniqlang.
1) yolg'izlik; 2) teshik; 3) guldor; 4) yozgi; 5) jigarrang; 6) diyor.
A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 6
C) 3, 4, 5 D) 4, 5, 6
4. Quyida berilganlardan tarkibidagi barcha undoshlari jarangli til undoshlariga mansub bo'lgan yasama so'zlarni aniqlang.
1) yig'in; 2) tushuncha; 3) ozg'in; 4) g'ildirak; 5) ezgu; 6) yog'li.
A) 1, 3, 6 B) 1, 2, 4, 5, 6
C) 1, 3, 5, 6 D) 2, 4, 5
5. Quyida berilganlardan tarkibida ng harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni aniqlang.
1) dengiz; 2) singan; 3) kongress; 4) ko'rdingiz; 5) tonggi; 6) osmonga.
A) 1, 4, 5, 6 B) 2, 3, 5, 6
C) 1, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 6
6. Quyida berilganlardan tarkibida ng harflar birikmasi ishtirok etmagan so'zlarni aniqlang.
1) sening; 2) donga; 3) shtanga; 4) qonguncha; 5) yengil; 6) ko'ngach.
A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 3, 4, 5
C) 2, 3, 4, 6 D) 1, 2, 4, 6
7. Qaysi javobdagi barcha so'zlar tarkibida til orqa burun undoshi qatnashgan?
A) so'nggi, kongress, tungi
B) jarang, singil, bugungi
C) tong, shtanga, ko'rdingiz
D) tongi, yengildi, dengiz
8. *Ko'p tilni bilish bitta qulfni ocha oladigan bir nechta kalitga ega bo'lishdir.*
Ushbu gapdagi tarkibida jarangsiz lab undoshi qatnashgan so'zlar qaysi turkumga oid?
A) ravish, fe'l, ot
B) ravish, ot
C) fe'l, ot, olmosh
D) ot, olmosh
9. *Odobli, bilimdon, aqlli, mehnatsevar va iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning katta boyligidir.*
Ushbu gapdagi ot yasovchi qo'shimchalar tarkibida nechta til oldi jarangli undosh ishtirok etgan?
A) 3 ta B) 2 ta
C) 6 ta D) 1 ta
10. *Sovuqdan dag'-dag' qaltirayotgan cho'pon uzoqdan multiqning ovozini eshitdi.*
Ushbu gapda qatnashgan taqlid so'z tarkibidagi undoshlar haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
A) Jarangsiz lab undoshi ishtirok etgan.
B) Til oldi undoshi 2 o'rinda ishtirok etgan.
C) Chuqur til orqa undoshi 2 o'rinda ishtirok etgan.
D) Jarangli undoshlar ishtirok etgan.

11. Qaysi javobda berilgan ma'lumot to'g'ri emas?
- A) g' undoshi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda asos va qo'shimcha talaffuzida tovush o'zgarishi kuzatilsada, imloda tovush o'zgarishi bilan yozilmaydi.
 - B) Ko'rsatish olmoshlariga egalik qo'shimchalari qo'shilganda talaffuz va imloda bir undosh orttirilishini kuzatish mumkin.
 - C) -a fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilishi ta'sirida so'z asosi imlosida bir unlining tushib qolishini kuzatish mumkin.
 - D) -yap zamon shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganda -avap holida talaffuz qilinadi va -avap holida yoziladi.

12. Quyida berilgan qaysi gaplarda shakl yasovchi qoshimcha ta'sirida tovush o'zgarishi bilan yozilgan so'z yasovchi qoshimcha qatnashgan?
- 1) Sayroqi qushlar makoni bo'lgan bu bog' endi xunuk manzara kasb etgan edi;
 - 2) Unsin xola ko'rpaning chiroyli qavig'iga qarab o'z ishidan mamnun bo'lardi;
 - 3) U mayda tishli taroq bilan sochini avaylab taradi;
 - 4) U do'stiga qaynoq tilaklarini izhor qilmoqchi edi;
 - 5) Nursultonning quvnoqligi atrofdagilarning ham kayfiyatini ko'tardi.
- A) 2, 5 B) 1, 3, 5
 - C) 2, 3, 4 D) 2, 4

13. Quyidagi qaysi vazifani bajaruvchi qo'shimcha birgina til oldi jarangli undosh bilan ifodalanishi mumkin?
- A) fe'lning kelasi zamon shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha
 - B) fe'lning harakat nomi shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha
 - C) fe'lning birgalik nisbati shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha
 - D) I shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi

14. Qaysi javobda egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi bilan yoziladigan yasama so'zlar qatori berilgan?
- A) tirnoq, chelak, parrak
 - B) qiliq, istak, elak
 - C) so'roq, terak, ko'zoynak
 - D) bo'yoq, ittifoq, qiziq
15. Qaysi javobda egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi bilan yoziladigan tub so'zlar qatori berilgan?
- A) bilak, qovoq, chelak
 - B) axloq, tirnoq, pishloq
 - C) yurak, buyruq, kerak
 - D) sovuq, sana, o'yin
16. Qaysi javobda berilgan so'zlarning ma'nolarini farqlovchi undosh tovushlar ham jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra, ham til qismlarining harakatiga ko'ra o'zaro bir turga mansub?
- A) hayron-hayvon B) paxta-taxta
 - C) qadoqchi-qaroqchi D) chayla-qayla
17. Qaysi javobda berilgan so'zlarning ma'nolarini farqlovchi undosh tovushlar ham jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra, ham til qismlarining harakatiga ko'ra o'zaro bir turga mansub?
- A) talaba-g'alaba B) burun-butun
 - C) do'ppi-lo'ppi D) qovun-sovun
18. Qaysi javobda berilgan so'zlarning ma'nolarini farqlovchi undosh tovushlar ham jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra, ham til qismlarining harakatiga ko'ra o'zaro bir turga mansub emas?
- A) qayla-qayra B) narvon-karvon
 - C) quduq-quruq D) dutor-duchor
19. Qaysi javobda berilgan so'zlarning ma'nolarini farqlovchi undosh tovushlar ham jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra, ham til qismlarining harakatiga ko'ra o'zaro bir turga mansub emas?
- A) tuzmoq-suzmoq B) ziyon-ziyod
 - C) jon-don D) g'ildira-shildira

20. Hayotimizda kitobning ahamiyati beqiyosdir.

Ushbu gapdagi qaratqich aniqlovchi tarkibida qatnashgan undoshlar haqidagi to'g'ri ma'lumotni toping.

- A) Jarangsiz lab-lab undoshi qatnashgan.
- B) Jarangli til orqa undoshi 2 o'rinda qatnashgan.
- C) Jarangsiz til orqa undoshi qatnashgan.
- D) Jarangli til oldi undoshi 2 o'rinda qatnashgan.

21. Qaysi gapdagi undalma tarkibida 4 ta til oldi jarangli undosh qatnashgan?

- A) Yosh do'stim, o'qituvchi ham xuddi onadek mehribon, ulug'.
- B) Botir bo'ling, bolalarim, dushmanga aslo bo'yin egmang.
- C) Ey farzand, qancha notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgil.
- D) O, gul bahor, sen ochil, sochil, madh etayin men yoza-yoza.

22. Fil kuchli, fildan ham til kuchlidir.

Ushbu gapda nechta tub so'z tarkibida jarangsiz til oldi undoshi ishtirok etgan?

- A) 2 ta
- B) 1 ta
- C) 4 ta
- D) 3 ta

23. Qaysi javobda tarkibida jarangsiz til oldi undosh(lar)i ishtirok etgan yasama narsa otlari berilgan?

- A) qisqich, taroq, o'chirg'ich
- B) yurtldosh, tilshunos, quroldosh
- C) go'sht, pichoq, qoshiq
- D) guldun, elak, kiyim

24. Millatning dahosi, aqli va ruhiyati maqollaridan bilinadi.

Ushbu gapdagi nechta so'z tarkibida jarangsiz til oldi undoshi qatnashgan?

- A) 5 ta
- B) 2 ta
- C) 3 ta
- D) 4 ta

Grafika va Orfografiya

1. Quyidagi qaysi so'zlarda nuqtalar o'rniga i unlisi yoziladi?

- 1) sov...q; 2) sup...rmoq; 3) muh...m;
4) qut...lmoq; 5) sur...shtirmoq; 6) tush...nmoq.

- A) 2, 3, 6
- B) 1, 2, 4, 6
- C) 3, 5
- D) 1, 3, 5

2. Quyidagi qaysi so'zlarda nuqtalar o'rniga i unlisi yoziladi?

- 1) muq...m; 2) sup...rmoq; 3) tov...q;
4) bult...r; 5) tug'...lmoq; 6) yut...q.

- A) 1, 3, 5
- B) 1, 2, 3, 5
- C) 1, 5
- D) 1, 2, 4, 6

3. Qaysi javobda berilgan so'zlardagi nuqtalar o'rniga bo'g'iz undoshi yoziladi?

- A) ...iyla, ...ulosa
- B) sa...iy, i...tiro
- C) ...ushyor, ...ozirjavob
- D) ...ayot, ...aridor

4. Qaysi gapda imloviy xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A) O'g'il bolalar ariqlarni tozaladilar, qizlar esa hovlini supurdilar.
- B) Onam qo'y go'shtini o'z yog'iga qovurib berdilar.
- C) Sap-sariq qovunlarning xushbo'y hidi anqib turardi.
- D) Bugun yumushlarim ko'payib ketdi, siz aytgan joyga bora olmadim.

5. Qaysi gapda imloviy xatolikka yo'l qo'yilmagan?

- A) Bolalar atrofni to'yib-to'yib tomosha qilishdi.
- B) Shunda uchchala ayolning o'g'illari kelib qolishibdi.
- C) Vatan muqaddas tushincha sanaladi.
- D) Darxaqiqat, endi uning qo'lidan osonlikcha qutulib bo'lmaydi.

6. Quyidagi berilgan soʻzlardan qaysilari toʻgʻri yozilgan?
1) chehra; 2) saxna; 3) xovuz; 4) tuhfa;
5) muxtoj; 6) suhbat.
A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 5 C) 1, 3, 6 D) 1, 4, 6
7. Quyidagi gapda imloviy jihatdan xato yozilgan soʻzlar soni nechta?
Gʻazapdan oʻzingni asra, chunki u tufayli inson ishlarini, ezgu maqsatlarini unutadi.
A) 2 ta B) 1 ta C) 3 ta D) 4 ta
8. Quyida berilgan soʻzlardan nechitasi imloviy jihatdan xato yozilgan?
hordiq, muxandis, xakam, koʻhna, ahd, muxojir, halqum.
A) 5 tasi B) 2 tasi C) 3 tasi D) 4 tasi
9. Qaysi javobdagi barcha soʻzlar toʻgʻri yozilgan?
A) manfaat, tomom, badiy
B) taasurot, tamon, badiiy
C) taalluqli, navbat, tamom
D) taaluqli, tomon, baxr
10. Barcha soʻzlar toʻgʻri yozilgan javobni belgilang.
A) notarius, mudofa, manitoring
B) natarius, dealog, muovin
C) monitoring, dialog, milliard
D) mudofaa, milliard, hayol
11. Qaysi javobdagi barcha soʻzlar toʻgʻri yozilgan?
A) kakao, teatr, kosmanavt
B) orkestr, muovin, pomidor
C) pamidor, drama, kokao
D) movin, arkestr, dialog
12. Qaysi javobdagi barcha soʻzlar toʻgʻri yozilgan?
A) milliyard, tuygʻu, ukrayin
B) stadion, cholgʻu, suisteʼmol
C) ukrain, kulgi, tuygʻi
D) suiisteʼmol, chopqi, milliard
13. Barcha soʻzlar toʻgʻri yozilgan javobni belgilang.
A) konstitusiya, qast, maqsat
B) esdalik, dekloratsiya, nisholla
C) konstututsiya, maqsad, estalik
D) qasd, deklaratsiya, nisholda
14. Qaysi javobdagi barcha soʻzlar boʻgʻinga toʻgʻri ajratilgan?
A) yen-gil-di, ber-din-giz, kon-gress
B) de-ngiz, jon-ga, kon-gress
C) tu-ngi, ya-ngi, si-ngli
D) shtan-ga, koʻr-di-ngiz, ton-gi
15. Qaysi javobdagi barcha soʻzlar notoʻgʻri yozilgan?
A) gramatika, yovoyi, afsuz
B) komissiya, minnaddor, karra
C) grammatika, yovvoyi, taraqqiyot
D) minnatdor, komisiya, taraqqiyot
16. Qaysi javobdagi barcha soʻzlar notoʻgʻri yozilgan?
A) mahsulot, musoboqa, hususiy
B) toifa, maxsulot, musobaqa,
C) jarroh, xususiy, jangovar
D) toyifa, jarrox, tamosha
17. Barcha soʻzlar toʻgʻri yozilgan javobni belgilang.
A) hasis, musoboqa, maxsulot
B) toyifa, musobaqa, jarrox
C) xasis, mahsulot, tomosha
D) jarrox, jangovor, toifa
18. Qaysi javobdagi barcha soʻzlar toʻgʻri yozilgan?
A) mehmondoʻst, ijotkor, rayhon
B) mudofaa, jigarband, jaxolat
C) jaxongashta, navo, mahliyo
D) isteʼdod, bunyodkorlik, hujum
19. Qaysi javobdagi soʻzlar imloviy jihatdan xato yozilgan?
A) tahdid, tahluka B) tahsil, tahsin
C) tahqirlamoq, taxmin D) tannarh, taxlil

20. Qaysi javobdagi soʻzlar imloviy jihatdan xato yozilgan?

- A) tuxfa, tasbex
- B) timsoh, tuhmat
- C) tanbeh, tahmin
- D) rahnamo, rayhon

21. Qaysi gapda imloviy xato yozilgan soʻz qatnashgan?

- A) Ellik yil ezildik, taxqir etildik, qoʻlimiz bogʻlandi, huquqimizga tajovuzlar boʻldi.
- B) Boʻstondagi atirgul va rayhonlar eng yoqimli gullardir.
- C) Kesim – hukmni ifodalovchi, gapning asosiy belgilarini koʻrsatuvchi eng muhim boʻlak.
- D) Dehqon joʻxorini quritibdi, toʻqmoqlab, donini ajratib olibdi.

22. *Oq // saroy, ot // quloq, dev // qomat, havo // rang, borib // kelmoq, sher // dil, yer // yongʻoq, bayon // etmoq, erk // sevar.*

Ushbu juftliklardan qoʻshma soʻz hosil qilinganda nechitasi qoʻshib yoziladi?

- A) 5 tasi B) 8 tasi
- C) 6 tasi D) 7 tasi

23. *asal // ari, dev // qomat, Besh // ariq, jigar // rang, olib // kelmoq, sher // yurak, qoʻl // qop, bayon // etmoq, och // koʻz.*

Ushbu juftliklardan qoʻshma soʻz hosil qilinganda nechitasi qoʻshib yoziladi?

- A) 5 tasi B) 7 tasi
- C) 6 tasi D) 8 tasi

24. *Oʻz ruhing bilan ziddiyatga bormaslikning yagona yoʻli foydali mehnatdir.*

Ushbu gapda imloviy jihatdan xato yozilgan soʻz qaysi gap boʻlagi vazifasida kelgan?

- A) aniqlovchi B) toʻldiruvchi
- C) hol D) kesim

25. Qaysi javobda ergash gap qismida imloviy jihatdan xato yozilgan ega qatnashgan?

- A) Agar doʻstingga tushgan xafv seni ham tahlikaga solmasa, sen chinakam doʻst emassan.
- B) Podshox asirni afv etibdi, bu esa uning vaziriga yoqmabdi.
- C) Bu savollardan shu maʼlum boʻldiki, aybnoma uydurma emas ekan.
- D) Kimki astoydil harakat qilsa, muvafaqiyat uni, albatta, topib keladi.

26. Qaysi javobda bosh gap qismida imloviy jihatdan xato yozilgan aniqlovchi qatnashgan?

- A) Muvafaqiyatlarimizning siri shundaki, yoz boʻyi tinimsiz mehnat qildik.
- B) Odob shunday tojki, u forosatlilar boshini bezaydi.
- C) Bundan shu maʼlum boʻldiki, uydurma gapga hech kim ishonmaydi.
- D) Rejadagi zaril ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapman, sen boʻlsa dam olmoqchisan.

27. Qaysi javobda imloviy jihatdan xato yozilgan soʻz qatnashgan bogʻlangan qoʻshma gap berilgan?

- A) U qora aygʻirning chilvirini bolalarga tutqazdi-da, oʻzi dabdurustdan chollarning suhbatiga qoʻshildi.
- B) Biz voqea sodir boʻlgan joyga borishimiz va hammasini oʻz koʻzimiz bilan koʻrishimiz lozim.
- C) Bu savollardan shu malum boʻldiki, aybnoma uydurma emas ekan.
- D) Bu hol surinkali davom etdi va bola serjahl boʻlib qoldi.

28. Quyida berilgan soʻzlardan qaysilari toʻgʻri yozilgan?

- 1) xolvafurush, 2) hordiq, 3) xarom, 4) tuhfa, 5) muxtoj, 6) chehra.

- A) 1, 2, 5 B) 2, 3, 6
- C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5

29. Qaysi gapda imloviy jihatdan xato yozilgan soʻz aniqlovchi vazifasida kelgan?


- A) Xalq eʼzoi inson uchun eng oliy mukofat hisoblanadi.
- B) Bu masalada mutaxassislar fikriga tayanaylik.
- C) Tez-tez u yerga borib shogirtlarimga yoʻl-yoʻriqlar berib turaman.
- D) Ahmad otaning yuzi oqardi, oq oralagan choʻqqi saqoli xiyol titradi.

34. Qaysi javobdagi soʻzlarning barchasi imloviy jihatdan toʻgʻri yozilgan?

- A) telekoʻrsatuv, magistratura, dissertatsiya
- B) kompressor, komissiya, manitoring
- C) kordinata, bakalavr, vakum
- D) kakao, inkubator, fotoaparat

35. Qaysi javobdagi soʻzlar imloviy jihatdan toʻgʻri yozilgan?

- 1) mukofot; 2) tayziq; 3) taxlit; 4) dafatan;
- 5) favqulodda; 6) har chogʻ.



cross.UZ

39. Qaysi javobda to'ldiruvchi vazifasidagi so'z imlosida xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A) Shirin uyqudan voz kechib, kitoblarga do'st tutingan inson vaqtlar o'tib kamolotga erishadi.
- B) Sport bilan shug'illanish uchun har kuni bu yerga kelar edi.
- C) Bu kitoblarni manzilga olib borib berish to'rtoviga topshirilgan edi.
- D) Xalqimiz farovonligi uchun bu ezgu tushinchalarni hayotga tatbiq qilmog'imiz zarur.

40. Qaysi gapda imloviy jihatdan xatolik mavjud emas?

- A) Podsho vaziru a'yonlar davrasida otdan tushib, tog' bag'riga qarab yura boshlabdi.
- B) Maqtanayapti demang, cho'l havosi yaxshi!
- C) Yurtimizda 9-may Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanadi.
- D) Uning qattiq qo'rqanini ko'rib, gapirolmay, shoshkancha ko'chaga otildi.

41. Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

- A) Sizni suvdan o'tkazib qo'ymasam, menga bergan noningiz harom bo'ladi.
- B) Gapi to'g'rida, u tengi bolalar maktabga borishadi, uni esa «kichkina» deb xafa qilishadi.
- C) Oradan qancha zamonlar o'tgach, uning nomini faxr bilan tilga olayapmiz.
- D) U o'rmonda aylanib yurib chol va uning tinib-tinchimas nevarasini uchratipti.

42. Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

- A) Urganch Davlat universiteti qayerda joylashgan?
- B) Ko'pkarida ot boskan yigitni hozirgina shifoxonaga olib ketishdi.
- C) Choy qaynatib ichishni-da unutdi.
- D) Men bu yerda o't yoqayapman.

43. Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

- A) Yoshlarimizga ko'z tegmasin, ular bizdan ko'ra aqlliroq, bilimdonroq bo'lib o'sishayapti.
- B) Usta Binoqul shishib ketgan oyoqlarini sudrab bosgancha zorlanib inqillaydi.
- C) Qiz ertayu kech soatga qaraydi, daqiqalar sanaydi.
- D) Qo'rqqoq do'st dushmandan xafvlidir.

44. Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

- A) Oyog'i bilan tepkini boskach darvoza sekin ochildi.
- B) Boshqa o'rtoqlar ham sizni tavsiya qilishayapti.
- C) Qoradaryo va Norinning qo'shilishidan Sirdaryo hosil boladi.
- D) Oyim gapiryaptiyu, ko'zlarim o'qituvchimde edi.

45. Qaysi gapda ega vazifasidagi so'z imlosida xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A) Qora qozon qaynovdan qolmasin.
- B) Bu tushuncha xayotimizda yalovbardor bo'lmog'i lozim.
- C) Katta mushkillik qarshisida, u ojiz qolgan edi.
- D) Xushmuomilalik ham insonning ko'rki sanaladi.

46. Qaysi gapda imloviy xato yozilgan fe'l turkumiga oid so'z qatnashgan?

- A) U xamma bilan juda chiroyli muomala qilyapti-ya?!
- B) Bu o'qituvchi o'zining kichkina shogirtiga o'qish va yozishni o'rgatardi.
- C) Harakatlangani sari tanasiga issiqlik yugirib, o'zida quvvat sezibdi.
- D) Qalamla men to'qiyman qo'shiq, U – insonga, elga xizmatim.

47. Qaysi javobda imloviy xato yozilgan fe'l turkumiga oid so'z qatnashgan?

- A) Yigitning otasi kasmonavt edi.
U bu bilan faxrlanardi.
- B) Yolg'on bo'lsa, boq-chi ko'zimga?
- C) O'quvchilar yo'l bo'ylarida ko'chat ekishayapti.
- D) U juda bepisanlik bilan gapirardi.

48. Qaysi gapda ega vazifasidagi so'z imlosida xatolik kuzatiladi?

- A) Sizdan bu qilgan ishim uchun afv so'ramoqchiman.
- B) Hayotda rahm va shavqat borligiga xursand bo'lmog'imiz kerak.
- C) Sizga shuni aytib qo'ymoqchimanki, tafsifnomangiz yozib qo'yildi.
- D) Bu sohada ko'plab ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

49. Qaysi gapda ega vazifasidagi so'z imlosida xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A) Yangi uy bilan mukofatlanganlar quvonchi cheksiz edi.
- B) Bu ko'rsatuvni tomoshabinlar rosa olqishladi.
- C) Do'stim, ta'magirlik insonni qabohat sari yetaklaydi.
- D) Yot illatlarni jamiyatimizdan tak-tugi bilan sug'urib tashlaymiz.

50. Imloviy jihatdan xato yozilgan hol qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Hamshiraning xushmuomalalik bilan aytgan o'sha so'zlari uni anchagacha chuqur o'yga toldirib qo'ygandi.
- B) Qisqa vaqt ichida oliygohning o'quv binolari qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi.
- C) Yurtimiz yuksalishiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan ko'plab yurtdoshlarimiz munosib taqdirlandi.
- D) Otaxonning dovdirab, nima deyishni bilmay tutulib gapirganini ko'rgan yigit unga dalda bermoqchi bo'ldi.

51. Qaysi javobda hol vazifasidagi so'z imlosida xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A) Kotiba qiz otaxonga xushmuomilalik bilan gapirdi.
- B) Yigitlar xalqimiz farovonligi uchun sidqidildan mehnat qildilar.
- C) Sport bilan shug'ullanish uchun har kuni bu yerga kelar edi.
- D) Shirin uyqudan voz kechib, kitoblarga do'st tutingan inson vaqtlar o'tib kamolotga erishadi.

Leksikologiya

1. Qaysi javobdagi barcha so'zlar o'zaro sinonim bo'lgan yasama fe'llar hisoblanadi?

- A) tortiq, sovg'a, tuhfa
- B) qah-qah otmoq, hiringlamoq, kulmoq
- C) yugurmoq, chopmoq, yelmoq
- D) shivirlamoq, so'zlamoq, gapirmoq

2. Qaysi javobda sifat turkumiga oid o'zaro ma'nodosh so'zlar juftligi berilgan?

- A) tantiq – saxiy
- B) ozodlik – mustaqillik
- C) husn – go'zal
- D) chiroyli – suluv

3. Qaysi javobda ot turkumiga oid o'zaro ma'nodosh so'zlar juftligi berilgan?

- A) tantiqlik – saxiylik
- B) husn – go'zal
- C) sovg'a – tuhfa
- D) tabassum – yig'i

4. Qaysi javobda berilgan so'zlar juftligi o'zaro ma'nodosh emas?

- A) chopmoq – yelmoq
- B) husn – go'zal
- C) ayyor – makkor
- D) epchil – abjir

5. Qaysi javobdagi soʻzlar oʻzaro maʼnodoshlik hosil qila oladi?
- A) chiroy, suluv
B) abzal, ortiq
C) rostgoʻy, mehnatsevar
D) koʻnmoq, unamoq
6. Qaysi javobdagi soʻzlar oʻzaro maʼnodoshlik hosil qila oladi?
- A) ganch, xazina
B) dangasa, mehnatkash
C) husn, chiroyli
D) suluv, koʻrkam
7. Qaysi javobdagi soʻzlar oʻzaro maʼnodoshlik hosil qila olmaydi?
- A) obroʻ, nufuz
B) belgi, nishon
C) beadam, behisob
D) ganch, xazina
8. Qaysi javobdagi soʻzlar oʻzaro maʼnodoshlik hosil qila olmaydi?
- A) chiroy, suluv
B) subutsiz, betayin
C) ganj, xazina
D) bezak, ziynat
9. Qaysi javobdagi soʻz birikmasida feʼl bilan shakldosh boʻla oladigan soʻz qatnashgan?
- A) katta bogʻ
B) koʻm-koʻk oʻt
C) yaxshi soʻz
D) boʻsh joy
10. Qaysi javobdagi soʻz birikmasida feʼl bilan shakldosh boʻla oladigan soʻz qatnashgan?
- A) shirin oʻy
B) yomon soʻz
C) bugungi yumush
D) uzun boʻy
11. Qaysi javobda asosi omonim boʻlgan yasama soʻz berilgan?
- A) boʻydor
B) tomizmoq
C) oqimtir
D) yashirin
12. Qaysi javobda asosi omonim boʻlgan yasama soʻz berilgan?
- A) koʻzlamoq
B) otilmoq
C) boʻgʻma
D) chopiq
13. Qaysi javobda oʻzaro zid maʼnoli iboralar berilgan?
- A) doʻppisini osmonga otmoq, koʻkka koʻtarmoq
B) koʻkka koʻtarmoq, yerga urmoq
C) tepa sochi tikka boʻlmoq, qovogʻidan qor yogʻmoq
D) tilining uchida turmoq, koʻz qorachigʻiday asramoq
14. Qaysi javobda asosi omonim boʻlgan tub soʻz berilgan?
- A) oqizmoq
B) tuzlamoq
C) changimoq
D) kechikmoq
15. Qaysi javobdagi soʻzlar oʻzaro maʼnodosh boʻla olmaydi?
- A) ayon, aniq
B) koʻrk, chiroy
C) gavdali, norgʻul
D) mazali, lazzat
16. Qaysi javobda ot turkumiga oid soʻz bilan paronim boʻla oladigan birlik berilgan?
- A) yod
B) xam
C) bob
D) ahil
17. Qaysi javobda feʼl turkumiga oid soʻz bilan paronim boʻla oladigan birlik berilgan?
- A) urush
B) azim
C) yoqilgʻi
D) undash
18. Qaysi gapda ajratib koʻrsatilgan soʻzda metonimiya usulida maʼno koʻchgan?
- A) Unga hozir eshitguvchi quloq kerak edi, shu bois gapirishdan toʻxtamadi.
B) Sen oʻtkir zehnli bola ekansan-ku.
C) Qoʻzivoy chol anchadan beri samovarga chiqmay qoʻygan.
D) Siz koʻzoynakli kishidan keyin kirasiz.
19. Qaysi javobda olmosh turkumiga oid oʻzaro maʼnodosh soʻzlar qatori berilgan?
- A) begʻubor, sof, musaffo
B) hech kim, har bir, ana shu
C) kimdir, birov, allakim
D) picha, sal, ozgina

20. Qaysi javobdagi tasviriy ifodaning izohi to'g'ri emas?
- oq oltin – pilla
 - charm qo'lqop ustalari – bokschilar
 - yaylov bahodirlari – cho'ponlar
 - hayvonlar podshosi – sher
21. Qaysi javobdagi ajratib ko'rsatilgan so'zda metonimiya usuli orqali ma'no ko'chishi yuz bergan?
- Negadir ishtaham qochib ketdi.
 - Shamol kuchayib olovning tili yana ham uzunlashdi.
 - Bu g'arib bosh nimalarni ko'rmagan, jigarim.
 - Tez orada «Sohibqiron» sahna yuzini ko'radi.
22. Qaysi javobdagi ajratib ko'rsatilgan so'zda metonimiya usuli orqali ma'no ko'chishi yuz bergan?
- Yoqimli hid dimog'ini qitiqladi.
 - Olti oykim do'stlarim ham pana-panada, Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.
 - Buni eshitgan quloq nima deydi?
 - O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa, Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.
23. Qaysi javobdagi ajratib ko'rsatilgan so'zda sinekdoxa usuli orqali ma'no ko'chishi yuz bergan?
- Yoqimli hid dimog'ini qitiqladi.
 - Och nazarim tushar suratga.
 - Bir boshga bir o'lim.
 - «Nasaf» Toshkentdan g'alaba bilan qaytdi.
24. Qaysi javobdagi ajratib ko'rsatilgan so'zda metafora usuli orqali ma'no ko'chishi yuz bergan?
- Olma archayotganda qo'lini kesib oldi.
 - Negadir ishtaham qochib ketdi.
 - Dasturxonga qarang, ona qizim, noz-ne'matlardan yeb o'tiring.
 - Bu maxfiy sirni ishonchli og'iz orqali yetkazing.
25. Qaysi javobdagi ajratib ko'rsatilgan so'zda metafora usuli orqali ma'no ko'chishi yuz bergan?
- O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa, Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.
 - Kurash bo'yicha o'tkazilgan musobaqada Qashqadaryo birinchi o'rinni egalladi.
 - Inshoolloh, mehribon qo'llar sizni qo'llab yuborar.
 - Olti oykim do'stlarim ham pana-panada, Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.
26. Qaysi javobdagi ajratib ko'rsatilgan so'zda metafora usuli orqali ma'no ko'chishi yuz bergan?
- Albatta, yurtimizdagi bunday o'zgarishlarni ko'rgan ko'zlar xursand bo'ladi.
 - Har shanba «Muqimiy»da «Advokatlik osonmi?» dramasi qo'yilayotgan ekan.
 - Yanvarning o'n beshlarida butun qishloq to'g'on qurishga otlandi.
 - Mustaqillik tufayli millatning g'ururi, obro'-e'tibori o'sdi.
27. Qaysi javobda fe'l turkumiga oid ma'nodosh so'zlar qatori berilgan?
- chopmoq, yugurmoq, yelmoq
 - kelmoq, ketmoq
 - istak, xohish, orzu
 - bormoq, yurmoq, yozmoq
28. Qaysi javobda ot turkumiga oid ma'nodosh so'zlar qatori berilgan?
- yer, osmon
 - inoq, ahil
 - ma'no, mazmun
 - chopish, yugurish
29. Qaysi javobda sifat turkumiga oid so'z bilan paronim bo'la oladigan birlik berilgan?
- azm
 - xam
 - ahil
 - xiyla

30. *General stol yoniga kelib, tamaki qoldig'ini kuldonga tashladi.*

Ajratib ko'rsatilgan so'z bilan asosdosh bo'la oladigan so'z qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Qozon osilgan kulsiz o'choqqa ko'zi tushdi.
- B) Xatni o'qib, Abdurahmonovning kulcha yuziga qon yugurdi.
- C) Kulgi – misoli oftob: u inson yuzidan qish qahrini olib tashlaydi.
- D) Uning raso bo'y-basti, quralay ko'zlari, o'ng betidagi kulgichi ko'z o'ngimdan o'tdi.

31. *Qozon turgan kulsiz o'choqqa ko'zi tushdi.*

Ajratib ko'rsatilgan so'z bilan asosdosh bo'la oladigan so'z qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Stol ustidagi kuldon bir chetga olib qo'yildi.
- B) Kulgi – misoli oftob: u inson yuzidan qish qahrini olib tashlaydi.
- C) Xatni o'qib, Abdurahmonovning kulcha yuziga qon yugurdi.
- D) Uning raso bo'y-basti, quralay ko'zlari, o'ng betidagi kulgichi ko'z o'ngidan o'tdi.

32. Qaysi javobdagi gaplar juftligida ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'zaro shakldosh so'zlar hisoblanmaydi?

- A) Bir yil ichida yigitning bo'yi ancha o'sdi. Bog'dagi gullarning muattar bo'yi kishiga huzur bag'ishlaydi.
- B) Maktabda «O'tkir zehnilar» musobaqasi bo'lib o'tdi. Uning o'tkir boltasi bo'lsa-yu, shu qurigan daraxtni chopib tashlasa.
- C) Hech bo'lmaganidan ko'ra kech bo'lgani yaxshi. Bir qoshiq qonidan kech bu bechoraning.
- D) Raqib darvozasiga ketma-ket to'p kiritildi. Ayol stoldagi bir to'p xatni olib, ko'z yugurtirdi.

33. Qaysi javobdagi gaplar juftligida o'zaro asosdosh so'zlar qatnashmagan?

- A) Anhor yoqasida ikki echki o'tlab yurar edi. U har kuni sero't dalalarda qo'ylarini boqib kelardi.
- B) Cho'lboboning payvandlariga havas qilmaydigan bog'bon kam topiladi. Yigit tadbirkorligi tufayli yerli, suvli va bog'li mulkdorga aylanibdi.
- C) Bir kechik topish kerak daryodan o'tgani. Kechki shabada uning tanasiga huzur bag'ishlamoqda edi.
- D) «Ko'cha changitib yurgan yillaring ortda qoldi, bolam», – dedilar bobom. Yangi chiqqan oy dalani sovuq, xira, qandaydir changsimon nur bilan qoplagan edi.

34. Qaysi javobda o'z shakldoshi bilan o'zaro bixil turkumga oid bo'la oladigan so'z bilan ifodalangan ega qatnashgan?

- A) Ishga berilib ketganidan yuz-ko'ziga ko'cha changi yopishayotganini ham payqamas edi.
- B) Bu taxt sening avlodlaringga ham nasib etmaydi.
- C) Tanlovda bu tuman faxrli birinchi o'rinni egalladi.
- D) «Yoz o'tmoqda soz», – deya ko'chalarda chopib o'ynashardi.

35. *U boq'li poyabzal sotib olishni mo'ljallagan edi.*

Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan so'z bilan asosdosh bo'la oladigan so'z qaysi javobda qatnashmagan?

- A) Polvon belini belbog' bilan mahkam bog'ladi va ishga shaylandi.
- B) Bu voqeadan qanday xulosa chiqarishi uning aql-idrokiga bog'liq.
- C) Nodirjon echkini o'tloqqa bog'lab uyga qaytdi.
- D) Yigit tadbirkorligi tufayli yerli, suvli va bog'li mulkdorga aylanibdi.

36. Qaysi gapdagi barcha soʻzlarning asosi shakldoshlik xususiyatiga ega?
- A) Sen bir qoshiq qonidan kech bu bechoraning.
 - B) Topgan gul keltirar, topmagan – bir bogʻ piyoz.
 - C) Tushgacha qoplangan unlarni ortib, uyga ketishdi.
 - D) Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi.
37. Qaysi javobdagi gaplar juftligida oʻzaro asosdosh soʻzlar qatnashgan?
- A) Bir kechik topish kerak daryodan oʻtgani.
Kechki shabada uning tanasiga huzur bagʻishlamoqda edi.
 - B) «Koʻcha changitib yurgan yillaring ortda qoldi, bolam», – dedilar bobom.
U milliy madaniyatimiz tarixida mashhur changchi sifatida nom chiqargan edi.
 - C) Choʻlboboning payvandlariga havas qilmaydigan bogʻbon kam topiladi.
U bogʻli poyabzal sotib olishni moʻljallagan edi.
 - D) Anor butasimon mevali daraxtlar sirasiga kiradi.
Bolakay mevazor bogʻda aylanib yurdi.
38. Qaysi javobdagi gaplar juftligida oʻzaro asosdosh soʻzlar qatnashgan?
- A) Uning oʻtli nigohlari qarshisida hech narsa deya olmas edi.
Bolaligimni eslasam, oʻtloqda dumalab oʻynaganlarimiz yodimga tushadi.
 - B) Choʻlboboning payvandlariga havas qilmaydigan bogʻbon kam topiladi.
U bogʻli poyabzal sotib olishni moʻljallagan edi.
 - C) Tuzdonni stol ustiga keltirib qoʻydi.
Tuzsiz xamir tandirda turmas.
 - D) Yoshliging gʻanimat, bolam, oʻsib, un.
U yoshli koʻzlari bilan menga termilardi.
39. Qaysi gapdagi eganing asosi feʼl bilan shakldosh boʻla oladi?
- A) Bogʻbon yosh nihollarni avaylab parvarish qilar va ularning rivojlanishini sinchiklab kuzatar edi.
 - B) Kaftday kichkina hovlining bir chekkasidan oʻtgan anhor boʻyidagi tolzor uning sevimli maskani edi.
 - C) Birov suv topolmaydi ichgani, birov kechik topolmaydi kechgani.
 - D) Yozgi taʼtilda men badiiy kitoblar oʻqishni rejalashtirganman.
40. Qaysi javobdagi gaplar juftligida oʻzaro asosdosh soʻzlar qatnashmagan?
- A) Anor butasimon mevali daraxtlar sirasiga kiradi.
Bolakay mevazor bogʻda aylanib yurdi.
 - B) Bogʻda ishlayotganlar allaqachon tushlikka chiqishgan edi.
Salimjon tushki ovqatga doʻstini ham taklif qildi.
 - C) U eshikning chiroyli shisha tutqichini avaylabgina ushlab koʻrardi.
Oradan biroz vaqt oʻtgach xonaga tutqunni olib kirishdi.
 - D) Furqat oʻz vatanida turgʻun yashay olmadi.
Anjumanda turli millat vakillari ishtirok etayotgan edi.
41. Qaysi javobdagi gaplar juftligida oʻzaro asosdosh soʻzlar qatnashgan?
- A) Qovunning bir tilimini arang yedi.
Bechora tilsiz jonivor zoʻrgʻa chidab turardi.
 - B) Qishloqning chekkasida kattagina tutzor yastanib yotar edi.
Oradan biroz vaqt oʻtgach xonaga tutqunni olib kirishdi.
 - C) Bemor sogʻayish uchun astoydil harakat qildi.
Neʼmat akalarning ikkita sogʻin sigiri bor.
 - D) Shuni bilginki, bolali uy – bozor.
Bugun doʻstim bilan bolaligimizni eslab rosa kuldik.

42. Qaysi gapdagi yasama holning asosi fe'l bilan shakldosh bo'la oladi?
- A) O'rta asrlarda bandli qum soatlar urf bo'lgan edi.
 - B) U har doim o'sha tolzorda sayr qilishni yaxshi ko'rar edi.
 - C) Men yozgi ta'tilda badiiy kitoblar o'qishni rejalashtirganman.
 - D) U gapga qo'shilmay xafa bolib o'tirardi.
43. Qaysi gapda asosi sifat bilan shakldosh bo'la oladigan sodda yasama so'z qatnashgan?
- A) Chiroyli, do'mboq bola eshik oldida yotsirab turardi.
 - B) Unga hashamatli to'yning ham, qalinning ham, sepning ham keragi yo'q edi.
 - C) Rashid oqimga qarshi suzolmay qiynaldi.
 - D) Yozgi ta'tilda Asqad Muxtorning «Chinor» romanini o'qib chiqmoqchiman.
44. Qaysi gapda asosi sifat bilan shakldosh bo'la oladigan sodda yasama so'z qatnashgan?
- A) Amakimlarning bir nechta qo'ylari va sog'in sigirlari bor edi.
 - B) Sojida oqimtir rangli narsalarni yaxshi ko'radi.
 - C) O'tgan yilning yozida mana shu chiroyli imoratni qurganman.
 - D) Ahmad – endi yigirmaga kirgan, bo'ydor, kelishgan yigit.
45. Qaysi gapda asosi fe'l bilan shakldosh bo'la oladigan sodda yasama so'z qatnashgan?
- A) Faqat bir tilim handalak yedi-yu, issiq-issiq choy ichdi.
 - B) Rashid oqimga qarshi suzolmay qiynaldi.
 - C) Inson sog'lig'i hamma narsadan qimmat turadi.
 - D) Bu bo'ychan yigit Karima xolaning o'g'li ekan.
46. Qaysi gapda asosi fe'l bilan shakldosh bo'la oladigan sodda yasama so'z qatnashmagan?
- A) Chiroyli, do'mboq bola eshik oldida yotsirab turardi.
 - B) Mahalladagi o'rtoqlarim bilan bolalikdagi sho'xliklarimizni eslab maza qildik.
 - C) Faqat bir tilim handalak yedi-yu, issiq-issiq choy ichdi.
 - D) Inson sog'ligi hamma narsadan qimmat turadi.
47. Qaysi gapda asosi sifat turkumiga oid so'z bilan shakldosh bo'la oladigan sodda yasama so'z qatnashmagan?
- A) Jo'ra amakining ikkita sog'in sigiri bor edi.
 - B) Rashid oqimga qarshi suzolmay qiynaldi.
 - C) Bu o'ychan yigit Karima xolaning o'g'li ekan.
 - D) Bolalar birin-ketin yotoqlariga kirib ketdilar.
48. Qaysi gapda asosi ot turkumiga oid so'z bilan shakldosh bo'la oladigan sodda yasama so'z qatnashgan?
- A) Yozgi ta'tilda buvimnikida dam olmoqchiman.
 - B) Jarohati ochilib ketib, qonagani yaxshi bo'lmabdi.
 - C) Men kasal bo'lgan yigitni o'ylab juda kuyindim.
 - D) Ish qurollari sozlanib, hasharga shay qilib qo'yildi.
49. Qaysi gapda asosi ot turkumiga oid so'z bilan shakldosh bo'la oladigan sodda yasama so'z qatnashmagan?
- A) Bo'lib o'tgan voqea haqida yozma ma'lumot berildi.
 - B) Uning o'ng yuzidagi kulgichi o'ziga juda yarashar edi.
 - C) Qondoshlarim, qo'lni qo'lga berib mehnat qilmog'imiz kerak.
 - D) Eshikning o'yma naqshlari juda chiroyli.

Qaysi javobda berilgan soʻzlar oʻzaro asosdosh soʻzlar sanaladi?

- A) qondosh, qonamoq
- B) sogʻinmoq, sogʻaymoq
- C) tushlik, tushkun
- D) kuldon, kulgi

Qaysi javobdagi gaplar juftligida ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning asoslari oʻzaro shakldosh boʻla olmaydi?

- A) Bayram dasturxonini noz-neʼmatlarga toʻla.
Toʻlin oy gʻarbga tomon ogʻgan, hamma yoq sutday oppoq.
- B) Bu yilgi toshqin xavfi qishloqdagilarni oʻylantirib qoʻygan edi. Toshloq yoʻlda mashina juda qiynalib yurayotgan edi.
- C) Dildan chiqqan kulgi umrni uzaytiradi. U stol yoniga kelib, tamaki qoldigʻini kuldonga tashladi.
- D) Yigit qonavotgan jarohatini bogʻlab qoʻydi. Hakim bobo gʻoʻzalarni suvga qondirish uchun tinmay mehnat qildi.

Quyida berilganlardan asosi oʻz shakldoshi bilan oʻzaro bir xil turkumga oid boʻla oladigan yasama soʻzlarni aniqlang.

- 1) yogʻsiz; 2) boʻshamoq; 3) toychoq; 4) bogʻli.

- A) 2, 4
- B) 2, 3, 4
- C) 1, 3, 4
- D) 1, 3

Quyida berilganlardan qaysilari shakldoshlik xususiyatiga ega boʻlgan asosdan yasalgan shakldosh yasama soʻzlar sanaladi?

- 1) boʻsha; 2) oqish; 3) yozmoq; 4) toza; 5) kechik; 6) chopmoq.

- A) 1, 2, 5
- B) 1, 5
- C) 3, 4, 6
- D) 2, 3, 4, 5

54. Qaysi javobda oʻz shakldoshi bilan oʻzaro bir xil turkumga mansub boʻla oladigan asosdan yasalgan yasama soʻz bilan ifodalangan aniqlovchi qatnashgan?

- A) Yozgi taʼtilda buvimning yumushlariga yordam bermoqchiman.
- B) Shoir vatanida turgʻun yashay olmadi.
- C) Uchrashuvdan keyin mehmonlar toʻkin dasturxonga taklif qilindi.
- D) Poliz ekinlaridan boʻshagan yerlar shudgor qilindi.

55. Quyida berilganlardan hokim qismining asosi feʼl bilan shakldosh boʻla oladigan bitishuvli soʻz birikmalarini aniqlang.

- 1) katta qozonda; 2) qush ini; 3) bukchaygan tollar; 4) qovun tilimi; 5) otning dumi; 6) sogʻinchli salom.

- A) 1, 2, 4, 6
- B) 1, 3
- C) 3, 5
- D) 2, 3, 4

56. Quyida berilganlardan tobe qismining asosi feʼl bilan shakldosh boʻla oladigan soʻz bilan ifodalangan bitishuvli soʻz birikmalari koʻrsatilgan javobni aniqlang.

- 1) tol bargi; 2) bu tuzdon; 3) oʻychan odam; 4) tilshunos olim; 5) tutqich sindi; 6) toshqin daryo.

- A) 1, 2, 5, 6
- B) 3, 4
- C) 2, 4
- D) 1, 2, 3, 4

57. Qaysi javobdagi gaplar juftligida ajratib koʻrsatilgan soʻzlar oʻzaro shakldosh soʻzlar hisoblanmaydi?

- A) Rayhona kirlarni kir yuvish mashinasida yuvdi. // Guruhimizga koʻrsatgan yordami bilan Sardor ham ayblarini yuvdi.
- B) Tut xalq xojaligida eng koʻp foydalaniladigan daraxtlar sirasiga kiradi. // Oʻgʻlim, yaxshilarning etagini tut, adashmaysan.
- C) Biz yosh kadrlarni malaka oshirish uchun Yevropaga joʻnatdik. // Filmdagi eng yaxshi chiqqan kadrlarni koʻrsatdik.
- D) Argʻamchiga qil – quvvat. // Doniyor, sen uy vazifalarini oʻz vaqtida qil.

0. Onaxon bir zum toʻxtab, chorasizlikdan qiynalayotgan nabirasiga mehribonlik bilan dalda berdi.

Ushbu gapda qatnashgan yasama soʻzlar haqidagi toʻgʻri fikrni aniqlang.

- A) Gapda otdan yasalgan sodda yasama sifat qatnashgan.
- B) Gapda ravishdan yasalgan sodda yasama feʼl qatnashgan.
- C) Gapda sifatdan yasalgan sodda yasama feʼl qatnashgan.
- D) Gapda feʼldan yasalgan sodda yasama ot qatnashgan.

1. Hukmdor tortinchoq qora koʻzlari hamisha mungli boqadigan qizini juda eʼzozlar, doim holidan xabar olardi.

Ushbu gapda sodda yasama soʻzlar soni nechta?

- A) 6 ta B) 5 ta
- C) 4 ta D) 3 ta

2. Balki, u bugun uyiga vaqtliroq qaytar.

Ushbu gap haqida berilgan toʻgʻri maʼlumotlarni aniqlang.

- 1) bir oʻrinda feʼl nisbati qoʻshimchasi qatnashgan;
- 2) bir oʻrinda egalik qoʻshimchasi qatnashgan;
- 3) bir oʻrinda feʼlning munosabat shakli qoʻshimchasi qatnashgan;
- 4) 2 ta soʻz tarkibida ismning munosabat shakli qoʻshimchasi qatnashgan.

- A) 1, 4 B) 2, 3
- C) 1, 2 D) 3, 4

3. Yashash uchun foydali mehnat qilishni anglash insoniylikning birinchi shartidir.

Ushbu gapda soʻz yasovchi qoʻshimchalar soni nechta?

- A) 4 ta
- B) 5 ta
- C) 3 ta
- D) 6 ta

14. Shahar va qishloqlarda oʻzgarishlar roʻy bermoqda, bunyodkorlik ishlari avj olmoqda, chiroyli binolar qurilmoqda.

Ushbu gapda qatnashgan yasama soʻzlar haqidagi toʻgʻri maʼlumotni toping.

- A) Egalarning barchasi yasama soʻzlar bilan ifodalangan.
- B) Hollar yasama soʻzlar bilan ifodalangan.
- C) Aniqlovchilar yasama soʻzlar bilan ifodalangan.
- D) Kesimlarning barchasi yasama soʻzlar bilan ifodalangan.

15. Yashash uchun foydali mehnat qilishni anglash insoniylikning birinchi shartidir.

Ushbu gapda qatnashgan yasama soʻzlar haqidagi toʻgʻri maʼlumotni toping.

- A) Sodda yasama sifat feʼldan yasalgan.
- B) Feʼldan yasalgan ot qatnashgan.
- C) Sodda yasama feʼllar otdan yasalgan.
- D) Sondan yasalgan sifat qatnashgan.

16. Biz mustaqil Oʻzbekistonning farzandlarimiz. Bu yurtida yashashni biz oʻzimizga sharaf deb bilamiz.

Ushbu parchadagi ismlarga mansub soʻzlar tarkibidagi munosabat shakllari sonini aniqlang.

- A) 8 ta B) 9 ta C) 7 ta D) 6 ta

17. Qaysi javobdagi gaplar juftligida ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning har birida bittadan qoʻshimcha bor?

- A) Qizcha har kuni gullar tergani bogʻga borar edi. // U bu kitobni oʻqigani sotib oldi.
- B) Onaxon bu moyni idishchalarga solib villab saqlar edi. // Shamolda eshik taraqlab ochildi.
- C) Bu jannatmakon oʻlka – bizning vurtimiz. // Doʻstim, biz shu jasur bobolar avlodimiz.
- D) Bu daraxt, balki, kelgusi yil meva bogʻlar. // Ehtimol, uyiga yaqinligi uchun shu korxonada ishlar.

18. Qaysi javobdagi gaplar juftligida ajratib koʻrsatilgan misollarning har birida bittadan qoʻshimcha bor?
- A) Koʻzingizni yashnatadi bu bogʻlar. // Chin inson birovga yaxshilik koʻzlar.
 B) Biz mustaqil Oʻzbekiston farzandimiz. // Bizning maktabimiz yaqinda taʼmirlandi.
 C) Bu topshiriqni qanday bajargani esidan chiqmaydi. // Onaxon shu xabarni aytgani kelgan edi.
 D) Tantanada oʻnlab yurtdoshlarimiz ishtirok etishdi. // U baʼzan oylab qorasini koʻrsatmas edi.
19. *Keksayganingda rohatda yashashni orzu qilsang, yoshlikda tinimsiz ilm oʻrganishga harakat qil.*
 Ushbu gapda qatnashgan yasama soʻzlar haqidagi qaysi maʼlumot toʻgʻri emas?
- A) Toʻldiruvchi vazifasida kelgan yasama feʼl qatnashgan.
 B) Kesim vazifasida kelgan yasama feʼllar qatnashgan.
 C) Aniqllovchi vazifasida kelgan yasama ravish qatnashgan.
 D) Hol vazifasida kelgan yasama soʻzlar qatnashgan.
20. *Bilimli kishi zarur gapni soʻzlaydi, keraksizini aslo gapirmaydi.*
 Ushbu gapda qatnashgan yasama soʻzlar haqidagi qaysi maʼlumot toʻgʻri emas?
- A) Yasama soʻzlar 2 oʻrinda toʻldiruvchi vazifasida kelgan.
 B) Yasama soʻzning yasama soʻzga bogʻlanishi kuzatiladi.
 C) Yasama soʻzlar 2 oʻrinda kesim vazifasida kelgan.
 D) Yasama soʻzning aniqllovchi vazifasida kelishi kuzatiladi.
21. *Yoshlarimizni biliml, mushohadali, ijodkor va faol shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir.*
 Ushbu gapdagi soʻz yasovchi qoʻshimchalar soni nechta?
- A) 5 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 8 ta
22. *Zamonamiz yoshlari, siz shavkatli tariximizni qadrlashingiz, uni oʻz hissalarinigiz bilan boyitishingiz kerak.*
 Ushbu gapda qatnashgan yasama soʻzlar haqidagi toʻgʻri maʼlumotni toping.
- A) Feʼldan yasalgan ot qatnashgan.
 B) Sifatdan yasalgan ot qatnashgan.
 C) Otdan yasalgan sifat qatnashgan.
 D) Feʼldan yasalgan sifat qatnashgan.
23. Qaysi javobda maʼnoli qismlari asos + soʻz yasovchi + lugʻaviy shakl yasovchi + sintaktik shakl yasovchi tartibida joylashgan sifat turkumiga oid soʻz qatnashgan?
- A) Shuni bilingki, ilmlilarni butun dunyo olqishlaydi.
 B) Stol ustidagi guldonlarga pushti atirgullar solingan edi.
 C) Balki, oila baxtsizligidan shunday holat yuz bergandir.
 D) Boshqaruvchi, xonalarning kattarogʻini ularning jamoasiga bering.
24. Qaysi javobda maʼnoli qismlari asos + lugʻaviy shakl yasovchi + soʻz yasovchi + sintaktik shakl yasovchi tartibida joylashgan ot turkumiga oid soʻz qatnashgan?
- A) Abbos, parta ustidagi oʻchirgʻichni menga uzatib yuborin.
 B) Qishloqdagi doʻkonlarda oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va hattoki yoqilgʻi sotiladi.
 C) Qizgʻanchiqdan sen saxovat kutma.
 D) Koʻz-koʻz qilma, koʻz tegar, Maqtanchoqqa soʻz tegar.
25. *Tadbirimizga muhandislar, shifokorlar, oʻqituvchilar, hisobchilar, isteʼdodli qalamkashlar tashrif buyurishadi.*
 Ushbu gapda ismlar guruhiga mansub nechta yasama soʻz qatnashgan?
- A) 6 ta B) 5 ta
 C) 4 ta D) 3 ta

26. Qaysi javobda shakldoshiga ega boʻlgan asosdan yasalgan yasama soʻz berilgan?
A) tushirtirmoq B) changimoq
C) oqimtir D) davolamoq
27. *Tiniq osmon oʻzining bor goʻzalligi va malohatini cheksiz balandliklardan ulugʻvorlik bilan bizga koʻz-koʻz qilib turar edi.* Ushbu gapda qatnashgan sodda yasama soʻzlar sonini aniqlang.
A) 3 B) 5 C) 6 D) 4
28. *Hikmatni anglamoqning oʻzi bir hikmatdir.* Ushbu gapdagi ismning munosabat shaklini hosil qiluvchi qoʻshimchalar soni nechta?
A) 5 ta B) 4 ta C) 6 ta D) 3 ta
29. Qaysi javobdagi gaplarda ajratib koʻrsatilgan soʻzlar tarkibidagi qoʻshimchalar soni har ikkala soʻzda bir xil?
A) Kitob – bizning eng yaqin doʻstimiz.
Biz ham mana shu guruh vakilimiz.
B) Bu olimlar oʻnlab fanlarning rivojiga beqiyos hissa qoʻshganlar.
U qishloqdan villab saqlangan yilqi moyi topib keldi.
C) Barglarda ilinib qolgan tomchilar javhar singari yaltillaydi.
Yosh koʻzlarimdan tomchilar...
D) Koʻrmaganning koʻrgani qursin.
Men har haftada yaqinlarimni koʻrgani qishloqqa borib turaman.
30. Tarkibida ot, sifat va feʼl turkumiga oid yasama soʻzlar ishtirok etgan gapni aniqlang.
A) Ekinlar tomiriga qon yugurdi, soʻlgʻin yaproqlar asta jonlana boshladi.
B) Tongning tarovatli shamoli bir nafasgina goʻdaklik yillarini qaytarar emish.
C) U shuni angladiki, choʻl oʻzlashtirish, choʻlda ishlash bilimsizga qiyin ekan.
D) Egarining oltin bezaklari quyosh nurida tovlanayotgan boʻz otni yetaklab keldi.
31. *Bilimli kishi zarur gapni soʻzlaydi, keraksizini umuman gapirmaydi.* Ushbu gapda qatnashgan yasama soʻzlar haqidagi toʻgʻri maʼlumotni toping.
A) Yasama soʻzlar 2 oʻrinda toʻldiruvchi vazifasida kelgan.
B) Yasama soʻzlar 2 oʻrinda aniqlovchi vazifasida kelgan.
C) Yasama soʻzlar 2 oʻrinda hol vazifasida kelgan.
D) Yasama soʻzlar 2 oʻrinda kesim vazifasida kelgan.
32. *Biz pokiza zotlarning naslimiz, tomirlarimizda ularning pok qoni bor.* Ushbu gapda ismlarning munosabat shaklini hosil qiluvchi qoʻshimchalar soni nechta?
A) 8 ta B) 7 ta
C) 5 ta D) 6 ta

Morfologiya. Mustaqil soʻz turkumlari

1. Qaysi gapda sodda yasama holat ravishi ishtirok etgan?
A) Dushman bilan tortishayotganingizda ham mardlarcha fikr bildiring.
B) Ular asta-sekin koʻzdan oʻlislab borishardi, biz esa ularni kuzatib qoldik.
C) Olmaxon yerdan koʻra daraxtda yanada tezroq yuguradi.
D) Kentik oy choʻqqilar orasidan moʻralaydi, Jamila esa oyga termilib zavqlanardi.
2. *Barcha shodlik senga boʻlsin, bor sitam, zorlik menga,
Barcha dildorlik senga-yu, barcha xushtorlik menga.* Ushbu gapda olmoshning nechta maʼno turiga oid soʻzlar qatnashgan?
A) 5 ta
B) 2 ta
C) 3 ta
D) 4 ta

Ona tili va adabiyot

3. Qaysi javobda holat ravishlari berilgan?
- yugurib, harsillab, shoshib
 - arang, mardlarcha, jim
 - dir-dir, kuyinib, yumshoq
 - olg'a, qiynalib, ko'p
4. *Unsin qarshisiga yugurib chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko'risha ketdi.* Ushbu gapda nechta ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi qatnashgan?
- 2 ta
 - 4 ta
 - 1 ta
 - 3 ta
5. Qaysi gapda ish-harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma'nosini ifodalagan ko'makchi fe'l qatnashgan?
- Qishning yaqinlashganidan xabar beruvchi shamollar esa boshladi.
 - Pastda katta sokin bir daryo oqib yotardi.
 - O'g'illar cho'plarni osonlik bilan sindirib tashladilar.
 - Unutmangki, bu muammoni faqat hamjihatlikdagina hal qila olamiz.
6. Qaysi gapda yubormoq fe'li ko'makchi fe'l bo'lib kelmagan?
- Shunda ho'kiz shoxini yog'layotgan xojayinini suzib yuboribdi.
 - Ular yerni kovlab kirolmabdilar, lekin bir zumda allaqancha yerni o'yib yuboribdilar.
 - Otashkurak xo'rozga tegib, uni bir necha marotaba yumalatib yuboribdi.
 - Sinf rahbarimiz, Hasan aka, menga bildirmay G'anini uyimga yuboribdilar.
7. Quyidagi qaysi gap(lar)da yotmoq fe'li ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi tarkibida yetakchi fe'l bo'lib kelgan?
- Yorug', keng xonadagi karavotlarning birida qirq yoshlar chamasidagi ayol yotardi;
 - Atrof ko'm-ko'k bo'lib, yo'l chetida qoqigullar, lolalar, chuchmomalar qiyg'os ochilib yotar edi;
 - Bola chalaqancha yota olmay qiynaldi.
- 1, 3
 - 2
 - 2, 3
 - 3

Morfologiya. Mustaqil so'z turkumlari

8. Qaysi gapda ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi mavjud emas?
- Mix bolg'adan qutulaman deb, taxtaga kirib ketdi.
 - U boshlagan ishni chala tashlab qo'ya olmas edi.
 - Oshna, oy botib, yulduzlar birin-ketin so'na boshladi.
 - Hozir dolzarb payt, barcha yeng shimarib ishlamoqda.
9. Qaysi gapda birgalik nisbatidagi yasama fe'l qatnashgan?
- Otasining Dostonni ishlashga majbur etish uchun qilgan harakatlari natija bermadi.
 - Ish safari bilan ketgan Davron aka va Sodiq aka kecha Toshkentga kelishdi.
 - Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi.
 - Keyin yana ular doimgidek men haqimda gapirishdi.
10. Qaysi gapda orttirma nisbatdagi yasama fe'l qatnashgan?
- U behuda so'zlarni haddan ortiq ko'p gapirdi.
 - Keyin dasturxonni yig'ishtirayotgan xotiniga ham o'shqirdi.
 - Maydonda ot o'ynatayotgan ikki chavandoz ko'rindi.
 - Ariqchalarda tip-tiniq suvlar shildirab oqib yotardi.
11. Qaysi javobda uchta yasama fe'l qatnashgan?
- Qiz cholg'a yaqinlashib salom berdi. U loqaydgina alik oldi.
 - Dunyoda pok odamlar ko'paysa, nopok odamlar shunchalik kamayadi.
 - Usta temirni cho'g'ga solib bolg'alaydi, cho'zadi, yassilaydi.
 - Izg'irindan ko'zlar yoshlandi, oyoq ostidagi qor g'irchillaydi.

Morfologiya. Mustaqil soʻz turkumlari

12. Qaysi gapda fe'l + fe'l tipidagi qo'shma fe'l qatnashgan?
- A) Majnuntol suvga egilib, salom berayotir.
 - B) Oygul turishi bilan saroy charaqlab ketdi.
 - C) Xushxabar olib kelgan yigitga hamma quvonch bilan tikildi.
 - D) Kech kuz kelib barglar sarg'ayib to'kilmoqda.
13. Kesimi o'zlik nisbatidagi fe'l bilan ifodalangan gapni aniqlang.
- A) Sarvar manzilga tezroq yetib olish uchun o'ngga qayrildi.
 - B) G'oliblarga esdalik sovg'alari topshirildi.
 - C) Qiyg'os ochilgan paxtalarni ko'rib ko'zi quvnadi.
 - D) Bu bino tez fursatda qayta tiklandi.
14. Majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan kesim qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Kitobxonlarga esdalik uchun sovg'alar berildi.
 - B) Qizcha erkalanib onasining bo'yniga osildi.
 - C) Temuriylar davrida qayta tiklangan bu qadimiy obida hali-hanuz o'z salobatini yo'qotgani yo'q.
 - D) U ot tagiga to'kilgan bedalarni bir quchoq qilib supurib olib keldi.
15. Majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan kesim qatnashgan gapni aniqlang.
- A) O'zligini yo'qotgan xalq boshqa bir xalqqa qo'shilib ketadi.
 - B) Yuk orqalagan, og'ir qoplar ostida ikki bukilgan aravakashlar ko'rinar edi.
 - C) Bayram arafasida mahallamizda yangi to'yxona ochildi.
 - D) U qilgan ishlarini o'ylab, vijdon azobida qiynaldi.
16. Majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan kesim qatnashgan gapni aniqlang.
- A) To'kilsa manglay tering, Unumli bo'lur yering.
 - B) Shundan keyin kekxa qul Darxon zindonga tashlanadi.
 - C) Tandirdan endigina uzilgan nonning hidi bo'lakcha bo'ladi, albatta.
 - D) Umid – parvozga otlangan lochin, umidsizlik – oyoqqa bog'langan tosh.
17. Kesimi o'zlik nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan gapni aniqlang.
- A) Shu kuni kekxa qul Darxon zindonga tashlanadi.
 - B) Bu qadimiy obida temuriylar hukmronligi davrida qayta tiklangan edi.
 - C) Quyoshli kunlarda paxtalar qiyg'os ochildi.
 - D) Hozirgi kunda milliy xalq hunarmandchiligiga katta e'tibor berilmoqda.
18. O'zlik nisbatidagi fe'l bilan ifodalangan kesim qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Keldi ochilur chog'ing, O'zliging namoyon qil.
 - B) Oq va qora marvarid donachalari ajoyib shaklda ipga tizildi.
 - C) Shoir anchagacha uxlay olmay, ezgin xayollar girdobida qiynaldi.
 - D) O'rtada o'rnatilgan bo'ydor archaga rang-barang o'yinchoqlar osilgan edi.
19. *Bunda na g'am bor, na azob, unda yashash quvonchi, pok muhabbat, bitmas-tuganmas orzu va qudrat bor edi.*
Ushbu gapda nechta tub mavhum ot bor?
- A) 6 ta
 - B) 4 ta
 - C) 1 ta
 - D) 5 ta

20. Qaysi gapda o'zlik nisbatdagi fe'l qatnashgan?
- A) Bizning tumanimizda bir qancha sport inshootlari qurildi.
 B) Daraxtlarning so'nggi yaproqlari qishning ilk kunlarida to'kildi.
 C) Zangori ekran orqali «Qishloqdagi tengdoshim» ko'rsatuvi namoyish etildi.
 D) «Qanotli do'stlar» haqida film yaratildi.
21. Qaysi gapda -ir qo'shimchasi bilan hosil qilingan orttirma nisbatdagi fe'l qatnashgan?
- A) O'ta qat'iylik bilan keskin va uzoq gapirdi.
 B) – Yolg'on! Yolg'on! – deb baqirdi.
 C) Ishni bitirmoqqa kifoyat yaxshi.
 D) Choponiga cho'nqayib o'tirdi.
22. Qaysi gapda -ar qo'shimchasi bilan hosil qilingan orttirma nisbatdagi fe'l qatnashgan?
- A) Kampirning ko'zlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi.
 B) Ey volida, duolaring sharofatidan Olloh o'g'lingga ko'rish ne'matini qaytardi!
 C) Ko'klam. Butun mavjudot qaytadan yasharmoqda.
 D) O'roq mahali o'roqchilarga go'ja, ayron olib chiqardik.
23. ...domlaning ko'z qiri tushib qolarmikan degan niyatda astoydil xizmat qilishardi. Mehmonlar kechgacha taklif etilgan edi.
 Ushbu parchadagi fe'llar tarkibida qaysi nisbat qo'shimchalari qatnashgan?
- A) birgalik va o'zlik
 B) birgalik va majhul
 C) orttirma va majhul
 D) birgalik, orttirma va majhul
24. Qaysi gapda maqsad ravishdoshi qatnashgan?
- A) Xola, ukam qani, olib ketgani keldim.
 B) Tong otgach, yo'lga tushdik.
 C) Bo'ladigan savdoning tezroq bo'lgani yaxshi.
 D) Har kimning o'qigani o'ziga foyda.
25. *Or – bu o'ziga ep ko'rilmagan yoki yarashmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyaliq, uyat va nomus qilish tuyg'usidir.*
 Mazkur gapda fe'lning qaysi vazifa shakllari qatnashgan?
- A) sof fe'l, harakat nomi va ravishdosh
 B) harakat nomi va ravishdosh
 C) sifatosh va harakat nomi
 D) harakat nomi, sifatosh va ravishdosh
26. Qaysi javobda holat ravishi qatnashgan?
- A) Yo'lda ikkita chol sekin gaplashib kelishayotgandi.
 B) U jo'rttaga dugonasining jig'iga tega boshladi.
 C) Hushiga kelgan bemor qiynalib gapirardi.
 D) Sardor o'ylanib turgan do'stiga yaqinlashdi.
27. Qaysi javobda miqdor-daraja ravishi qatnashgan?
- A) G'afurjon tashqariga chiqib boydan ketishga izn so'radi.
 B) U raisga muammoni yotig'i bilan tushuntirdi.
 C) Bo'ying sal cho'zilsin, duradgorga shogirdlikka beraman.
 D) Bugun bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda olib kelindi.
28. Qaysi javobda miqdor-daraja ravishi qatnashgan?
- A) Keyin bozorga olib boribdi.
 B) Halima ta'tilda ham ko'p o'qishni kanda qilmadi.
 C) Uzoqdan bir ayol kela boshlabdi.
 D) Bir kishi uni to'xtovsiz chaqirib kelyapti.

29. Qaysi javobda ravish qatnashgan?

- A) Soʻnggi pushaymon – oʻzingga dushman.
- B) Itning akillashidan choʻchib uygʻonib ketdim.
- C) Mana mavsum ham oxirlab qoldi. Mashina terimi tugay deb turibdi.
- D) Ular hozircha kovlab kirolmabdilar, lekin allaqancha yerni oʻyib yuboribdilar.

30. Qaysi javobda oʻzlik nisbatidagi feʼllar berilgan?

- A) jimirlamoq, silkinmoq
- B) koʻrinmoq, kiyinmoq
- C) taralmoq, yiqitmoq
- D) oʻylanmoq, sargʻaymoq

31. Qaysi javobda yasama holat feʼli berilgan?

- A) tishlamoq
- B) soʻlmoq
- C) koʻkarmoq
- D) gapirmoq

32. Qaysi javobda soʻroq olmoshi qatnashgan?

- A) Toshkentning qayeriga qaramang, hashamatli binolar qad rostlamoqda.
- B) Tong otmoqda. Qishloq allaqachon uygʻongan.
- C) Quruq gapning oʻzi hech qachon loʻnda dalil boʻla olmaydi.
- D) Nazira opa yuzlarida qandaydir tabassum bilan qutini tita boshladi.

33. Majhul nisbatdagi feʼl qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Yoʻl boʻyidagi rang-barang gullar qiygʻos ochilgan edi.
- B) Qizcha erkalanib onasining boʻyniga osildi.
- C) Kitobxonlarga esdalik uchun sovgʻalar berildi.
- D) Shoir anchagacha uxlay olmay, ezgin xayollar girdobida qiynaldi.

34. Majhul nisbatdagi feʼl qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Abror yuklarni yuqoriga chiqarishga qiynaldi.
- B) U kuni bilan bosh koʻtarmay shu ishni bitirdi.
- C) Gʻoliblarga esdalik sovgʻalari topshirildi.
- D) Elektr simlariga qaldirgʻochlar tizilib oʻtirardi.

35. Orttirma nisbatdagi feʼl qatnashgan gapni aniqlang.

- A) U kuni bilan bosh koʻtarmay shu ishni bitirdi.
- B) Gʻoliblarga esdalik sovgʻalari topshirildi.
- C) Biz ertadan kechgacha gavronlar ichida koʻmilib savat toʻqirdik.
- D) Muhokama qilsangiz, tushunchangiz yanada boyirdi.

36. Qaysi gapda olmoshning maʼnosiga koʻra toʻrt turi qatnashgan?

- A) Sen shuni hech qachon yodingdan chiqarmaki, yillar oʻtgan sari er-xotin oltin va gavharga aylanib boradi.
- B) Har qaysi millatning oʻziga xos maʼnaviyatini yuksaltirishda oilaning oʻrni va taʼsiri beqiyosdir.
- C) Har birimiz oʻz ustimizda doimo ishlab, butun jamiyatimiz uchun foydali ishlar qilishimiz darkor.
- D) Hamma gapdan, hatto mening hayotimdan ham, xabardor boʻlgan mana bu yigit kim?

37. Qaysi gapda feʼldan yasalgan sifat bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan?

- A) U begʻubor yaylov havosida ulgʻaygan kamgap, lekin qaysargina bir bola edi.
- B) Ogʻir jarohat tufayli qiynalayotgan yigitga doktor tezda yordam koʻrsatdi.
- C) Derazaning ochiq tabaqasidan mayin shamol kirib turardi.
- D) Shogirdim Aminjon, oʻzi yosh boʻlsa ham, juda pishiq, ogʻir, gʻayratli.

Ona tili va adabiyot

38. *Bostirib kelayotgan qo'shinni to'xtatish, mag'lubiyatni zafarga aylantirish va mamlakatni qutqarib qolish uchun goho o'rnida aytilgan birgina so'z ham kifoya bo'lgan.*
Ushbu gapda majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan aniqlovchi qaysi gap bo'lagini aniqlab kelgan?
- A) to'ldiruvchini B) egani
C) aniqlovchini D) kesimni
39. Tarkibida sifatdan yasalgan sodda yasama ravish qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Yarim tunda ko'zi ilingan ayol tong saharlab junjikib uyg'onib ketdi, osmon oqarib kelardi.
B) U sevinchini ichiga sig'dirolmay hamma bilan qadrdonlarcha ko'risha boshladi.
C) Onaxon Mutribni pinhoni bir mehr bilan suyadi, unga hamisha qalban intiladi.
D) G'ulomjon keyingi vaqtlarida tanholikni yoqtiradigan bo'lib qoldi.
40. *Shunchaki sevilmoq – baxtiqarolik. To'la tole uchun bu kemtik, bu kam. Mening qalbim shunday sevgiga molik: Bir charsillab yonay, so'ngra so'nsam ham.*
Ushbu she'riy parchada qatnashgan yasama fe'l qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?
- A) kesim B) ega
C) hol D) aniqlovchi
41. *Shunchaki sevilmoq – baxtiqarolik. To'la tole uchun bu kemtik, bu kam. Mening qalbim shunday sevgiga molik: Bir charsillab yonay, so'ngra so'nsam ham.*
Ushbu she'riy parchada qatnashgan majhul nisbatdagi fe'l qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?
- A) aniqlovchi B) kesim
C) hol D) ega

Morfologiya. Mustaqil so'z turkumlari

42. Qaysi gapda kesim vazifasida kelgan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan?
- A) El suygan xonanda o'zgacha qiyofada televideniya chiqar edi.
B) So'zga chiqqan Sodiqjon domla shogirdi haqida faxrlanib gapirardilar.
C) O'yin-kulgi, askiya yarim kechagacha cho'zilib ketdi.
D) Uyiga javob beraylik, o'n besh-yigirma kunga borib kelsin.
43. *U o'ziga hayratomuz tikila boshlagan Oqbo'yinga boshini u yon-bu yon burib qarab qo'yadi.*
Mazkur gapdagi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri?
- A) Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari har xil gap bo'lagi vazifasida kelgan.
B) Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari to'ldiruvchi va aniqlovchiga tobelangan.
C) Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridagi yetakchi fe'llar yasama so'zlar hisoblanadi.
D) Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridagi ko'makchi fe'llar yasama so'zlar hisoblanadi.
44. Qaysi gapda yetakchi fe'l qismi qo'shma fe'l bo'lgan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qatnashgan?
- A) Do'stim, ko'rgan film va spektakllaringiz haqida hikoya qilib bering.
B) Bu gapni eshitib, Bahromning ko'zi charaqlab ochilib ketdi.
C) Ba'zan Mehrixonlar oilasiga ham borib kelardi.
D) Sodiqjon, o'rtog'ingizga mavzuni aytib berib turing.
45. Ega vazifasida kelgan juft fe'l qatnashgan gapni toping.
- A) O'yqizning shunchalik yelib-yugurishi ham umuman foyda bermadi.
B) Yosh Hakima boshqa o'rtoqlaridan qolmaslik uchun qizarib-bo'zarib ishlardi.
C) Konspekt daftarini olib, o'sha yerda ko'chiraman-qo'yaman.
D) Tog'asining qo'llab-quvvatlashi tufayli u tijoratda ulkan yutuqqa erishgandi.

6. *Hamma qushlar baland ovozda yayrab-yayrab, toʻlib-toshib sayrashmoqda.* Mazkur gapda qatnashgan feʼllar haqidagi toʻgʻri maʼlumotni toping.

- A) Gapda feʼning tuzilishiga koʻra toʻrtta turi qatnashgan.
- B) Gapda ham tub, ham yasama feʼllar qatnashgan.
- C) Gapda ham boʻlishli, ham boʻlishsiz feʼllar qatnashgan.
- D) Gapda feʼllar hol va kesim vazifasini bajargan.

17. Qaysi gapda aniqllovchi vazifasini bajargan oʻzlik nisbatidagi feʼl qatnashgan?

- A) Taklif etilgan mehmonlarning ayrimlari hali kelmadi.
- B) Lagan-tovoqning bir-biriga teggan tovushi eshitilib turardi.
- C) Halima har doim juda ozoda kiyinadi.
- D) Yechishga qiynalgan masalangni menga koʻrsat.

48. *Men ikkoviga uchtadan hil-hil pishgan shaftoli berdim.*

Mazkur gapda qatnashgan taqsim son haqidagi qaysi maʼlumot toʻgʻri?

- A) Taqsim son qoʻshimchasi tarkibida lab undoshi ishtirok etgan.
- B) Taqsim son tarkibida faqat jarangli undoshlar ishtirok etgan.
- C) Taqsim son imlosida bir unlining tushib qolishi kuzatiladi.
- D) Taqsim son asosi yopiq boʻgʻindan iborat.

49. Qaysi gapda toʻldiruvchi vazifasida kelgan harakat nomlari qatnashgan?

- A) Eh, qizaloq, bilmaysan-da, oʻqishning foydasi koʻp!
- B) Alisher uyga kirishi bilan qolganlar jim boʻlishdi.
- C) Bu xalqni yaxshiroq bilmoq uchun uning urf-odatlarini bilan tanishdim.
- D) Sidiqjon borishni ham, qaytishni ham bilmay qoldi.

50. *Alisher uyga kirishi bilan qolganlar jim boʻlishdi.*

Mazkur gapda feʼning otga xoslangan vazifa shakli qaysi gap boʻlagi vazifasida kelgan?

- A) aniqllovchi
- B) hol
- C) ega
- D) kesim

51. *Bilmagandan bilgan yaxshi, toʻgʻri ishni qilgan yaxshi.*

Ushbu gapdagi sifat-doshlar qaysi gap boʻlamlari vazifasida kelgan?

- A) hol va aniqllovchi
- B) toʻldiruvchi va kesim
- C) aniqllovchi va ega
- D) toʻldiruvchi va ega

52. Qaysi javobda toʻldiruvchi vazifasida kelgan jamlovchi son qatnashgan?

- A) Ishchilardan ikkitasini uzoq viloyatga ish safariga joʻnating.
- B) Ularning ikkovi bilan ham alohida-alohida gaplashib qoʻyaman.
- C) Shundan keyin uchalasi oʻrmonda doʻstona yashay boshladi.
- D) Azim har yelkasiga toʻrttadan odam sigʻadigan yigit boʻlibdi.

53. Qaysi javobda feʼl nisbatlarining barcha turida qoʻllana oladigan feʼllar qatori berilgan?

- A) koʻrmoq, qaytmoq, chaqirmoq
- B) boʻyamoq, kiymoq, osmoq
- C) yuvmoq, quvonmoq, uxlamoq
- D) shovullamoq, kiymoq, aytmoq

54. Qaysi javobda otlashgan sonlar toʻldiruvchi vazifasida kelgan?

- A) Beshovining ham fikri bir yerdan chiqdi.
- B) Toʻqqizida boʻlmagan aql toʻqsonida ham boʻlmas.
- C) Oltovlon ola boʻlsa, ogʻzidagin oldirar.
- D) Tayogʻi yoʻgʻon birni urar, soʻzi yoʻgʻon mingni urar.

55. Men doim o'zimni o'zim tergayman:
«Maslahatlarim yetarlicha to'g'rimikin?
Do'stlarimga yetarlicha sadoqatlimanmi?»
Mazkur parchadagi otlar qaysi bo'lak
vazifasida kelgan?
- A) ega, hol
 - B) ega, to'ldiruvchi
 - C) to'ldiruvchi, kesim
 - D) ega, aniqlovchi
56. Qaysi javobda yasama holat ravishi bilan
ifodalangan hol qatnashgan?
- A) Chol va kampir amallab uyga yetib
olishibdi.
 - B) U o'z xatti-harakati va fidokorona
mehnati bilan xalqqa tanilgan.
 - C) Do'stona yig'inlar ham munosabatlarni
mustahkamlab turuvchi vositalardan
biridir.
 - D) U barcha qiyinchiliklarni mardlarcha
yengib o'tdi.
57. Qaysi javobda to'ldiruvchi vazifasida kelgan
yasama narsa oti qatnashgan?
- A) Kissasida yarimta o'chirg'ichi va kecha
ochgan qalami bor ekan.
 - B) G'ildiraklarning bir maromda taraqlab,
tebranishidan ko'zim ilinibdi.
 - C) Qovurdoq antiqa bo'lgan ekan, ochig'ini
aytsam, bunaqa shirin go'shtni umrimda
yemagan edim.
 - D) Eshikni ochishim bilan dadam qo'lidagi
gazetasini, oyim supurgini tashlab yubordi.
58. Qaysi gapda fe'l nisbatlarining ikki turi
qo'llangan?
- A) Giloslar ostidagi panjaralari ko'k bo'yoq
bilan sirlangan yog'och karavotda uxlab
yotardi.
 - B) Hovliga suvlar sepilgan, xontaxta atrofiga
duxoba ko'rpachalar to'shalgan.
 - C) Bir kuni chol bechora qo'li titrab, osh
suzib berilgan kosani tushirib sindiribdi.
 - D) Shamol toy ekan, kuchga boy ekan,
yengil ko'charkan, ko'kka ucharkan.

59. Qaysi gapda aniq va o'zlik nisbatdagi fe'l
qatnashgan?
- A) Ular yashikdagi shaftolining ezilganla
ajratib bolalarga berishdi.
 - B) Qor qalin yog'ayotgani uchun atrof
zo'rg'a ko'rinar edi.
 - C) Ular yana besh qadam bosishgach, o'z
labiga kelishdi.
 - D) Hovliga suvlar sepilgan, xontaxta
atrofiga duxoba ko'rpachalar to'shalga
60. Qaysi gapda majhul nisbatdagi va birgalik
nisbatidagi fe'llar qatnashgan?
- A) Ozoda gilamlar to'shalgan past-balan
chorpoyalar ustida odamlar choy ichish
ish yuzasidan maslahat qilishadi.
 - B) Botayotgan quyoshning horg'in nuri
qorli tog' cho'qqisini, uning tepasida
uvadaday osilib turgan bulutni bir lah
qizartirdi-da, so'ndi.
 - C) Ko'zni quvnatadigan gulzor yonidagi
yam-yashil daraxt tagiga qo'yilgan
kattagina so'rida miriqib dam olish
mumkin.
 - D) Bolalar uni yaxshi ko'rishib, unga
yordam berishibdi.
61. Qaysi javobda fe'l nisbatlarining ikki turi
qatnashgan?
- A) Biror mamlakatda jabr-zulm, fisq-faso
kuchayib ketssa, podshoh adolatli siyos
bilan zulmning ildizini yo'qotishi lozin
 - B) Mehmonlar qorovulning qistashiga
qaramay ichkariga kirishmadi.
 - C) Men yashikdagi shaftolilarni o'ynab
yurgan bolalarga berdim.
 - D) Hovliga suvlar sepilgan, xontaxta
atrofiga duxoba ko'rpachalar to'shalga
62. Quyida berilgan qaysi fe'llarning asosida
ifodalangan o'timli-o'timsizlik ma'nosi
nisbat qo'shimchasi ta'sirida o'zgargan?
- 1) ko'rsatmoq; 2) ajratmoq; 3) qiynalmoq;
 - 4) o'qitmoq; 5) tomizmoq; 6) supurishmoq
- A) 2, 3, 5
 - B) 2, 3, 4, 5
 - C) 1, 4, 5, 6
 - D) 1, 4, 6

63. Qaysi javobda olmosh oʻzi ishora qilgan soʻz bilan oʻzaro bir xil gap boʻlagi vazifasini bajargan?

- A) Togʻam – tajribali shifokor. Ular koʻp insonlarning hayotini saqlab qolganlar.
- B) Haqiqiy shoir oʻz tuygʻularining tarjimonidir.
- C) Yigitcha qoʻrquvdan dir-dir titrar, uning lablari pir-pir uchar edi.
- D) Kitoblar – insoniyatning eng bebaho maʼnaviy mulki. Ulardan hamisha foydalanishimiz mumkin.

64. *U bilimi va isteʼdodi tufayli fan-ternika yutuqlari koʻrgazmasida oltin medalni qoʻlga kiritdi.*

Ushbu gapdagi sodda yasama soʻzlar haqida berilgan toʻgʻri maʼlumotni aniqlang.

- A) Yasama soʻzlarning barchasi feʼldan yasalgan.
- B) Ushbu gapda ot va sifat turkumiga oid yasama soʻzlar qatnashgan.
- C) Yasama soʻzlar ega va aniqlovchi vazifasini bajargan.
- D) Ushbu gapdagi yasama otlarning barchasi oʻrin-joy otlariga mansub.

65. Qaysi gapda ega vazifasida kelgan belgilash olmoshi qatnashgan?

- A) Agar otaxon guzardan hassasini doʻqillatib oʻtib qolsa, hamma barobar qalqib turardi va to oʻtib ketguncha taʼzim qilardi.
- B) Har birining navkarlari oʻzlariga qarashli yuklarni tuya qoʻshilgan ogʻir aravalarga ortib kelmoqda edilar.
- C) Shu tariqa hech kim hech qachon adashib ketmas, hamma ishtirokchilar sahnaga oʻz vaqtida chiqardi.
- D) Har qaysi millatning oʻziga xos maʼnaviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning oʻrni va taʼsiri beqiyosdir.

66. Qaysi javobdagi olmoshlar haqida berilgan maʼlumot toʻgʻri emas?

- A) Koʻrsatish olmoshlariga egalik va joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi qoʻshimchalari qoʻshilganda tovush orttirilishi kuzatiladi.
- B) Soʻroq olmoshlariga alla- yoki -dir qoʻshimchasini qoʻshish yoʻli bilan hosil qilingan olmoshlar boʻlishsizlik olmoshlari hisoblanadi.
- C) Toʻpdan ajratilgan yoki jamlab koʻrsatilgan shaxs, narsa, belgi, harakat-holatlarni ifodalaydigan olmoshlar belgilash olmoshlari sanaladi.
- D) Uch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmoshlar kishilik olmoshlari hisoblanadi. Ayrim kishilik olmoshlariga -ni, -ning, -niki qoʻshimchalari qoʻshilganda tovush tushishi kuzatiladi.

67. Qaysi javobda oʻzaro bir xil turkumga oid soʻzlar bilan ifodalangan uyushiq ravish holi qatnashgan?

- A) U hayajon bilan, tez-tez, boʻgʻilib soʻzlar edi.
- B) Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, boʻgʻotlarda chumchuqlar chirqillashadi.
- C) Podsho goh kulib, goh jiddiy, goh oʻy bilan quloq soldi.
- D) Qush goh koʻtarilib, goh pastlab bir joyda uchib turdi.

68. Qaysi javobda oʻzi ishora qilgan soʻz bilan oʻzaro bir xil gap boʻlagi vazifasini bajargan olmosh qatnashgan?

- A) Vatan sajdagoh kabi muqaddas sanaladi. Uni hamisha asrab-avaylaymiz.
- B) Doʻstimdan juda minnatdorman: undan irodali boʻlishni oʻrgandim.
- C) Kitoblar – insoniyatning eng bebaho maʼnaviy mulki. Ulardan hamisha foydalanishimiz mumkin.
- D) Yigitning lablari pir-pir uchar edi, u qoʻrquvdan atrofga alanglar edi.

69. *Kitoblar – insoniyatning eng bebaho ma'naviy mulki, mislsiz xazinasi. Ulardan har birimiz foydalanishimiz, aqlimizni xohlaganimizcha ularning dur-u javohirlari bilan to'ldirishimiz mumkin.*

Ushbu parchada qatnashgan olmoshlarga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Ushbu parchadagi olmoshlarning to'ldiruvchi vazifasidagi so'zga ishora qilishi kuzatiladi.
- B) Ushbu parchadagi olmoshlar to'ldiruvchi va hol vazifasini bajargan.
- C) Ushbu parchadagi olmoshlarning barchasi tuzilishiga ko'ra o'zaro bir turga oiddir.
- D) Ushbu parchadagi olmoshlar olmoshning ikki ma'noviy turiga oiddir.

70. *Shu sevinch ikkovlariga ham kuch-g'ayrat, ham dadillik baxsh etardi.*

Mazkur gapda qatnashgan mavhum otlar haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?

- A) Gapdagi barcha mavhum otlar hokim qismga bitishuv usulida birikkan.
- B) Gapdagi mavhum otlar otlarning tuzilishiga ko'ra ikki turiga oiddir.
- C) Gapdagi mavhum otlar ikki xil gap bo'lagi vazifasida kelgan.
- D) Gapdagi yasama mavhum otlar har xil turkumga oid so'zdan yasalgan.

71. *Biroz yurishgandan so'ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so'rabdilar.* Ushbu gapda qatnashgan fe'llar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Gapdagi barcha fe'llar o'timsiz fe'llar sanaladi.
- B) Gapda fe'l nisbatlarining ikki turi qatnashgan.
- C) Gapdagi barcha fe'llar tub fe'llar sanaladi.
- D) Gapda fe'l vazifa shakllarining ikki turi qatnashgan.

72. *Nafis chayqaladi bir tup na'matak Yuksakda shamolning belanchagida, Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul, Vigor-la o'shshaygan qoya labida.* Ushbu she'riy parchada qatnashgan fe'llar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Ushbu gapda barcha fe'llar o'timsiz fe'llar sanaladi.
- B) Ushbu gapda fe'l vazifa shakllarining to'rt turi qatnashgan.
- C) Ushbu gapda fe'l nisbatlarining ikki turi qatnashgan.
- D) Ushbu gapdagi barcha fe'llar sodda yasama fe'llar sanaladi.

73. *U gilolar ostiga qo'yilgan panjaralari ko'k bo'yoq bilan sirlangan katta yog'och karavotda yonboshlab o'tirar edi.*

Ushbu gapda qatnashgan fe'llarga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Ushbu gapda fe'l vazifa shakllarining faqat bir turi qatnashgan.
- B) Ushbu gapda o'timli va o'timsiz fe'llar qatnashgan.
- C) Ushbu gapda fe'l nisbatlarining ikki turi qatnashgan.
- D) Ushbu gapdagi barcha fe'llar sodda yasama fe'llar sanaladi.

74. *Haqiqat tikanli gulga o'xshaydi, shuning uchun ham u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi.*

Ushbu gapda qatnashgan fe'llarga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Ushbu gapda fe'l nisbatlarining ikki turi qatnashgan.
- B) Ushbu gapdagi barcha fe'llar o'timsiz fe'llar sanaladi.
- C) Ushbu gapdagi barcha fe'llar sodda tub fe'llar sanaladi.
- D) Ushbu gapda fe'l vazifa shakllarining ikki turigagina oid fe'llar qatnashgan.

75. *Haqiqat tikanli gulga oʻxshaydi, shuning uchun ham u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi.*

Ushbu gapda qatnashgan feʼllarga oid qaysi maʼlumot toʻgʻri emas?

- A) Ushbu gapda oʻtimli va oʻtimsiz feʼllar qatnashgan.
- B) Ushbu gapdagi tobe bogʻlanishda feʼlning feʼlga bogʻlanishi kuzatiladi.
- C) Ushbu gapdagi barcha feʼllar tobe bogʻlanishlarda faqat hokim qism vazifasini bajargan.
- D) Ushbu gapda feʼlning otga bogʻlanishi kuzatiladi.

76. *Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi.*

Ushbu gapda ishtirok etgan otlarga oid toʻgʻri maʼlumotni aniqlang.

- A) Ushbu gapdagi otlar aniqlovchi, ega, toʻldiruvchi vazifasini bajargan.
- B) Ushbu gapdagi barcha otlar mavhum otlar sanaladi.
- C) Ushbu gapdagi soʻz birikmalarida yasama otlar hokim qism va tobe qism vazifasini bajargan.
- D) Ushbu gapda tub va yasama otlarning qatnashishi kuzatiladi.

77. *Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi.*

Ushbu gapda ishtirok etgan otlarga oid qaysi maʼlumot toʻgʻri emas?

- A) Ushbu gapda aniq va mavhum otlar qatnashgan.
- B) Ushbu gapdagi barcha otlar tuzilishiga koʻra oʻzaro bir turga oid hisoblanadi.
- C) Ushbu gapdagi soʻz birikmalarida hokim qism vazifasini bajargan ot qatnashgan.
- D) Ushbu gapdagi otlar ega va toʻldiruvchi vazifasini bajargan.

78. *Hayot goʻzal, hayot maroqli, Shuning uchun erka koʻngil shod.*

Ushbu sheʼriy parchada qatnashgan sifatlar haqidagi qaysi fikr toʻgʻri emas?

- A) Ot turkumidan yasalgan asliy sifat ishtirok etgan.
- B) Tub va yasama sifatlar ishtirok etgan.
- C) Aniqlovchi vazifasida qoʻllangan yasama sifat ishtirok etgan.
- D) Kesim vazifasini bajargan sifatlar ishtirok etgan.

79. *Hayot goʻzal, hayot maroqli, Shuning uchun erka koʻngil shod.*

Ushbu sheʼriy parchada qatnashgan sifatlar haqidagi qaysi fikr toʻgʻri?

- A) Asliy va nisbiy yasama sifatlar ishtirok etgan.
- B) Tub sifatlar tobe bogʻlanishlarda faqat hokim qism vazifasida qoʻllangan.
- C) Tub va yasama asliy sifatlar ishtirok etgan.
- D) Ikkinchi darajali boʻlak vazifasida qoʻllangan nisbiy sifat ishtirok etgan.

80. *Hayot goʻzal, hayot maroqli, Shuning uchun erka koʻngil shod.*

Ushbu sheʼriy parchada qatnashgan sifatlar haqidagi qaysi maʼlumot toʻgʻri emas?

- A) Otdan yasalgan sifat ishtirok etgan.
- B) Faqat oddiy darajadagi sifatlar ishtirok etgan.
- C) Egani aniqlab kelgan nisbiy sifat ishtirok etgan.
- D) Tub va yasama asliy sifatlar ishtirok etgan.

81. Qaysi gapda kesim vazifasida kelgan koʻmakchi feʼlli soʻz qoʻshilmasi qatnashgan?

- A) Oʻyin-kulgi, askiya yarim kechagacha choʻzilib ketdi.
- B) Soʻzga chiqqan Sodiqjon domla shogirdi haqida faxrlanib gapirardilar.
- C) El suygan xonanda oʻzgacha qiyofada televideniya chiqar edi.
- D) Uyiga javob beraylik, oʻn besh-yigirma kunga borib kelsin.

82. *So'ri oldida chiroyli, xushbo'y, ko'm-ko'k, sariq gullar o'sib yotardi.*
Mazkur gapdagi sifatlar haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) Otlashgan sifat qatnashgan.
B) Sifatlar uyushiq aniqlovchi vazifasini bajargan.
C) Tub va yasama sifatlar qatnashgan.
D) Sifatlar ma'noviy jihatdan uch turga oid.
83. Qaysi gapda 2 o'rinda buyruq-istak maylidagi o'timsiz fe'l qatnashgan?
- A) «O'rningdan tura qol, do'stim, tashqariga chiqaylik», – dedi u.
B) Yomg'ir tezroq tinsa edi, qishloqqa qiynalmay yetib olardik.
C) Akangni chaqir, bugungi ishi uchun javob bersin.
D) «Qani, qo'lni bering, bir tabriklab qo'yay», – dedi zavqi oshib.
84. *Hosildan bo'shagan kuzgi dalalarda ishlash maroqli.*
Ushbu gapdagi yasama so'zlar haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) Fe'l yasovchi qo'shimchaning otga qo'shilishi kuzatiladi.
B) Yasama sifat 2 o'rinda qatnashgan.
C) Sifat yasovchi qo'shimchalarning otlarga qo'shilishi kuzatiladi.
D) Yasama fe'l faqat bir o'rinda qatnashgan.
85. *Uyning qiya ochiq eshigi oldida turgan bolakay sekingina ichkariga kirdi.*
Ushbu gap haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) Gapda asosi o'z shakldoshi bilan turli turkumga oid bo'la oladigan kesim vazifasidagi fe'l qatnashgan.
B) Gapda asosi fe'l bilan shakldosh bo'la oladigan ega vazifasidagi ot qatnashgan.
C) Gapda asosi fe'l bilan shakldosh bo'la oladigan qaratqich aniqlovchi vazifasidagi ot qatnashgan.
D) Gapda asosi ot bilan shakldosh bo'la oladigan sifatdosh qatnashgan.
86. *Charchamang, ko'zlarim, boqay to'yguncha,*
Bu zavq daryosidan shimir, ey ko'ngil.
Ushbu parchada qatnashgan fe'llar haqidagi qaysi fikr to'g'ri emas?
- A) Ushbu gapdagi kesim vazifasida kelgan fe'llar buyruq-istak maylida qo'llangan.
B) Ushbu gapda hokim qismga bitishuv usulida tobelangan fe'l qatnashgan.
C) Asosi o'z shakldoshiga ega bo'lgan ravishdosh qatnashgan.
D) Sifatdosh shaklidagi o'timsiz fe'l qatnashgan.
87. *«Institutni bitirgan yilim meni aspiranturaga qabul qilishdi va men yana shaharda qoldim», – deb so'zini davom ettirdi u biroz o'ylangandan so'ng.*
Ushbu gapda qatnashgan fe'llar haqidagi qaysi fikr to'g'ri emas?
- A) Gapdagi sifatdoshlar 2 xil nisbatda.
B) Sof fe'llarning faqat 2 tasi xabar maylidagi fe'l sanaladi.
C) O'timli fe'llarning 1 tasi birgalik nisbatida.
D) 1 o'rinda orttirma nisbatdagi sof fe'l qatnashgan.
88. *Sovuqqon odamlardan qo'rq: ular o'ldirmaydilar va xiyonat qilmaydilar, ammo ularning indamay qilgan razilliklari tufayli, afsuski, yer yuzida haligacha sotqinlik va qotillik yashamoqda.*
Ushbu gapda qatnashgan mustaqil so'zlar haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) Kesim vazifasida kelgan fe'l + fe'l tipidagi qo'shma fe'l qatnashgan.
B) Sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan qo'shma sifat qatnashgan.
C) Kesim vazifasida kelgan sodda yasama so'z qatnashgan.
D) Uyushiq ega vazifasida kelgan sodda yasama otlar qatnashgan.

Morfologiya. Yordamchi va alohida olingan soʻzlar

1. *Darhaqiqat, agar voqealarning kechishini diqqat bilan kuzatsak, hatto Abu Yusuf bilan Zuhra begi ogʻa ham uning niyatidan xabardorligini tushunib yetamiz.*
Ushbu gapdagi mustaqil soʻz turkumlariga mansub boʻlmagan soʻzlarning turkumini aniqlang.
1) koʻmakchi; 2) bogʻlovchi; 3) yuklama;
4) undov soʻz; 5) taqlid soʻz; 6) modal soʻz.
A) 2, 3, 5 B) 3, 4, 6
C) 1, 4, 5, 6 D) 1, 2, 3, 6
2. *Darhaqiqat, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, moʻgʻul va boshqa tillardagi soʻzlardan ham mahorat bilan foydalangan.*
Ushbu gapda yordamchi soʻz turkumlariga mansub soʻzlar soni nechta?
A) 5 B) 2 C) 3 D) 4
3. *Balki, sizda ham shunday hollar boʻlgandir: tun yarmidan ogʻganda birdan uygʻonib ketasiz.*
Ushbu gapdagi mustaqil soʻz turkumlariga mansub boʻlmagan birliklarning turkumini aniqlang.
1) koʻmakchi; 2) bogʻlovchi; 3) yuklama;
4) undov soʻz; 5) taqlid soʻz; 6) modal soʻz.
A) 2, 3, 5 B) 1, 3, 4 C) 3, 6 D) 2, 6
4. Quyida berilganlardan qaysilari modal soʻz hisoblanadi?
1) xullas; 2) faqat; 3) darhaqiqat; 4) xayriyat;
5) chunki; 6) biroq.
A) 2, 3, 6 B) 3, 4, 5, 6
C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 4, 5
5. Quyida berilganlardan qaysilari vazifadosh modal soʻz boʻla oladi?
1) shubhasiz; 2) koshki; 3) aftidan;
4) chamasi; 5) shekilli; 6) ehtimol; 7) xullas.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4, 6
C) 4, 5, 6, 7 D) 2, 3, 5, 7
6. Berilganlardan qaysilari sof koʻmakchi hisoblanadi?
1) singari; 2) bilan; 3) ammo; 4) uzra;
5) keyin; 6) xayriyat; 7) qadar.
A) 1, 3, 6, 7
B) 2, 4, 5, 6
C) 1, 2, 4, 7
D) 2, 3, 5, 7
7. Berilgan soʻzlardan joʻnalish kelishigi shaklidagi ismlarga qoʻshilib kela oladigan vazifadosh koʻmakchilarni aniqlang.
1) koʻra; 2) buyon; 3) tomon; 4) qaramay;
5) boshlab; 6) koʻrib; 7) qadar.
A) 2, 4, 6, 7
B) 2, 3, 5, 6
C) 1, 4, 5, 7
D) 1, 3, 4
8. Qaysi gap tarkibida qaratqich kelishigi shaklidagi ismga qoʻshilib kelgan koʻmakchi qatnashgan?
A) Yomonlarning qoshida yalinish mardning ishi emas.
B) Dard ila gʻamdan qiz bechoraning rangi somon yangligʻ sargʻaygan edi.
C) Kozimbek mashinani yoʻlga chiqarib, qishloq tomon yurdi.
D) Toʻgʻri soʻz oʻzining egasini najot sari yetaklaydi.
9. Tarkibida sof koʻmakchi qatnashgan gapni aniqlang.
A) Qorongʻilik quyuqlasha borar, koʻkdagi yulduzlar ham yorqinroq chaqnar edi.
B) Bitmas-tuganmas bilim tagida mashaqqatli mehnat yotadi.
C) Kozimbek mashinani yoʻlga chiqarib, qishloq tomon yurdi.
D) Har bir ona singari Halima opa ham oʻz jigarining baxtli boʻlishini istardi.

10. Qaysi gap tarkibida qaratqich kelishigi shaklidagi soʻzga qoʻshilib kelgan koʻmakchi qatnashgan?
- A) Dard ila gʻamdan qiz bechoraning rangi somon yangligʻ sargʻaygan edi.
 B) Kozimbek mashinani yoʻlga chiqarib, qishloq tomon yurdi.
 C) Ertalabki choy ustida biroz hangomalashgach, hammamiz yoʻlga otlandik.
 D) Axir baliq ham suvga intiladi, koʻkat yorugʻlik sari boʻy choʻzadi.
11. Tarkibida sof koʻmakchi qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Oʻrtancha botir voqeani aytib, nishona uchun tasmani oʻrtaga tashladi.
 B) Qish oʻtib, yana Samarqand tomon yoʻlimiz tushdi.
 C) «Yomonlar qoshida yalinish yaxshilar ishi emas», – dedi shunda otam.
 D) Ertalabki choydan keyin biroz hangomalashgach, hammamiz yoʻlga otlandik.
12. Tarkibida ham vazifadosh koʻmakchi, ham sof koʻmakchi qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Hasharchilar tushlikdan keyin yana dalaga qarab yoʻl oldilar.
 B) Majlis boshlanishidan avval maʼruzasini yana bir bor diqqat bilan oʻqidi.
 C) Ustoz bir necha soniyalik sukutdan soʻng doʻsti tomon yuzlanib gap boshladi.
 D) Axir baliq ham suvga intiladi, koʻkat yorugʻlik sari boʻy choʻzadi.
13. *Bilimdonlikning sir-u asrori gʻayrat hamda matonat bilan oʻqish va oʻrganishdadir.* Ushbu gapdagi yordamchi soʻzlar haqidagi qaysi maʼlumot toʻgʻri?
- A) Gapda 2 ta vazifadosh bogʻlovchi ishtirok etgan.
 B) Gapda 2 ta koʻmakchi ishtirok etgan.
 C) Gapda faqat bogʻlovchilar ishtirok etgan.
 D) Gapda koʻmakchi va bogʻlovchilar ishtirok etgan.
14. Qaysi gapda vazifadosh biriktiruv bogʻlovchisi ishtirok etgan?
- A) Toʻsatdan eshik taraqlab ochildi-yu, ostonada Ertoʻyev paydo boʻldi.
 B) Uning soʻzlari jonli chiqdi-yu, koʻplab savollarga javob berolmadi.
 C) Oyim gapiryaptilar-u, mening koʻzlarim Kimsan akamda.
 D) Eh doʻstim, umrlar oʻtar-u, kitoblar yashar.
15. Qaysi javobda ayiruv bogʻlovchisi qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni bogʻlashga xizmat qilmagan?
- A) Yo zardoʻzi toʻning toʻzibmi qoldi, Yoki soʻkildimi suvsar telpaging?
 B) Dasturxon ustida dam oʻzbek kuylari yangraydi, dam hind qoʻshiqlari ijro etiladi.
 C) Baʼzan qurbaqalarning qurullashi quloqqa chalinardi, baʼzan itning akillashi eshitilardi.
 D) Nuri goh sevinib, goh maʼyus holda oʻylar girdobiga botardi.
16. Buyruq-xitob undovi qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Oh, qanday goʻzal bu olam!
 B) Iya, sen mehmonga kelasan-u, ovoragarchiligi bormi?
 C) Ey Luqmoni Hakim, sening dongʻing tutdi olamni.
 D) Voy, sen hali yalpiz nimaligini bilmaysanmi?
17. Qaysi javobdagi gapda aniqlovchi vazifasida kelgan tovushga taqlidni bildirgan soʻz qoʻllangan?
- A) Namoz gʻazabi oshib, dagʻ-dagʻ qaltiray boshladi.
 B) Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda gʻoʻngʻir-gʻoʻngʻir ovozdan uygʻonib ketdim.
 C) Kimdir ertalabdan darvozani taq-taq urardi.
 D) Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi.

8. Qaysi gapda holatga taqlidni bildirgan soʻz qatnashgan?

- A) Jimirlab oqayotgan suvga tikilib xayollarga berildi.
- B) Allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotgandek boʻlardi.
- C) Olisda yilt-yilt nur sochayotgan chiroqlar tunga oʻzgacha shukuh berardi.
- D) Tongda ari gulga soʻzlar gʻuv-gʻuv-gʻuv, Guljonim, asaling ber, sogʻindim-ku!

9. Qaysi gapda quvonch maʼnosini bildirgan modal soʻz ishtirok etgan?

- A) Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytib kelmoqda.
- B) Xullas, biz ulugʻ ajdodlarning davomchilarimiz.
- C) Ehitimol, ertaga oʻziga isitib berish uchun shunday deyayotgandir.
- D) Haqiqatan ham, koʻrshapalaklar qushlar bilan hayvonlar oʻrtasidagi jonivorlardir.

10. Qaysi gapda achinish mazmunini bildirgan modal soʻz ishtirok etgan?

- A) Ularga qarshi kurashish hammamizning burchimizdir, albatta.
- B) Afsuski, besh qoʻl barobar emas.
- C) Masalan, oʻzbeklar va qozoqlar tarjimonsiz ham bir-birlarini tushuna oladi.
- D) Balki, ustoz Oybekdek toʻlib, yozajaksan yangi bir doston.

21. Qaysi gapda yordamchi soʻzlarning har bir turkumiga oid birliklar ishtirok etgan?

- A) Ey farzand, aqlli, farosatli va ilm-hunarli kishilar bilan doʻst boʻl.
- B) Eʼtibor berganmisiz yoki yoʻqmi, bilmadim-ku, sizning sadoqatda tengsiz doʻstiningiz bor.
- C) Maʼnaviyat ham insonga ona suti, ota namunasi va ajdodlar oʻgiti bilan singadi.
- D) Kun botgan, biroq hali atrof yorugʻ edi-da!

22. Qaysi gapda yordamchi soʻzlarning har bir turkumiga oid birlik ishtirok etgan?

- A) Buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, xitoy, moʻgʻul va boshqa tillardan mahorat bilan foydalangan.
- B) Axir, men uning chinakam sehrli qalpoq ekanligini sinab koʻrishim kerak edi-da ...
- C) Bir kuni tongda toʻsatdan bahor jarchilari, yaʼni qaldirgʻochlar ham paydo boʻlishibdi.
- D) Baʼzan oʻzing bilan ovora boʻlib, kunning qanday oʻtganini ham bilmay qolasan.

23. Qaysi javobda faqat vazifadosh koʻmakchilar berilgan?

- A) sababli, sari, boʻylab, qarab, uchun
- B) toʻgʻrisida, qarshi, qadar, kabi, ost
- C) koʻra, deb, avval, boshqa, ilgari
- D) keyin, sayin, boshida, maqsadida, uzra

24. Qaysi javobda sof zidlov bogʻlovchisi ishtirok etgan?

- A) Biz oʻsha oʻyinlarda faqat jismonan emas, balki maʼnaviy jihatdan ham chiniqar ekanmiz.
- B) Yosh Farhodning fikri quyosh kabi yorugʻ, lekin koʻngildagi ravshanlik undan ham ortiq.
- C) Nega endi natijalarga baho berishadi-yu, sababini tekshirib koʻrishmaydi?
- D) Bir kuni kechasi bir hiyla oʻylab chiqdim-da, erta turgach eski maktab sari joʻnadim.

25. Qaysi gapda biriktiruv bogʻlovchisi qatnashgan?

- A) Choʻlquvarlarni na issiq, na suvsizlik yenga oladi.
- B) Shundan soʻng ishlarim yurishib ketdi ham yerim yonimga qoldi.
- C) Qish kirib keldi-yu, kunlar sovimadi.
- D) Shuni bilginki, haromning kasri yo farzandga, yo davlatga urar.

26. Qaysi gapda ayiruv-chegaralov yuklamalari qatnashgan?
- A) Nuqtadan bir qush uchar, go'yoki behush uchar.
 - B) Axir, bu muqaddas dargohda ko'plab buyuk kishilar ishlab ketganlar.
 - C) Uka, bu gaplar kitobdagina bor, xolos.
 - D) Bu yer mol o'tlaydigan, bolalar chillak o'ynaydigan yer-da!
27. Qaysi gapda mazmuniy munosabatni ro'yobga chiqarishiga ko'ra turli guruhga oid bo'lgan teng bog'lovchilar qatnashgan?
- A) Daraxtni gullata bilishgina emas, balki undan mo'l va shirin hosil yetkaza bilish ham san'atdir.
 - B) Oqmoya ozg'in va chayir, oyoqlari uzundan kelgan, qarilig-u og'ir yukdan hali toliqmagan bebaho tuya edi.
 - C) Bu xabar unda hech qanday norozilik tug'dirmadi, chunki ertaroq qaytishga juda ham orzumand emas edi.
 - D) Agar havoda chang va tutun bo'lmasa edi, odam ming yil yashagan bo'lardi.
28. Qaysi gapda vazifadosh biriktiruv bog'lovchisi qatnashgan?
- A) Nega endi natijaga baho berishadi-yu, sababini tekshirib ko'rishmaydi?
 - B) Shuncha harakat qildi-yu, biror natijaga erisha olmadi.
 - C) O'sha kuni qo'lga chelakni oldi-yu, anhor tomon yo'l soldi.
 - D) U bir narsa demoqchiday og'iz juftladi-yu, hayajonlanganidan gapirolmay qoldi.
29. Qaysi javobda ko'makchi vazifasida qo'llaniladigan fe'l turkumiga mansub so'zlar keltirilgan?
- A) avval, boshlab
 - B) doir, uchun
 - C) bo'ylab, qarab
 - D) o'zga, muvofiq
30. Qaysi javobda modal, undov va taqlid so'zlarning har biriga misol berilgan?
- A) qars-qurs, kisht, dod
 - B) yilt-yilt, shekilli, albatta
 - C) dag'-dag', g'a-g'a, haqiqatan
 - D) oh, g'iyq, avvalambor
31. *Salimjon – nihoyatda ziyrak, keng mushohadali, qiziquvchan, uquvli, bilimchanqoq bola, shu fazilatlar bilan u maktabda ham hurmatga sazovor.* Ushbu qo'shma gapdagi yordamchi so'zlar sonini aniqlang.
- A) 3 ta
 - B) 1 ta
 - C) 2 ta
 - D) 4 ta
32. Qaysi javobda faqat teng bog'lovchilar berilgan?
- A) bir ... bir, va, toki, ya'ni
 - B) lekin, yoki, goh...goh, hamda
 - C) chunki, ammo, hamda, na ... na
 - D) bilan, yo ... yo, na ... na, agar

Sintaksis. Gapda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi

1. Qaysi gapda ham vositali toʻldiruvchi, ham vositasiz toʻldiruvchilarni bevosita tobelantirib kelgan kesim qatnashgan?
 - A) Insonning haqiqiy qadr-qimmati shundaki, uni hatto hasadchilar ham maqtashga majbur boʻladilar.
 - B) Uquvsiz insonga qattiqqoʻllik bilan bilim yo hunar oʻrgatib boʻlmaydi.
 - C) Odamlarni bir-biridan ajratadigan soʻzni aytishdan saqlaning.
 - D) Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan mayin shamol darpardani xomushgina silkitardi.
2. Tobe bogʻlanishlarda ham tobe, ham hokim qism vazifasini bajargan vositasiz toʻldiruvchi ishtirok etgan gapni aniqlang.
 - A) Odamlarni bir-biridan ajratadigan soʻzni aytishdan saqlaning.
 - B) Tilda xalqning bor-yoʻgʻi, uning vatani butkul gavdalanadi.
 - C) Soʻz – inson qudratining qoʻmondoni, u hayotning buyuk qurolidir.
 - D) Bemaʼni fikrlar har kimda ham boʻladi, faqat aqlli kishigina uni aytmaydi.
3. Qaysi gapda vositali toʻldiruvchiga tobelanib kelgan vositasiz toʻldiruvchi qatnashgan?
 - A) Yaxshi insonni hatto hasadchilar ham maqtashga majbur boʻladilar.
 - B) Ey farzand, hamisha fozillar bilan hamsuhbat boʻlishni oʻzingga odat qil.
 - C) Bemaʼni fikrlar har kimda ham boʻladi, faqat aqlli kishigina uni aytmaydi.
 - D) Til doʻstlik va hamjihatlikni qaror toptirishning eng muhim vositasidir.
4. Tobe va hokim qismlari yasama soʻz bilan ifodalangan boshqaruvli soʻz birikmasi qatnashgan gapni aniqlang.
 - A) U begʻubor yaylov havosida ulgʻaygan kamgap va qaysargina bir bola edi.
 - B) Gʻulomjon tabiatan quvnoq, shoʻx yigit edi.
 - C) Shoir doʻstlikni ulugʻlab koʻplab sheʼrlar bitgan.
 - D) Qoʻllarining keskin harakati bilan xalqqa tinchlanishni buyurdi.
5. Qaysi gapda tobe va hokim qismlari yasama soʻz bilan ifodalangan bitishuvli soʻz birikmasi uchraydi?
 - A) Tabobatda achchiqtoshdan juda unumli foydalaniladi.
 - B) Choʻlning, yillar oʻtsa ham, eskirmagan tartib-qoidalari bor.
 - C) Darhaqiqat, shoirning yuragi sof tuygʻulardan oziqlanadi.
 - D) Insonlarga qilingan yaxshilik umrga sayqal beradi.
6. Tobe va hokim qismlari yasama soʻz bilan ifodalangan boshqaruvli soʻz birikmasi qatnashgan gapni aniqlang.
 - A) Kitob mutolaasi inson aqlini charxlaydi.
 - B) Ertalabki choy ustida biroz hangomalashgach, hammamiz yoʻlga otlandik.
 - C) Xalq achchiqtoshdan davo sifatida foydalanadi.
 - D) Gʻulomjon ertalab atayin sizni izlab kelgan ekan.
7. Tobe qismigina yasama soʻz bilan ifodalangan bitishuvli soʻz birikmalari qatnashgan gapni aniqlang.
 - A) Har birimiz bilimlarimizni muntazam boyitishga intilishimiz kerak.
 - B) Keng moviy dengizlar va baland togʻlar bagʻrida sayr etish inson aqlini charxlaydi.
 - C) Mutafakkirlarimiz ilmsiz insonlarni mevasiz daraxtga oʻxshatganlar.
 - D) U nimalar haqidadir tinimsiz gapirar, gapni gapga ulab yuborar edi.

8. Tobe qismigina yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmasi qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Sababsiz kulgi yomon tarbiya natijasidir.
B) U nimalar haqidadir tinimsiz gapirar, sira to'xtamas edi.
C) Ezgulik yo'lida qilingan yaxshilik umrga sayqal beradi.
D) Noo'rin aytilgan so'z boshga kulfat keltiradi.
9. Tobe qismigina yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmasi qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Dilozordan Xudo bezor.
B) U kuyovining bachkana qiliqlariga ichida bir g'ijinar edi.
C) Serdaraxt o'rmonni suv olmas.
D) Lekin u bu haqda tirnoqcha ham qayg'urmayapti.
10. Faqat hokim qismigina yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmasi qatnashgan gapni aniqlang.
- A) U kuyovining bu qiliqlariga ichida g'ijinar edi.
B) Ko'ksim tog' etgan – Vatan sevgisi.
C) Lekin u bu haqda tirnoqcha ham qayg'urmayapti.
D) Mevasiz daraxt faqat o'tinlikka yaraydi.
11. Faqat hokim qismigina yasama so'z bilan ifodalangan boshqaruvli so'z birikmasi qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Sezgir kitobxon kichik soxtalikni ham darrov fahmlaydi.
B) Mevali daraxtga tosh otadilar.
C) Darhaqiqat, shoirning yuragi sof tuyg'ulardan oziqlanadi.
D) Kitob bilan do'stlashgan insondan yomonlik chiqmaydi.
12. Hokim qismigina yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmasi qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Noo'rin aytilgan so'z boshga kulfat keltirishi mumkin.
B) Kitob bilan do'stlashgan insondan yomonlik chiqmaydi.
C) U nimalar haqidadir tinimsiz gapirar, sira to'xtamas edi.
D) Do'stlari uning asl niyatini darrov fahmladilar.
13. Tobe qismigina yasama so'z bilan ifodalangan boshqaruvli so'z birikmasi qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Sezgir kitobxon kichik soxtalikni ham darrov fahmlaydi.
B) Men o'zimni kulgidan to'xtata olmadim.
C) Bemaza qovunning urug'i ko'p.
D) Kitob mutolaasi inson tafakkurini rivojlantiradi.
14. Tobe qismi ham, hokim qismi ham yasama so'z bilan ifodalangan boshqaruvli so'z birikmalarini aniqlang.
- 1) yutuqdan ruhlanmoq;
2) bilimdon o'quvchi;
3) ta'sirli so'zlam;
4) tuyg'ularni his qilish;
5) yurtdoshlarga g'amxo'rlik.
- A) 1, 4, 5 B) 1, 3, 5
C) 1, 2, 4 D) 2, 3, 4
15. Faqat hokim qismi yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmalarini aniqlang.
- 1) qat'iy ishonch;
2) jadal rivojlanmoq;
3) o'tkir o'roq;
4) aniq fikrlash;
5) gul taqdim etmoq.
- A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 5
C) 3, 4, 5 D) 1, 2, 4

16. Tobe qismi ham, hokim qismi ham yasama soʻz bilan ifodalangan bitishuvli soʻz birikmalarini aniqlang.
1) chiroyli gapirmoq; 2) tez harakatlanmoq; 3) bilimdon oʻquvchi; 4) taʼsirli soʻzlamoq; 5) kitobxonlar ishtiroki.
A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 5
C) 1, 3, 4 D) 3, 4, 5
17. *Haqiqat tikanli gulga oʻxshaydi, u hidlashni bilmaganlarning burniga sanchiladi.* Ushbu gapdagi soʻz birikmalari haqida berilgan toʻgʻri maʼlumotni aniqlang.
A) 4 ta boshqaruvli soʻz birikmasi qatnashgan.
B) Faqat bitta bitishuvli soʻz birikmasi qatnashgan.
C) Faqat bitta otli soʻz birikmasi mavjud.
D) 4 ta feʼlli soʻz birikmasi mavjud.
18. *Yulduzni benarvon uradigan bunday odamlardan hayiqish kerak.* Ushbu gapda nechta soʻz birikmasi bor?
A) 3 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 5 ta
19. *Hayotjon Gʻulomjonning mardligiga, chidamliligi, qanoatliligi va sadoqatiga qoyil qoldi.* Ushbu gapda gap boʻlaklari nechta soʻz birikmasini hosil qilgan?
A) 7 ta B) 8 ta C) 6 ta D) 5 ta
20. *Hayotjon yosh Gʻulomjonning mardligi, chidamliligi va sabriga qoyil qoldi.* Ushbu gap haqidagi qaysi maʼlumot toʻgʻri emas?
A) Boshqaruv usulida birikkan soʻz birikmalari soni 3 ta.
B) Qaratqich aniqlovchiga tobelangan sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan.
C) Moslashuv usulida birikkan soʻz birikmalari soni 2 ta.
D) Uyushiq boʻlaklarga tobelang; qaratqich aniqlovchi qatnashgan.
21. *Bizning oʻqituvchimiz oʻquvchilarni ham, nevaralarini ham, oʻgʻil-qizlarini ham – barchani sizlab gapirar edilar.* Ushbu gapda gap boʻlaklari nechta soʻz birikmasini hosil qilgan?
A) 6 ta B) 5 ta C) 8 ta D) 7 ta
22. *Shuni bilginki, uztozingdan eshitmagan oʻgitlarni kitobdan bilib olishing mumkin.* Ushbu qoʻshma gapda nechta soʻz birikmasi qatnashgan?
A) 4 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 5 ta
23. Tobe qismi koʻchma maʼnoda qoʻllangan otli birikmalarni aniqlang.
A) qarzini uzmoq, diqqatini boʻlmoq
B) qattiq ranjimoq, kitob oʻqimoq
C) daraxtning koʻzi, bolaning tishi
D) shirali ovoz, poʻlat iroda
24. Tobe qismi koʻchma maʼnoda qoʻllangan otli birikmalarni aniqlang.
A) siquv ostida yashamoq, uyga bormoq
B) yengil kuy, achchiq soʻz
C) samolyotning dumi, rubobning qorni
D) ogʻir xoʻrsinmoq, sayoz fikrlamoq
25. Tobe qismi koʻchma maʼnoda qoʻllangan bitishuvli birikmalarni aniqlang.
A) yengil jarohat, siquv ostida
B) ogʻir xoʻrsinmoq, oʻynoqi shabada
C) uygʻongan mehr, issiq suv
D) masala yechmoq, gap sotmoq
26. Qaysi javobda ham tobe qismi, ham hokim qismi yasama soʻz bilan ifodalangan moslashuvli soʻz birikmalari berilgan?
A) qizaloqlarning aqlisi, xonalarning kattarogʻi
B) oʻquvchilarning bilimdoni, qoʻshiqchining kuylashi
C) sergʻayrat ishchi, rasmlarning chiroylisi
D) doʻstlikni qadrlamoq, ishlashni boshlamoq

27. Qaysi javobda ham tobe qismi, ham hokim qismi yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmalari berilgan?
- A) umidsizlik tuyg'usi, kasbdoshingiz yutug'i
 B) halol yashamoq, zavqli mehnat
 C) chiroyli gapirmoq, ishchan o'qituvchi
 D) do'stlikni qadrlamoq, ishlashni boshlamoq
28. Tobe qismi ko'chma ma'noda qo'llangan fe'lli so'z birikmalarini aniqlang.
- A) sovuq xabar, achchiq haqiqat
 B) qarzini uzmoq, diqqatini bo'lmoq
 C) mayin kuylamoq, she'r o'qimoq
 D) qattiq ranjimoq, shirin gapirmoq
29. *Otaxon yuz-qo'llarini yuvdi va uni havas bilan kuzatayotgan yosh yigitga yuzlandi.* Ushbu gapda nechta so'z birikmasi bor?
- A) 5 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 4 ta
30. Qaysi javobda ham tobe qismi, ham hokim qismi yasama so'z bilan ifodalangan moslashuvli so'z birikmalari berilgan?
- A) ishchilarning uquvlisi, ishtirokchilar bilimdoni
 B) qizaloqlarning aqlisi, xonalarning kattarog'i
 C) rasmlarning chiroylisi, serg'ayrat o'qituvchi
 D) do'stlikni qadrlamoq, ishlashni boshlamoq
31. Qaysi gapda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi bilan ifodalangan bo'lakka tobelangan vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan?
- A) Oshiq yigit do'kondagi barcha atirgullarni sotib oldi.
 B) Mo'ysafid gullarni shiyponga qo'ydi va mehmonlar bilan ko'risha ketdi.
 C) «Qani, qo'lni bering, bir tabriklab qo'yay», – dedi zavqi oshib.
 D) Indamay g'ishtlarni ustma-ust taxlay boshladi.
32. Qaysi gapda tobe qismigina yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmalari uchraydi?
- A) U beg'ubor yaylov havosida ulg'aygan kamgap va qaysargina bir bola edi.
 B) Hosildorlikni oshirish uchun yerga o'g'it tashlandi.
 C) U kitobxonlar tanlovining faol ishtirokchilaridan biri edi.
 D) Layloning vafotidan keyin men ularning oilasiga qattiq bog'langan edim.
33. *Keksa bog'bonni hamma o'quvchilar hurmat qilishadi.* Ushbu gapda qatnashgan so'z birikmalari haqidagi qaysi fikr to'g'ri?
- A) Hokim qismigina yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmalari mavjud.
 B) Hokim qismigina yasama so'z bilan ifodalangan boshqaruvli so'z birikmasi qatnashgan.
 C) Tobe qismigina yasama so'z bilan ifodalangan boshqaruvli so'z birikmasi mavjud.
 D) Tobe qismigina yasama so'z bilan ifodalangan bitishuvli so'z birikmalari qatnashgan.
34. *Men musavvirlikning sirlarini o'rganishga va o'zlashtirishga astoydil bel bog'ladim, chunki menda unga havas uyg'ongan.* Ushbu ergashgan qo'shma gapning bosh gap qismida nechta tobe bog'lanish mavjud?
- A) 7 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 8 ta
35. *U o'z yutuqlari va kelajakdagi rejalari haqida to'lg'inlanib gapirdi.* Ushbu gapdagi so'z birikmalari haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- A) Ushbu gapda 3 ta aniqlovchili so'z birikmasi qatnashgan.
 B) Ushbu gapda 2 ta holli so'z birikmasi qatnashgan.
 C) Ushbu gapda 4 ta otli so'z birikmasi qatnashgan.
 D) Ushbu gapda 4 ta fe'lli so'z birikmasi qatnashgan.

36. *U o'z yutuqlari va kelajakdagi rejalari haqida to'liqlanib gapirdi.*
Ushbu gapdagi so'z birikmalari haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- A) Otli so'z birikmalarining tobe va hokim qismlari moslashuv va bitishuv usulida birikkan.
B) Fe'lli so'z birikmalarining tobe va hokim qismlari faqat bitishuv usulida birikkan.
C) Otli so'z birikmalarining tobe qismlari aniqlovchi va to'ldiruvchi vazifasini bajargan.
D) Fe'lli so'z birikmalarining tobe qismlari faqat hol vazifasini bajargan.
37. *Hayotda shunday ajoyib odamlar bo'ladiki, mansabga yoki shon-shuhratga ishtiyoq hech qachon ularga g'ov bo'la olmaydi.*
Ushbu qo'shma gapning ergash gap qismida gap bo'laklari nechta so'z birikmasini hosil qilgan?
- A) 3 ta B) 6 ta C) 5 ta D) 4 ta
38. *Bunday betakror mumtoz ashulalarni iste'dodli hofizlar ijro etishadi, chunki bu qo'shiqlarning sehrini va jozibasini tinglovchiga yetkazib berish oson emas.*
Ushbu qo'shma gapning ergash gap qismida gap bo'laklari nechta so'z birikmasini hosil qilgan?
- A) 4 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 7 ta
39. *Turli podsholarni ko'rgan Binoiy yosh Boburning halolligidan qattiq ta'sirlandi.*
Mazkur gapda qatnashgan so'z birikmalari haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri?
- A) Boshqaruv usulida birikkan 3 ta fe'lli so'z birikmasi qatnashgan.
B) Bitishuv usulida birikkan 2 ta fe'lli so'z birikmasi qatnashgan.
C) Moslashuv usulida birikkan 2 ta otli so'z birikmasi qatnashgan.
D) Bitishuv usulida birikkan 3 ta otli so'z birikmasi qatnashgan.
40. *Hunarmand yigit o'z kasbini, uyini, oilasini juda qadrlar ekan.*
Ushbu gapda tobe bog'lanishlarda ham tobe, ham hokim qism bo'la olgan nechta so'z bor?
- A) 4 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 2 ta
41. *Ochiq derazadan Shodasoyning salqini va qayerdandir taralayotgan behi hidi xonaga kirdi.*
Mazkur gapdagi so'z birikmalari haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri?
- A) Bitishuv usulida birikkan 3 ta fe'lli so'z birikmasi mavjud.
B) Bitishuv usulida birikkan 2 ta otli so'z birikmasi mavjud.
C) Moslashuv usulida birikkan 1 ta otli so'z birikmasi mavjud.
D) Boshqaruv usulida birikkan 4 ta fe'lli so'z birikmasi mavjud.
42. *Hunarmand yigit o'z kasbini, uyini, bola-chaqasini qadrlaydi, u mehnat qilib tinch va osuda yashaydi.*
Ushbu gapdagi so'z birikmalari haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- A) Otli so'z birikmalarining tobe qismlari to'ldiruvchi vazifasini bajargan.
B) Boshqaruvli so'z birikmalarining hokim qismi uyushib kelgan.
C) Bitishuvli so'z birikmalarining hokim qismlari ega va kesim vazifasini bajargan.
D) Fe'lli so'z birikmalarining barchasida tobe qism hol vazifasini bajargan.
43. *Jismoniy poklik – har kimning ishi, ma'naviy poklik esa vijdonning ishi.*
Ushbu gap haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri?
- A) Ushbu gapdagi barcha so'z birikmalari aniqlovchili birikmalar sanaladi.
B) Ushbu gapda bitishuvli, moslashuvli va boshqaruvli so'z birikmalari ishtirok etgan.
C) Ushbu gapdagi so'z birikmalarida ot va sifat turkumiga oid so'zlar hokim qism vazifasini bajargan.
D) Ushbu gapdagi barcha so'z birikmalarining tobe qismlari yasama so'zlar bilan ifodalangan.

44. *Olovqalb va shijoatli yoshlarimizning o'tkazilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etishi yurtimizning porloq kelajagiga ishonchimizni mustahkamlamoqda.*
Ushbu gapda gap bo'laklari nechta so'z birikmasini hosil qilgan?
- A) 9 ta
B) 11 ta
C) 10 ta
D) 8 ta
45. *Bilimli, ma'naviyatli, keng mushohadali yoshlarni tarbiyalash dolzarb vazifa sanaladi.*
Ushbu gapdagi so'z birikmalari haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- A) Barcha so'z birikmalarida tobe va hokim qismlar bitishuv usulida bog'langan.
B) Tobe va hokim qismlari ot turkumiga oid so'z bilan ifodalangan so'z birikmasi ishtirok etgan.
C) Barcha so'z birikmalarining tobe qismi yasama so'z bilan ifodalangan.
D) Tobe va hokim qismi aniqlovchi vazifasini bajargan so'z birikmasi ishtirok etgan.
46. *Ota-onangiz, qavm-qarindoshlaringiz, yor-birodarlaringizning ahvolini so'rashni, ularni yo'qlashni unutmang.*
Ushbu gapda gap bo'laklari nechta so'z birikmasini hosil qilgan?
- A) 7 ta
B) 8 ta
C) 5 ta
D) 6 ta
47. *O'z muallimi va ustozini e'zozlash, ularni hurmat qilish har bir o'quvchining burchidir.*
Ushbu gapda nechta so'z birikmasi mavjud?
- A) 8 ta
B) 6 ta
C) 7 ta
D) 5 ta
48. *Yaxshi asar muallifning kitobxonga in'om etgan qimmatbaho tortig'idir.*
Ushbu gapdagi so'z birikmalari haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- A) Bitishuvli so'z birikmasining hokim qismi ega, hol va kesim vazifasini bajargan.
B) Tobe qismi ham, hokim qismi ham yasama so'z bilan ifodalangan 2 ta aniqlovchili so'z birikmasi mavjud.
C) Aniqlovchili so'z birikmalarining hokim qismi ega, to'ldiruvchi va hol vazifasida kelgan.
D) 3 ta so'z birikmasining tobe qismi sifat bilan ifodalangan.
49. *O'z Vatanini himoya qilish uchun mardona kurashgan bu jasur o'g'lonlar haqida faxrlanib gapiramiz.*
Ushbu gapdagi so'z birikmalari haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri?
- A) Bitishuv usulida birikkan so'z birikmalari soni 4 ta.
B) 4 ta so'z birikmasining tobe qismi aniqlovchi vazifasini bajargan.
C) Boshqaruv usulida birikkan so'z birikmalari soni 2 ta.
D) 2 ta so'z birikmasining hokim qismi hol vazifasini bajargan.
50. Tobe qismi sodda yasama fe'l bilan ifodalangan otli birikma qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Sportchimiz og'ir jarohatlangani tufayli keyingi musobaqalarga kela olmadi.
B) Mashhur shoirlarimizning hayoti va ijodini o'rganish asosiy vazifamizdir.
C) Dalada rohatlanayotgan bolakaylarga havas bilan boqdi.
D) Uning qo'ng'iroq sochlariga tegishib o'tgan o'ynoqi shabada husniga husn qo'shar edi.

51. *Ular xalqning va millatning birligi, yurtning istiqboli, farovonligi hamda tinchligini joʻshib kuyladilar.*
Ushbu gapdagi soʻz birikmalari haqida qaysi javobda toʻgʻri maʼlumot berilgan?
- A) Ham tobe, ham hokim qismi yasama soʻz bilan ifodalangan soʻz birikmalari soni 2 ta.
 - B) Boshqaruvli soʻz birikmalari soni 4 ta.
 - C) Moslashuvli soʻz birikmalari soni 4 ta.
 - D) Bitishuvli soʻz birikmalari soni 2 ta.
52. *Oʻz muallimi va ustozini eʼzozlash, ularni hurmat qilish har bir oʻquvchining burchidir.*
Ushbu gapdagi soʻz birikmalari haqida berilgan toʻgʻri maʼlumotni aniqlang.
- A) Hokim qismi ot, feʼl va olmosh bilan ifodalangan aniqlovchili soʻz birikmalari qatnashgan.
 - B) Tobe qismi ot va olmosh bilan ifodalangan toʻldiruvchili soʻz birikmalari qatnashgan.
 - C) Boshqaruvli soʻz birikmalarining hokim qismi toʻldiruvchi va ega vazifasini bajargan.
 - D) Hokim qismlari toʻldiruvchi va aniqlovchi boʻlib kelgan bitishuvli soʻz birikmalari qatnashgan.
53. *Bugun dalalar uzra bolakaylarning qichqirigʻi yangrar, quyosh jilmayib boqar, sargʻaygan koʻkatlarda shudring jilolanardi.*
Ushbu gapda qatnashgan soʻz birikmalari haqidagi qaysi fikr toʻgʻri?
- A) Hokim qismi oʻrin holi vazifasida kelgan boshqaruvli birikma qatnashgan.
 - B) Hokim qismi ega vazifasida kelgan bitishuvli birikma qatnashgan.
 - C) Tobe qismi payt holi vazifasida kelgan bitishuvli birikma qatnashgan.
 - D) Tobe qismi vositasiz toʻldiruvchi vazifasida kelgan boshqaruvli birikma qatnashgan.
54. *Birpasdan soʻng yomgʻir tindi, lekin hasadgoʻy bulutlar hamon quyoshni toʻsib turardi.*
Ushbu gapda qatnashgan soʻz birikmalari haqidagi qaysi fikr toʻgʻri emas?
- A) Tobe qismi vositali toʻldiruvchi vazifasida kelgan soʻz birikmasi qatnashgan.
 - B) Tobe qismi vositasiz toʻldiruvchi vazifasida kelgan boshqaruvli birikma qatnashgan.
 - C) Tobe qismi sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan bitishuvli birikma qatnashgan.
 - D) Tobe qismi hol vazifasida kelgan soʻz birikmalari qatnashgan.
55. *Oʻz muallimi va ustozini eʼzozlash, ularni hurmat qilish har bir oʻquvchining burchidir.*
Ushbu gapdagi soʻz birikmalari haqida berilgan toʻgʻri maʼlumotni aniqlang.
- A) Hokim qismlari toʻldiruvchi va aniqlovchi boʻlib kelgan bitishuvli soʻz birikmalari qatnashgan.
 - B) Tobe qismi ot, olmosh va feʼl bilan ifodalangan toʻldiruvchili soʻz birikmalari qatnashgan.
 - C) Boshqaruvli soʻz birikmalarining hokim qismi toʻldiruvchi va ega vazifasini bajargan.
 - D) Aniqlovchili soʻz birikmalarining barchasida hokim qism ot bilan ifodalangan.
56. *Navoiy, Bobur, Mashrab singari mashhur shoirlar ruhi hamisha bizni insoniy kamolot sari chorlaydi.*
Ushbu gapda nechta soʻz birikmasi mavjud?
- A) 8 ta
 - B) 7 ta
 - C) 9 ta
 - D) 10 ta

Sintaksis. Sodda gap sintaksisi

1. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.
~~~~~ - - - - - ..... =====  
A) Yolg'on gapirishdan doim hazar qilaman.  
B) Chiroyli yozishni tezda o'rganib bo'lmaydi.  
C) Bilimdon o'quvchilarni men yaxshi ko'raman.  
D) Ilg'or ishchilarni har doim qo'llab-quvvatlashadi.
2. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.  
..... - - - - - ..... =====  
A) Rost so'zlaganlarni men yaxshi ko'raman.  
B) Ilg'or ishchilarni har doim qo'llab-quvvatlashadi.  
C) Bugun do'stimni teatrda ko'rib qoldim.  
D) Yolg'on gapirishdan hazar qiling.
3. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.  
..... ~~~~~ - - - - - ..... =====  
A) Serchang, sershovqin ko'chalarda odamlar ketib borardi.  
B) Birpasda ularning atrofini odamlar o'rab oldi.  
C) Anchagacha kuchli qarsak sadolari tinmadi.  
D) Bu yerga yangi kelganlar tezda moslashib ketishadi.
4. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.  
..... ~~~~~ - - - - - ..... =====  
A) Birpasda ularning atrofini odamlar o'rab oldi.  
B) Ko'chadan begona kishilar ovozi eshitildi.  
C) Serchang, sershovqin ko'chalarda odamlar ketib borardi.  
D) Bu yerga yangi kelganlar tezda moslashib ketishadi.
5. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.  
..... ~~~~~ - - - - - ..... =====  
A) Tongda hamma yoqdan bulbullarning xush ovozi eshitildi.  
B) Ertalab mehmonxonaning eshigini birov qattiq taqillatdi.  
C) Shu choqqacha qaysi burchakda mog'or bosib yotgan edingiz?  
D) Tog' qushlarining sayrashi qo'ylarning ma'ragan ovozlari jo'r bo'lmoqda.
6. Gap bo'laklari quyidagi shartli belgilar tartibida joylashgan gapni aniqlang.  
..... ~~~~~ - - - - - ..... =====  
A) Hozirgacha daladagi g'o'zalar uch marta chopiq qilindi.  
B) Bir kun urush bo'lgan uydan qirq kun baraka ko'tarilar.  
C) Qo'shni xona ham doimo ozoda bo'ladi.  
D) Qing'ir ish qirq yildan keyin ham bilinar.
7. Barcha gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.  
~~~~~ - - - - - ..... =====  
A) Bir kun urush bo'lgan uydan qirq kun baraka ko'tarilar.
B) Bu xonalar har kuni tozalanadi.
C) Barcha o'quvchilar darsdan keyin to'garakka borishadi.
D) Hozirgacha daladagi g'o'zalar uch marta chopiq qilindi.
8. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan shaxsi noma'lum gapni aniqlang.
~~~~~ - - - - - ..... =====  
A) Urush... Oynisa ayvon ustuniga suyanganicha qotib qoldi.  
B) Bugun maktabga hammadan oldin borish lozim.  
C) Berilgan topshiriqni vaqtida bajarish kerak.  
D) Tarixiy rasmlarni zavq bilan tomosha qildim.

9. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan egasi yashiringan gapni aniqlang.

~~~~~ ----- ..... =====

- A) Bu masalani odillik bilan hal etamiz.
- B) Kecha shaftolizor bog'larni ko'rgani bordik.
- C) Berilgan topshiriqni vaqtida bajarish kerak.
- D) Urush... Oynisa ayvon ustuniga suyananicha qotib qoldi.

10. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan egasi yashiringan gapni aniqlang.

~~~~~ ----- ..... =====

- A) Berilgan topshiriqni vaqtida bajarish kerak.
- B) Katta amakisi haqida faxr bilan gapirar edi.
- C) Kecha shaftolizor bog'larni ko'rgani bordik.
- D) Urush... Oynisa ayvon ustuniga suyananicha qotib qoldi.

11. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan egasi yashiringan gapni aniqlang.

~~~~~ ----- ..... =====

- A) Shaftolizor bog'larni shavq bilan aylandim.
- B) Berilgan topshiriqni vaqtida bajarish kerak.
- C) Kecha bobomlarni ko'rgani bordik.
- D) Urush... Oynisa ayvon ustuniga suyananicha qotib qoldi.

12. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan shaxsi noma'lum gapni aniqlang.

~~~~~ ----- ..... =====

- A) Shaftolizor bog'larni zavq bilan aylanib chiqdim.
- B) Shahar hokimi bilan ertaga uchrashish kerak.
- C) Urush... Oynisa ayvon ustuniga suyananicha qotib qoldi.
- D) Bugun darsga hammadan oldin borish lozim.

13. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.

~~~~~ ----- ..... =====

- A) Sodiqlarning fe'l-atvori menga juda yoqib tushdi.
- B) Adabiyot o'qituvchisi roman haqida zavq bilan gapira boshladi.
- C) Bulbul navosini malika zavq bilan tingladi.
- D) Besh-olti kekxa yig'ilib to'y haqida maslahat qilishdi.

14. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.

~~~~~ ----- ..... =====

- A) Besh-olti kekxa yig'ilib to'y haqida maslahat qilishdi.
- B) Yosh o'qituvchi zamonaviy romanlar haqida zavq bilan gapira boshladi.
- C) Chaqmoqlarning yalt-yultidan bola juda qo'rqdi.
- D) Sodiqlarning fe'l-atvori menga juda yoqib tushdi.

15. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.

~~~~~ ----- ..... =====

- A) Adabiyot o'qituvchisi roman haqida zavq bilan gapira boshladi.
- B) Sodiqlarning fe'l-atvori menga yoqa boshladi.
- C) Chaqmoqlarning yalt-yultidan bola juda qo'rqdi.
- D) Besh-olti kekxa yig'ilib to'y haqida maslahat qilishdi.

16. Barcha gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.

~~~~~ ----- ..... =====

- A) Shunda siz va biz bu haqiqatni tushunmagan ekanmiz.
- B) Shu onda hovliga Davron va Iskandar kirib kelishdi.
- C) O'shanda Mavjuda va Sobir zavq bilan kuylashgan edi.
- D) Bog'chada yosh-yosh qizaloqlar va bolakaylar davra qurib o'ynashmoqda.



17. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.

..... ——— ——— ..... ———

- A) Shunda siz va biz bu haqiqatni tushunmagan ekanmiz.
- B) O'shanda Mavjuda va Sobir qo'shiqni juda chiroyli kuylashgan edi.
- C) Bog'chada yosh-yosh qizaloqlar va bolakaylar davra qurib, berilib o'ynashmoqda.
- D) Hozirgina Davron va Iskandar xonaga kirgan edilar.

18. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.

..... ——— ——— ~~~~~ - - - - - ———

- A) O'sha kuni Mavjuda va Sobir qo'shiqni juda chiroyli kuylashgan edi.
- B) O'shanda siz va biz bu haqiqatni tushunmagan ekanmiz.
- C) Shu onda Davron va Iskandar xonaga kirib kelishdi.
- D) Bog'chada yosh-yosh qizaloqlar va bolakaylar davra qurib o'ynashmoqda.

19. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.

..... ~~~~~ ——— ——— ..... ———

- A) O'shanda Mavjuda va Sobir juda chiroyli kuylashgan edi.
- B) Shunda siz va biz bu haqiqatni tushunmagan ekanmiz.
- C) Shu payt Davron va Iskandar xonaga kirib kelishdi.
- D) Bog'chada bir nechta qizaloqlar va bolakaylar qiyqirishib o'ynashar edi.

20. Barcha gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.

——— ~~~~~ - - - - - ..... ———

- A) Ikrom har kuni kichik ukasini maktabga olib boradi.
- B) Men bu kitobni ko'p o'qiganman.
- C) Sayyohlar chaqqon-chaqqon harakatlanib qirga ko'tarila boshlashdi.
- D) Siz unga ravon so'zlamoni o'rgating.

21. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.

..... ——— ~~~~~ - - - - - ———

- A) Majlisda bu masala haqida hech kim churq etmadi.
- B) Hozir ham hech kim uning ismini aytmaydi.
- C) Dunyoda hech narsaning qimmatini ilmchilik yuqori emas.
- D) Hunarli odam hech qachon xor bo'lmaydi.

22. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan egasi yashiringan gapni aniqlang.

..... ~~~~~ - - - - - ..... ———

- A) Bu yerda Ergashevning hushyorligiga shunchaki tan berish kerak.
- B) Saltanat chaqqonligidan hamma ishni har doim vaqtida bajarar edi.
- C) Onam uchun olgan sovg'amni senga ko'rsatmoqchiman.
- D) Hayajonlanganidan yodlagan she'rini zo'rg'a ayta oldi.

23. Barcha gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga to'liq mos keladigan gapni aniqlang.

——— ~~~~~ - - - - - ———

- A) Salimjon do'stining uyiga hozir ketmoqchi edi.
- B) Guruhimiz o'quvchilari bugun shahrimiz ko'chalarida sayr qilishdi.
- C) Atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to'ldi.
- D) Oilamiz a'zolari to'kin dasturxon atrofida jam bo'lishdi.

24. Qo'shni xonadan gurs-gurs ovozlar uzluksiz eshitilaverardi.

Qaysi javobda ushbu gap tarkibidagi barcha gap bo'laklari shartli belgilar asosida tartib bilan to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) ~~~~~ ..... ~~~~~ ——— ..... ———
- B) ~~~~~ ..... ..... ——— ..... ———
- C) ~~~~~ - - - - - ——— ..... ———
- D) ~~~~~ ..... ~~~~~ ——— ..... - - - - - ———

25. *Joni halqumiga kelgan Sattor alam qilganidan baqirib yig'lay boshladi.*  
Qaysi javobda ushbu gap tarkibidagi gap bo'laklari shartli belgilar asosida tartib bilan to'g'ri ko'rsatilgan?
- A) ~~~~~ ——— ..... =====  
B) ~~~~~ ——— - - - - ..... =====  
C) ..... ~~~~~ ——— ..... =====  
D) ——— ~~~~~ ——— ..... =====
26. *Men sizga shuni eslatib qo'ymoqchimanki, sizning har bir so'zingiz biz uchun tildan afzal sanaladi.*  
Qaysi javobda ushbu ergashgan qo'shma gapning ergash gap qismidagi barcha gap bo'laklari shartli belgilar asosida tartib bilan to'g'ri ko'rsatilgan?
- A) ~~~~~ ~~~~~ ——— - - - - ..... =====  
B) ——— - - - - - - - - =====  
C) ~~~~~ ~~~~~ ——— - - - - ..... =====  
D) ~~~~~ ~~~~~ ——— - - - - - - - - =====
27. *Bugun siz bilan bu masalani atroflicha gaplashamiz, toki bunday noxush vaziyat hech qachon qaytarilmasin.*  
Qaysi javobda ushbu ergashgan qo'shma gapning bosh gap qismidagi barcha gap bo'laklari shartli belgilar asosida tartib bilan to'g'ri ko'rsatilgan?
- A) ..... ——— ~~~~~ - - - - ..... =====  
B) ..... - - - - ~~~~~ - - - - ..... =====  
C) ~~~~~ ~~~~~ ——— ..... =====  
D) ..... - - - - ~~~~~ - - - - ~~~~~ =====
28. *Men bugun senga shunday narsalar keltirdimki, ularni sen hech qachon hech qayerda ko'rmagansan.*  
Qaysi javobda ushbu ergashgan qo'shma gapning ergash gap qismidagi barcha gap bo'laklari shartli belgilar asosida tartib bilan to'g'ri ko'rsatilgan?
- A) - - - - ——— ..... =====  
B) - - - - ——— ..... ~~~~~ =====  
C) ——— ..... - - - - ~~~~~ =====  
D) - - - - - - - - ..... =====

29. Barcha gap bo'laklari joylashuvi quyida berilgan shartli belgilarga to'liq mos keladigan darak gapni aniqlang.
- ..... ~~~~~ ~~~~~ ——— ..... =====
- A) Xiyobonlarda rang-barang nafis gullar qiyg'os ochilgan.  
B) Qachon bizning a'lochi o'quvchilar sahnaga chiqishadi?  
C) Ertadan maktabning kichik sportzalini qaytadan ta'mirlay boshlang.  
D) Tadbirda ularning yoqimli kuylagani hammaga yoqdi.
30. Qaysi gapda qaratqich aniqlovchi vazifasida kelgan qaralmish uchraydi?
- A) O'rnida va vaqtida sidqidildan aytilgan oddiygina so'z qudratli va yengilmas kuchga aylanadi.  
B) So'z bilan ifodalangan har qanday fikr yengilmas kuchdir.  
C) So'zdan qudratliroq narsa yo'q, o'tkir dalil va yuksak fikrlar safini yorib o'tish mumkin emas.  
D) So'z – inson qudratining qo'mondoni, u – hayotning buyuk quroli.
31. *So'z bilan ifodalangan har qanday fikr dunyoni harakatlantiruvchi kuchdir.*  
Ushbu gap haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- A) Gapda hokim qismi qaratqich aniqlovchi vazifasida kelgan holli so'z birikmasi qatnashgan.  
B) Gapda hokim qismi kesim vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmasi qatnashgan.  
C) Gapda hokim qismi to'ldiruvchi vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmalari qatnashgan.  
D) Gapda hokim qismi to'ldiruvchi vazifasida kelgan to'ldiruvchili so'z birikmasi qatnashgan.

32. Qaysi gapda hokim qismi sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan to'ldiruvchili birikma qatnashgan?
- A) Ko'p o'ylaydigan odam iloji boricha kam so'z ishlatib, ko'proq fikr berishga intilib gapiradi.
  - B) Tilning sofliigi, ma'no aniqligi, o'tkirligi uchun kurash – madaniyat quroli uchun kurashdir.
  - C) O'rnida aytilgan ezgu fikr dunyoni harakatlantiruvchi kuchdir.
  - D) Til do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirishning eng qulay vositasi ekanligi shubhasizdir.
33. Qaysi gapda hokim qismi ega vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmalari qatnashishi kuzatiladi?
- A) Har bir narsani tejash, bugungini erta uchun zaxiraga qo'yish yaxshi fazilatdir.
  - B) So'z yovuzlarni yakson etadi, qal'alarni yiqadi, u ko'zga ko'rinmas quroldir.
  - C) So'z bilan ifodalangan ezgu fikr dunyoni harakatlantiruvchi kuchdir.
  - D) Til do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirishning eng qulay vositasidir.
34. Qaysi gapda hokim qismi kesim vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmasi qatnashgan?
- A) Barcha tillar aniqlikka intiladi, aniqlik esa qisqalik, ixchamlikni talab etadi.
  - B) So'z yovuzlarni yakson etadi, qal'alarni yiqadi, uning yordamida insonning qalbini jarohatlash mumkin.
  - C) So'z bilan ifodalangan har qanday fikr ta'sir ko'lamiga tugamaydigan kuchdir.
  - D) Til do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirishning eng qulay vositasi ekanligini bilasizmi?
35. Qaysi gapda hokim qismlari ega vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmalari qatnashgan?
- A) Kitoblar keksalikda eng yaxshi do'st, ayni paytda yoshlikning eng aziz rahnamosidir.
  - B) Chet tillarni o'rganish o'zga millat kishilarining mushohada olamiga kirib borish imkonini beradi.
  - C) O'zidan mangu xotira qoldiradigan insonlar uchun tug'ilish chinakam baxtdir.
  - D) Shuni bilingki, tilda xalqning bor-yo'g'i, uning ona vatani gavdalanadi.
36. *So'zdan qudratliroq kuch yo'q, o'tkir dalillarning va yuksak fikrlarning ta'sirini inkor e'tib bo'lmaydi.*  
Ushbu gap haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- A) Gapda hokim qismi aniqlovchi vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmalari qatnashgan.
  - B) Gapda hokim qismi to'ldiruvchi vazifasida kelgan to'ldiruvchili so'z birikmalari qatnashgan.
  - C) Gapda hokim qismi hol vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmasi qatnashgan.
  - D) Gapda hokim qismi to'ldiruvchi vazifasida kelgan holli so'z birikmasi qatnashgan.
37. *Yaxshi kitoblarni o'qish o'tmish zamonlarning dono kishilari bilan hamsuhbat bo'lishdir.*  
Ushbu gap haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) Gapda hokim qismi to'ldiruvchi vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmalari qatnashgan.
  - B) Gapda hokim qismi hol vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmalari qatnashgan.
  - C) Gapda hokim qismi ega vazifasida kelgan to'ldiruvchili so'z birikmasi qatnashgan.
  - D) Gapda hokim qismi kesim vazifasida kelgan to'ldiruvchili so'z birikmasi qatnashgan.

38. Qaysi gapda hokim qismi kesim vazifasida kelgan to'ldiruvchili so'z birikmalari qatnashgan?

- A) Har doim o'z sevgan ishi bilan mashg'ul bo'lish insonning nodir baxtidir.
- B) Kitoblar – keksalikda eng yaxshi do'st, ayni paytda yoshlikning eng aziz rahnamosidir.
- C) Taassurotlar qanchalik tez va shiddat bilan aytib berilsa, ular shunchalik yuzaki va bir lahzalik bo'lib chiqadi.
- D) Ilm qalbni hamisha yoritadi, insonni yuksaklikka ko'taradi.

39. Qaysi gapda hokim qismi to'ldiruvchi va kesim vazifasida kelgan to'ldiruvchili so'z birikmalari qatnashgan?

- A) Nutqdagi aniqlik qisqalik va ixchamlikni talab etishini hammamiz bilamiz.
- B) Yaxshi kitoblarni o'qish o'tmish zamonlarning eng dono kishilari bilan hamsuhbat bo'lishdir.
- C) Kitoblar o'zining qimmatbaho yukini avlodlardan avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalaridir.
- D) Darhaqiqat, til do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirishning eng qulay vositasidir.

40. Qaysi gapda hokim qismlari ega va to'ldiruvchi vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmalari qatnashgan?

- A) Ora-chora uzoqdan kelgan bola yig'isi bu tinchlikni buzardi.
- B) So'z – inson qudratining qo'mondoni, u – hayotning buyuk quroli.
- C) Shiroq shohning ishonchsizlik ko'zi bilan qarayotganini fahmlab, o'z so'zining to'g'riligini isbotlashga kirishdi.
- D) Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi.

41. *Uydan chiqib ketish uchun shoshilib yurdi, birdan temir darvoza oldida kuzatib turgan shubhali kishiga ko'zi tushdi-yu, qo'rqqanidan orqasiga qayrildi va tez-tez yurib uyiga qaytib kirdi.*

Ushbu gapdagi hollar haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Ma'nosiga ko'ra holning faqat 2 turi qatnashgan.
- B) Ot, fe'l, ravish bilan ifodalangan hollar qatnashgan.
- C) Tobe bog'lanishlarda ham hokim, ham tobe qism vazifasini bajargan sabab holi qatnashgan.
- D) Fe'l bilan ifodalangan hollarning barchasi ma'nosiga ko'ra o'zaro bir turga oid.

42. *Bir chimdim uxlash uchun ko'zini yumdi, biroq qattiq charchagani uchun allamahalgacha uxlay olmay qiynaldi.* Ushbu gapga oid qaysi javobda berilgan ma'lumot to'g'ri emas?

- A) Fe'lning maqsad holi vazifasini bajarishi kuzatiladi.
- B) Sifatdoshning sabab holi vazifasini bajarishi kuzatiladi.
- C) Ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi bilan ifodalangan hol qatnashgan.
- D) Payt holi vazifasini bajargan olmosh qatnashgan.

43. *Bir chimdim uxlash uchun ko'zini yumdi, biroq qattiq charchagani uchun allamahalgacha uxlay olmay qiynaldi.* Ushbu gapdagi mustaqil so'z turkumlari bajargan sintaktik vazifalar to'g'ri izohlangan javobni aniqlang.

- A) Fe'l bilan ifodalangan sabab holi 3 o'rinda qatnashgan.
- B) Ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi bilan ifodalangan hol qatnashgan.
- C) Hollar faqat fe'l bilan ifodalangan.
- D) Payt holi vazifasini bajargan olmosh qatnashgan.

44. *Shunday inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir ishi va har bir so'zi bebaho gavhardir.*  
Ushbu gapdagi gap bo'laklariga oid to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- Olmosh bilan ifodalangan aniqlovchi va hol qatnashgan.
  - Sifatlanmishning hol vazifasini bajarishi kuzatiladi.
  - Qaralmishlar ega vazifasini bajargan.
  - Barcha sifatlovchi aniqlovchilar sifat bilan ifodalangan.
45. *Kichikka ulug'lik ulug'dan bo'lar, Ulug'ga egilsa, kichik qut olar.*  
Ushbu parcha haqidagi qaysi fikrlar to'g'ri emas?
- vositali to'ldiruvchilar sifatlar bilan ifodalangan;
  - ot bilan ifodalangan ega qatnashgan;
  - otlashgan so'z bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan;
  - sifat bilan ifodalangan gap bo'laklari ushbu gapdagi so'z birikmalarida hokim qism vazifasini bajargan.
- 2, 3
  - 3, 4
  - 1, 4
  - 1, 2
46. *Vatanga muhabbat, xalqning va millatning birligi, yurtning kelajak istiqboli, hayot farovonligi va tinchligini dildan kuyladilar.*  
Ushbu gapda ishtirok etgan uyushiq bo'laklarga oid qaysi ma'lumot to'g'ri?
- Uyushiq bo'laklarning barchasi sodda yasama so'zlar bilan ifodalangan.
  - Uyushiq bo'laklar hokim qismga boshqashuv va moslashuv usulida tobelangan.
  - Aniqlovchi, to'ldiruvchi va holning uyushib kelishi kuzatiladi.
  - Uyushiq bo'laklar ot va sifat turkumiga oid so'zlar bilan ifodalangan.
47. Ayiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan uyushiq vositali to'ldiruvchilar qatnashgan gapni aniqlang.
- Eng achinarlisi shuki, bu odamga yo bir maslahatni aytib bo'ladi, yo ro'zg'or ishini.
  - Dildor dam chaman bo'lib turgan atirgullarga, dam ariqchalarda shildirab oqib turgan suvlarga qarab zavqlanardi.
  - U yaratmoqchi bo'lgan yangi paxta navi haqida hozircha na institut direktoriga, na do'sti Umidga hech narsa demadi.
  - Tog'lar goh chap tomoningda, goh o'ng tomoningda paydo bo'lib qoladi.
48. Ayiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan uyushiq vositali to'ldiruvchilar qatnashgan gapni aniqlang.
- U o'zining kelgani haqida na Qurbon otaga, na Siddiqjonga xabar qildi.
  - Harom yo farzandga, yo davlatga urar.
  - Berdiboy dam tandir, dam o'choq quradi.
  - Nonushtadan so'ng men onam, otam va opam bilan xayrlashib yo'lga tushdim.
49. Qaysi javobda ergash gapining kesimi murakkab ot kesim bo'lgan hol ergash gapli qo'shma gap berilgan?
- Soy qanchalik tez oqsa, u shunchalik sayoz bo'ladi.
  - Bugungi mashg'ulot qiziqarli ekan, shuning uchun ham birinchi qatorga borib o'tirib oldim.
  - Do'stlar, bilingki, ona ulug' va mo'tabar zot sanaladi.
  - Kimning himmati baland bo'lsa, qadr-qimmat ham baland bo'ladi.



50. *Hindistonda ovchilar bo'ri inidan ikkita bo'ri bolasini va ikkita qizchani topibdilar.* Ushbu gapdagi gap bo'laklari haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Qaralmishning vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajarishi kuzatiladi.
- B) Sifatlanmishlar ega va vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.
- C) Ushbu gapda holning ma'nosiga ko'ra ikki turi qatnashgan.
- D) Ushbu gapda holning egaga tobelanishi kuzatiladi.

51. *Bugun kechqurun shaharchamizga muhandislar, shifokorlar, o'qituvchilar, hisobchilar, hatto yetuk va mashhur olimlar, iste'dodli qalamkashlar tashrif buyurishadi.*

Ushbu gap haqida berilgan qaysi ma'lumotlar to'g'ri emas?

- 1) Ushbu gapda uyushiq ega va uyushiq aniqlovchi qatnashgan; 2) Ushbu gapda holning 3 xil ma'no turi qatnashgan;
- 3) Ushbu gapdagi barcha uyushiq bo'laklar yasama so'zlar bilan ifodalangan; 4) Ushbu gapda hokim qismga bitishuv va boshqaruv usulida tobelangan hollar qatnashgan.

- A) 2, 3                      B) 1, 4
- C) 1, 2                    D) 3, 4

52. *Xalqimizning shunday urf-odatlar borki, ularga hamisha hurmat bilan qarash kerak.* Ushbu ergashgan qo'shma gap haqida berilgan to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) Ergash gap qismi shaxsi noma'lum gap sanaladi; 2) Bosh gap qismida ega vazifasini bajargan qaralmish qatnashgan; 3) Ushbu qo'shma gap tarkibidagi olmoshlar hol va vositali to'ldiruvchi vazifasini bajargan;
- 4) Ushbu qo'shma gap tarkibidagi otlar aniqlovchi, ega va hol vazifasini bajargan;
- 5) Ushbu qo'shma gap tarkibida holning faqat bir ma'noviy turi qatnashgan.

- A) 1, 2, 4                  B) 2, 5
- C) 3, 5                    D) 1, 3, 4

53. *Yurak, sen mening sozimsan.*

Ushbu gap haqida berilgan qaysi ma'lumotlar to'g'ri?

- 1) Ushbu gap egasi yashiringan gap sanaladi;
- 2) Ushbu gap tarkibida sodda ot kesim qatnashgan.
- 3) Ushbu gapdagi so'zlar tarkibida qatnashgan ismning munosabat shakllari soni 3 ta;
- 4) Ushbu gapda qaralmish ega vazifasini bajargan.

- A) 1, 3
- B) 1, 2
- C) 2, 3
- D) 3, 4

54. *Kitob bebaho durga o'xshaydi, insonlar ma'naviyatini boyitadi.*

Ushbu gapdagi tobe bog'lanishlarda hokim qism vazifasini bajara olmagan bo'laklarni aniqlang.

- A) ega, sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi
- B) ega, sifatlovchi aniqlovchi, vositasiz to'ldiruvchi
- C) sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi vositali to'ldiruvchi
- D) ega, sifatlovchi aniqlovchi, vositali to'ldiruvchi

55. Qaysi gapda hokim qismi ega vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmasi qatnashgan?

- A) So'z yovuzlarni yakson etadi, qal'alarni yiqadi, u ko'zga ko'rinmas quroldir.
- B) Til do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirishning eng qulay vositasidir.
- C) So'zdan qudratliroq kuch yo'q, o'tkir dalil va yuksak fikrlar safini yorib o'tish mumkin emas.
- D) Har bir narsani tejash, bugungini erta uchun zaxiraga qo'yish yaxshi fazilatdir.

56. Qaysi gapda hokim qismi kesim vazifasida kelgan to'ldiruvchili so'z birikmalari qatnashgan?

- A) Ilm qalbni hamisha yoritadi, insonni yuksaklikka ko'taradi.
- B) Har doim o'z sevgan ishi bilan mashg'ul bo'lish insonning nodir baxtidir.
- C) Kitoblar – keksalikda eng yaxshi do'st, ayni paytda yoshlikning eng aziz rahnamosidir.
- D) Taassurotlar qanchalik tez va shiddat bilan aytib berilsa, ular shunchalik yuzaki va bir lahzalik bo'lib chiqadi.

57. Qaysi gapda hokim qismi to'ldiruvchi vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmalari qatnashgan?

- A) Kitoblar keksalikda eng yaxshi do'st, ayni paytda yoshlikning eng aziz rahnamosidir.
- B) So'z yovuzlarni yakson etadigan, qal'alarni yiqadigan ko'zga ko'rinmas quroldir.
- C) Yaxshi kitoblarni o'qish o'tmish zamonlarning eng dono kishilari bilan hamsuhbat bo'lish demakdir.
- D) Birdan bir haqiqiy ne'mat odamlarning o'zaro muloqotidir.

### Qo'shma gap sintaksisi

1. Qaysi javobda ergash gapining kesimi ot kesim bo'lgan hol ergash gapli qo'shma gap berilgan?

- A) Chin do'st yurakdan so'zlar, chunki u sening yomon bo'lishingni aslo xohlamaydi.
- B) Sabrning boshi achchiq, oxiri bo'lsa shirin.
- C) To'g'ri so'z qilichdan o'tkir, shuning uchun hamisha rost so'zlashga odatlan.
- D) Biz hozir juda baxtiyormiz, chunki hammamiz ko'zlagan maqsadimizga yetdik.

2. Ravish holi uyushib kelgan bog'langan qo'shma gapni aniqlang.

- A) Nizomjon yig'ilib qolgan gaplarini entikib, shoshilib gapirardi, Dildor bo'lsa beparvogina uning gaplariga quloq solib borardi.
- B) Kunbotar tomondan ko'tarilgan bulutni shamol haydab keldi-da, shatir-shutir qilib jala quya boshladi.
- C) To'satdan daraxtlarning biri qattiq va vahimali silkindi, yomg'irdek duv to'kilgan olmalar uning boshiga, yelkasiga tushdi.
- D) U bolakayni sevintirish, uning kayfiyatini ko'tarish uchun shunday qilgan edi, lekin onasi buni o'zgacha tushundi.

3. Yasama so'zning ega vazifasida kelishi kuzatiladigan bog'lovchisiz qo'shma gapni aniqlang.

- A) Ko'klamning sayroqi qushlari sho'x-sho'x kuylamoqdalar, ko'm-ko'k maysalar silkinib qushlarni olqishlamoqdalar.
- B) Bilim ado bo'lmas boylikdir, shuning uchun yoshlik chog'ingdan bilim olish payida bo'l.
- C) Dunyoning ishlari ko'p qiziq ekan: quvonch va qayg'u hamisha yonma-yon yuradi.
- D) Mashina katta jar yoqasiga kelib qoldi-yu, haydovchi hushyorlik qilib to'xtatdi.

4. Yasama so'zning ega vazifasida kelishi kuzatiladigan bog'langan qo'shma gapni aniqlang.

- A) Tuyakashlar arabcha gaplashishar, afsuski, men bu tilni bilmas edim.
- B) Zal dam guvullab qo'yar, dam onda-sonda qarsak chalib qo'yardi.
- C) Surayyoning peshonasiga qo'limni qo'yib qo'rqib ketdim: isitmasi nihoyatda baland.
- D) Faqat uzoqlarda bir tepalik ko'rinadi va boyagi mashinaning changi ko'zga tashlanadi.

5. Qaysi qo'shma gapni tashkil etgan har bir sodda gap tarkibida hol qatnashgan?
- A) Qosim Arslon akaning gapini eshitib xayol surardi, O'lmas uning so'zlariga quloq solardi.
  - B) Kimki ilm sirlarni puxta egallasa, kelajakda rohatini ko'radi.
  - C) U shaharchaga ko'p kelgan, lekin bu binolarni ko'rmagan edi.
  - D) Ba'zan oy zarrin kokillarini yer yuziga yoyadi, ba'zan bulut oy yuzini to'sib qo'yadi.
6. Qo'shma gapni tashkil etgan har bir sodda gap tarkibida bitishuvli so'z birikmasi qatnashgan qo'shma gapni aniqlang.
- A) Dunyoda yaxshi kitoblar ko'p, ammo bu kitoblar uni o'qiganlar uchun yaxshidir.
  - B) Men faqat shuni aytmoqchimanki, odam hamma vaqt bilimga tashna bo'lishi kerak.
  - C) Goh yuraklar simobday qalqiydi, goh tilga gap kelmaydi.
  - D) Komila indamadi, uning hamisha quvnoq ko'zlari allaqanday ma'yuslandi.
7. Qo'shma gapni tashkil etgan har bir sodda gap tarkibida boshqaruvli so'z birikmasi qatnashgan qo'shma gapni aniqlang.
- A) Men faqat shuni aytmoqchimanki, bizdek do'stlaringizni unutib yubormang.
  - B) Qizcha biror so'z demadi, uning hamisha quvnoq ko'zlari allaqanday ma'yuslandi.
  - C) Safarni iztirob aralash hayajon bosdi, chunki u birinchi marta taqdirlanayotgan edi.
  - D) Saflarimiz yil sayin ko'payayotir, qatorimiz tobora mustahkamlanyapti.
8. Qaysi qo'shma gapni tashkil etgan har bir sodda gap tarkibida qo'shimcha qo'shilishi ta'sirida tovush o'zgarishi bilan yozilgan so'z qatnashgan?
- A) Uning quvnoq ko'zlarida sevinch aks etgan edi, yuragi yoqimli hislarga to'la edi.
  - B) Dalalarga allaqachon oqshom cho'kkan, osmonda yulduzlar miltillaydi.
  - C) Qizcha biror so'z demadi, lekin uning hamisha chaqnoq ko'zlari allaqanday ma'yuslandi.
  - D) Sadaning tagida hech kim yo'q, qizil choynak bilan to'ntarib qo'yilgan piyola raisning uzoqqa ketmaganini ko'rsatardi.
9. Qaysi qo'shma gapni tashkil etgan har bir sodda gap tarkibida qo'shimcha qo'shilishi ta'sirida tovush o'zgarishi bilan yozilgan so'z qatnashgan?
- A) U bolaligini juda sog'ingan edi, ayni damda uning bu hislarini onasi ham anglagan edi.
  - B) Biz va siz bir hovuch tuproqqa aylanamiz, lekin kitoblar toshdan yasalgan haykallar kabi abadiy saqlanadi.
  - C) Jahongirning qasd qilgan ishidan sira qaytmasligini Haydar yaxshi bilardi va u buni tajribada ko'p sinagan edi.
  - D) Tomoshabinlar unga qarata guldastalar otishdi, lekin u gullarga e'tibor bermay sahnani bir aylanib chiqdi.
10. Bosh gapi egasi yashiringan gap bo'lgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- A) Agar onang aytmasa, bu yerga qadam bosmasding.
  - B) O'zingiz nimani xohlasangiz, boshqalarga ham shuni ravo ko'ring.
  - C) Kimki bo'lsa dilozor, undan el-u yurt bezor.
  - D) Shuni siz ham bilib qo'yingki, onaxonning hurmatini joyiga qo'yish kerak.

11. Bosh gapi egasi yashiringan gap bo'lgan ega ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- Agar onang aytmasa, bu yerga qadam bosmasding.
  - Manzilga kechgacha yetib olish kerak, shuning uchun qisqaroq yo'ldan yuraylik.
  - Kim izlansa, albatta, u ko'zlagan maqsadiga erishadi.
  - Kimki boshqalarni hurmat qilmasa, hurmatga sazovor bo'la olmaydi.
12. Bosh gapi egasi yashiringan gap bo'lgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- Biz shunga ishonamizki, tanlovda faxrli o'rinni egallaymiz.
  - Bilingki, jim turib salomat bo'lish gapirib malomatga qolishdan afzal.
  - Shuni siz ham unutmangki, onaxonning hurmatini joyiga qo'yish kerak.
  - Bu o'rinda shuni aytish kerakki, Qalandarovlarni o'sha davr hayoti yarata boshlagan edi.
13. Bosh gapi egasi yashiringan gap bo'lgan hol ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam.
  - Bu yil qish erta boshlanadi, shuning uchun daladagi ishlarni kechiktirmasdan bitirib olishimiz kerak.
  - O'zingiz nimani xohlasangiz, boshqalarga ham shuni ravo ko'ring.
  - Agar onang aytmasa, sen bu yerga qadam bosmasding.
14. Ergash gapi tarkibida qo'shma sifat ishtirok etgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- Zinhor unutmanginki, nodon, kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi.
  - Shunga havasim keldiki, hovlingizda doim atirgul va sadarayhonlar gurkirab turadi.
  - U juda hozirjavob yigit edi, topshirilgan har bir vazifani ham o'z vaqtida uddalar edi.
  - Yurtimizga kelgan har bir sayyoh uni sevib qoladi, chunki xalqimiz juda samimiy va mehmondo'st xalqdir.
15. Ergash gapi tarkibida qo'shma ot ishtirok etgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- Shunisi qiziqki, asalari oilasida o'n mingdan yuz mingtagacha ishchi arilar bo'lishi mumkin.
  - Kimki g'azalni chiroyli o'qisa, unga shu tillaqoshni hadya qilaman.
  - Shuni bilingki, halol va mehnatsevar kishilar hamisha xalq e'zozida bo'ladilar.
  - Shundan ehtiyot bo'lingki, qoraqurt zahri odam uchun juda xavflidir.
16. Tarkibida ot + ot tipidagi qo'shma sifat qatnashgan kesim ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- Donolarning o'giti shuki, hurmatga ega bo'lish uchun kishilar bilan xushmuomala bo'l.
  - Meni maftun etgan narsa shuki, uning havorang guldor ko'ylagi o'ziga yarashib turardi.
  - Xalqimiz azal-azaldan juda mehmondo'stdir, shuning uchun yurtimizga kelgan har bir sayyoh uni sevib qoladi.
  - Kishilarga qo'lingdan kelgancha mehr ulash, lekin toshbag'ir odamdap hech qachon yaxshilik kutma.
17. Tarkibida sifat + ot tipidagi qo'shma sifat qatnashgan toydiruvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- Zinhor unutmanginki, nodon, kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi.
  - Qaysiki inson dilozor bo'lsa, undan el-u yurt bezor bo'ladi.
  - Shirinso'z, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi: hamma ulardan bahra oladi.
  - Biz ulardan juda mamnunmiz, chunki bu insondan do'stona samimiyat va hozirjavoblikni o'rgandik.

18. Tarkibida ot + ot tipidagi qo'shma ot qatnashgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- Bodomnusxa do'ppi kiygan qizning raqsi barchaga yoqdi, shuning uchun tomoshabinlar uni uzoq olqishladilar.
  - Shundan ehtiyot bo'lingki, qoraqurt zahri odam uchun juda xavflidir.
  - Shunga ishonch hosil qildimki, toshbag'ir odamdan hech qachon yaxshilik chiqmas ekan.
  - Shuni yodda saqlangki, qo'ziqorinlarning ayrim turlari inson salomatligi uchun zararli hisoblanadi.
19. Bosh gap qismida qo'shimcha qo'shilishi ta'sirida bir undosh ortishi yuz bergan va shunday yozilgan so'z qatnashgan kesim ergash gapli qo'shma gapni toping.
- Men senga shunday kitoblar keltirayki, ulardan olamni o'rganasan.
  - Toleyim shuki, men mustaqil O'zbekiston farzandiman.
  - Donolar o'giti shuki, ortiqcha g'urur obro'yingni yo'q qilur.
  - Shundan ehtiyot bo'lish lozimki, hamrohingiz aslo nodon bo'lmasin.
20. Ergash gap qismida qo'shimcha qo'shilishi ta'sirida tovush o'zgarishi bilan yozilgan so'z qatnashgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni toping.
- Kimki samimiy va xushchaqchaq bo'lsa, unga o'ziga o'xshash quvnoq hamda hazilkash insonlar duch kelaveradi.
  - Dildoraning yuragida qandaydir dard bor, shuning uchun doim ma'yus yuradi.
  - Shuni bilingki, bilimli insonning kelajagi buyukdir.
  - Shunday shoirlar borki, bolaligi havas qiladigan darajada o'tmagan.
21. Ergash gap qismida qo'shimcha qo'shilishi ta'sirida tovush tushishi yuz bergan va shunday yozilgan so'z qatnashgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni toping.
- Hulkar ularni tanirdi, shuning uchun ularga yordamlashdi.
  - Shunisi ma'lumki, mening kasb tanlashimga otam sababchi bo'lgan.
  - Hayotingda kim uchundir foydali inson bo'lsang, mana shu sening eng katta yutug'ingdir.
  - Shuni bilki, qiynalib erishgan narsalaringning qadri baland bo'ladi.
22. Yoyiq undalma qatnashgan qo'shma gapni aniqlang.
- Mening uchun xo'p deya qolgin, jon o'rtoq
  - Kamtarlik qilma, Yigitali, buni o'zingning halol mehnating tufayli olding
  - Darhaqiqat, vatangadolikdan og'ir dard yo'q, do'stim.
  - Chimxo'rsan-da, shirin qizim, shu ham osh yeyishmi?
23. Yoyiq undalma qatnashgan sodda gapni aniqlang.
- Endi, bo'tam, gapimning buyog'iga ham diqqat bilan quloq sol.
  - Buning iloji yo'q, jon uka, kun botmasda: tezroq shaharga yetib olishimiz kerak.
  - Kecha pishirgan oshimni maqtab-maqtab yeding-ku, injiq ukajonim!
  - Yaqin yillarda bu tevarak-atrofdan o'zlashtirilmagan yer qolmaydi, Muhtaramxon!
24. Izohlovchi bilan kengaygan yoyiq undalma qatnashgan gapni aniqlang.
- Tura qoling, adasining erkatoyi, kun yorishib ketdi.
  - Usta Farfi, bormisiz, sizni kutaverib ko'zim to'rt bo'lib ketdi?!
  - Men senga ko'ksimni tutay, dardlarimni yuvib ket, yomg'ir!
  - Hoy Jalil, nega bular radioni gapirtira biladi-yu, sen bilmaysan?



25. Qaysi javobda tarkibida yasama fe'l ishtirok etgan bog'langan qo'shma gap berilgan?
- A) G'ayratlining yuragi qaynar, g'ayratsizning yuragi o'ynar.
  - B) Goh kechalari shamol bo'riday uvullab chiqardi, goh sharros yomg'ir quyib qolardi.
  - C) Kimda aql oz bo'lsa, undagi shuhratparastlik shunchalik kuchayar.
  - D) So'zning yumshog'i g'azabni so'ndiradi, so'zning qattig'i esa odamni o'ldiradi.
26. Tarkibida fe'lning vazifa shakllaridan faqat harakat nomi qatnashgan sodda gapni aniqlang.
- A) Shunisi aniqki, yolg'on gapirish – yomon odat.
  - B) Rejadagi zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapman.
  - C) Bu suratlarga qarash kishiga zavq berar edi.
  - D) Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirishda oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir.
27. Tarkibida fe'lning vazifa shakllaridan faqat sof fe'llar qatnashgan bog'lovchisiz qo'shma gapni aniqlang.
- A) Kun botgan, lekin hali qorong'i tushmagan.
  - B) Avaz arang tong ottirdi, saharlab Eshjonni yetaklab yo'lga tushdi.
  - C) Istaymanki, shoirning orzulari, umidlari haqiqatga aylansin.
  - D) Ruboiyni ichida o'qidi, yuzini tabassum qopladi.
28. Tarkibida fe'lning vazifa shakllaridan harakat nomi, ravishdosh va sof fe'l qatnashgan bog'lovchisiz qo'shma gapni aniqlang.
- A) Qirg'oqdan daryo bo'ylab yo'l ketgan va u daryo bilan birga qoya burilishida ko'zdan g'oyib bo'ladi.
  - B) Oxiri u shunchalikka bordiki, nechun kurashayotganini, nechun o'z hayotini tahlika ostiga solayotganini ham bilmay qoldi.
  - C) Saidaxon onasini ko'rishi bilan chopib uyga kirib ketdi, dugonalari taajjub bilan uning orqasidan qarab qolishdi.
  - D) Uning ko'zlari sevinchdan porlayapti, unga qarash kishiga zavq berar edi.
29. Kesimlari xabar maylidagi va buyruq-istak maylidagi fe'llar bilan ifodalangan ergashgan qo'shma gapni aniqlang.
- A) Kim sening kamchiliklaringni to'g'ri ko'rsatsa, u sening haqiqiy do'stingdir.
  - B) Olimjon xatni o'qiy olmadi, chunki xonaga kengash a'zolari yig'ila boshlagan edi.
  - C) Birovga ayta ko'rmang: ikkovimiz ham baloga qolamiz.
  - D) Istaymanki, shoirning orzulari, umidlari haqiqatga aylansin.
30. Ergash gapi tarkibida qo'shma ot, ishtirok etgan ega ergash gapli qo'shma gapni aniqlang.
- A) Shu narsa aniqki, kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi.
  - B) Shundan ehtiyot bo'lingki, qoraqurt zahri odam uchun juda xavflidir.
  - C) Shu ma'lumki, dengiz toshbaqalarining oyoqlari eshkak vazifasini o'taydi.
  - D) Kimki g'azalni chiroyli o'qisa, u mana shu tillaqosh bilan taqdirlanadi.

## Uslubshunoslik, til birliklarini qo'llash uslubiyati

1. *Mamlakat... (1) kichik bir qismi bo'lgan oila... (2) tinchligi... (3) asraylik.*

Mazkur gapda raqamlar bilan belgilangan ko'p nuqtalar o'rnida adabiy til me'yorlariga ko'ra qaysi kelishik qo'shimchalari qo'llaniladi?

- A) 1, 3 – tushum kelishigi; 2 – qaratqich kelishigi  
 B) 1, 2 – qaratqich kelishigi; 3 – tushum kelishigi  
 C) 1, 2 – tushum kelishigi; 3 – qaratqich kelishigi  
 D) 1 – qaratqich kelishigi; 2, 3 – tushum kelishigi

2. Qaysi javobda paronim qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud emas?

- A) Gunohkor bo'lmay turib o'rinsiz tanalar eshitsang, yoqmas ekan.  
 B) Tekin boylik axtarguncha o'zingga bob hunar top.  
 C) Bu obidalar necha asirlardan beri yer yuzini bezab turibdi.  
 D) San'at saroyiga konsert tomosha qilgani bordik.

3. *Nayman onani o'g'li bir yil oldin jungjanglar tomonidan halok etishgan otasining o'chini olish uchun jangga otlanib, Sario'zakda bo'lgan omonsiz olishuvga yarador bo'ladi.* Ushbu gapda adabiy til me'yorlariga amal qilinmay uslubiy jihatdan noto'g'ri qo'llangan qo'shimchalar soni nechta?

- A) 5 ta    B) 2 ta    C) 4 ta    D) 3 ta

4. Quyidagi qaysi gaplarda tushum kelishigining belgisiz qo'llanishi kuzatilmaydi?

- 1) Bolalariga ertak va naqlar aytib bera boshladi; 2) Biz uchun Vatanni sevmok sharafdir; 3) Bugungi ishni ertaga qo'yma; 4) Mevazorlar gulini to'kmoqda. 5) Bugun do'kondan kitob sotib olish kerak.

- A) 2, 4, 5    B) 3, 4, 5  
 C) 2, 3, 4    D) 1, 3, 4

5. Qaysi javobda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud?

- A) Bolalar oldiga issiq non va qaymoq qo'yildi.  
 B) Paxta gulli piyolalarga choy quyildi.  
 C) Chinni kosalariga sut quyildi.  
 D) Bu kishi qarib ham qo'yilmadi, yoqimsiz hazil qilaveradi.

6. Quyidagi qaysi gaplarda kelishik qo'shimchasining adabiy til me'yorlariga amal qilinmasdan xato qo'llanishi kuzatiladi?

- 1) Biz sizni gazeta sharhi bilan tanishtiramiz;  
 2) Ularga fikrining ravon so'zlamog'ni o'rgatish kerak; 3) Qadim zamonga Chin mamlakatida bir ulug' podshoh bo'lgan ekan;  
 4) O'quvchilarga ot va sifatni farqlash vazifasi topshirildi.

- A) 1, 2, 3    B) 2, 3, 4  
 C) 1, 4    D) 2, 3

7. *Yaxshi tarbiya ko'rgan odam... xislatlari... biri shuki, bunday odam o'z faoliyati... boshqalar... bir qadam oldin... o'tsa, darrov sheriklari... yordam beradi.*

Ushbu gapda adabiy til me'yoriga ko'ra nuqtalar o'rniga qaysi kelishik qo'shimchasini qo'yib bo'lmaydi?

- A) qaratqich kelishigi  
 B) tushum kelishigi  
 C) o'rin-payt kelishigi  
 D) chiqish kelishigi

8. – *Sobirjon, qaytyapsizmi?*

– *Ha.*

– *Siz tog'angizni ham bir ko'rib keting.*

Ushbu dialogdagi kishilik olmoshi qanday ma'no ifodalagan?

- A) jamlik ma'nosi  
 B) taxmin ma'nosi  
 C) hurmat ma'nosi  
 D) ko'plik ma'nosi

9. *Ozuqa zaxiralarimizning hammasi ertaga bitadi.*

Ushbu gapda bitmoq so'zi qaysi ma'noda qo'llangan?

- A) o'sib-unmoq
- B) yozuv orqali ifodalamoq
- C) tugamoq, tamom bo'lmoq
- D) et unib, birikib tuzalmoq

10. Yakka shaxsga ishora qilib hurmat ma'nosini ifodalagan siz kishilik olmoshi qatnashgan javobni aniqlang.

- A) Bolalar, ehtimol, siz oq ayiqni ko'rmagandirsiz? Men uni ko'rganman.
- B) Albatta, sizga, guruhimiz a'lochilariga, hammamiz ishonamiz.
- C) Rahbarimiz o'quvchilarga yuzlanib: «Siz ertaga muzeyga borasiz», – dedi.
- D) Siz yoshlik qilib bunaqa xomxayollarga borib yurmang, usta!

11. Yakka shaxsga ishora qilib hurmat ma'nosini ifodalagan siz kishilik olmoshi qatnashmagan javobni aniqlang.

- A) Odamlar bilan shunday gaplashingki, do'stim, siz bilan suhbatlashishni havas qilsinlar.
- B) Siz yoshlik qilib bunaqa xomxayollarga borib yurmang, usta!
- C) Agar, bolam, siz haqiqiy do'st topmoqchi bo'lsangiz, avvalo, samimiy bo'lishni o'rganing.
- D) Bitiruvchilar, siz endi o'zingiz uchun qiziqarli va foydali kasb tanlashingiz kerak.

12. Qaysi gapda o'zlik olmoshi predmetni ko'rsatish uchun qo'llangan?

- A) Berilgan barcha vazifalarni mening o'zim bajardim.
- B) Ikromjon ukasini biz bilan qoldirib, o'zi idora tarafga qarab ketdi.
- C) Soat o'zi ishlab ketdi.
- D) Yo'q, dadam emas, mening o'zim agronomman.

13. Yakka shaxsga ishora qilib hurmat ma'nos ifodalagan ular olmoshi qatnashgan javobni aniqlang.

- A) Sobir tog'amni yaxshi ko'raman. Amm ular biznikiga bir yilda bir keladilar.
- B) Sakkizinchi sinf o'quvchilari faol. Ular har bir tadbirda o'z chiqishlari bilan ishtirok etishadi.
- C) Ularning har ikkisi bugungi musobaqa ilk marotaba qatnashmoqda.
- D) Yer yuzida tillar ko'p. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra ularning miqdori 7000 ga yaqin.

14. *O'smirlarimiz xalqaro turnirlarda g'alabo qozonmoqdalar. O'zbekning dovrug'ini olamga yoymoqdalar.*

Ushbu gapda yoymoq so'zi qaysi ma'noda qo'llangan?

- A) Mashhur qilmoq, ovoza qilmoq.
- B) Taxlangan, o'ralgan narsalarni ochmoq
- C) Kichik-kichik guruhlariga bo'linib ketmoq.
- D) Tevarak-atrofga anqimoq.

15. *Osiyo chempionatida Qatar terma jamoasi Yaponiya milliy jamoasini yutdi.*

Ushbu gapda yutmoq so'zi qaysi ma'noda qo'llangan?

- A) ichmoq, yemoq
- B) biror nima deyishdan o'zini tiymoq, oshkor qilmaslik
- C) yengmoq, mag'lub etmoq
- D) o'z qa'riga tortmoq

16. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xatolik mavjud?

- A) Bog'imizga o'n tub olma ko'chatini o'tqazdik.
- B) Azim tog'lar, sizlar ham yaxshi qoling.
- C) Besh asrkim nazmiy saroyini Titratadi zanjirband bir sher.
- D) Sizning har bir so'zingiz biz uchun tilladan afzal.

17. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xatolik mavjud?

- A) Bu kasallikning davosini topish uchun olimlar astoydil izlanishmoqda.
- B) Yo'l yoqasidagi azim yong'oqlar, sizlar ham yaxshi qoling.
- C) Mevasini ko'tarolmagan olma shohi qarsillab sinib tushdi.
- D) Xalqimiz uchun o'sha davrlarda e'tiqod, islom kabi tushunchalar butunlay yot edi.

18. Qaysi javobda qaratqich kelishigining belgisiz qo'llanishi kuzatilmaydi?

- A) Yoqimli non hidi butun saroyini tutib ketdi.
- B) Qachongacha qorning o'ylab o'tadirsan? Qachongacha ko'kdan chalpapak kutadirsan.
- C) Chappar urib gullagan bog'in, O'par edim vatan tuprog'in.
- D) Ming yildirki, bulbul kalomi, O'zgarmaydi – yaxlit hamisha.

19. *Tadbirni har oyning juma kunida o'tkazishga ma'muriyat kafolat beradi.* Ushbu gap qaysi uslubga xosdir?

- A) publitsistik uslub
- B) rasmiy uslub
- C) ilmiy uslub
- D) so'zlashuv uslubi

20. Qaysi javobda ilmiy uslub namunasi berilgan?

- A) Tobe so'zning hokim so'z talabiga ko'ra ma'lum kelishik qo'shimchasi yoki ko'makchi yordamida bog'lanishiga boshqaruv deyiladi.
- B) Sizga yig'ilish har oyning so'nggi jumasida o'tkazilishini ma'lum qilamiz.
- C) Bugungi ko'rsatuvimizda ta'lim sohasidagi islohotlar haqida so'z yuritamiz.
- D) Martning oxirgi kunlari. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'yg'a solyapti.

21. Qaysi javobda ilmiy uslubga oid gap berilgan?

- A) -Ke, picha dam ol, qo'zichog'im, toza charchapsan.
- B) Uchrashuv 15-may kuni soat 15<sup>00</sup> da maktabning majlislar zalida boshlanadi.
- C) Yer shivirlaydi, yulduz jivirlaydi, bahordan darak keladi.
- D) Kesim qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil: fe'l kesim, ot kesim boladi.

22. Qaysi javobda badiiy uslubga oid gap berilgan?

- A) Ikki til – o'zbek va fors tillari – ikki pahlavon, ular goh mantiqning gurzisini ko'taradilar, goh husn va salobatlarini namoyish qiladilar.
- B) Uchrashuv 15-may kuni soat 15<sup>00</sup> da maktabning majlislar zalida boshlanadi.
- C) Tovush to'lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog'liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.
- D) Ushbu ma'lumotnoma so'ralgan joyga ko'rsatish uchun berildi.

23. *Tovush to'lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog'liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.*

Ushbu gap qaysi uslubga xos?

- A) rasmiy uslub
- B) publitsistik uslub
- C) so'zlashuv uslubi
- D) ilmiy uslub

24. *Bahor... Bu kun olam uyg'onmoqda.*

*Ana, yam-yashil maysalar xuddi jajji qizaloqlar kabi qiqirlab bosh ko'tarmoqda. Quyosh olam uzra iliq nurlarini taratmoqda.*

Ushbu parcha qaysi uslubga xos?

- A) badiiy uslub
- B) so'zlashuv uslubi
- C) rasmiy uslub
- D) ilmiy uslub

25. *Yaxshi tarbiya ko'rgan odam... xislatlari... biri shuki, bunday odam o'z faoliyatida boshqalar... bir qadam oldinga o'tsa, darrov orqaga qaraydi, sheriklari... yordam qo'li... uzatadi, safi... kengaytirib, yangi g'alaba... ko'zlaydi.*

Ushbu parchada nechta so'zdagi ko'p nuqta o'rniga adabiy til me'yorlariga ko'ra tushum kelishigi qo'shimchasini qo'yish mumkin?

- A) 3 ta
- B) 4 ta
- C) 2 ta
- D) 1 ta

26. Qaysi javobda hozirgi zamon shakli kelasi zamon ma'nosida qo'llangan?

- A) Nozima bu yil yozgi ta'tilda qishloqdagi buvisinikiga ketmoqchi.
- B) Xo'sh, anovi burchakda turgan divanni nima qildik.
- C) Do'stim, men ertaga oyimni dam olishga olib ketyapman.
- D) Hozir yomg'ir yog'yapti, yo'lga chiqmaymiz.

27. Qaysi gapdagi ko'makchini kelishik qo'shimchasi bilan almashtirish mumkin?

- A) Otam singari shifokor bo'lmoqchiman.
- B) U yerga 10-avtobus bilan boriladi.
- C) Atrof suv quygan kabi jimjit edi.
- D) U qo'shiqni zavq bilan tingladi.

28. Qaysi javobdagi birliklar nutqimizda so'z birikmasi sifatida qo'llana oladi?

- A) qulog'iga quymoq, tosh otmoq
- B) ko'nglidan o'tkazmoq, qoqqan qoziq
- C) maktab bog'i, asar qiziqarli
- D) gullar oralab, ko'ylagi keng

29. Qaysi javobdagi birliklar nutqimizda so'z birikmasi sifatida qo'llana oladi?

- A) uyga qadar, ko'nglidan o'tkazmoq
- B) aks etmoq, imzo qo'ymoq
- C) ishtahasi karnay, uy katta
- D) bo'yniga ilmoq, yaxshi ko'rmoq

30. Qaysi javobdagi birliklar nutqimizda so'z birikmasi sifatida qo'llana oladi?

- A) maslahat bermoq, ko'ylagi keng
- B) bo'yniga ilmoq, asar zerikarli
- C) ruxsat bermoq, ko'zi ochilmoq
- D) qulog'iga quymoq, boshini aylantirmoq

31. *Har bir inson ustozlarining e'zozlashi, ularning hurmat va ehtiromini ado qilishi shartdir. Negaki bu zotlar insonni ruhini tarbiyalaydilar.*

Ushbu parchada nechta qoshimcha adabiy til me'yorlariga amal qilinmasdan xato qo'llangan?

- A) 1 ta
- B) 4 ta
- C) 3 ta
- D) 2 ta

32. Qaysi gapda kelishik qo'shimchasining qo'llanishi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?

- A) Men o'tgan yili yozga anhor bo'yidagi hovlimizda dam oldim.
- B) Ziyolilar ma'rifat urug'ini sochishda fidoyilik ko'rsatdilar.
- C) Insofli, diyonatli, boy-badavlat va xalqparvar kishilarni moddiy yordamisiz ma'rifatchilar faoliyat ko'rsata olmas edilar.
- D) Xalq orasida: «Maqtanganni uyini ko'r» degan gap bor.

33. Qaysi gapda adabiy til me'yorlariga amal qilinmay qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A) Bu yerdagi qayiqchilarga uyqu yo'q, chunki tun-u kun uzun eshkaklarning shaloplalani eshitilib turardi.
- B) Taom yeyilgandan so'ng rang-barang qimmatbaho va antiqa mevalar tortildi.
- C) Bu kitob bilan u faqat mamlakatnigina emas, balki butun jahonning e'tirofiga sazovor bo'ldi.
- D) Bu xushxabarni tezroq ota-onamga yetkazish uchun uyga chopdim.



34. Qaysi gapda to'ldiruvchi vazifasidagi so'zda paronim bilan bog'liq xatolik bor?
- Yomon yo'ldosh yov bo'lar, ravon yo'lda g'ov bo'lar.
  - Uzuk va zirak, tillaqosh va zebigardonlardan quti-quti yig'gan edi.
  - Kimki birovga choh qazisa, unga o'zi yiqiladi.
  - Ishning suratini oshirishimiz, kuniga yuz tup olma ko'chatini o'tkazishimiz kerak.
35. Qaysi gapda fe'lning o'tgan zamon shakli kelasi zamon ma'nosida qo'llangan?
- Ular allaqachon bir qarorga kelgan edilar.
  - Men bu mehmonni kuzatib borayotirman.
  - Bir vaqt qarasam, yig'layapman, hech o'zimni bosolmayman.
  - Agar mening gapimni tushungan bo'lsang, yur men bilan, ketdik.
36. Qaysi gapda fe'lning o'tgan zamon shakli kelasi zamon ma'nosida qo'llangan?
- U shuncha urinsa ham atrofdagilarni bunga ishontira olmaydi.
  - Bir vaqt qarasam, ko'zimning yoshini to'xtata olmayapman.
  - U do'stini bekatda ko'rib qoldi-yu, ko'rmaslikka oldi.
  - Xo'p, mayli, hozir boshingizni qotirmay, men ketdim.
37. *Qismat bu isnod-u uyat... ayni biz... boshimiz... solgan erkankim, shul zamonda tug'ilganimdan pushaymondaman, musibatli damlarda qulayotgan saltanat tojdori... - siz..., qanot bo'lolmaganimdan ozurda va armondaman.*  
Ushbu parchadagi ko'p nuqtalarning o'rnida qo'llab bo'lmaydigan kelishik qo'shimchasini aniqlang.
- tushum kelishigi
  - o'rin-payt kelishigi
  - qaratqich kelishigi
  - jo'nalish kelishigi
38. Qaysi gapda ko'makchini unga ma'nodosh bo'la oladigan kelishik qo'shimchasi bilan almashtirish mumkin?
- U ham sen kabi yoshligidan fantastik asarlar o'qishni yaxshi ko'rardi.
  - Yuksak qoyalardan shiddat bilan qo'zg'algan burgut suruvdagi qo'zichoqni ildi-yu ketdi.
  - Men ham sizlar bilan shahar aylanishga boraman.
  - Bola uyalgani uchun bu yerdan tezroq ketishga harakat qilgan.
39. Qaysi gapda hokim qismga boshqaruv usulida bog'langan so'zda paronim bilan bog'liq xatolik bor?
- Azm daryolar ham kamar bo'lolmas, Qo'shilib chulg'ansa sening belingga.
  - Bu bebaho ganjni ko'z qorachig'iday asragayman, do'stim.
  - Kimki birovga choh qazisa, unga o'zi yiqiladi.
  - Poyezd oraliq bekatda to'xtaganda u tanbarga chiqib muzday shamolga yuzini tutdi.
40. Qaysi gapda adabiy til me'yorlariga amal qilinmay qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?
- Buni jamoada tashabbus uyg'onishidan, ta'lim-tarbiya sifati yaxshilanishidan ko'rinib turibdi.
  - Imoratning o'pirilib tushgan joylari siniq pishiq g'isht bilan tiklangan edi.
  - Tovus o'zining chiroyli patlarini ehtiyot qiladi, vijdonli odam esa o'zining sharaf va shonini saqlaydi.
  - Qayerda intizom va hamjihatlik bo'lsa, o'sha yerda ish yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'ladi.

41. Qaysi gapda to'ldiruvchi vazifasidagi so'zda paronim bilan bog'liq xatolik bor?
- Davlati oshib-toshib yotsa-yu, yana shu faqirga ko'z olaytirsan.
  - Seni nafaqat yotlardan, hatto o'zimdan ham rashk qilaman, azizim.
  - Nozima jilolanib turgan ipakka mahliyo bo'lib palak tikib o'tirardi.
  - Dostonbek yosh san'atkor do'sti uchun tambur sotib oldi.
42. Qaysi gapda aniqlovchi vazifasidagi so'zda paronim bilan bog'liq xatolik bor?
- Tongda ruhsiz ko'z ochaman, Qovurilar tanda jon.
  - Sinfimizning ahl va inoq o'quvchilari bugungi bellashuvda ham yutib chiqdi.
  - Ichkariga kirishganda hushsiz yotgan bir kishini ko'rishdi.
  - Uning qalbidagi bu bo'shliq o'rnini hech narsa to'ldira olmas edi.
43. *Ilm olish igna ... quduq qazish demakdir. Bilmaslik ayb emas, bilim... intilmaslik aybdir. Bilim har qanday boylik... afzal sanaladi.*  
Ushbu parchada ko'p nuqtalar o'rnida yozilishi kerak bo'lgan til birliklari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- biriktiruv bog'lovchisi, chiqish kelishigi qo'shimchasi, chiqish kelishigi qo'shimchasi
  - biriktiruv bog'lovchisi, jo'nalish kelishigi qo'shimchasi, tushum kelishigi qo'shimchasi
  - ko'makchi, qaratqich kelishigi qo'shimchasi, jo'nalish kelishigi qo'shimchasi
  - ko'makchi, jo'nalish kelishigi qo'shimchasi, chiqish kelishigi qo'shimchasi
44. Qaysi gapda o'z sinonimi o'rniga xato qo'llangan ot qatnashgan?
- Birozdan keyin ona o'g'ilchasi Xoliqjonning beg'ubor basharasiga engashib tikildi.
  - Qizini yer-ko'kka ishonmagan ona uni katta dabdaba bilan uzatishni orzu qilardi.
  - Cholning ovozi o'zgardi, o'pkasi to'ldi, shekilli, birpas osuda qolib, keyin gapirdi.
  - Bazzoz do'konini katta o'g'liga qoldirib, har kuni asir namozini uyiga kelib o'qir edi.
45. Qaysi javobda uslubiy xoslangan yasama so'zlar berilgan?
- tirjaymoq, turg'izmoq
  - tabassum qilmoq, kulmoq
  - ming'irlamoq, bayon etmoq
  - yurgazmoq, so'zlammoq
46. Qaysi javobda nutqimizda so'z birikmasi ham bo'lib kela oladigan turg'un bog'lanma (ibora) qatnashgan?
- Qorasochning dili siyoh bo'lib, birdan xo'rliqi keldi.
  - Ota-bobolar nomini hech qachon unutmashlik kerakligini qulog'iga quydi.
  - Hayitvoy ko'nglida kiri yo'q, sodda, ishonuvchan va samimiy bola ekan.
  - Bu yigitlarning rosa ishtahasi karnay ekan.
47. Qaysi javobda nutqimizda so'z birikmasi ham bo'lib kela oladigan turg'un bog'lanma (ibora) qatnashgan?
- Nima qilyapsan o'zi, do'stim, esingni yeb qo'ydingmi?
  - Bu yigitlarning rosa ishtahasi karnay ekan.
  - Bema'ni va tuturiqsiz gaplar bilan boshini aylantirdi.
  - Azimjonning so'zlaridan yigitning ko'ngli biroz yorishdi.

48. Qaysi javobdagi gaplarda qatnashgan ko'makchini unga ma'nodosh bo'la oladigan kelishik qo'shimchasi bilan almashtirib bo'ladi?

- 1) Sardor akasining qahramonliklarini faxr bilan gapirib berdi; 2) Salima va Dildora telefon orqali gaplashishdi; 3) Bu sovg'alarni atayin onam uchun oldim; 4) Hunarmandchilikning sir-u asrorini chidam va matonat bilan o'rganish kerak.

- A) 3, 4                      B) 1, 2  
C) 1, 4                      D) 2, 3

49. Qaysi javobdagi ibora nutqimizda so'z birikmasi ham bo'lib kela oladi?

- A) ishtahasi karnay  
B) dilidan o'tkazmoq  
C) yostig'ini quritmoq  
D) ko'nglida kiri yo'q

50. Qaysi gapda ko'makchini unga ma'nodosh bo'la oladigan kelishik qo'shimchasi bilan almashtirish mumkin?

- A) Men qarmoq bilan baliq tutishni yoqtiraman.  
B) Yuksak qoyalardan shiddat bilan qo'zg'algan burgut suruvdagi qo'zichoqni ildi-yu ketdi.  
C) Sardorbek, tanigan-tanimaganingga hurmat bilan munosabatda bo'l.  
D) Sayyohlar Registon ansamblini zavq bilan tomosha qilishardi.

51. Qaysi gapda ko'makchini unga ma'nodosh bo'la oladigan kelishik qo'shimchasi bilan almashtirib bo'lmaydi?

- A) Germaniyadan otam uchun antiqa qo'lsoat olib keldim.  
B) Sahnaga chiqqan yosh xonanda mumtoz qo'shiqlarni zavq bilan kuylardi.  
C) Bu mavzu haqida bilganlaringizni gapiring.  
D) Yangi ijro etgan qo'shig'ingiz kecha televideniye orqali namoyish etildi.

52. Qaysi gapda to'ldiruvchi vazifasini bajargan so'zda paronim bilan bog'liq xatolik kuzatiladi?

- A) Shifokor bemorning dardiga davo topish uchun izlandi.  
B) Qizcha onasining sur'atini hech qo'lidan qo'ymas edi.  
C) Mening singlim ikki yoshga to'lmay rovon gapirib ketdi.  
D) Bu bebaho ma'naviy ganjni ko'z qorachig'idek asraymiz.

53. Qaysi gapda to'ldiruvchi vazifasidagi so'zda paronim bilan bog'liq xatolik bor?

- A) Bu bebaho ganjni ko'z qorachig'iday asragayman, do'stim.  
B) Sozanda tamburni sozlash uchun uni qo'liga oldi.  
C) Kimki birovga choh qazisa, unga o'zi yiqiladi.  
D) Bu sur'at meni ajoyib bolalik yillarimga yetakladi.

### Punktuatsiya. Tinish belgilari qo'llanilishi

1. Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi Inson hayvondan aql bilan farq qiladi

Mazkur ko'chirma gapli qo'shma gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilari qaysi javobda tartib bilan to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) « », -.  
B):« », -.  
C):« ».  
D):«-».

2. Millatlarni elatlarni deydi ijodkor buyuk do'stlik birlashtiradi

Mazkur ko'chirma gapli qo'shma gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilari qaysi javobda tartib bilan to'liq va to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) «-», -.  
B):« », -.  
C) «, , -, -».  
D) «, -, -».

3. *Anvarjon siz ko'p narsalarni o'rganishingiz kerak dedim unga*

Mazkur ko'chirma gapli qo'shma gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilari qaysi javobda tartib bilan to'g'ri va to'liq ko'rsatilgan?

- A) « », –.
- B) «,», –.
- C) «,» –.
- D):« », –.

4. *Kamgaplik deydi H. Olimjon donolik yo'lining boshlanishidir*

Mazkur ko'chirma gapli qo'shma gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilari qaysi javobda tartib bilan to'liq va to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) «, –, –».
- B) «–, –».
- C) «, –, –».
- D) «–, –».

## 5. Qaysi javobda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik kuzatilmaydi?

- A) Avval ular bizga yetib olishsin keyin birga jo'naymiz.
- B) Vaqting ketdi – baxting ketdi.
- C) Yer dehqonning qonidir – suv joni.
- D) Na qor, na yomg'ir, na to'fon va na bo'ron hech narsa dovyuraklarni qo'rqita olmadi.

## 6. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik kuzatilmaydi?

- A) Tabiat hodisalari; shamol, qor, yomg'ir, do'l o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi.
- B) Zorqishloq ko'chalarida, adir va soylarida, serdaraxt bog'larida – ko'klam namoyishi kezadi.
- C) Daraxtdagi barcha sayroqi qushlar: sa'va, mayna, bulbul va boshqalar unga jo'r bo'libdi.
- D) Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar: qizlar maktab hovlisini supurdilar.

## 7. Qaysi gapda tire tinish belgisi tushirib qoldirilgan?

- A) Na qor, na yomg'ir, na to'fon va na bo'ron hech narsa dovyuraklarni qo'rqita olmadi.
- B) Shunday odamlar borki kelajakni oldindan bashorat qila oladilar.
- C) Mening opam ham tajribali shifokor.
- D) Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz.

## 8. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud?

- A) «Ertaga hammamiz kelamiz», – dedi usta.
- B) Muharrir mehri tovlanib: «Rahmat, ona qizim!» – dedi.
- C) «Millatlarni, elatlarni, – deydi M. Ulug'ova: – buyuk do'stlik birlashtiradi».
- D) «Vatan ona kabi azizdir», – dedi ustozimiz.

## 9. «Hunari va odobi bo'lmagan kishidan deydi Mahmud Koshg'ariy baxt va davlat ketadi».

Ushbu gapda necha o'rinda qaysi tinish belgilari tushirib qoldirilgan?

- A) 2 o'rinda vergul, 2 o'rinda tire
- B) 1 o'rinda vergul, 1 o'rinda tire, 1 o'rinda ikki nuqta
- C) 2 o'rinda vergul, 1 o'rinda tire
- D) 1 o'rinda vergul, 2 o'rinda tire

## 10. «Temur tuzuklari»da shunday deb bitilmish: «Tajribamdan ko'rilgankim, amri qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdur».

Ushbu gapdagi tinish belgilarining qo'llanish qoidalari noto'g'ri izohlangan javobni aniqlang.

- A) Ushbu gapda uyushiq aniqlovchilar orasida vergul qo'llangan.
- B) Ushbu gapdagi vergullarning barchasi uyushiq bo'laklarni bog'lash uchun qo'llangan.
- C) Muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelgani uchun ikki nuqta qo'llangan.
- D) Ko'chirma gap qo'shtirnoq ichida yozilgan.

11. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?
- A) «Odob o'rgatsalar, quloq sol, – deydi Yusufiy. – Birov odob o'rgatsa, o'rganmagan kishi hayvon kabidir».
  - B) «Ha, – dedi Nafisa qat'iy qilib, aytmoqchi emas edim, endi aytadigan bo'ldim».
  - C) «Anvarjon uka – dedim unga, – siz o'sishingiz kerak».
  - D) «Kenjatoyingiz qani? – deb so'radi u – Yordam bersa bo'lmasmidi?»
12. Qaysi gapda // shartli belgisi o'rnida tire tinish belgisi tushirib qoldirilgan?
- A) Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad // milliy o'zligimizni chuqurroq anglash.
  - B) Mening opam ham // talaba, bu yil oliygohga kirdilar.
  - C) Bildi ota // foydasizdir kurashmoq.
  - D) Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir // tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz.
13. Qaysi gapda // shartli belgisi o'rnida tire tinish belgisi tushirib qoldirilgan?
- A) Bugun bu yerda eshitganlarim ham // haqiqat edi.
  - B) Shuni bilingki // biz sizni aslo unutmaymiz.
  - C) Saltanat ham // ikkinchi bosqich talabasi.
  - D) Tilga ixtiyorsiz // elga e'tiborsiz.
14. Qaysi gapda tire tinish belgisini tushirib qoldirish bilan bog'liq xatolik kuzatilmaydi?
- A) Bildi ota foydasizdir kurashmoq.
  - B) Shuni bilingki, mehmondo'stlik o'zbek xalqining ezgu fazilati.
  - C) Tilga ixtiyorsiz elga e'tiborsiz.
  - D) Tinchlik farovon hayot manbayi.

15. Qaysi gapda tire tinish belgisi tushirib qoldirilgan?
- A) Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz.
  - B) Yaxshi niyatli kishilarning ahdi shu edi.
  - C) Mening opam ham mohir tikuvchi, ular bejirim ko'ylaklar tikib charchamaydilar.
  - D) Vatan har bir inson tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan tabarruk go'sha!
16. *Surayyoning peshonasiga qo'limni qo'yib qo'rqib ketdim: isitmasi nihoyatda baland ekan.*  
Ushbu gapdagi ikki nuqtaning qo'llanish sababi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?
- A) qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish munosabati ifodalangani uchun
  - B) uyushiq bo'laklardan oldin umumlashtiruvchi bo'lak qo'llanganligi uchun
  - C) qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalangani uchun
  - D) o'zidan oldin kelgan bo'lak ma'nosini izohlab kelgan ajratilgan bo'lak qo'llangani uchun
17. *Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi...*  
Ushbu gapdagi ikki nuqtaning qo'llanish sababi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?
- A) o'zidan oldin kelgan bo'lak ma'nosini izohlab kelgan ajratilgan bo'lak qo'llangani uchun
  - B) qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalangani uchun
  - C) uyushiq bo'laklardan oldin umumlashtiruvchi bo'lak qo'llanganligi uchun
  - D) qo'shma gap qismlari ketma-ket sodir bo'ladigan voqea-hodisalarni ifodalangani uchun



18. *Hojiyevning uzun gapidan chiqqan qisqa xulosa shu bo'ldi: bugungi avlod o'z ajdodlariga munosib voris bo'lmoqda.*  
Ushbu gapdagi ikki nuqtaning qo'llanish sababi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?
- A) qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalangani uchun
  - B) o'zidan oldin kelgan bo'lak ma'nosini izohlab kelgan ajratilgan bo'lak qo'llangani uchun
  - C) qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish munosabati ifodalangani uchun
  - D) uyushiq bo'laklardan oldin umumlashtiruvchi bo'lak qo'llanganligi uchun
19. *O'zingiz ko'rib turgan edingiz: mening hayotim masalasi, qalbim masalasi hal bo'lmoqda edi.*  
Ushbu gapdagi ikki nuqtaning qo'llanish sababi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?
- A) qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalangani uchun
  - B) uyushiq bo'laklardan oldin umumlashtiruvchi bo'lak qo'llanganligi uchun
  - C) o'zidan oldin kelgan bo'lak ma'nosini izohlab kelgan ajratilgan bo'lak qo'llangani uchun
  - D) qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish munosabati ifodalangani uchun
20. *Mening anglaganim shu bo'ldi: yomonlik jazosiz qolmas ekan.*  
Ushbu gapdagi ikki nuqtaning qo'llanish sababi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?
- A) uyushiq bo'laklardan oldin umumlashtiruvchi bo'lak qo'llanganligi uchun
  - B) qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalangani uchun
  - C) o'zidan oldin kelgan bo'lak ma'nosini izohlab kelgan ajratilgan bo'lak qo'llangani uchun
  - D) qo'shma gap qismlari bir paytda sodir bo'ladigan voqea-hodisalarni ifodalangani uchun
21. Qaysi gapda // shartli belgisi o'rnida ikki nuqta tinish belgisi tushirib qoldirilgan?
- A) Dadam shu atrofdan // qishloqdan chiqaverishdan, do'kon qidirdi.
  - B) Aql ko'pga yetkazadi // hunar bo'lsa insonni ulug'likka yetkazadi.
  - C) Uylar, devorlar, daraxtlar // hamma narsa qorong'ilikka jimgina cho'kdi.
  - D) Men bu qizni yaxshi taniyman // o'tgan yil tanlovda birga qatnashgan edik.
22. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?
- A) Ona tilim sen borsan, shaksiz, Bulbul kuyin she'rga solaman.
  - B) Daraxtdagi barcha sayroqi qushlar sa'va, bulbul, mayna va boshqalar unga jo'r bo'ldi.
  - C) Yaxshi niyatli kishilarning ahdi – shu.
  - D) A'lo o'qish bizning asosiy vazifamiz.
23. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?
- A) Hamma narsa uylar, devorlar, daraxtlar qorong'ilikka jimgina cho'kdi.
  - B) Na qor, na yomg'ir, na to'fon va na bo'ron – hech narsa dovyuraklarni qo'rqitilmadi.
  - C) Muloyimlik rizq sari yetaklovchi kalit.
  - D) Xullas shuni bilginki, qars ikki qo'ldan chiqadi.
24. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?
- A) Yer don, dehqon bo'lsa xazinabondir.
  - B) Erkin o'g'lingman, qabul et, O'zbekim jon o'zbekim.
  - C) Hech kim: na Dilobar, na Gulnoza ertalab kelmadi.
  - D) Poytaxt bo'lish uchun avvalambor poytaxtlik maqomi kerak.

25. Darhaqiqat O'zbekistonning qayeriga borsangiz darxon kenagas jaloyir bahrin nayman kabi joy nomlariga duch kelishingiz mumkin. Ushbu parchada necha o'rinda vergul tushirib qoldirilgan?

- A) 4
- B) 7
- C) 6
- D) 5

26. Qaysi javobdagi gapda // belgisi o'rnida tire tinish belgisini qo'yib bo'lmaydi?

- A) A'lo o'qish // bizning va sizning asosiy hamda sharaflari vazifamiz.
- B) Uylar, devorlar, daraxtlar // hammasi qorong'ilikka jimgina cho'kdi.
- C) Otamning akalari ham // haydovchi.
- D) O'rinsiz g'azab // o'zingga azob.

27. Qaysi javobdagi gapda // belgisi o'rnida tire tinish belgisi qo'yiladi?

- A) Bildi ota // foydasizdir kurashmoq.
- B) Otamning akalari ham // haydovchi.
- C) Harakat // sen ezgulikning haqiqiy qadr-qimmatini belgilaysan.
- D) A'lo o'qish // bizning va sizning asosiy hamda sharaflari vazifamiz.

28. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud emas?

- A) Muloyimlik rizq sari yetaklovchi kalit.
- B) Na qor, na yomg'ir, na to'fon va na bo'ron – hech narsa dovyuraklarni qo'rqitilmadi.
- C) Hamma narsa uylar, devorlar, daraxtlar qorong'ilikka jimgina cho'kdi.
- D) Xullas shuni bilginki, qars ikki qo'ldan chiqadi.

29. Millatlarni elatlarni deydi M. Ulug'ova buyuk do'stlik birlashtiradi

Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilari qaysi javobda tartib bilan to'g'ri va to'liq berilgan?

- A) «, -, -».
- B) «, , -, -».
- C) «, , -, -».
- D):«, -, -».

30. Aqli kishi sabr etar har nafas deydi Sa'diy Sheroziy

Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilari qaysi javobda tartib bilan to'g'ri va to'liq berilgan?

- A) «, -, -».
- B) « », -.
- C):«», -.
- D) «», -.

### Xalq og'zaki ijodi

1. Ota, javobingni berdim, jo'nagin!  
Bundan keyin sovchi bo'lib kemagin!  
Har kimni tengiga qo'sh-da, vallamat,  
Menga munday tuzsiz so'zni demagin.  
Ushbu parchada qaysi doston qahramonining otasiga qarab aytgan so'zlari berilgan?

- A) «Kuntug'mish»
- B) «Oygul bilan Baxtiyor»
- C) «Ravshan»
- D) «Alpomish»

2. Ota, javobingni berdim, jo'nagin!  
Bundan keyin sovchi bo'lib kemagin!  
Har kimni tengiga qo'sh-da, vallamat,  
Menga munday tuzsiz so'zni demagin.  
Ushbu parchadagi jumlar xalq dostonlaridan biridagi qaysi qahramon tilidan aytilgan?

- A) Boysari
- B) Alpomish
- C) Hasanxon
- D) Avazxon

3. Qaysi javobda «Ravshan» dostoni qahramoni Hasanxon haqida fikr yuritilgan?
- A) U bir necha yil o'zining o'rniga qushbegisini qo'yib, o'g'lining o'tida kuyib, tagizaminga kirib, toat-ibodatga mashg'ul bo'lib yotadi.
- B) No'g'ay podsholaridan biri bo'lib, uning Qilichxon degan laqabi bor edi, o'sha vaqtning odamlari uni Avliyo ota der edilar.
- C) U kunlardan bir kun o'g'li bilan saxiylik va baxillik haqida suhbatlashadi.
- D) U Go'ro'g'lining tarbiyasini olgan dongdor polvon edi. U o'g'lini qutqarish uchun otlanadi, uch oylik yo'lni yigirma kunda bosib o'tadi.
4. «...ko'zining yoshini artib, shunday nisinga (uzukka) qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzida jami parini bandiga olgan duoli yozuvi bor; olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor; har yerda suluv barno qiz bo'lsa, oti bor; ba'zi-ba'zi juda nozik, uzik(yetuk) suluvning ham oti bor, ham surati bor, shu uzukning bir chetida Qoraxon podshoning qizi – ... degan bir qizning oti bor, ham surati bor».
- Ushbu parchadagi nuqtalar o'rniga qo'yilishi kerak bo'lgan ismlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A) Ravshanbek, Zulkumor
- B) Kuntug'mish, Xolbeka
- C) Ravshanbek, Gulnor
- D) Ko'kaldosh, Oybarchin
5. «...shunday nisinga (uzukka) qarasa, niginning yuzida xati bor, yer yuzidagi jami parini bandiga olgan duoli yozuvi bor; olam mamlakatiga bermaydigan xosiyati bor; har yerda suluv barno qiz bo'lsa, oti bor; ba'zi-ba'zi juda nozik, uzik suluvning ham oti bor, ham surati bor ...»
- Ushbu parcha qaysi dostonidan olingan?
- A) «Oygul bilan Baxtiyor»
- B) «Ravshan»
- C) «Alpomish»
- D) «Kuntug'mish»
6. *Sen bo'lmasang, otang holi ne kechar?  
Sensiz menga falak kafanto'n bichar,  
Dunyoning bolini zahar deb ichar,  
Qanday kuni kechar sho'r enang nochor,  
Harna yo'g'-u borim, senga yo'l bo'lsin?*
- Quyidagi dostonlarning qaysi birida yorini topish uchun yo'lga chiqqan yolg'iz o'g'liga qarab ota shu so'zlarni aytadi?
- A) «Oygul bilan Baxtiyor»      B) «Ravshan»
- C) «Kuntug'mish»                  D) «Alpomish»
7. *Menga aytgin ko'nglingdagi o'yingni,  
Aytgin, bolam, boradigan joyingni,  
Men bilayin talab qilgan elingni,  
Ayt siringni, qaytarmayman ra'yingni,  
E, yolg'iz shunqorim, senga yo'l bo'lsin?*
- Xalq dostonlaridagi qaysi qahramon yorini topish uchun yo'lga chiqqan yolg'iz o'g'liga qarab shu so'zlarni aytadi?
- A) Boybo'ri                          B) Hasanxon
- C) Qoraxon                          D) Go'ro'g'li
8. U yoshgina o'g'lining uzukdagi suratda ko'rgan qizni topish uchun begona yurtga yolg'iz o'zi yo'lga chiqqanini ko'rib qoladi. O'g'li unga: «Javob ber, otajon, yorga boraman, Yor deyman-u, nomus-orga boraman», – deya o'z iqrorini izhor etadi. Ushbu parchada fikr yuritilgan ota nomi qaysi javobda berilgan?
- A) Qoraxon («Kuntug'mish»)
- B) Darxon («Oygul bilan Baxtiyor»)
- C) Boybo'ri («Alpomish»)
- D) Hasanxon («Ravshan»)
9. Xalq dostonlaridan birida o'zga yurtga otlangan o'g'liga: «Kechsang yomon bo'lar ota-onadan», «Oldingdan kim chiqsa, besalom o'tma», «Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot!», – deya nasihatlar qilgan ota, Go'ro'g'lining tarbiyasini olgan dongdor polvon, nomi keltirilgan javobni aniqlang.
- A) Qoraxon («Kuntug'mish»)
- B) Boybo'ri («Alpomish»)
- C) Boysari («Alpomish»)
- D) Hasanxon («Ravshan»)

10. Xalq dostonlaridan birida o'zga yurtga otlangan o'g'liga: «Bir qiz uchun unutmagin bizlarni, Unutma otang ham onang qarzini!», «O'zingdan pastlarman har yo'lga ketma! Bolam, aytgan nasihatim unutma», «Bir g'aribni ko'rsang, zinhor og'ritma», – deya nasihatlar bergan ota nomi keltirilgan javobni aniqlang.
- A) Hasaxon                      B) Boybo'ri  
C) Qoraxon                      D) Go'ro'g'li
11. U yoshgina bo'lsa-da, o'zga yurtga yolgiz otlanadi. Otasi unga: «Bir qiz uchun unutmagin bizlarni, Unutma otang ham onang qarzini!», «O'zingdan pastlarman har yo'lga ketma! Bolam, aytgan nasihatim unutma», «Bir g'aribni ko'rsang, zinhor og'ritma», – deya nasihatlar beradi. Ushbu parchada fikr yuritilgan xalq dostonlaridan biridagi yoshgina qahramon kim?
- A) Ravshan                      B) Alpomish  
C) Kuntug'mish                D) Gurkiboy
12. *«...bu yog'ida to'qson besh, bu yog'ida to'qson besh – o'n kam ikki yuz kokili bor, bir yog'ini tilla suvga botirgan, bir yog'ini kumush suvga botirgan, tong shamolida qotirgan. Jamoli chillaning qoriday tingjirab, yaltirab o'tirgan».* Ushbu parchada xalq dostonlaridagi qaysi qahramonning husn-u jamoli ta'riflangan?
- A) Gulorning  
B) Zulxumorning  
C) Xolbeking  
D) Barchinoyning
13. Xalq dostonlaridagi qaysi qahramon yorining ota-onasiga ularning o'g'li 40 kun muhlat bilan zindonga solingani haqida xat yozadi va uni mayna qushi orqali yetkazadi?
- A) Xolbeka                      B) Zulxumor  
C) Suqsuroy                    D) Barchinoy
14. Kampirning «o'lsam merosxo'rim deb» yurgan, tutingan o'g'li podshoga bandi bo'ladi. Kampirning avvalgi alamlaridan bunisi ortiqroq bo'ladi. U tutingan o'g'lini qutqarish uchun astoydil harakat qiladi. Kampir yig'lab-emranib Aynoq kalning oldiga boradi. Ushbu parchada qaysi doston voqeasi bayoni berilgan?
- A) «Alpomish»  
B) «Ravshan»  
C) «Kuntug'mish»  
D) «Oygul bilan Baxtiyor»
15. Qaysi javobdagi ma'lumot «Kuntug'mish» dostoni qahramoni Kuntug'mish haqida?
- A) U dinini o'zgartirish haqidagi amaldorlarning taklifini rad etib, o'z dinidan, e'tiqodidan kechmasligini aytadi.  
B) U o'zga yurtga yolg'iz o'zi otlanadi. Yoshligi, soddaligi tufayli osongina bandi etilib, zindonga tashlanadi.  
C) U o'lib ketgan olti o'g'li o'tida kuyib yurgan kampirga o'g'il tutinadi. Kampir uni «o'lsam merosxo'rim» deya e'zozlaydi.  
D) U o'n to'rt yoshga to'lguncha ilm-hunar o'rganadi. O'n to'rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi sipohlik hunarlarini o'rganadi.
16. Dostonlarning qaysi birida bosh qahramon dor ostiga keltirilganda ham qo'rqmasdan amaldorlarga qarab:  
«Bir nechalar o'z holini chengnamas, Sen aytgan odaming, zolim, men emas, Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman! Aziz boshing oyog'imga teng emas...» – deb ayta olgani ifoda etiladi?
- A) «Kuntug'mish»  
B) «Ravshan»  
C) «Alpomish»  
D) «Oygul bilan Baxtiyor»

17. «Ravshan» dostoni haqida berilgan ma'lumotni aniqlang.
- A) Ushbu dostonda Qosim ismli yosh, insofli, diyonatli yigit ishtirok etadi. U bosh qahramonning omon qolishi uchun astoydil harakat qiladi.  
B) Ushbu dostonda tasvirlanishicha, ota va o'g'il bir kuni saxiylik va baxillik haqida suhbatlashadi.  
C) Dostonda Buvraxon degan podshoh va uning ikki vaziri qatnashadi. Vazirlarining biri Shoir vazir, ikkinchisi Tohir vazir edi.  
D) Ushbu doston qahramoni o'lib ketgan olti o'g'li o'tida kuyib yurgan kampirga o'g'il tutinadi.
18. Xalq dostonlarining birida ifoda etilishicha, dor ostiga keltirilganda amaldorlarga qarab: «Men o'lmasam, o'z elimdan kechmayman!», – deb qo'rqqmasdan ayta olgan qahramon nomi keltirilgan javobni aniqlang.
- A) Qorajon                      B) Alpomish  
C) Ravshan                     D) Kuntug'mish
19. «To'rani ko'tarib, taxti shohiga keltirib, tilla taxt ustiga o'tqizdilar. Ustiga podshohona xilvatlar kiygizib, boshiga tilladan bo'lgan tojni qarqara qilib, o'tqizib, hukumat niginni qo'liga solib, jamiy mardumi shahar dasti bay'at berdilar». Ushbu parcha qaysi doston qahramoni haqida?
- A) «Oygul bilan Baxtiyor»  
B) «Kuntug'mish»  
C) «Alpomish»  
D) «Ravshan»
20. ...qirq yigitini olib, xachirlarga mol-dunyo ortib Zangar yurtiga keladi. Bir bazzoz qiyofasiga kirib, ko'shk yonida mato sotib o'tirganda qiz o'z kanizaklariga bu yigitni saroyga olib kirishlarini buyuradi. Ushbu ma'lumot xalq dostonlaridan biridagi qaysi qahramon haqida?
- A) Alpomish                  B) Kuntug'mish  
C) Ravshan                    D) Gurkiboy
21. «Podsho buyurib, bir tuv biyani tulup qilib so'yib, ikkovini zich qilib, xom teriga tiqib, darvozadan chiqarib, bir asovning dumiga taqib, bir cho'l-jaziraga qaratib, ko'p odam chuylab hurkitib, haydab yubordi». Ushbu parchada qaysi doston qahramonlarining jazolanishi ifoda etilgan?
- A) «Kuntug'mish»  
B) «Alpomish»  
C) «Ravshan»  
D) «Oygul bilan Baxtiyor»
22. – Ey farzand, burungilardan bir so'z bor: «Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo'r yarar kuningga», degan ekan. Zarga kelsa, xachirdagi pulni ayama, zo'rga kelsa, qirq yigitga buyursang, Xudodan kelgan ajal bo'lmasa, bandadan kelgan ajaldan bir-ikki-uchga dovur ayirib olar. Bor, bolam, Alloh yoring bo'lsin, pirlar madadkoring bo'lsin, sog' borgaysan, salomat kelgaysan, omin Allohu akbar. Ushbu parchada qaysi doston qahramonining o'g'liga oq fotiha berishi tasvirlangan?
- A) «Alpomish»  
B) «Ravshan»  
C) «Oygul bilan Baxtiyor»  
D) «Kuntug'mish»
23. Qaysi javobdagi ma'lumot «Kuntug'mish» dostoniga oid emas?
- A) Otasi oshiq yigitga lashkarlar ichidan qirq yigitni ayirib beradi, qirq xachirga zar ortib beradi va uni oq fotiha bilan Zangar yurtiga kuzatadi.  
B) Doston qahramoni dinini o'zgartirish haqidagi amaldorlarning taklifini rad etib, o'z dinidan, e'tiqodidan kechmasligini aytadi.  
C) Doston qahramoni bir kosa suv va bir non evaziga buloqni egallab yotgan ajdahoni o'ldirish shartini ado etadi.  
D) Buvraxon avval oshiq va ma'shuqani mudhish jazoga mahkum etadi, keyinroq Azbarxo'ja xiyonati tufayli mashaqqatlarga duch kelishganini eshitib, ularni afv etadi.



24. «Kuntugʻmish» dostonida «Kuntugʻmish toʻra qirq kun, qirq tun toʻy berib, toʻyi tamom boʻladigan kuni jamiy arkoni davlatni yigʻib», kimni Zangarga podsho qilib yurtiga qaytadi?
- A) Mohiboyni      B) Gurkiboyni  
C) Qosimni        D) Xolmoʻminni
25. Xalq dostonlaridan birida:  
*«Ojaman, deb mard qavlidan toyama,  
Yoʻqchilik joʻmardning koʻzin oʻyama,  
Oqsuvdan yilqingni oʻzim haydadim,  
Qoʻlingdan kelganin qilgin, ayama»*, – deya dorga hukm qilinganda ham mardlikni qoʻldan bermagan, yolgʻon gapirishni oʻziga ep koʻrmagan qahramon kim?
- A) Ravshan        B) Kuntugʻmish  
C) Mohiboy        D) Qorajon
26. Xalq dostonlaridan biridagi qaysi qahramon qizini: «Koʻkqamish koʻlida qoʻy sogʻdirib, chorvachilik ilmini oʻrgatayin, qoʻy sogʻmoqqa usta boʻlsin», – deb maktabdan chiqarib oladi?
- A) Shoir vazir      B) Buvraxon  
C) Qoraxon        D) Boysari
27. Qaysi javobda «Alpomish» dostoni qahramoni Oybachin haqida maʼlumot berilgan?
- A) U oʻzining suratini qogʻozga soldirib, bir sandiqcha tayyor qilib, oʻzining sochidan bir tola soch olib, toʻraning uzugini oʻzining suratiga oʻrab, ... sandiqni qulflab, daryoga oqizib yuboradi.  
B) U yorining zolim xon qoʻlida bandi boʻlib, qirq kun muhlat bilan zindonga solingani haqida maktub yozib mayna orqali yigitning ota-onasiga yoʻllaydi.  
C) Otasi uni Koʻkqamish koʻlida qoʻy sogʻdirib, chorvachilik ilmini oʻrgatish maqasadida maktabdan chiqarib oladi.  
D) U oshiq yigitga: «...menga qarab sen ham nobud boʻlma, sen elga yetib, odamlarga qoʻshilsang, yurtinnga borsang, men sendan roziman leya iltijo qiladi.
28. Boysariga: «*Bu alplarni kuyov qilib olamiz, Mina elga toza erkin boʻlamiz*», – deya qalmoq alplariga qizini berishni maslahat bergan qahramon kim?
- A) Qultoy  
B) Qoʻshquloq  
C) Yortiboy  
D) Koʻsa sinchi
29. ...*Mast uyquda yotib edi bu shunqor,  
Koʻziga koʻrindi rasul paygʻambar.  
Bu soʻzlarni rasul paygʻambar aytdi:  
«Adashgan ummatim, shafqatdoringman,  
Tanib qolgin: rasul paygʻambaringman,  
Ummatlarni mudom yoʻlga solurman».*  
Ushbu parchada xalq dostonlaridan biridagi qaysi qahramonning tushi tasvirlangan?
- A) Hasanxonning  
B) Ravshanning  
C) Kuntugʻmishning  
D) Alpomishning
30. Xalq dostonlaridan biridagi qaysi qahramon:  
*«...Bogʻbon boʻlsam, qizil gulni terayin,  
Har na qismat yozilganin koʻrayin.  
Kelgin, qalmoq, birga maydon qilayin,  
Nasib etsa, sening doding  
berayin...»* – deya raqibini maydonga chorlaydi?
- A) Boysari  
B) Kuntugʻmish  
C) Alpomish  
D) Ravshan
31. U oʻgʻlining dorga osilishi haqidagi xabarni eshitib, uni qutqarish uchun yoʻlga tushadi, uch oylik yoʻlni yigirma kunda bosib oʻtadi.  
Ushbu maʼlumot xalq dostonlaridagi qaysi qahramon haqida?
- A) Buvraxon haqida  
B) Qoraxon haqida  
C) Hasanxon haqida  
D) Boyboʻri haqida

**32.** *Dostonda Qoraxon ismli No'g'ay podshosi bo'lib, uning Qilichxon degan laqabi bor edi, o'sha vaqtning odamlari uni Avliyo ota der edilar.*  
Ushbu parchadagi ma'lumot qaysi doston haqida?

- A) «Rustamxon»                      B) «Alpomish»  
C) «Ravshan»                        D) «Kuntug'mish»

**33.** Yorini topish uchun begona yurtga yolg'iz o'zi yo'lga tushgan, otasiga:  
*«Javob ber, otajon, yorga boraman, Yor deyma-u, nomus-orga boraman»,* – deya o'z iqrorini bayon etgan xalq dostonlaridan biridagi qahramon nomini aniqlang.

- A) Ravshan                              B) Alpomish  
C) Hasanxon                            D) Kuntug'mish

**34.** Ota o'zga yurtga otlangan o'g'lini ko'rib chuqur qayg'uga botadi. «Yolg'iz bola yovdan yomon», uzoqroq bozorga yuborgisi kelmaydi. Ota «o'g'lining jamoliga, novdaday o'sgan kamoliga ko'zi to'ymay, ... yolg'iz bolasidan ayrilib qololmay», «Axir mening uyimni motamxona qilib, meni tashlab ketar ekansa-da», – deb qiynaladi, biroq mard emasmi, «Kel, tavakkal-da», – deb nasihatlar qilib oq fotiha beradi. Xalq dostonlarining biriga oid voqea bayoni berilgan ushbu parchada fikr yuritilgan ota nomi qaysi javobda keltirilgan?

- A) Boybo'ri  
B) Hasanxon  
C) Qilichxon  
D) Qoraxon

### Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan adabiyot.

*O'rxun-Enasoy obidalarini («To'nyuquq», «Kultegin»), Imom Ismoil al-Buxoriy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Nosiruddin Rabg'uziy, Atoiy, Lutfiy, Zahiriddin Muhammad Bobur*

**1.** Qaysi shoir o'z lirik asarlaridan iborat majmuasini yilning fasllariga qiyosan to'rt kitob (devon) holida yaratib, umrning to'rt davrini (faslini) yoshga mos tarzda taqsimlab chiqadi va har bir kitobni alohida-alohida nomlaydi?

- A) Ogahiy  
B) Bobur  
C) Alisher Navoiy  
D) Furqat

**2.** *Tegurdi menga algi ellik yoshim, Qug'u qildi quzg'un tusitek boshim. Oqir ellik emdi mengar kel teyu, Pusug' bo'lmasa, bordim emdi naru.*  
Ushbu misralar qaysi ijodkor asaridan o'rin olgan?

- A) Nosiruddin Rabg'uziy  
B) Yusuf Xos Hojib  
C) Alisher Navoiy  
D) Ahmad Yassaviy

**3.** *Ellik yoshim menga qo'l tegizdi, Qora quzg'un tusidek boshimni oq (qush) qildi (ya'ni sochim oqardi). Ellik (yosh) endi men tomon kel, deb chorlamoqda, Pistirma (ya'ni nogahoniy o'lim) bo'lmasa, endi u tomon boraman.*  
Ushbu mazmundagi misralar qaysi asardan o'rin olgan?

- A) «To'nyuquq»                      B) «Qisasi Rabg'uziy»  
C) «Qutadg'u bilig»                D) «Xamsa»

**4.** «Qutadg'u bilig» asaridagi qahramonlar muayyan bir ezgu tushuncha – ma'naviy qadriyatning ramziy timsoli hisoblanadi. Ushbu ramziy timsollar haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) O'gdulmish adolat ramzi hisoblanadi.  
B) Oyto'ldi aql va zakovat ramzi hisoblanadi.  
C) O'zg'urmish qanoat, ofiyat, ya'ni sog'lomlik ramzi hisoblanadi.  
D) Kuntug'di baxt va davlat ramzi hisoblanadi.

5. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari haqida berilgan ma'lumotni aniqlang.
- A) Asardan «Agar arslon itlarga bosh bo'lsa, itlar arslonga aylanadi, lekin it arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar itlar kabi bo'lib qoladi» mazmunidagi misralar o'rin olgan.
  - B) Ushbu asar 3 qismga bo'linadi. Uning uchinchi qismi turli foydali kuzatishlar va misollar haqidadir.
  - C) Ushbu asar payg'ambarlar hayotini hikoya qiluvchi nasriy didaktik asardir.
  - D) Ushbu asarda mavzu biror voqeani hikoya qilish asosida emas, balki muallif fikr-mulohazalarining bayoni tarzida yoritiladi va har bir maqolat so'ngida hikoya yoki masal keltiriladi.
6. Qaysi javobda Bobur haqida ma'lumot berilgan?
- A) Xoja Ahrorning «Volidiya» asarini she'riy yo'l bilan o'zbekchaga o'giran.
  - B) Shoir boshqalar bilan olib borgan yozishmalari – xatlarini to'plab «Munshaot» asarini tuzgan.
  - C) Shoir aruz vazni haqida «Ilmi ash'orning qoidai avzoni» asarini yozgan.
  - D) Adabiyotimiz tarixidagi siyosiy-didaktik lirikaning yorqin namunasi bo'lmish «Qasidai nasihat» asarining muallifidir.
7. Qaysi javobda «Qutadg'u bilig» asari haqida to'g'ri ma'lumot berilgan?
- A) Ushbu asar doston janriga mansub bolib, u masnaviy yo'lida yozilgan.
  - B) Ushbu asar ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan.
  - C) Ushbu asar nasriy didaktikaning noyob namunasi sanaladi.
  - D) Ushbu asar Nosiruddun To'qbug'aning iltimosiga binoan yozilgan.
8. Qaysi javobda berilgan ma'lumot to'g'ri?
- A) «Qutadg'u bilig» asari bundan o'n asr oldin yozilgan turkiy til grammatikasiga oid ilk asar sanaladi.
  - B) Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» va Navoiyning «Saddi Iskandariy» asarlari o'zaro bir xil she'riy vaznda yozilgan.
  - C) «Qutadg'u bilig» asarining Vena nusxasini Abdurauf Fitrat Muhammad hoji Lolareshdan olishga muyassar bo'lgan.
  - D) «Qutadg'u bilig» asarining Qohira nusxasini mashhur sharqshunos Hammer Purgshtall sotib olib, saroy kutubxonasiga keltiradi.
9. Qaysi javobdagi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) «Qutadg'u bilig» hozircha bizgacha yetib kelgan ilk turkiy doston sanaladi.
  - B) «Qutadg'u bilig» asarining Qohira nusxasini mashhur sharqshunos Hammer Purgshtall sotib olib, saroy kutubxonasiga keltiradi.
  - C) Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» va Navoiyning «Saddi Iskandariy» asarlari o'zaro bir xil she'riy vaznda yozilgan.
  - D) «Qutadg'u bilig» masnaviy yo'lida yozilgan didaktik asar sanaladi.
10. «...bu kitobni tuzgan, toat yo'lida tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqliq, ko'p yozuqliq...».
- Qaysi kitobda muallif kamtarlik bilan o'zi haqida shunday yozadi?
- A) «Al jome' as-sahih»
  - B) «Qisasi Rabg'uziy»
  - C) «Guliston»
  - D) «Qutadg'u bilig»
11. Bek To'qbug'a qaysi adibdan «o'qimoqg'a keraklik, o'rganmakka yarog'liq» payg'ambarlar qissalaridan iborat asar yozib berishni so'ragan edi?
- A) Rabg'uziydan
  - B) Yassaviydan
  - C) Yusuf Xos Hojibdan
  - D) Ismoil al-Buxoriydan

12. «Qisasi Rabg'uziy»da ifoda etilishicha,  
«Yo Rasululloh, manim maqsudim qisos  
ermas erdi, egningdagi muhri nubuvvatni  
ko'rsam. Emndi dastur bergil, ul muhr uza  
qubla berayin, sandin afv qildim», deya o'z  
maqsadini izhor etgan sahoba nomi qaysi  
javobda keltirilgan?
- A) Umar                      B) Ukosha  
C) Usmon                    D) Abu Bakr
13. «Qisasi Rabg'uziy»da ifoda etilishicha,  
«payg'ambar (a. s.)ning sahobalariga qarata:  
Ey mo'minlar, kim ersaning manim  
uza hech da'vosi va xusumati bormu?»  
degan savoliga payg'ambarlik muhrini  
ko'rish niyatida da'vo qilgan sahoba nomi  
keltirilgan javobni aniqlang.
- A) Umar                      B) Ukosha  
C) Usmon                    D) Abu Bakr
14. Adib XIII asrning oxiri XIV asrning  
boshlarida Xorazmning Roboti o'g'uz degan  
joyida yashab ijod etgan. U Nosiruddin  
To'qbug'aning iltimosiga ko'ra «o'qimoqg'a  
keraklik, o'rganmakka yarog'liq» asar yozgan.  
Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?
- A) Nosiruddin Rabg'uziy  
B) Fuzuliy  
C) Ahmad Yassaviy  
D) Yusuf Xos Hojib
15. «Savol: O'luk tirgizmak mo'jizasi bo'lg'ay,  
ammo ko'rni taqi (yana) pesni o'tachilar  
o'nglaturlar (tabiblar tuzatadilar) dori  
birla. Iso duosi birla ne mo'jizasi mo'jiza  
bo'lur? Javob ul turur: Modarizod (onadan  
tug'ma) ko'zsuzni Iso duo birla o'nglaturlar  
erdi. Yana pes ikki turluk bo'lur, biriga davo  
yarar, biriga yaramas. Davo yarag'an pes  
ul bo'lurkim, igna sanchsa qon chiqar. Davo  
yaramasg'a igna sanchsa qon chiqmas. Iso  
alayhissalom andog' pesni yaxshi qilur erdi».  
Ushbu parcha qaysi ijodkor asarida uchraydi?
- A) Imom Ismoil al-Buxoriy  
B) Yusuf Xos Hojib  
C) Nosiruddin Rabg'uziy  
D) Ahmad Yassaviy
16. «Rum viloyatining odati bor, teva  
(tuya)lari chaliqliq (beboshlik qilib)  
burunduglatmasalar, yangi tushgan  
kelinlarni keltirub, un tuzub (musiq  
chaldirib) yirlayturlar (kuylatishadi). Tevalar  
ularning ovozlari ruxlanib o'zlaridan  
kecharlar (o'zlarini unutadilar) – ilikka  
ilinurlar (qo'lga tushadilar)». «Xalq orasida  
rasm bor, do'st do'stga safar qilib yonar  
(qaytar) bo'lsa, bir hadya ola borurlar».  
Ushbu parcha qaysi ijodkor asarida uchraydi?
- A) Nosiruddin Rabg'uziy  
B) Imom Ismoil al-Buxoriy  
C) Ahmad Yassaviy  
D) Yusuf Xos Hojib
17. Qaysi javobdagi ma'lumot «Qutadg'u bilig»  
asari haqida?
- A) Bu asar – o'zbek nasrining o'ziga xos  
kashfiyoti. Unda Amir Temurning  
Hindiston urushi tasviri tushirilgan Bog'i  
Dilkusho haqida ham ma'lumot berilgan.  
B) Bu asarda, asosan, payg'ambarlar hayoti  
hikoya qilinadi, undagi qissalarning bosh  
qahramonlari turlicha bo'lsa-da, ularni  
bir zot – Muhammad alayhissalom  
siymosi o'zaro birlashtirib turadi.  
C) Bu asarning 31-bobida shoir  
hukmdorlikka, beklikka loyiq shaxsda  
qanday insoniy fazilatlar bo'lishi  
lozimligi masalasini atroficha badiiy-  
axloqiy tadqiq va tahlil qiladi.  
D) Bu asarda yapaloqqush va boyo'g'lining  
quda-andachilik mojarolari tasvirlangan  
bo'lib, 400 dan ortiq maqol va matallar  
keltirilgan.
18. Bu asar – o'zbek nasrining o'ziga xos  
kashfiyoti. Unda Amir Temurning  
Samarqandda barpo qildirgan bog'lari  
haqida ma'lumotlar uchraydi. Unda  
Hindiston urushi tasviri tushirilgan Bog'i  
Dilkusho haqida ham ma'lumot berilgan.  
Ushbu ma'lumot qaysi asar haqida?
- A) «Zarbulmasal»            B) «Boburnoma»  
C) «Qasidai nasihat»       D) «Hayrat-ul abrор»

19. Aruz vazni haqida yozilgan «Muxtasar» nomli risola muallifini aniqlang.
- A) Navoiy                      B) Fitrat  
C) Furqat                      D) Bobur
20. Bobur «Boburnoma»da qaysi joy xalqi haqida: «Eli tamom sunniy va pok mazhab va mutasharri' (shariatga bo'ysunuvchi) ... eldur» deb yozadi?
- A) Buxoro  
B) Samarqand  
C) Andijon  
D) Farg'ona
21. Bobur «Boburnoma»da qaysi joy haqida: «*Rub'i maskunda ... cha latif shahr kamroqdur... . Hech yog'iy qahr va g'alaba ila munga dast topmog'on uchun «baldayi mahfuza» derlar*» – deb yozadi?
- A) Farg'ona                      B) Samarqand  
C) Andijon                      D) Buxoro
22. ... *yirik mutasavvuf olim Arslonbobo qo'lida tarbiyalanadi, so'ng Buxoroga borib Yusuf Hamadoniy qo'lida tahsil oladi.* Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?
- A) Ahmad Yassaviy  
B) Yusuf Xos Hojib  
C) Rabg'uziy  
D) Lutfiy
23. Qaysi javobdagi ma'lumot Ahmad Yassaviy haqida emas?
- A) U yirik mutasavvuf olim Arslonbobo qo'lida tarbiyalangan.  
B) U Buxoroga borib Yusuf Hamadoniy qo'lida tahsil olgan.  
C) U Nosiruddin To'qbug'aning iltimosiga ko'ra payg'ambarlar hayotini aks ettiruvchi asar yozgan.  
D) Uning merosi xalq orasida «Devoni hikmat» nomi bilan mashhur bo'lgan «Hikmat»lar asarida jamlangan.
24. Qaysi javobdagi ma'lumot «Qutadg'u bilig» asari haqida?
- A) U Nosiruddin To'qbug'aning iltimosiga ko'ra yozilgan bo'lib, unda asosan payg'ambarlar hayoti hikoya qilingan.  
B) Unda uch og'a-ini sarguzashtlari o'rin olgan. Sherni o'ldirgan to'ng'ich bahodirning qahramonligi aks ettirilgan.  
C) Unda Eltarish xoqonning Tabg'achda tarbiyalangan, keyinchalik turk xalqini yig'ib «shad» unvonini olgan maslahatchisi va sarkardasining qahramonliklari aks etgan.  
D) Unda to'rtta asosiy qahramon: Kuntug'di, Oyto'ldi, O'zg'urmish va O'gdulmishga ezgu tushuncha timsoli yanglig' qaralgan.
25. Ayoqingg'a tushar har lahza gisu, Masaldurkim: «Charog' tubi – qorong'u». Ushbu bayt muallifini aniqlang.
- A) Zahiriddin Muhammad Bobur  
B) Fuzuliy  
C) Lutfiy  
D) Alisher Navoiy
26. *Uning otasi muhaddis bo'lib, goho tijorat bilan ham shug'ullangan. Lekin juda halol, xudojo'y odam bo'lgan. Zamondoshlari uning xonadoniga mehnatsiz topilgan biror dirham ham pul kirmaganligi haqida yozadilar.* ... *mana shunday oilada o'sdi. Otasi erta vafot etganidan tarbiyasida onasining xizmati katta bo'ldi. U kichkinaligidan hadis ilmiga ko'ngil qo'ydi.* Ushbu ma'lumot kim haqida?
- A) Ahmad Yassaviy  
B) Yusuf Xos Hojib  
C) Imom Buxoriy  
D) Rabg'uziy



27. Bu g'azalning qofiyasi («sevarim – jigarim – saharim – guzarim – xabarim – basarim – nazarim – siymbarim») va radifi («xoh inon, xoh inonma») – juda jarangdor. G'azal qurilishida ularning alohida o'rni bor. Xususan, radifning to'rt so'zdan tashkil topgani, amalda sakkiz misrada ularning qaytarilishi ohang ustuvorligini kuchaytirgan. Ushbu parchada fikr yuritilgan g'azalning muallifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?

- A) Zahiriddin Muhammad Bobur
- B) Lutfiy
- C) Alisher Navoiy
- D) Ogahiy

28. Bu asarning bizgacha yetib kelgan uch nusxasi bo'lib, bir nusxasi Hirotda uyg'ur yozuvi bilan ko'chirilgan. Bu nusxa Turkiyaning Tugot shahriga, keyinroq esa Istanbulga keltirilgan.

Uni keyinchalik Istanbulda mashhur sharqshunos Hammer Purgstall sotib olib, Venadagi Saroy kutubxonasiga keltiradi. Keyinchalik esa fransuz sharqshunosi Jaubert Amadee bu buyuk asar haqida ma'lumot e'lon qilib, uni ilm ahliga tanishtiradi.

Ushbu parchadagi ma'lumot qaysi asar haqida?

- A) «Qutadg'u bilig» (Yusuf Xos Hojib)
- B) «Boburnoma» (Zahiriddin Muhammad Bobur)
- C) «Qisasi Rabg'uziy» (Rabg'uziy)
- D) «Devoni Hikmat» (Ahmad Yassaviy)

29. «Agar arslon itlarga bosh bo'lsa, itlar arslonga aylanadi, lekin it arslonlarga yetakchilik qilsa, arslonlar itlar kabi bo'lib qoladi».

Dono vazir tomonidan hukmdorga qarata aytilgan ushbu mazmundagi misralar qaysi asarda uchraydi?

- A) «Qutadg'u bilig» (Yusuf Xos Hojib)
- B) «Boburnoma» (Zahiriddin Muhammad Bobur)
- C) «Farhod va Shirin» (Alisher Navoiy)
- D) «Hayrat ul-abror» (Alisher Navoiy)

30. 1. Aslida Haydar Xorazmiy qalamiga mansub bo'lgan «Gul va Navro'z» dostoni sho'rolar davrida uzoq yillar uning asari sifatida xato taxmin etib kelingan edi.

2. Kichik yoshida forsiy tildagi Farididdin Attorning mashhur «Mantiq ut-tayr» («Qush nutqi») dostonini sevib, berilib o'qiydi. Keyinchalik unga javoban «Lison ut-tayr» dostonini yozadi.

3. U tarjima bilan shug'ullanadi. Xo'ja Ahrorning «Volidiya» asarini she'riy yo'l bilan o'zbekchaga o'giradi.

4. Uning betakror g'azallari ta'sirida Boborahim Mashrab, Nodira singari ijodkorlar o'xshatmalar bitgan. Ushbu raqamlarda berilgan ma'lumotlardan qaysilari Lutfiy hayoti va ijodiga mansub?

- A) 1, 4
- B) 2, 3
- C) 2, 4
- D) 1, 3

31. 1. U musiqa bilan shug'ullanib, «Chorgoh» maqomiga «savt»lar bitgan.

2. U aruz vazni haqida «Mezon ul-avzon» nomli risola bitgan.

3. Uning «Harb ishi», «Musiqa ilmi» nomli asarlari hozirgacha topilgan emas.

4. U o'tmish mavzusidagi «Tarixi muluki Ajam» asarini yozgan.

5. U she'riy yo'lda soliq ishlarini tartibga soluvchi «Mubayyin al-zakot» asarini yozgan.

Ushbu raqamlarda berilgan ma'lumotlardan qaysilari Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga mansub emas?

- A) 1, 3, 5
- B) 2, 5
- C) 1, 2, 4
- D) 2, 4

32. Lutfiyning «Bu ko'nguldur, bu ko'ngul» radifli g'azali haqida berilgan ma'lumotni aniqlang.
- G'azal matla'sida tardi aks san'ati qo'llangan.
  - Shoira Nodira ushbu g'azalga o'xshatma yozgan.
  - Shoir ushbu g'azalning har baytida bittadan xalq maqolini qo'llab irsoli masal san'atining ajoyib namunalarini yaratgan.
  - G'azalda shoir hatto boshiga qilich kelsa, yorning eshigidan nari ketmasligiga ishonitirmoqchi bo'ladi.
33. Qaysi javobdagi ma'lumot Zahiriddin Muhammad Bobur haqida?
- U aruz vazni haqida «Mezon ul-avzon» nomli risola bitgan.
  - U tarjima bilan shug'ullanadi. Xoja Ahrorning «Volidiya» asarini she'riy yo'l bilan o'zbekchaga o'giradi.
  - Aslida Haydar Xorazmiy qalamiga mansub bo'lgan «Gul va Navro'z» dostoni sho'rolar davrida uzoq yillar uning asari sifatida xato taxmin etib kelingan edi.
  - U o'tmish mavzusidagi «Tarixi muluki Ajam» asarini yozgan.
34. Bu asarda asosan payg'ambarlar hayoti hikoya qilinadi. Unda bosh qahramonlar turlicha bo'lsa-da, ularni bir zot – Muhammad alayhissalom siymosi o'zaro birlashtirib turadi. Ushbu ma'lumot qaysi asar haqida?
- «Zarbulmasal»
  - «Qutadg'u bilig»
  - «Qisasi Rabg'uziy»
  - «Devoni hikmat»
35. Qaysi javobdagi ma'lumot «Qisasi Rabg'uziy» haqida?
- Unda uch og'a-ini sarguzashtlari o'rin olgan. Sherni o'ldirgan to'ng'ich bahodirning qahramonligi ham aks ettirilgan.
  - Unda to'rtta asosiy qahramon: Kuntug'di, Oyto'ldi, O'zg'urmish va O'gdulmishga ezgu tushuncha timsoli yanglig' qaralgan.
  - U Nosiruddin To'qbug'aning iltimosiga ko'ra yozilgan bo'lib, unda asosan payg'ambarlar hayoti hikoya qilingan.
  - Unda Eltarish xoqonning Tabg'achda tarbiyalangan, keyinchalik turk xalqini yig'ib «shad» unvonini olgan maslahatchisi va sarkardasining qahramonliklari aks etgan.

### Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan adabiyot.

*Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Xamsachilik an'anasi*

- Alisher Navoiyning qaysi asari doston shaklida yozilgan bo'lib, undagi muayyan mavzuga bag'ishlangan har bir maqolat so'ngida shu mavzuga mutanosib ibratli hikoyat yoki masal bayon qilinadi?
  - Ushbu asardagi hukmdorlardan biriga jo'natilgan maktubda ikki narsa maslahat tariqasida qattiq shart qilib qo'yiladi: birinchisi – Haq taolo amriga to'la itoatda bo'lib, buyurgan ishlarini so'zsiz bajarish; ikkinchisi – Tangri man etgan ishlar(nahy)ni qilmaslik... . Man etilgan ishlardan tiyilishning hech biri «chog'ir tarkicha bo'lmas». Ushbu ma'lumot qaysi asar haqida?
- Ogahiy, «Qasidai nasihat»
  - Bobur, «Volidiya»
  - Navoiy, «Munshaot»
  - Furqat, «Sarguzashtnoma»

3. Qaysi javobda Navoiyning boshdan oyoq savol-javob tarzida bitilgan g'azali nomi berilgan?
- A) «Mani jondan o'sondirdi ...» deb boshlanuvchi  
 B) «Jong'a chun dermen ...» deb boshlanuvchi  
 C) «Bo'ldum sanga» radifli  
 D) «Deyin» radifli
4. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostoni haqidagi ma'lumotni aniqlang.
- A) Ushbu asar falsafiy-ta'limiy doston bo'lib, uning «Salotin bobida» nomli uchinchi maqolatida adib adolat haqidagi qarashlarini ifoda etadi.  
 B) Ushbu asar 3 qismga bo'linadi. Uning qismlaridan biri har xil odamlarning fe'l-atvori va ahvoli haqidadir.  
 C) Ushbu doston ishqiy-sarguzasht xarakterga ega. Bu asarni muallif «shavq dostoni» deb ataydi.  
 D) Ushbu asarda ijodkor turk (o'zbek) va sort (fors) tillarini solishtirib, o'z ona tilining tunganmas imkoniyatlarini ilmiy asoslab beradi.
5. *Gahi topdim falakdin notavonlig',  
 Gahi ko'rdim zamondin komronlig',  
 Base issig', sovug' ko'rdum zamonda,  
 Base achchig', chuchuk totdim jahonda.*  
 Ushbu misralar muallifini aniqlang.
- A) Furqat                      B) Ogahiy  
 C) Navoiy                      D) Bobur
6. «Bu xoksor va parishonro'zg'or kamina bolalikdan to qarilikka qadar ko'hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo'zg'ovchi dunyo buqalamunligidan – tovlamachiligidan, zamonaning rang singari gunogunligidan ko'p vaqt va uzoq muddat har xil xayol va taraddudlar bilan daydib yurdim; ...katta-kichikning suhbatida bo'ldim; ...goho izzat va ma'murlik bo'stonida majlis qurdim».
- Ushbu fikrlar Navoiyning qaysi asarining kirish qismidan keltirilgan?
- A) «Nasoyim ul-muhabbat»  
 B) «Xazoyin ul-maoniy»  
 C) «Mahbub ul-qulub»  
 D) «Hayrat ul-abror»
7. «Mazkur doston falsafiy-ta'limiy doston bo'lib mavzu biror voqeani hikoya qilish asosida emas, balki muallif fikr-mulohazalarining bayoni tarzida yoritiladi. U inson kundalik hayoti bilan bog'liq mavzular bayon etilgan maqolatlardan iboratdir. Maqolat so'ngida uni hayotiy asoslash maqsadida hikoya va masal keltiriladi». Ushbu ma'lumot Alisher Navoiyning qaysi asari haqida?
- A) «Layli va Majnun»  
 B) «Farhod va Shirin»  
 C) «Hayrat ul-abror»  
 D) «Mahbub ul-qulub»
8. Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoniga oid qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) Ko'zguning tilsimini ochmoqchi bo'lgan odam xatarli safarga o'tlanib, Yunonistondagi bir tog'ga borishi kerak bo'ladi.  
 B) Farhod Shirinning Arman yurtidan ekanligini tarbiyachi-ustoz Mulkorodan eshitadi.  
 C) Xusrav Buzurg Ummid degan vaziri maslahati bilan Mehinbonuga Shirinni so'ratib sovg'ini yuboradi.  
 D) Farhodning emikdoshi – Bahromning talabi bilan Sheruya otasi Xusravning Armaniyaga yetkazgan ziyonlari uchun xazinasidan tovon to'lab, yurtiga qaytadi.
9. U Farhodning otabegi, ya'ni tarbiyachi-ustoz edi. U to'rt qasr qurilishiga ma'mur etib tayinlanadi. Ushbu ma'lumot «Farhod va Shirin» dostonidagi qaysi qahramon haqida?
- A) Mulkoro                      B) Buzurg Ummid  
 C) Bahrom                      D) Suqrot
10. «Xamsa»dagi qaysi qahramon:  
 «U dengiz ichida go'yo nahang kabi ofat (bo'lsa),  
 To'qayda sher-u yo'lbars(day edi)» deya ta'riflanadi?
- A) Sheruya                      B) Xusrav  
 C) Suhayl                      D) Jobir

11. Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» majmuasi haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- A) Ushbu majmuaning uchinchi devoniga jami 100 ta g'azal kiritilgan.
  - B) Ushbu majmuaning birinchi devoni «Navodir ush-shabob» deb nomlanadi.
  - C) Ushbu majmua shoirning Husayn Boyqaro iltimosi bilan tuzilgan ilk she'riy devonidir.
  - D) Ushbu majmua «Chor devon» nomi bilan ham mashhur.
12. Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» majmuasi haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) Ushbu majmuadan 16 xil lirik janrga oid asarlar o'rin olgan.
  - B) Ushbu majmuaning birinchi devoni «Badoye ul-bidoya» deb nomlanadi.
  - C) Ushbu majmua «Chor devon» nomi bilan ham mashhur.
  - D) Ushbu majmuaga jami 2600 ta g'azal kiritilgan.
13. Qaysi javobda nomi keltirilgan devon Navoiy qalamiga mansub emas?
- A) «Saodat ul-iqbol»
  - B) «Devoni Foni»
  - C) «Navodir ush-shabob»
  - D) «Badoye ul-bidoya»
14. Qaysi javobdagi asar Alisher Navoiy qalamiga mansub emas?
- A) «Mezon ul-avzon»
  - B) «Mubayyin al-zakot»
  - C) «Muhokamat ul-lug'atayn»
  - D) «Majolis un-nafois»
15. Qaysi javobdagi asar Alisher Navoiy qalamiga mansub emas?
- A) «Ilmi ash'orning qoidai avzoni»
  - B) «Muhokamat ul-lug'atayn»
  - C) «Majolis un-nafois»
  - D) «Nasoyim ul-muhabbat»
16. Qaysi javobda Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»si tarkibiga kiruvchi dostonlar berilgan?
- A) «Iskandarnoma», «Silsilat uz-zahab»
  - B) «Maxzan ul-asror», «Haft paykar»
  - C) «Xusrav va Shirin», «Hasht behisht»
  - D) ««Matla' ul-anvor», «Xusrav va Shirin»
17. Alisher Navoiyning qaysi asari lug'atshunoslikka oid?
- A) «Xazoyin ul-maoniy»
  - B) «Mahbub ul-qulub»
  - C) «Lison ut-tayr»
  - D) «Sab'at-u abhur»
18. *Bu g'azal matla'sida oshiq yorga ko'ngil bergan kunini «ne baloliq kun edikim» – deya ta'kidlaydi. Maqta'da esa ishtiyoq san'atining ajoyib namunasini yaratadi.*  
Ushbu ma'lumot Navoiyning qaysi g'azali haqida?
- A) «Qilg'il» radifli g'azali
  - B) «Deyin» radifli g'azali
  - C) «Bo'ldum sanga» radifli g'azali
  - D) «Yo'q» radifli g'azali
19. Qaysi javobda Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa»sidagi to'rtinchi doston nomi berilgan?
- A) «Hasht behisht»
  - B) «Haft avrang»
  - C) «Yusuf va Zulayho»
  - D) «Haft paykar»
20. Qaysi javobda Nizomiy Ganjaviyning Shoh Iskandar haqida yozilgan dostoni nomi berilgan?
- A) «Oyinayi Iskandariy»
  - B) «Saddi Iskandariy»
  - C) «Xiradnomayi Iskandariy»
  - D) «Iskandarnoma»

## Ona tili va adabiyot

## Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan adabiyot

21. Qaysi javobdagi ma'lumot Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostoni haqida emas?
- A) Dostondagi maqolatlar so'ngida mavzuni dalillash, uni hayotiy asoslash maqsadida hikoya yoki masal keltiriladi.
  - B) Muallif bu asarni «shavq dostoni» deb ataydi. Unda ijodkorning komil inson haqidagi orzu-o'ylari ifoda etilgan.
  - C) Ushbu doston falsafiy-ta'limiy doston bo'lib, didaktikaning yorqin namunasi sanaladi.
  - D) Dostondagi «Salotin bobida» nomli uchinchi maqolat adibning adolat haqidagi qarashlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.
22. Sharq xamsachiligi haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) «Xamsa» yozishni ozarbayjonlik ulug' shoir Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan.
  - B) Xusrav Dehlaviy 28 yil davomida «Panj ganj» nomi bilan mashhur bo'lgan «Xamsa»sini yozib tugallagan.
  - C) An'anaga ko'ra «Xamsa»ning birinchi dostoni pand-nasihat ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy doston bo'lmog'i kerak.
  - D) Nizomiydan yuz yildan so'ng asli shahrisabzlik turkiy qabilalar avlodidan bo'lgan Xusrav Dehlaviy o'z «Xamsa»sini yozib tugalladi.
23. Qaysi javobdagi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) «Hayrat ul-abror» dostonidagi maqolatlar so'ngida mavzuni dalillash, uni hayotiy asoslash maqsadida hikoya yoki masal keltiriladi.
  - B) «Farhod va Shirin» dostoni «Qutadg'u bilig» dostoni bilan o'zaro bir xil vaznda yozilgan.
  - C) «Farhod va Shirin» dostoni ishqiy-sarguzasht xarakteridadir. Muallif bu asarni «shavq dostoni» deb ataydi.
  - D) «Hayrat ul-abror» dostonidagi «Salotin bobida» nomli uchinchi maqolat adibning adolat haqidagi qarashlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.
24. Bu dostonda Navoiy islomiy mezonlar, umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib Olam va Odam to'g'risidagi o'z mulohazalarini yuksak badiiy shaklda ifoda etadi. Unda shoir shunday misralarni keltiradi:
- Kimki jahon ahlida inson erur,  
Balki nishoni anga iymon erur.  
Ya'ni: «Kim bu dunyoda inson  
deb atalibdi, insonligining belgisi  
iymondir. Iymonsizni odam deb atab  
bo'lmaydi... Shuning uchun insonliknin  
asosiy mezon iymondir», – degan  
mazmundagi fikrlarni bayon qiladi.*
- Ushbu ma'lumot Navoiyning qaysi dostoni haqida?
- A) «Hayrat ul-abror»
  - B) «Sab'ai sayyor»
  - C) «Farhod va Shirin»
  - D) «Saddi Iskandariy»
25. Qaysi javobdagi ma'lumot «Farhod va Shirin» dostoni qahramoni Farhod haqida emas?
- A) U ta'limning dastlabki uch oyida butkun savod chiqaradi, bir yilda Qur'oni karimni yod oladi.
  - B) U «Sen agar zohir etting itlikni, Men senga ko'rguzay yigitlikni» deya dushmanini yakkama-yakka olishuvda yengadi va uni chohga tashlaydi.
  - C) U to'siqlarni mardona yengib, Jamshid jomini, Sulaymon uzugini, Iskandar boyligini qo'lga kiritadi.
  - D) U uch yildan buyon tog'ning narigi tomoniga suv olib o'tish uchun zahmat chekib ishlayotgan xalqni ezgu maqsadiga yetishtiradi.
26. Qaysi devon Alisher Navoiy qalamiga mansub emas?
- A) «Favoyid ul-kibar»
  - B) «Navodir un-nihoya»
  - C) «Ta'viz ul-oshiqin»
  - D) «Badoye ul-bidoya»



27. Tarixiy mavzularda yozilgan «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo» asarlarining muallifini aniqlang.
- A) Zahiriddin Muhammad Bobur  
B) Muhammad Rizo Ogahiy  
C) Nosiruddin Rabg'uziy  
D) Alisher Navoiy
28. Qaysi javobdagi ma'lumot «Farhod va Shirin» dostoni haqida?
- A) Dostonda Iskandari Rumiy har biri Aflotundek to'rt yuz olimga yasattirgan sirli ko'zgu tilsimini ochgan bosh qahramon qatnashadi.  
B) Dostonda sarv to'g'rilik timsoli sifatida keltirilib: «Sarvkim, ul to'g'ri chekib qomatin, Ko'rmayin osibi xazon ofatin», deya ta'riflanadi.  
C) Dostonda Adanni o'ziga manzil qilib olgan, suv va quruqlikda zulmni o'ziga kasb qilib olgan zolim qaroqchi va uning makoni haqida tasvirlar uchraydi.  
D) Dostonda yel esishini-yu suv mavjlanishini ko'rish niyatida dengiz sayriga chiqqan go'zal qiz tasodif bo'roni tufayli zolim qaroqchi qo'lga asir tushgani tasvirlanadi.
29. «*Sen agar zohir etting itlikni,  
Men senga ko'rguzay yigitlikni.*»  
Ushbu so'zlar Navoiy «Xamsa»sidagi qaysi qahramon tilidan o'z raqibiga qarata aytiladi?
- A) Suhayl                      B) Farhod  
C) Xusrav                      D) Jobir

30. 1. U musiqa bilan shug'ullanib, «Chorgoh» maqomiga «savt»lar bitgan.  
2. U aruz vazni haqida «Mezon ul-avzon» nomli risola bitgan.  
3. Uning «Harb ishi», «Musiqa ilmi» nomli asarlari hozirgacha topilgan emas.  
4. U o'tmish mavzusidagi «Tarixi muluki Ajam» asarini yozgan.  
5. U she'riy yo'lda soliq ishlarini tartibga soluvchi «Mubayyin al-zakot» asarini yozgan.  
Ushbu raqamlarda berilgan ma'lumotlardan qaysilari Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga oid?
- A) 1, 3, 5  
B) 2, 3, 4  
C) 2, 3, 5  
D) 1, 2, 4
31. Qaysi javobdagi asar Alisher Navoiy qalamiga mansub?
- A) «Mezon ul-avzon»  
B) «Mubayyin al-zakot»  
C) «Gulshani davlat»  
D) «Saodat ul-iqbol»
32. Qaysi javobda Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»sidagi to'rtinchi doston nomi berilgan?
- A) «Hasht behisht»  
B) «Haft paykar»  
C) «Yusuf va Zulayho»  
D) «Layli va Majnun»

**Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan adabiyot.**

*Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, Gulxaniy, Uvaysiy, Nodira, Muhammad Rizo Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Anbar Otin, Avaz O'tarin*

1. Adib ijodining dastlabki davrida – 21–22 yoshida she'rlarini to'plab, devon tuzgan. U etnografik xarakterga ega bo'lgan «To'y tavsifi», «Gap ta'rifida», «Aza tavsifi» asarlari muallifidir. Ushbu ma'lumot qaysi shoir haqida?  
A) Muhammad Rizo Ogahiy  
B) Zavqiy  
C) Zokirjon Furqat  
D) Muqimiy
2. «Zarbulmasal»dagi qaysi masalda har qanday hunarning o'ziga xos sir-u sinoatini, yillar davomida o'zlashtiriladigan nozik jihatlarini o'rganmaguncha kishi biror natijaga erishishi mumkin emasligi, aksincha, o'zboshimchalik qilsa, ham ayanchli, ham kulgili holga tushishi ko'rsatib berilgan?  
A) «Tuya bilan bo'taloq»  
B) «Kabutar bilan Zog'»  
C) «Toshbaqa bilan Chayon»  
D) «Maymun bilan Najjor»
3. «Zarbulmasal»dagi qaysi masalda «Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar», deganlaridek, o'zbilarmon obrazning ham ayanchli, ham kulgili holga tushishi ko'rsatib berilgan?  
A) «Kabutar bilan Zog'»  
B) «Tuya bilan bo'taloq»  
C) «Maymun bilan Najjor»  
D) «Toshbaqa bilan Chayon»
4. Quyidagi qaysi she'r Ogahiy qalamiga mansub?  
A) «Dahr uyi bunyodikim, suv uzradur, mahkam emas» tarji'bandi  
B) «Surmadin ko'zlar qaro» g'azali  
C) «Manam sho'rida bulbul» muxammasi  
D) «Ajab ermas» muxammasi
5. Qaysi javobda Avaz O'tarning devoni ko'rsatilgan?  
A) «Saodat ul-iqbol»  
B) «Shohidi iqbol»  
C) «Badoye ul-bidoya»  
D) «Ta'viz ul-oshiqin»
6. Qaysi javobda Ogahiy asari ko'rsatilgan?  
A) «Munshaot»  
B) «Gulshani davlat»  
C) «Gap ta'rifida»  
D) «Sab'at-u abhur»
7. ... XVIII asr oxiri – XIX asr 20-yillarida Qo'qonda yashab ijod qilgan mashhur masalnavis adib va hassos shoirdir. U she'rlarida Jur'at taxallusini ham qo'llagan. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?  
A) Turdi Farog'iy  
B) Avaz O'tarin  
C) Gulxaniy  
D) Zavqiy
8. Qaysi ijodkorning bizgacha o'zbek va tojik tillaridagi 12 g'azali, Qo'qon xoni Amir Umarxonga bag'ishlangan bitta qasidasi va majoziy mazmundagi didaktik asari yetib kelgan?  
A) Gulxaniy  
B) Avaz O'tarin  
C) Zavqiy  
D) Turdi Farog'iy
9. Bu asarda 400 ga yaqin maqol, matal, naql va 15 dan ortiq katta-kichik masal hikoyat mavjud. Bu muallifning xalq haqiqatini turmush tarzi, an'ana va marosimlari, og'zaki va yozma adabiyotini chuqur bilganidan dalolat beradi. Ushbu ma'lumot qaysi asar haqida?  
A) «Zarbulmasal» (Gulxaniy)  
B) «Qisasi Rabg'uziy» (Rabg'uziy)  
C) «Hayrat ul-abror» (Navoiy)  
D) «Qutadg'u bilig» (Yusuf Xos Hojib)

10. Qaysi asarda garchi Buxoro, Qo'qon singari joy nomlari aniq ko'rsatilsa-da, u yerlarni boshqargan hukmdorlar, turli darajadagi zodagonlar fe'l-atvori qushlar timsolida ifoda etilgan?
- A) «Zarbulmasal» (Gulxaniy)  
B) «Qisasi Rabg'uziy» (Rabg'uziy)  
C) «Tanobchilar» (Muqimiy)  
D) «Mahbub-ul qulub» (Navoiy)
11. Qaysi ma'lumot Zavqiy haqida emas?
- A) Ijodkor tog'asi Muhammad Siddiq yordamida «Madrasai Oliy» va «Madrasai Chalpak» madrasalarida tahsil ko'rgan.  
B) Ijodkor 46 kishini hajv qilib yozilgan she'rini Qo'qondagi doimo gavjum Mo'ymarak maydonidagi baland terakka ilib qo'yadi.  
C) Ijodkor o'z she'rlarini to'plab kattagina devon tuzgan va uni «Saodat ul-iqbol» deb nomlagan.  
D) Ijodkor «Ajab ermas» she'rida yurt kelajagi borasidagi armon, orzu va istaklarini ifoda etgan.
12. Qaysi ijodkor «Til» g'azalida siz-u bizni til o'rganishga, ayniqsa, «g'ayri tilini bilishga sa'y qilish»ga, ya'ni chet tillarni o'rganishga da'vat qiladi?
- A) Maxtumquli  
B) Abay  
C) Avaz O'tar  
D) Zavqiy
13. *Bukun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,  
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim...*  
misralari orqali sog'inch iskanjasidagi tuyg'ularini ifoda etgan ijodkor kim?
- A) Uvaysiy  
B) Nodira  
C) Furqat  
D) Bobur
14. *Bu g'azalda shoir ishqni vodiya, qalbdagi ohi bilan oshiqlar qalbini yondirishini qamishzorga o't qalashga o'xshatib, tashbeh san'atining ajoyib namunasini yaratgan. Oshiq o'zini hakka qushiga (hakkasifat), parvonaga (parvonasifat) o'xshatib betakror badiiy tasvir yaratgan.*  
Ushbu ma'lumot qaysi g'azal haqida?
- A) «O'ttum» radifli g'azal (Mashrab)  
B) «O'rtar» radifli g'azal (Mashrab)  
C) «Qilg'il» radifli g'azal (Navoiy)  
D) «Bo'ldum sanga» radifli g'azal (Navoiy)
15. Qaysi javobda tasavvufiy istiloh (atama) mazmuni xato berilgan?
- A) Jomi Jam – nafsoniy xuruj, shaytoniy istaklar jamlangan voqelik ramzi.  
B) Xaloyiq – dunyoga ko'ngil bergan nafs bandalari ramzi.  
C) Lab – yorning kalomi, ko'rsatmalari, purma'no so'zlari ramzi.  
D) Tarso – o'zini Olloh ishqiga yetishmoqqa baxshida etgan inson ramzi.
16. Qaysi qatorda Ogahiyning tarixiy asarlari nomi berilgan?
- A) «Zubdat ut-tavorix», «Ta'viz ul-oshiqin»  
B) «Shohidi iqbol», «Gulshani davlat»  
C) «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo»  
D) «Jome ul-voqeoti sultoniyy», «Munshaot»
17. Mashrabning asl ismi – Boborahim. Mashrab – uning taxallusi. Mashrab taxallusining ma'nosi qaysi javobda berilgan?
- A) haq va haqiqat, adolat yo'lida navo qiluvchi  
B) ishq sharobini ichgan  
C) g'oyibona oshiq  
D) tug'ma iste'dod

18. Qaysi javobdagi ma'lumot Uvaysiy haqida emas?
- A) U chistonnavis sifatida ham o'z mahoratini namoyon etgan. Ayniqsa, uning «Anor» chistoni she'riyat ixlosmandlari e'tiborini qozonib kelmoqda.
  - B) Uning erta vafot etgan umr yo'ldoshi Amiriy taxallusi bilan she'rlar ijod qilgan mashhur shoir edi.
  - C) U hasbi hol tarzida yozilgan «Dog' o'ldi, dog' o'ldi», «Sog'indim» kabi g'azallar muallifidir.
  - D) Shoir Marg'ilon shahrida ma'rifatli oilada dunyoga kelgan. Akasi Oxunjon ashula aytar edi, el orasida hofiz nomi bilan tanilgan edi.
19. Qaysi javobdagi ma'lumot Uvaysiy haqida?
- A) Hayoti va ijodiy faoliyatining bir qismi malika va shoir Nodirabegim iltifoti tufayli Qo'qon xoni Amir Umarxon saroyida kechadi.
  - B) U sakkiz yoshida Fariddin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostonini yod olgan, to'qqiz yoshida quyidagi baytni yozgan: «Mening maktab aro buldur murodim, Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim».
  - C) U hayot har bir inson uchun imtihon ekanligiga urg'u berilgan «Kel, dahrni imtihon etib ket» g'azali muallifidir.
  - D) Uning ota-onasi buyuk Sohibqiron Amir Temur xonadoniga mansub edi. Bu haqda shoir: «Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokimen» deb yozgan edi.
20. U «Doda keldim...», «Vasl uyin obod qildim...», «Kel, dahrni imtihon etib ket...» kabi go'zal g'azallar muallifidir. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?
- A) Furqat
  - B) Muqimiy
  - C) Uvaysiy
  - D) Nodira
21. Qaysi javobdagi ma'lumot Uvaysiy haqida?
- A) U zullisonayn shoir bo'lib, fors-tojik tilidagi asarlarini Maknuna taxallusi bilan yozgan.
  - B) Bo'lg'usi shoir zamona xoni oilasiga yaqin qarindosh bo'lgan xonadonda – Andijon hokimi Rahmonqul otaliq xonadonida dunyoga kelgan.
  - C) Otasi o'rniga taxtga o'tirgan Qo'qon xoni Muhammad Alixon shoiraga yaxshi munosabatda bo'lmaydi.
  - D) Uning erta vafot etgan turmush o'rtog'i Amiriy taxallusi bilan she'rlar ijod qilgan shoir sifatida mashhur edi.
22. Qaysi javbobda Furqat haqida ma'lumot berilgan?
- A) «Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari», «Sendek menga bir yori vafodor topilmas» kabi g'azallarida shoirning hayotga qaynoq mehri aks ettirilgan.
  - B) «Yuzung ochkim, quyosh sadqang bo'lub boshingdin aylansun», «Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina», «Ey sho'x, ko'zi qoshinga olam gado, man ham gado» g'azallari muallifidir.
  - C) Shoir «Ul sho'xki ochildi xat-u ruxsori» deb boshlanuvchi musoviyattarafayn shaklidagi she'r muallifidir.
  - D) Shoir muxammas janrida yozilgan «Manam sho'rida bulbul» she'rida o'zini bo'stonidan adashgan sho'rida bulbulga o'xshatadi.
23. O'spirinligida qayerda go'riston bo'lsa, ziyorat qilib, odamlarning suyaklarini ko'rib: «Ey odamzod, oxir o'lib boshingga tushadurgon ish bu», – deb yig'lab yurardi. O'g'illaridagi bunday ilohiy ishq sirlarini tushunmagan ota-onasi xavotir va tashvishga tushadilar. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor hayotiga oid?
- A) Mashrab
  - B) Avaz O'tar
  - C) Muqimiy
  - D) Furqat

24. Adibning turli yillarda «Turkiston viloyati gazetiga» yozgan qator xabarlarini, maqolalarini uning publitsistikasini tashkil etadi. Ijodkorning «Turkiston viloyatining gazetiga»da bosilgan, adabiyotshunoslikda shartli ravishda «Sarguzashtnoma» deb ham nomlangan tarjimayi holi uni bizga jurnalist va nosir sifatida tanitadi.

Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?

- A) Muqimiy
- B) Furqat
- C) Zavqiy
- D) Mashrab

25. Bulbul o'qug'och yig'lab, subhidam xazon faslin,  
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.  
Baytda g'unchaning gul bo'lib ochilishi jarayoni o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Ko'klamning shundoq farahli ertasi(tongi) da bulbul xazon faslini eslab nola qilgach, u qo'ngan gulning g'unchasi ham qon yutib, yoqasini yuz joyidan yirtib yuboradi. Yoqasi yirtilgan g'uncha yozilib ketadi, ya'ni ochiladi.

Ushbu parchada qaysi ijodkor g'azalidan olingan bayt va uning tahlili berilgan?

- A) Muqimiy
- B) Furqat
- C) Ogahiy
- D) Mashrab

26. Qaysi javobdagi ma'lumot Zavqiyning ijodi haqida?

- A) Ijodkor «Til», «Maktab» she'rlari, «Fidoyi xalqim...» deb boshlanuvchi g'azal muallifidir.
- B) Ijodkor «Navro'z» radiffi, «Ustina» radiffi, «Aylansun» radiffi g'azallar muallifidir.
- C) Ijodkor «Turkman binosi», «Adolat yaxshi» she'rlari muallifidir.
- D) Ijodkor «Zamona kimniki», «Ajab zamona», «Bo'l», «Muncha ko'p» hajviyalari muallifidir.

27. U mustaqil O'zbekiston gerbidagi tasvirni yodga soladigan «boshlar uzra soyalar solsun, Humo yetkur» misrasi o'rin olgan «Ajab ermas» muzammasining muallifidir. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?

- A) Zavqiy
- B) Muqimiy
- C) Zokirjon Furqat
- D) Avaz O'tar

28. «Zarbulmasal»dagi «Maymun bilan Najjor» masalida qanday g'oya ilgari surilgan?

- A) Bu masalda erki o'zida bo'lmagan kishining fojiasi ko'rsatiladi.
- B) Bu masalda qo'lidan kelmagan ishga uringan kishi, albatta, sharmanda bo'lishi ko'rsatib berilgan.
- C) Bu masalda do'st tanlashda adashmaslik kerakligiga e'tibor qaratilgan.
- D) Bu masalda yolg'onchi yolg'onlari bilan, avvalo, o'zini aldashi po'stindo'z obrazi orqali ko'rsatib berilgan.

**CROSS.UZ**

**CROSS.UZ**



**Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan adabiyot.***Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan  
adabiyot namunalari tahlili*

1. Bu g'azal matla'sidan quyidagicha ma'no-mazmun anglash mumkin: *«Qora ko'zligim, kelgin-da, mehr-muruvvat, vafo rasmini tuz (vafo qil), men uchun sen ko'zimning qorachig'iday azizsan, joying – ko'zim ichida.*  
Ushbu parchada Alisher Navoiyning qaysi g'azali matla'si tahlil qilingan?  
A) «Deyin» radifli  
B) «Bo'ldum sanga» radifli  
C) «Kelmadi» radifli  
D) «Qilg'il» radifli g'azali
2. Navoiyning qaysi g'azalida majoziy tasvir orqali ilohiy ishq kuylanib, dastlabki besh baytda boshdan oxir lirik qahramonning va'da berib, so'zida turmagan yorni kuta-kuta chekkan iztiroblari haqida so'z boradi, begona baytda esa ishqda undan ko'ra «avvalqadam» bo'lgan «tolibi sodiq», ya'ni pir izlayotgani bayon qilinadi?  
A) «Bo'ldum sanga» radifli  
B) «Deyin» radifli  
C) «Kelmadi» radifli  
D) «Qilg'il» radifli
3. Qaysi ijodkor hukmdorlardan biriga jo'natgan maktubida adolatning qadrini ham, may ichmaslikning foydasini ham Muhammad payg'ambar (s.a.v.) ning so'zlari bilan mustahkamlab: *«Bir soatlik adolat ikki dunyo – insonlar va jinlar dunyosi ibodatidan yaxshiroqdir, chog'ir esa yaramasliklar onasidir, jami yomonliklar undan tug'iladi, barcha yaxshilik va yomonlik bu ikki narsa ichiga kiradi»,* – deya tushuntiradi?  
A) Nosiruddin Rabg'uziy  
B) Imom al-Buxoriy  
C) Ogahiy  
D) Alisher Navoiy
4. «Mutafakkir adib saxovat va himmatni insoniyat bog'ining hosildor daraxti, u daraxtning foydali mevasi deb ataydi. Asarda oliyhimmat kishilarni balandparvoz lochinga, behimmat kimsalarni esa sichqon ovlovchi kalxatga o'xshatadi». Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?  
A) Yusuf Xos Hojib  
B) Gulxaniy  
C) Abay  
D) Alisher Navoiy
5. *«Isrof qilish saxiylik emas; o'rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni devona deydilar; yorug' joyda sham yoqqanni aqlidan begona deydilar».* Ushbu ibratli fikrlar muallifini aniqlang.  
A) Alisher Navoiy  
B) Gulxaniy  
C) Abay  
D) Rabg'uziy
6. «Safar vodiysida musofirning oyog'iga ko'p dard-u balo tikanlari sanchiladi, lekin har qadalgan tikandan bir maqsad guli ochiladi.  
Yo'l mashaqqati zarbidan kishining a'zoyi badani qaqshaydi; vujudi yo'lovchilar oyog'i bilan toptaladi va har a'zosi u oyoqlar ostida ushaladi. Ammo ko'nglining vayronligi tuzaladi ...»  
Qaysi asarda safarning foydalari haqida shunday fikrlar bildiriladi?  
A) «Boburnoma»  
B) «Nasihatlar»  
C) «Qisasi Rabg'uziy»  
D) «Mahbub ul-qulub»

7. «Maqtanish uchun mol bermoq – o'zini ko'z-ko'z qilmoq va shunday qilib o'zini «saxiy» demoq – behayolik bilan nom chiqarmoq. Kimki xalqqa ko'rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas». Ushbu mazmundagi ibratli fikrlar qaysi asarda keltirilgan?
- A) «Zarbulmasal»  
B) «Qisasi Rabg'uziy»  
C) «Mahbub ul-qulub»  
D) «Alpomish»
8. Muallif yolg'on so'zlash, yolg'on harakat qilish egrilikka olib keladi, deb hisoblaydi. So'zining isboti uchun bog'bon va dehqonning ishini misol qilib keltiradi. Bog'bon yaratajak bog'ini reja bo'yicha, ya'ni daraxtlarni bir tartibda ekib, parvarish qilmasa, har yerda tarvaqaylab, qiyshiq-qing'ir o'sgan daraxtlar bog'ni changalzorga aylantiradi. Dehqon esa urug' sohadigan yerini shudgor qilib, so'ng mola bosmasa, ya'ni tekis qilib olmasa, sochgan urug'i bir xilda unib chiqmaydi. Shoir shu kabi mazmundagi misralar orqali to'g'rilik va egrilik haqidagi o'z qarashlarini ifoda etadi. Ushbu ma'lumot qaysi asar haqida?
- A) «Nasihatlar»  
B) «Qutadg'u bilig»  
C) «Hayrat ul-abror»  
D) «Devonu lug'ot at-turk»
9. Xaloyiq harne qilsa tergamak yo'q, Ne qilg'anni yamon qilding demak yo'q. ...Olib kishvar elining ehtiyojin, Bag'ishlab elga uch yillik xirojin. Parchada ifodalanishicha, farzand ko'rganidan sevinib xalqining uch yillik xirojidan voz kechgan xoqon obrazi Navoiyning qaysi asarida uchraydi?
- A) «Mahbub ul-qulub»  
B) «Sab'ai sayyor»  
C) «Farhod va Shirin»  
D) «Hayrat ul-abror»
10. Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm, Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm. Bo'lib o'n yoshida umrining mururi Yigirmi yoshcha qadd-u jism-u zo'ri. Ushbu parchada Navoiyning qaysi dostoni qahramoni haqida fikr yuritilgan?
- A) «Farhod va Shirin»  
B) «Sab'ai sayyor»  
C) «Saddi Iskandariy»  
D) «Hayrat ul-abror»
11. Tugangan fahm etib umri baqosin, Sovug' oh urdi yod aylab atosin. Anosi ham ko'zi oldig'a keldi, Ko'zidin ikki qonlig' rud ochildi. Ushbu misralarda Navoiy «Xamsa»sidagi umri tugab borayotganini fahm etib, otonasini yod etgan qaysi qahramon holati ifoda etilgan?
- A) Suhayl                      B) Mehr  
C) Farhod                      D) Shirin
12. Navoiy «Xamsa»sidagi qaysi doston qahramoni o'z raqibiga qarata: «Bu bo'lg'ay dard-u ishq oyini, vah-vah?! Vafo-u mehr sharti, ollah-ollah?! Kishi ishqida zor olmoq bu bo'lg'ay?! G'amidin beqaror o'lmoq bu bo'lg'ay?!» – deya tanbeh beradi?
- A) «Sab'ai sayyor»  
B) «Saddi Iskandariy»  
C) «Hayrat ul-abror»  
D) «Farhod va Shirin»
13. Men bu zavraqni suvg'a to surdim, Ming seningdekni suvda o'lturdim. Birida sencha ko'rmadim jur'at, Jur'ating bo'ldi maxlasingg'a jihat. Ushbu misralar Navoiy «Xamsa»sidagi qaysi doston qahramoni iqrori sifatida yozilgan?
- A) «Saddi Iskandariy»  
B) «Farhod va Shirin»  
C) «Sab'ai sayyor»  
D) «Hayrat ul-abror»

14. Qaysi javobda Zavqiyning «Ajab ermas» she'ri haqida ma'lumot berilgan?

- A) Ushbu she'r g'azal shaklida yozilgan bo'lib, tabiat lirikasining go'zal namunasi sanaladi. Unda shoir navro'zni madh etadi. Ko'klam go'zalligi islomiy tushunchalar vositasida tasvirlanadi.
- B) Ushbu she'rda dunyo omonat binoga, bo'yi, vafosi yo'q gulshanga, jafakor tuban ayyoraga o'xshatiladi va insonni unga ko'ngil berib aldanib qolmaslikka chaqiradi.
- C) Ushbu she'rdan shoirning O'zbekiston gerbidagi tasvirni yodga soluvchi «boshlar uzra soyalar solsun, Humo yetkur» kabi shoirona bashorati o'rin olgan.
- D) Ushbu she'rning birinchi bandida shoir o'zini bo'stonidan adashgan sho'rida bulbulga o'xshatadi. Maqta'da o'z taxallusiga ham izoh berib o'tadi.

15. «Shoir she'rda «Nihoni kuydirib hajr o'ti po'st-u ustuxon aylar», «Boshimda hushim yo'q», «Yetim qo'zi kabi nolonlig'im», «Biyobon gardiman Majnun kabi bir Layli yodida» kabi misralar orqali holini sharh etadi. Maqta'da o'z taxallusiga ham izoh berib o'tadi».

Ushbu ma'lumot qaysi she'r haqida?

- A) «Dahr uyi bunyodikim, suv uzradur, mahkam emas» tarji'bandi (Ogahiy)
- B) «Ajab ermas» muxammasi (Zavqiy)
- C) «Manam sho'rida bulbul» muxammasi (Furqat)
- D) «Sog'indim» g'azali (Uvaysiy)

16. Navoiyning qaysi g'azalida «ko'hkan», ya'ni tosh yo'nuvchi timsoli orqali Farhodga ishora qilinadi?

- A) «Bo'l» radifli g'azali
- B) «Yo'q» radifli g'azali
- C) «Kelmadi» radifli g'azali
- D) «Qilg'il» radifli g'azali

17. Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar, Do'stlar, g'animatdir, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushib shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,

Gul uza tomib kam-kam, yog'di abri naysonlar.

Tabiat lirikasining takrorlanmas namunasi bo'lgan ushbu misralar muallifini aniqlang.

- A) Zavqiy
- B) Furqat
- C) Muqimiy
- D) Ogahiy

18. Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik,

G'alatdur, qomating oldida guldun pirahan nozik.

Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u malohat bor?

Fasohatda, sabohatda, hama to'g'rida san nozik.

Ushbu takrorlanmas misralar muallifini aniqlang.

- A) Muqimiy
- B) Furqat
- C) Ogahiy
- D) Bobur

19. Tabiat tasviriga bag'ishlangan ushbu g'azalda shoir tog'lardan mayin oqib kelayotgan suvni noz bilan suzilib borayotgan go'zalga o'xshatadi. Suvni «obi hayvon» – tiriklik suviga o'xshatish qadimdan bor. Lekin uni suzuk deb sifatlash adabiyotda yangilik edi.

Ushbu ma'lumot qaysi g'azal haqida?

- A) «O'rtar» radifli g'azal (Mashrab)
- B) «Mushkuldir» radifli g'azal (Bobur)
- C) «Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang» g'azali (Furqat)
- D) «O'yla yetkurdi jahong'a ziynat-u oro bahor» g'azali (Ogahiy)

20. Qaysi javobda Navoiyning «Deyin» radifli g'azali haqida ma'lumot berilgan?
- G'azalda «soch», «chin», «shikan» timsollari yordamida tasavvufiy ma'no ifoda etiladi.
  - Radd ul-matla' san'ati asosida birinchi misra g'azalning so'nggi satri sifatida yana bir karra qaytariladi.
  - G'azalda shoir «ko'hkan», ya'ni tosh yo'nuvchi timsoli orqali Farhodga ishora qiladi.
  - Matla'da tardi aks san'atining ajoyib namunasi yaratilgan.
21. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida: «...insoniyat bog'ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir» degan mazmunda nimaga ta'rif berilgan?
- saxovatga
  - tilga
  - safarga
  - hilmga
22. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida: «...baxt bag'ishlovchi toza ruh manbayi ham u; yomonliklar keltiruvchi nahs yulduzining chiqar joyi ham u ... Odam u bilan boshqa hayvonlardan imtiyozli bo'ldi» degan mazmunda nimaga ta'rif berilgan?
- safarga
  - saxovatga
  - hilmga
  - tilga
23. Qaysi javobdagi ma'lumot Navoiyning «Bo'ldum sanga» radifli g'azali haqida emas?
- G'azal matla'sida: «Husningni ko'rish uchun senga zor-u asir bo'lib qoldim. Senga oshno bo'lgan kunim qanday balolik kun ekan?» degan mazmun ifoda etilgan.
  - Ushbu g'azal maqta'sida ishtiyoq san'atining ajoyib namunasi yaratilgan.
  - G'azalda radif bo'lib kelgan so'z radifning o'zida 8 bor qo'llanishidan tashqari, yana 12 (jami 20) bor takroriy tarzda qo'llanadi.
  - Ushbu g'azalning begona baytida «Jomi Jam» va «Xizr suyi» tushunchalari yordamida talmeh san'ati yaratilgan.
24. Qaysi javobda Navoiyning «Jong'a chun dermen: Ne erdi o'lmakim kayfiyati?...» g'azali maqta'si mazmuni berilgan?
- Ey Navoiy, dunyo kishilariki bevafo bo'lsa, kel, (yaxshisi), bundan buyon kishisizlik (yolg'izlik)da yashashni o'zingga odat qilib ol.
  - Ey Navoiy, barcha o'z uzrini aytdi, sen o'lguningcha kuy, chunki ishq o'ti senga azalning qismati ekan.
  - To Navoiydek senga asir-u benavo bo'lmaguncha g'am-g'ussa changi (sozi) dan biron bir kuy eshitmadim.
  - O'limdan bosh tortma, bu chamanning savsani (guli safsari) yoki (bag'oyat tik o'sadigan chiroyli) shamshod daraxti bo'lsang ham, kuz kelib, xazon boshlanganda sen ham omon qololmayсан.
25. *Ko'ngluma har yonki boqsam, dog'i bor,  
Har necha dardimni desam, dog'i bor.  
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,  
Bir sori bo'ldi firoqing, dog'i bor.*  
Ushbu she'r haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- Ushbu she'r mumtoz adabiy janrlardan biri bo'lgan tuyuq janrida yozilgan.
  - Ushbu she'r Navoiy qalamiga mansub she'r sanaladi.
  - She'r qofiyalari «dog'i bor» (1-misra), «otashi bor» (2-misra), «yana (tagin) bor» (4-misra) ma'nolarini bildiradi.
  - She'rda tajnis san'atining ajoyib namunasi yaratilgan.
26. Qaysi adib o'z asarlaridan birida safar foydalari haqida yoza turib, uni: *«Kishilarni olam ajoyibotlaridan bahramand qiladi, g'aroyibotlar dunyosidan xabardor qiladi; aziz kishilarning mozorlarini ziyorat qilish fayziga musharraf va mukarram qiladi»*, deya izohlaydi?
- Abay («Nasihatlar»)
  - Yusuf Xos Hojib («Qutadg'u bilig»)
  - Alisher Navoiy («Mahbub ul-qulub»)
  - Rabg'uziy («Qisasi Rabg'uziy»)

27. *Agar ul qoshi yosiz bog' gashtinni orzu qilsam,*

*Ko'zimga o'qdurur sarv-u ko'ngulga g'uncha paykondur.*

Ushbu baytda shunday oshiqona dil izhorlari ifoda etilgan: agar qoshi yoydek bo'lgan yorsiz bog'ni sayr qilishni orzu qilsam, bu sadoqatsizligim uchun u yerda menga jazo tayin: sarv ko'zimga o'qdek sanchiladi, ko'nglimga g'uncha paykon bo'lib botadi. Ushbu parchada qaysi shoir bayti va uning mazmuni berilgan?

- A) Ogahiy                      B) Furqat  
C) Navoiy                     D) Bobur

28. *Bulbul o'qug'och yig'lab, subhidam xazon faslin, G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.*

Baytda g'unchaning gul bo'lib ochilishi jarayoni o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Ko'klamning shundoq farahli ertasi (tongi) da bulbul xazon faslini eslab nola qilgach, u qo'ngan gulning g'unchasi ham qon yutib, yoqasini yuz joyidan yirtib yuboradi. Yoqasi yirtilgan g'uncha yozilib ketadi, ya'ni ochiladi. Ushbu parchada qaysi ijodkor g'azalidan olingan bayt va uning tahlili berilgan?

- A) Muqimiy                      B) Mashrab  
C) Furqat                        D) Ogahiy

### XX asr o'zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti.

*Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir*

1. *Bog'da tovu kabi xiromon bo'lib, Umid danagini birga ekingiz. G'olib kelajakni sayr qilaylik Mushfiq onaginang bilan ikkimiz.*

Ushbu kelajakka ishonch ifodasi bo'lgan umidbaxsh misralar muallifini aniqlang.

- A) G'afur G'ulom («Sog'inish»)  
B) Abdulla Oripov («Genetika»)  
C) To'ra Sulaymon («Armon»)  
D) Mirtemir («Bu – men tug'ilgan tuproq»)

2. Usmon Nosirning «Yurganmisiz birga oy bilan» she'ri haqidagi ma'lumotni aniqlang.

- A) Ushbu she'rni shoir davolanish uchun shimolga – Boltiq va Oq dengiz bo'ylariga safar qilgan davrda yozgan.  
B) Ushbu she'r shoirning Samarqanddan onasiga yozgan she'riy maktubi sanaladi, unda bolalikdagi sargardonliklarini tabiat manzaralariga uyg'un holda qayta jonlantiradi.  
C) Ushbu she'rda shoir bolalikni yashnoq «gul»ga, o'zini esa gul hidini emuvchi, dilbar malak boshi uzra parvona bo'luvchi «kapalak»ka mengzagan.  
D) Ushbu she'rda lirik qahramon hamma qulluq qilib turgan, ta'rifiga hamd-u sano keltirayotgan «Asrlarni yig'latgan sevgi»ga qarshi bosh ko'taradi.

3. *Men mast bo'lib goldim bir kecha, Sil o'pkamni ancha yayratdim. Uxlamasdan to tong otguncha, Dilginamni rosa sayratdim.*

Ushbu misralarda shoir «sil o'pkam» deya faqat o'zining jismoniy xastaligi to'g'risida gapirmaydi. Balki biqiq, tuhmat-u razolatga to'la muhitda siqilgan ko'nglini – ruhini nazarda tutadi.

Yuqoridagi parchada qaysi ijodkor she'ri tahlili berilgan?

- A) G'afur G'ulom  
B) Usmon Nosir  
C) Cho'lpon  
D) Mirtemir

4. *«U «Turon» jamiyatini ochdi. Jamiyat qoshida «Turon» nomli teatrni ham tashkil etdi.*

*O'zining e'tiroficha, o'ntaga yaqin pyesani ozarbayjon tilidan o'zbekchaga tarjima qildi, 3 ta yangi pyesa yozdi va ularni sahnalashtirdi.*

Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?

- A) Hamza Hakimzoda Niyoziy  
B) Abdulla Avloniy  
C) Abdurauf Fitrat  
D) Mahmudxo'ja Behbudiy



5. Ijodkor biroz muddat gazetchilik bilan shug'ullandi. «Taraqqiy», «Xurshid» gazetalarida ishladi, ular yopilgach, «Shuhrat» gazetasini chiqarishga bosh-qosh bo'ldi. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?
- A) Abdurauf Fitrat  
B) Hamza Hakimzoda Niyoziy  
C) Abdulla Avloniy  
D) Abdulhamid Cho'lpon
6. Qaysi shoirning bir she'rida «*Mana menman, u isyonning o'lmas avlodi...*» degan misralar bilan boshlanuvchi fidoiy hayqirig'i o'zini kutayotgan og'ir erksizlik, surgun zulmatlariga oldindan ko'tarilgan isyondek yangragan?
- A) Mirtemir  
B) Usmon Nosir  
C) Fitrat  
D) Cho'lpon
7. Qaysi ma'lumot Abdurauf Fitrat haqida emas?
- A) Ijodkor Toshkentda «Chig'atoy gurungi» deb nomlangan ilmiy-ma'rifiy jamiyatni tashkil etgan.  
B) Ijodkor hozirgi Sankt-Peterburg universitetining Sharq fakultetida ma'ruzalar o'qigan, professorlik unvoniga ega bo'lgan.  
C) Zamondoshlarining eslashlaricha, ijodkor qo'shiqni o'rniga qo'yib kuylagan, ko'plab milliy va Ovro'pa musiqa asboblari mahorat bilan chala olgan, o'zi yozgan qator pyesalarga rejissorlik qilgan, ularda asosiy rollarni o'ynagan.  
D) Ijodkor ko'hna ilm-fan markazlaridan bo'lmish Buxoro shahrida tavallud topgan. Uning otasi zamonasining o'ziga to'q, o'qimishli, dunyo ko'rgan kishilaridan edi.
8. U Shahrizabz va Karkida yangi usul – jadid maktablarini ochadi, bolalarga zamonaviy ta'lim berishni joriy qiladi. Buxoro jadidlarining «Yosh buxoroliklar» firqasiga sarkotib bo'lib saylanadi. Samarqandda chop etiladigan «Hurriyat» gazetasida o'zining o'tkir maqolalari bilan ketma-ket chiqishlar qiladi. Ijodkor 1917–1918-yillar oralig'ida bu gazetaga bosh muharrir ham bo'ladi. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?
- A) Hamza  
B) Fitrat  
C) Abdulla Avloniy  
D) Cho'lpon
9. Fitratning forsiy tilda yozilgan she'riy to'plami qaysi javobda berilgan?
- A) «Rahbari najot»  
B) «Chin sevis»  
C) «Sayha»  
D) «Arslon»
10. Qaysi javobda Cho'lpon tarjima qilgan asarlar nomi berilgan?
- A) Pushkinning «Bog'chasaroy fontani» va V. I. Kirshonning «Ulug' kun» asarlari  
B) Lermontovning «Maskarad» asari, arman xalq eposi «Sosunli Dovud» dostoni  
C) M. Sholoxovning «Tinch oqar Don», S. Borodinning «Yeldirim Boyazid» romanlari  
D) Gogolning «Tergovchi», I. Frankoning «Feruza» asarlari
11. «Mirzo Ulug'bek» fojiasidagi Abbos obrazi haqida berilgan ma'lumotni aniqlang.
- A) Ulug'bekning shogirdi edi.  
B) U Samarqandning qozisi edi.  
C) U – dehqon, Ulug'bekka sodiq kishilardan biri edi.  
D) U Said Obidning o'g'li, Abdullatifning mahrami edi.
12. «Mirzo Ulug'bek» fojiasida qaysi qahramonni Mirzo Ulug'bek Chotqol shunqori deb ataydi?
- A) Berdiyorni  
B) Piri Zindoniyni  
C) Ota Murodni  
D) Ali Qushchini

13. *U kishi, albatta, beraman desalar-ku qo'llaridan keladi; har qalay katta zakunchining ishtahasini qondiradigan dunyolari bor. Faqat nechoraki, u kishi berib o'rganmaganlar, olib o'rganganlar; «O'rgangan ko'ngul o'rtansa qo'ymas», – deydi. U kishini berishga o'rgatish qiyin!*

Ushbu parchada fikr yuritilgan «Kecha va kunduz» romani qahramoni nomi keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Akbarali mingboshi
- B) Razzoq so'fi
- C) Eshon bobo
- D) Miryoqub

14. Qaysi javobdagi ma'lumot Abdulla Avloniy haqida?

- A) U o'nlab mumtoz shoirlarimizning ijodiy merosini izlab topish, tadqiq etish va nashr qilishda alohida jonkuyarlik ko'rsatdi. U «Aruz haqida» kitobini ham e'lon qildi.
- B) O'spirin yoshidayoq yozgan «Adabiyot nadur?» maqolasida millat hayoti, vatan ravnaqidagi adabiyotning o'rni haqida o'ta jiddiy o'ylaydigan bilimdon ekanligini namoyon etadi.
- C) Toshkentda «Chig'atoy gurungi» deb nomlangan ilmiy-ma'rifiy jamiyatni tashkil etadi.
- D) U biroz muddat gazetchilik bilan shug'ullandi. «Taraqqiy», «Xurshid» gazetalarida ishladi, ular yopilgach, «Shuhrat» gazetasini chiqarishda boshqosh bo'ldi.

15. O'zimizdan chiqqan sotqinlar – yurtfurushlar dadil fosh qilingan «Mirrix yulduziga» she'ri muallifini aniqlang.

- A) Abdulla Avloniy
- B) Cho'lpon
- C) Usmon Nosir
- D) Fitrat

16. *She'rim! Yana o'zing yaxshisan, Boqqa kirsang, gullar sharmanda. Bir men emas, hayot shaxsisan, Jonim kabi yashaysan manda. «Yana she'rimga» she'ridan o'rin olgan ushbu misralar muallifini aniqlang.*

- A) Hamid Olimjon
- B) Usmon Nosir
- C) Cho'lpon
- D) Mirtemir

17. *«Usmon Nosir she'riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo'ronday! U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, unchamuncha she'riy uslub va ijodni to's-to's qilib yubordi. Uni o'zimizda «O'zbekning Lermontovi», Moskva gazetalarida «Sharqda Pushkin paydo bo'ldi», deb yozishdi».*

Qaysi ijodkor Usmon Nosirga shunday ta'ri bergan?

- A) Ozod Sharafiddinov
- B) Said Ahmad
- C) Turob To'la
- D) Abdulla Qahhor

18. Qaysi javobda faqat Usmon Nosirning she'riy to'plamlari nomi keltirilgan?

- A) «Atlas», «Zafar», «So'nggi kun», «Dushman»
- B) «Norbo'ta», «Naxshon», «Yurak»
- C) «Mehrim», «Sayha», «Soz»
- D) «Quyosh bilan suhbat», «Safarbar satrlar», «Traktorobod»

19. *«Yurak» she'rida shoir ko'ziga oyni berkitib, u bilan ishqibozlik qilishigada yo'l qo'yib bergan Yurakdan, avvalo, Vatan rozi bo'lishini talab qiladi. Aks holda: «Yoril, chaqmoqqa aylan sen, Yoril Mayli, tamom o'lsam!..» – deya yurtga nafi tegmaydigan ijoddan o'limni afzal biladi.*

Ushbu parchada tahlili keltirilgan she'r qaysi ijodkor qalamiga mansub?

- A) Abdulla Avloniy
- B) Cho'lpon
- C) Usmon Nosir
- D) Fitrat

20. Bu asarda Turg'un, Nurxon, Haydar soqov va Shokir mishiqli kabi tengdosh bolalar obrazlari orqali bola tabiatiga xos bo'lgan xarakter xususiyatlari ham ochib berilgan. Ushbu parchada qaysi asar haqida fikr yuritilgan?
- A) «Bolaning ko'ngli poshsho» hikoyasi  
B) «Uloqda» hikoyasi  
C) «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi  
D) «Fanorchi ota» hikoyasi
21. Qaysi javobdagi asarlar Abdulla Qodiriy qalamiga mansub?
- A) «Onalar», «Kuzatish», «Yodgor»  
B) «Zar qadri», «Jar yoqasidagi chaqmoq», «Daryolar tutashgan joyda»  
C) «Mahmud Tarobiy», «O'tror», «Karvon yo'llarida»  
D) «Juvonboz», «Obid ketmon», «Baxtsiz kuyov»
22. «Sadoyi Turkiston» gazetasida «Yangi masjid va maktab» sarlavhali xabar bosiladi... yozuvchilik faoliyatiga birinchi qadamni shu tarzda qo'yadi. Oradan ko'p o'tmay, «Millatimga», «Ahvolimiz» she'rlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi chiqadi. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?
- A) Abdurauf Fitrat      B) Hamza  
C) Cho'lpon      D) Abdulla Qodiriy
23. Qaysi javobdagi ma'lumot Cho'lpon haqida?
- A) U «Maktab gulistoni» va olti qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» kitoblari muallifidir.  
B) Bu ijodkor «Baxtsiz kuyov» dramasi va «Yig'indi gaplar» maqolasi muallifidir.  
C) Bu ijodkor «Qurboni jaholat» va «Do'xtur Muhammadiyor» hikoyalari hamda «Turkistonli qarindoshlarimizga» she'ri muallifidir.  
D) U fors tilida yozilgan «Sayha» she'rlar to'plami va «Hind sayyohi qissasi» («Bayonoti sayyohi hindi») nasriy asari muallifidir.
24. Yozuvchi 1917–1918-yillardan boshlab ushbu roman uchun material yig'ishga kirishdi. Yozuvchi xalqning hayoti, ahvoli-ruhiyasini yirik badiiy asarda tasvirlash zaruriyatini his etardi. O'zbekning qanday xalq ekanligini ko'rsatib beradigan katta hajmli asarga ulkan ehtiyoj borligini sezardi. Adib romanni 1919-yildan yoza boshladi. 1992-yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari «Inqilob» jurnalida chop etildi. 1995-yilda romanning bo'limlari alohida-alohida uch kitob tarzida, 1996-yilda esa u yaxlit asar sifatida bosilib chiqdi. Ushbu ma'lumot qaysi asar haqida?
- A) «Qutlug' qon»  
B) «O'tkan kunlar»  
C) «Kecha va kunduz»  
D) «Mehrobdan chayon»
25. Bu asarda umri to'rt devor orasida o'tayotgan, na tirikchilikdan, na erdan yalchigan Qurvonbibi, dunyoda faqat eshonning so'zinigina haqiqat deb o'ylagan johil Razzoq so'fi obrazlari uchraydi. Ushbu ma'lumot qaysi asar haqida?
- A) «Kecha va kunduz» (Cho'lpon)  
B) «Qutlug' qon» (Oybek)  
C) «Mehrobdan chayon» (Abdulla Qodiriy)  
D) «Dahshat» (Abdulla Qahhor)
26. Millatim nasli bashardur, Vatanim kurrayi arz,  
Ikkisin xizmati farzdur, ikkisindan jon qarz.  
Ushbu misralar qaysi ijodkor qalamiga mansub?
- A) Hamza  
B) Usmon Nosir  
C) Fitrat  
D) Cho'lpon

### JAVOBLAR VARAQASI

|    |                       |                       |                       |    |                       |                       |                       |    |                       |                       |                       |
|----|-----------------------|-----------------------|-----------------------|----|-----------------------|-----------------------|-----------------------|----|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
| A  | B                     | C                     | D                     | A  | B                     | C                     | D                     | A  | B                     | C                     | D                     |
| 1  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 11 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 21 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 2  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 12 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 22 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 3  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 13 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 23 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 4  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 14 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 24 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 5  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 15 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 25 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 6  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 16 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 26 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 7  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 17 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 27 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 8  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 18 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 28 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 9  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 19 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 29 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 10 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 20 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 30 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |

FLSh:

Test varianti raqami

### JAVOBLAR VARAQASI

|    |                       |                       |                       |    |                       |                       |                       |    |                       |                       |                       |
|----|-----------------------|-----------------------|-----------------------|----|-----------------------|-----------------------|-----------------------|----|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
| A  | B                     | C                     | D                     | A  | B                     | C                     | D                     | A  | B                     | C                     | D                     |
| 1  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 11 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 21 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 2  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 12 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 22 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 3  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 13 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 23 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 4  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 14 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 24 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 5  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 15 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 25 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 6  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 16 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 26 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 7  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 17 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 27 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 8  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 18 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 28 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 9  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 19 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 29 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 10 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 20 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 30 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |

FLSh:

Test varianti raqami

### JAVOBLAR VARAQASI

|    |                       |                       |                       |    |                       |                       |                       |    |                       |                       |                       |
|----|-----------------------|-----------------------|-----------------------|----|-----------------------|-----------------------|-----------------------|----|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
| A  | B                     | C                     | D                     | A  | B                     | C                     | D                     | A  | B                     | C                     | D                     |
| 1  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 11 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 21 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 2  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 12 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 22 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 3  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 13 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 23 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 4  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 14 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 24 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 5  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 15 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 25 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 6  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 16 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 26 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 7  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 17 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 27 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 8  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 18 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 28 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 9  | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 19 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 29 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |
| 10 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 20 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | 30 | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> | <input type="radio"/> |

FLSh:

Test varianti raqami

27. Qaysi javobdagi ma'lumot Hamza haqida emas?

- A) Ijodkor yangi maktablar uchun «Muxtasar islom tarixi», «O'qu» singari darsliklarni yaratgan.
- B) Shoir tarjimaiy holida eslashicha, o'n yoshlaridan she'r mashq qila boshlagan. Abdulla To'q'mullin uning ijod namunalari ko'rib, unga har jihatdan yordam va maslahat bergan.
- C) Shoir kishilarga ma'rifat tarqatish maqsadida Marg'ilonda «G'ayrat» kutubxonasini ochadi.
- D) Ijodkorning otasi tabib bo'lgani uchun uning nomiga «tabibning o'g'li» ma'nosini beradigan nom qo'shib aytiladi.

28. *Sen yuragimning chashma suvisan,  
Sen ko'zlarimning gavhar nurlari.  
Sening bahongni kim so'rasa, de:  
«Bahom – umrning bahosiga teng».*  
Ushbu misralar o'rin olgan, shoirning o'z ijodi, o'z she'ri haqida yozilgan «She'rim» nomli she'r qaysi ijodkor qalamiga mansub?

- A) Usmon Nosir      B) Muhammad Yusuf
- C) Mirtemir        D) Cho'lpon

29. – *Mening holimni ko'ringiz, domla, – dedi  
... kulib, – qo'lim bog'langan, ustimda  
xanjar yaltiraydi. Lekin men kulaman  
... Nima uchun bunday, taqdir? Chunki  
vijdon rohatda, jon tinch, yurakda ishq!..  
Durust, men ko'milgach, qabrim ustida  
ko'ksi dog'liq qizil lolalar ko'karar...  
Nimadan bu? Bu – sizning kabi tubanlar  
solgan iz!..*

Ushbu jumlar qaysi asarning qahramoni tilidan aytilgan?

- A) «Mehrobdan chayon» (Abdulla Qodiriy)
- B) «Dahshat» (Abdulla Qahhor)
- C) «Kecha va kunduz» (Cho'lpon)
- D) «Qutlug' qon» (Oybek)

30. *Ijodkorning ilmiy izlanishlarining mevasi o'laroq, birin-ketin uning «Eng eski turkiy adabiyot namunalari», «O'zbek adabiyoti namunalari», «Sharq shaxmati», «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi», «Fors shoiri Umar Xayyom» singari ilmiy asarlari dunyoga keldi.*

Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?

- A) Abdulla Avloniy
- B) Abdulla Qodiriy
- C) Abdurauf Fitrat
- D) Abdulhamid Cho'lpon

31. Qaysi javobdagi ma'lumot Hamza Hakimzoda Niyoziy haqida?

- A) U Shahrisabz va Karkida yangi usulda ta'lim berishga ixtisoslashgan jadid maktablari ochadi. Yangi maktablar uchun «Muxtasar islom tarixi», «O'qu» singari darsliklarni yaratadi.
- B) U insonlarning kelajagi uchun tarbiya muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlab, shunday deydi: «...tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».
- C) U yangi usulda ta'lim berishga ixtisoslashgan jadid maktablari ochgan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun «Yengil adabiyot», «Qiroat kitobi» singari darslik va majmualar yaratgan.
- D) U jamiyat a'zolarini ma'rifatli, o'qimishli va ilg'or fikrli qilishga qaratilgan «Millatimga», «Ahvolimiz» she'rlari va «Juvonboz» hikoyasi muallifidir.

**CROSS.UZ**



**XX asr o'zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti.**

*G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim,  
Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir, Zulfiya*

1. G'afur G'ulomning «Vaqt» she'ri haqida berilgan ma'lumotni aniqlang.
  - A) She'rda shuhratparastlikka intilib ibodatxonani yoqib yuborgan Gerostratning qilmishi tilga olinadi.
  - B) She'rda millat dardiga najot sifatida xalqning og'ir-vazmin, mulohazakor, biroq ko'zlari yoniq farzandlari – yigitlar tilga olingan.
  - C) She'rda ko'lankaning o'rik bilan u bodroq-bodroq gullagan paytda do'st tutingani, biroq bulutli kunda yo'qolib qolganligi ifoda etiladi.
  - D) She'rda «o'zbek otasi»ning bo'rtma, umumiy, hamma uchun tanish, yaxlit siymosi aks ettirilgan, otaning sog'inchi ta'sirli ifoda etilgan.
2. Fitratning «O'gut» she'ri haqida berilgan ma'lumotni aniqlang.
  - A) She'rda millat dardiga najot sifatida xalqning og'ir-vazmin, mulohazakor, biroq ko'zlari yoniq farzandlari – yigitlar tilga olingan.
  - B) She'rda ko'lankaning o'rik bilan u bodroq-bodroq gullagan paytda do'st tutingani, biroq bulutli kunda yo'qolib qolganligi ifoda etiladi.
  - C) She'rda shuhratparastlikka intilib ibodatxonani yoqib yuborgan Gerostratning qilmishi tilga olinadi.
  - D) She'rda «o'zbek otasi»ning bo'rtma, umumiy, hamma uchun tanish, yaxlit siymosi aks ettirilgan, otaning sog'inchi ta'sirli ifoda etilgan.
3. Qaysi javobda «Uloqda» hikoyasida uchraydigan obrazlar keltirilgan?
  - A) Nurxon, Shokir mishiqli
  - B) Qosim cho'loq, Shokir mishiqli
  - C) Haydar soqov, A'zam
  - D) Qosim cho'loq, A'zam
4. Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» ertak-dostoni haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
  - A) Ushbu dostonida Oygul tabiatida o'zbek qizlariga xos mardonalik, tantilik, tadbirkorlik fazilatlarini yaqqol ko'zga tashlanadi.
  - B) Ushbu dostonida Oygulning xalqni xon zulmidan xalos qilish niyatida katta qo'shin bilan Jambilga hujum qilishi va g'alabaga erishishi tasvirlanadi.
  - C) Oygul: «Tiriklikda to'ymovding sira qon-yoshga, Mana endi to'yib ol, boshing ko'mib ich», deya zolim xonning tanasidan uzilgan boshini chuqurga otadi.
  - D) Saroyda xizmat qiladigan, xondan juda ko'p jabr-u jafoga ko'rgan Tarlon Oygulni qutqarishga jazm qiladi.
5. Qaysi javobdagi ma'lumot «Fanorchi ota» hikoyasi haqida emas?
  - A) Ushbu hikoyada tasvirlanishicha, mahalla bolalari ichida keksa kishi himoyasiga dadil chiqa oladigan Ahmad singari mard bolalar ham paydo bo'ladi.
  - B) Hikoyada keksa kishining insoniy hislari beboshliklar qilib kekkayib turgan, keksa kishi ustidan «piq-piq» kulib turgan bolalar ko'ngliga ko'chishi ustalik bilan tasvirlangan.
  - C) Hikoyadan XX asr boshlaridagi ko'hna Toshkentning g'ala-g'ovur ko'chalari manzarasi, bo'zchilarning hayot tarzini ifoda etuvchi parcha ham o'rin olgan.
  - D) Ushbu hikoyada har kuni bir zararkunandalikni o'ylab topadigan battol Qosim cho'loq ishtirok etadi.

6. «Ushbu she'rda otalarimizga xos bo'lgan jamiki fazilatlar o'zining yorqin ifodasini topgan. Ularning samimiyligi, jonsarakligi, har doim ham oshkor qilinavermaydigan farzandga mehr-u muhabbati, kuzatuvchanligi, tantiligi, andishasi ... barcha-barchasi shu she'rda namoyon bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, bu she'rda o'zbek otasining bo'rtma, umumiy, hamma uchun tanish, yaxlit siymosi aks ettirilgan». Ushbu ma'lumot qaysi she'r haqida?
- A) «Sog'inish» (G'afur G'ulom)  
 B) «O'gut» (Fitrat)  
 C) «Genetika» (Abdulla Oripov)  
 D) «Bu – men tug'ilgan tuproq» (Mirtemir)
7. Ijodkor she'rda she'riyatdagi jonlantirish san'atidan mahorat bilan foydalanib, dunyodan o'tib ketgan yaqin odamining sog'inchi, xotirasini qalamga oladi. She'rda: «Mana, qimmatligim, yana bahor kelib, Seni izlab yurdi, kezdi sarsari. Qishning yoqasidan tutib so'radi seni, Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari» kabi ta'sirchan misralar o'rin olgan. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?
- A) Saida Zunnunova  
 B) Muhammad Yusuf  
 C) To'ra Sulaymon  
 D) Zulfiya
8. Qaysi ijodkor xalqaro «Nilufar», Javoharlar Neru nomidagi mukofotlar bilan taqdirlangan?
- A) Zulfiya  
 B) Saida Zunnunova  
 C) Xudoyberdi To'xtaboyev  
 D) Erkin Vohidov
9. Qaysi javobda Zulfiyaning asarlari berilmagan?
- A) «Quyoshli qalam», «Mushoira»  
 B) «Xotira siniqlari», «Bog'lar qiyg'os gulda»  
 C) «Gullar vodiysi», «Surat bilan suhbat»  
 D) «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush», «Bahor keldi seni so'roqlab»
10. Ijodkor she'rlaridan birida atrofni o'ragan odamlar unga hamisha yaxshilik tilaganlarini:
- «Biri yuragimga baxsh etar kulgu,  
 Biri qonlarimga solar hayajon.  
 Biri olg'a chorlar bo'lib oq orzu,  
 Biri der: hayotsan, yur orzu tomon», – deya ta'sirchan ifoda etadi. She'rda ulardan quvvat olib, yelkasi tog' ortsa ham ko'tara olgulik qudrat his etayotganini aytadi. Bu bilan she'rxon qalbiga ham umidbaxsh tuyg'ular solib, uni ham o'tayotgan kunlaridan zavqlanib yashashga, yaratishga bunyodkorlikka da'vat etadi. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?
- A) Zulfiya  
 B) Saida Zunnunova  
 C) Mirtemir  
 D) Asqad Muxtor
11. Qaysi javobda nomi keltirilgan asar Oybek qalamiga mansub emas?
- A) «Mahmud Torobiy»  
 B) «Nur qidirib»  
 C) «Oltin vodiidan shabadalar»  
 D) «Tirilgan murda»
12. «Oygul bilan Baxtiyor» ertak-dostonidagi xon zulmiga qarshi bosh ko'targan xalq qo'zg'oloniga boshchilik qilgan, kuchlar teng emasligi uchun mag'lub bo'lib, qizining ko'z o'ngida xon tomonidan qatl etilgan qahramon nomini aniqlang.
- A) Tarlon  
 B) Darxon  
 C) Baxtiyor  
 D) Qoraxon
13. Qaysi javobda Abdulla Qahhorning faqat hikoyalari berilgan?
- A) «Sinchalak», «Dahshat»  
 B) «Og'riq tishlar», «Shohi so'zana»  
 C) «Sarob», «Ayajonlarim»  
 D) «Bemor», «O'g'ri»

14. Qaysi javobda Abdulla Qahhorning taxalluslari berilgan?
- A) Andijonlik, Hijron  
B) Sarimsoq, Norin shilpiq  
C) Mijmar, Nihon  
D) Qalandar, Mirza Qalandar
15. «Mirzo Ulug'bek» fojiasida qatnashmaydigan obraz berilgan javobni aniqlang.
- A) Ota Murod  
B) Sakkokiy  
C) Berdiyori  
D) Buqalamun
16. *Sen bo'lmasang ketar ekan omadim har choq. Sen qaydasan, hay, ..., Chotqol shunqori!* «Mirzo Ulug'bek» fojiasidan olingan ushbu misralarda Mirzo Ulug'bekning qaysi qahramonga qarata murojaati berilgan?
- A) Berdiyorga  
B) Ota Murodga  
C) Bek Arslonga  
D) Ali Qushchiga
17. Qaysi javobda G'afur G'ulomning asarlari berilgan?
- A) «Baxt tongotari», «Oftob nayzada»  
B) «Qishloq hukm ostida», «Zilzila»  
C) «Kapitan Gastello», «Kurash nechun»  
D) «To'y», «Ikki vasiqa»
18. Qaysi javobda Oybekning dostonlari berilgan?
- A) «Dilbar – davr qizi», «Baxtigul va Sog'indiq», «O'ch»  
B) «Navoiy», «Qutlug' qon», «Quyosh qoraymas»  
C) «Bolalik», «Nur qidirib», «Alisherning bolaligi»  
D) «Fanorchi ota», «Musicha», «Singan umid»
19. *Halol tirikchilik qiladigan kovushdo'zning o'g'li edi, ammo zamonning og'irligi tufayli oila boqish uchun o'g'rilikni kasb qilib olgan edi, shunday bo'lsa-da, bu kasb o'ziga yoqmasdi.* Ushbu parchada fikr yuritilgan obraz qaysi asarda uchraydi?
- A) «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi  
B) «Bolaning ko'ngli poshsho» hikoyasi  
C) «Urushning so'nggi qurboni» hikoyasi  
D) «O'g'ri» hikoyasi
20. Qaysi javobdagi ma'lumot «Fanorchi ota» hikoyasi haqida?
- A) Bu asarda Turg'un, Nurxon, Haydar soqov va Shokir mishiqli ismli tengdosh bolalar obrazlari orqali bola tabiatiga xos bo'lgan xarakter xususiyatlari ham ochib berilgan.  
B) Bu asarda A'zam, Muso ismli bolalar obrazlari orqali bola tabiatiga xos bo'lgan o'yinqaroqlik, sabrsizlik, qizg'anchilik kabi xarakter xususiyatlari ham ochib berilgan.  
C) Bu asarda uyiga o'g'ri kirganini bilib, buni aytib do'stlariga maqtanishi mumkinligidan xursand bo'lgan yetim bola obrazi orqali bolalargagina xos bo'lgan xarakter juda ishonarli tavsirlangan.  
D) Bu asarda Qosim cho'loq, Ahmad ismli bolalar obrazlari orqali bola tabiatiga xos bo'lgan xarakter xususiyatlari ham ochib berilgan.
21. *U olti oydan beri biror soat mijja qoqib uxlamagan ... qizidan qolgan to'rt yetimning kelajagini o'ylaydigan, mehribon «qora buvi».* Ushbu parchada fikr yuritilgan obraz nomi qaysi javobda berilgan?
- A) Roqiyabibi  
B) Sharofat aya  
C) Umri xola  
D) Jannat xola

22. Qaysi ma'lumot Mirkarim Osim haqida emas?

- A) U Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi arafasida «Zulmat ichra nur» qissasini yozgan.
- B) Ijodkorning tarixga oid dastlabki yirik asari «Astrobod» qissasidir.
- C) Ijodkor birinchi bo'lib «Mustaqillik» ordeniga munosib ko'rilgan.
- D) U Navoiyning hayot va ijod yo'llarini keng aks ettiruvchi «Alisher Navoiy va Darvishali», «Badarg'a», «Navoiyning xislatlari», «Ulug'bek va Navoiy» singari qissa va hikoyalar yozdi.

23. Qaysi javobdagi asarlar G'afur G'ulom qalamiga mansub?

- A) «Juvonboz», «To'y», «Baxtsiz kuyov»
- B) «Mahmud Tarobiy», «O'tror», «Karvon yo'llarida»
- C) «Zar qadri», «Jar yoqasidagi chaqmoq», «Daryolar tutashgan joyda»
- D) «Tirilgan murda», «Yodgor», «Netay»

24. *Bir kishi «...bitta qo'ydan garov bog'lashib yo'lga tushipti. Jo'ralari hali kutishar emish – yo'q, hali kutishar emish – yo'q; tong otipti, uyida ham yo'q emish; go'ristonga borib qarashsa, Asqar ponsotning go'ri oldida o'lib yotgan emish! Bechora go'rga pichoq sanchganida etagini qo'shib sanchgan ekan, qaytay desa, etagidan birov tortganday bo'lgan-da...»*

Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

- A) «Mehrobdan chayon» (Abdulla Qodiriy)
- B) «Shum bola» (G'afur G'ulom)
- C) «Urushning so'nggi qurboni» (O'tkir Hoshimov)
- D) «Dahshat» (Abdulla Qahhor)

25. *Bu asarda podsho boshida shoxi borligini sir saqlash uchun sochini olgan sartaroshlarni birma-bir o'ldirtiraveradi, ammo oxir-oqibat bu aybini butun olam biladi va xalq orasida badnom boladi.* Ushbu parchada keltirilgan ma'lumot qaysi asar haqida?

- A) «Bu – men tug'ilgan tuproq» she'ri (Mirtemir)
- B) «Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostoni (Maqsud Shayxzoda)
- C) «Mardlik afsonasi» balladasi (Shuhrat)
- D) «Oygul bilan Baxtiyor» ertak-dostoni (Hamid Olimjon)

26. Qaysi javobdagi ma'lumot «Shum bola» qissasi haqida emas?

- A) Ushbu asar qahramoni Sariboy bo'lis «oshtomog'iga yuradigan arzonqo'l kishilarni eshigidan quvlamas» edi.
- B) Ushbu asarda bosh qahramonni to'g'ridan to'g'ri o'g'rilik qilishga undagan Eshon obrazi uchraydi.
- C) Asarda basharasi «yo'lning gard-g'ubori qoqilmagan namatdek qilib yuborgan» deya tasvirlangan Omon obrazi uchraydi.
- D) Ushbu asarda Soraxon folbin va uning o'g'li Mirobiddinxoja nayranglarining sharmandalarcha fosh etilishi-tasviri uchraydi.

27. *Uning zulmga, zo'rlikka qarshi qo'zg'algan xalqqa qo'shilishi ham, bu to'daning yetakchisiga aylanib qolishi ham uning tabiatidagi kurashchanlik va adolatga tashnalik tuyg'usidan. U «...zulm qayerda uchrasa, shu yerda yondirish kerak» deya o'z so'zi va harakati bilan xalqni ruhlantirgan jasur yigit.*

Ushbu parchada qaysi adabiy qahramon haqida fikr yuritilgan?

- A) Anvar («Mehrobdan chayon»)
- B) Bektemir («Chinor»)
- C) Miryoqub («Kecha va kunduz»)
- D) Yo'lchi («Qutlug' qon»)

28. U kasal otasini qaratish maqsadida olingan qarzlardan qutulish uchun otasi vafot etgach yerlarini sotib yuboradi. Tog'asini qora tortib Toshkentga keladi... – mard, halol, oqko'ngil, oliyjanob yigit... shahardagi qarindoshlardan mehr-u muruvvat kutadi. Bu yigit mehnatdan qo'rqmaydi, ishining ko'zini biladi. U kunda kavlash, beda o'rish singari kuch talab etiladigan og'ir ishdan ham, mehmonlarga xizmat qilishday yumushlardan ham og'rinmaydi. Ushbu parchda qaysi adabiy qahramon haqida fikr yuritilgan?

- A) Xolmat («Kecha va kunduz»)
- B) Yo'lchi («Qutlug' qon»)
- C) Bektemir («Chinor»)
- D) Anvar («Mehrobdan chayon»)

29. Qaysi ijodkorning dastlabki to'plami «Tuyg'ular» deb nomlanadi?

- A) Oybek
- B) Hamid Olimjon
- C) Zulfiya
- D) Saida Zunnunova

30. G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni Kapalak umriga qiyos etgulik, Ba'zida bir nafas olgulik muddat Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik. Shunday takrorlanmas misralar o'rin olgan «Vaqt» she'ri muallifini aniqlang.

- A) Oybek
- B) G'afur G'ulom
- C) Abdulla Oripov
- D) Asqad Muxtor

31. Bu – qadim dunyoda yangi bir olam, Bunda orqa tog'siz bir tirik jon yo'q. Tayanch bo'lmasaydi odamzod albat, O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt. Ushbu betakror misralar o'rin olgan «Bog'lar qiyg'os gulda» she'ri qaysi ijodkor qalamiga mansub?

- A) Zulfiya
- B) Saida Zunnunova
- C) Asqad Muxtor
- D) Maqsud Shayxzoda

32. Qaysi javobda «Oygul bilan Baxtiyor» dostoni qahramoni Tarlon haqida ma'lumot berilgan?

- A) U Oygulning otasi edi, isyonchilarga boshchilik qilar edi.
- B) U Oygulning ko'z o'ngida zolim xon tomonidan qatl etiladi, bu esa xalqning g'azabini yanada oshiradi.
- C) U daryo bo'yiga o'tin tergani kelganida daryoda oqib kelayotgan sandiqni ko'rib qoladi va uni suvdan olib chiqadi.
- D) U saroyda xizmat qilardi, xondan juda ko'p jabr-u jafo ko'rgan kekxa qul edi.

33. Qaysi javobda Zulfiyaning she'riy to'plamlari berilgan?

- A) «Dalada bir kun», «Sodiq bilan Anor»
- B) «Shalola», «Surat bilan suhbat»
- C) «Yuragimga yaqin kishilar», «Qizlar qo'shig'i»
- D) «Uni Farhod der edilar», «Qizingiz yozdi»

## XX asr o'zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti.

Shuhrat, Turob To'la, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Saida Zunnunova, Mirmuhsin, O'lmas Umarbekov

1. Qaysi javobda Asqad Muxtorning bolalarga bag'ishlangan she'riy to'plamining nomi berilgan?

- A) «Chin yurakdan»
- B) «Bizning avlod»
- C) «Dunyo bolalari»
- D) «Ovchi bolalar»

2. Qaysi adib Farg'ona shahrida temiryo'lchi oilasida tug'ilgan bo'lib, uning oilasi asli Tataristondan kelgan?

- A) Shuhrat
- B) Odil Yoqubov
- C) Asqad Muxtor
- D) Said Ahmad



3. Qaysi javobda «Ufq» romani haqida ma'lumot berilgan?
- A) Romanda Vatanga qilgan xizmatlari uchun oliy mukofot bilan taqdirlangan, ammo yakka-yu yagona o'g'lining qo'rqqulik qilib urushdan qochganini bilgach juda qattiq o'ksingan ota obrazi berilgan.
  - B) Romanda «Sharq adabiyotining vallamatlaridan biri, butun Osiyoni aql-idrok bilan tebratgan» Ahmad Yassaviy, mashhur shoir Otovi singari ulug'lar tilga olinadi.
  - C) Romanda o'z ona qishlog'ida jon berishni orzu qilgan, lekin orzulari armon bo'lib qolgan Sharofat xolaning iztiroblari ham ifoda etilgan.
  - D) Bu roman adibning nasriy yo'nalishda yozgan ilk asari hisoblanadi. Asarda muallif o'z hayotida ko'rgan-kechirganlarini, kattalardan eshitgan rivoyatlarni qiziqarli tarzda tasvirlaydi.
4. Asqad Muxtorning bir xil janrda yozilgan asarlarini toping.
- A) «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar»
  - B) «Bo'ronlarda bordek halovat», «Jar yoqasidagi chaqmoq»
  - C) «Tilak», «Qorako'z majnun»
  - D) «Davr mening taqdirimda», «Samandar»
5. «Tilak», «Tong edi», «Totli damlar» singari she'riy asarlar qaysi ijodkorning qalamiga mansub?
- A) Shuhrat
  - B) Mirtemir
  - C) Asqad Muxtor
  - D) Hamid Olimjon
6. Said Ahmadning qissalarini toping.
- A) «Tengdoshlar», «Studentlar»
  - B) «Qadrdon dalalar», «Hukm»
  - C) «Qishloq hukm ostida», «Muhabbat»
  - D) «Jimjitlik», «Ufq»
7. *Ulg'ayib, ustiga egar urilibdiki, har yakshanba kuni butun Hisorni oshib, shu yer(bozorga)ga keladi. Tor taxta ko'priknining yoniga omonatgina qurilgan choyxona etagida to'xtaydi... To'riq uzoq vaqtgacha bunga ko'nikolmadi, bir-ikki marta, hatto tizginni uzib qochdi, butun bozor ahlini sarson qildi. Bir-ikki marta esa yarim yo'lda tixirlik qilib oyog'ini tirab turib oldi, bo'lmadi. Qamchi yedi. Endi ko'nikib qoldi.* Ushbu parchada tasviri keltirilgan to'riq ot qaysi asarda uchraydi?
- A) «Asrga tatigulik kun» romani (Ch. Aytmatov)
  - B) «Qiyomat qarz» hikoyasi (O'. Umarbekov)
  - C) «Uloqda» hikoyasi (A. Qodiriy)
  - D) «Do'nan» hikoyasi (T. To'la)
8. Qaysi ma'lumot Said Ahmadning hayoti va ijodi haqida emas?
- A) U dastlabki asari bilanoq buyuk ijodkor Abdulla Qahhor nazariga tushgan, undan «Sof, samimiy, tabiiy, iliq, rohat qilib o'qiladigan asar» yozibsiz deb maqtov olgan.
  - B) Uning ilk mashqi o'n olti yoshlarida «Mushtum» jurnalida chop etilgan va dastlabki ish faoliyati ham xuddi shu jurnalda boshlangan.
  - C) Said Ahmad Toshkent shahrining «Samarqand darboza» mahallasida dunyoga kelgan.
  - D) Said Ahmad Oybekning psixologik tasvir mahoratini, G'afur G'ulom yumorini, Abdulla Qahhorning ixcham va teran fikrlash fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan ijodkordir.
9. «Qoplon» asariga oid qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) Tillayev eski bod kasali tutib qolganligi sababli direktorlikdan bo'shaydi.
  - B) Qurbonboy yaxshi montyor bo'lganligi sababli uni urushga olib ketishmaydi.
  - C) Qurbonboy Tillayevga bir it olib kelib beradi va keyinchalik olib ketib qoladi.
  - D) Tillayev Qurbonboyga garaj direktorining muovini bo'lishi uchun yordam qiladi.

10. Shuhratning urush mavzusida yozilgan she'rlar turkumini belgilang.
- A) «Orzu va qasos»  
B) «Oltin zanglamas»  
C) «Mehrol»  
D) «Shinelli yillar daftari»
11. Qaysi javobda Shuhratning dostonlari berilgan?
- A) «Nido», «Orzu chashmasi»,  
B) «Farzand», «So'lmas chechaklar»  
C) «Jamila», «Raymonda»  
D) «Shinelli yillar», «Mashrab»
12. *Hayotga romantik ko'z bilan qaraydigan, hamisha ezgulikka intilgan ijodkorning ijodiy faoliyatida qahramonlik ko'rsatgan odamlarning jasorati tasvirlangan balladalar alohida o'rin tutadi. Ayrim balladalarida o'zgalarning vatanini bosib olgan kimsalarga qarshi kurashgan qahramon bolalar hayoti tasvirlanadi. U «Jamila», «Ona va farzand» va «Raymonda» kabi balladalar muallifi sanaladi.*  
Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?
- A) Shuhrat                      B) Mirmuhsin  
C) Asqad Muxtor              D) Maqsud Shayxzoda
13. Qaysi javobda Shuhratning faqat balladalar berilgan?
- A) «Orzu va qasos», «So'lmas chechaklar», «Mehrol»  
B) «Mardlik afsonasi», «Jannat qidirganlar», «Mashrab»  
C) «Ona va farzand», «Mehrol», «Farzand»  
D) «Guldursun», «Uch qiz afsonasi», «Qora va oq aravacha haqida ertak»
14. Qaysi javobda Shuhratning romanlari berilgan?
- A) «Jamila», «Oltin zanglamas»  
B) «Oltin zanglamas», «Jannat qidirganlar»  
C) «Shinelli yillar», «Orzu va qasos»  
D) «Shinelli yillar daftari», «Mashrab»
15. Qaysi javobda Said Zunnunovning birinchi kitobi nomi berilgan?
- A) «Gullar vodiysi»  
B) «Qizingiz yozdi»  
C) «Sodiq va Anor»  
D) «She'rlar»
16. Qaysi javobda Turob To'laning dastlabki nasriy asari berilgan?
- A) «Oftob nayzada»  
B) «Qishloq hukm ostida»  
C) «Gulyor»  
D) «Yetti zog'ora qissasi»
17. Turob To'laning «Yetti zog'ora qissasi» asarida «...o'ziga to'q, tinch oilada katta bo'lgan yolg'iz o'g'il», deb ta'riflangan qahramon nomi qaysi javobda berilgan?
- A) Fayzi  
B) Qosim cho'loq  
C) Baxshilla maxsum  
D) Toshtemir
18. Bir qo'li mayib otaning poygakda iymonib turishi va oppoq choyshabda jilmayib yotgan «jahonning umidi» – go'dak – tilga olingan «Tug'ilish» she'ri muallifini aniqlang.
- A) Asqad Muxtor  
B) Zulfiya  
C) G'afur G'ulom  
D) Maqsud Shayxzoda
19. Ba'zida bir nafas olgulik muddat Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik ... Ushbu takrorlanmas misralar muallifini aniqlang.
- A) Usmon Nosir  
B) Cho'lpon  
C) G'afur G'ulom  
D) Asqad Muxtor

20. «Ha, bolalarim... Odam deb o'lgan odam doim tirik bo'ladi». Asarda tasvirlanishicha, sodir bo'lgan voqeadan kelib chiqib yaqinlariga shunday hikmat aytgan otaxon nomi keltirilgan javobni aniqlang.
- A) Dadaqo'zi ota                      B) Ikromjon  
C) Ochil buva                         D) Momin chol
21. Tog' qa'rining zax sovug'i birdan ko'krakka urdi. Piyoda yuradigan taxta yo'lak zax devor bo'ylab borar, temiryo'l izlari uchrashgan chorrahalaridagina tonnel biroz kengayib, yorug' maydonlarga olib chiqar edi... . bosh ustidagi yo'g'on-yo'g'on kabellarni, issiq-sovuq suv, havo quvurlarini, elektr, telefon simlarini ushlab qo'yar, Yevropada ishlagan konlarini gapirib, chiroqsiz, havosiz, xuddi ko'rkalamushdek yer qaziganlarini eslab, u yerlarda insonning xorligini so'zlab borardi. Ushbu parchada qaysi adabiy qahramon xotiralari ifoda etilgan?
- A) Shoikromning («Urushning so'nggi qurboni»)  
B) Bektemirning («Chinor»)  
C) Nizomjonning («Ufq»)  
D) Miryoqubning («Kecha va kunduz»)
22. U uyning qorong'i bir burchagida uzoq yolg'iz o'tiradigan bo'ldi. Ba'zan o'z-o'zi bilan gaplashadi: «Bir zum... faqat bir zum... O'sha lahzada bir zumgina o'zimni boshqacha tutganimda edi... Odam o'zini o'zi o'ldirganda ham unga bir zumlik bardosh yetishmay qoladi, deyishadi...» Yana allanimalar deydi. Keyin qo'rqib o'rnidan turib ketadi. Ushbu parchada qaysi adabiy qahramonning ruhiy holati ifoda etilgan?
- A) Shoikrom («Urushning so'nggi qurboni»)  
B) O'rozqul («Qutlug' qon»)  
C) Tursunboy («Ufq»)  
D) Akbarali («Chinor»)
23. U Farg'ona shahrida temiryo'lchi oilasida dunyoga keldi. Oilada uchinchi farzand bo'lgan ... endigina 11 yoshga to'lganida otasi vafot etadi. O'n ikki yetim bolani boqib katta qilish oson ish emas edi... . balog'at yoshiga yetguncha bolalar uyida tarbiya topadi, o'qiydi. U Toshkentga kelib, jurnalistlar tayyorlaydigan kurslarga o'qishga kiradi, gazeta tahririyatida ishlaydi. Ushbu parchada qaysi ijodkor haqida ma'lumot berilgan?
- A) Turob To'la  
B) Asqad Muxtor  
C) Abdulla Qahhor  
D) Erkin Vohidov
24. U shu yotganicha ertalab ham ko'zini ochmadi. U yagona farzandidan umid uzolmay, uning baxtini ko'rolmay armon bilan chodirda jon bergan edi... . Ona, qazoyim yetib olamdan o'tsam, bolam o'z qo'li bilan qabrga qo'yadi, deb umid qilardi. Bolasi qabrga yaqin kelmay, bo'riga o'xshab to'qaydan xunuk qarab turardi. Quyosh qip-qizil cho'g' bo'lib botayotgan cho'l oqshomida hijronzada, alamzada, farzand dog'ida kuyib ado bo'lgan onani tuproqqa qo'yishdi. Ushbu parchada qaysi adabiy qahramonning hayotdan ko'z yumishi va dafn qilinishi tasvirlangan?
- A) Sharofat xolaning  
B) Zebi xolaning  
C) Jannat xolaning  
D) Umri xolaning
25. Qaysi javobda Turob To'la qalamiga mansu to'plamlar berilgan?
- A) «Dinamo», «Tirik qo'shiqlar»  
B) «Shodligim», «Tabassum»  
C) «Erka kiyik», «Halima enam allalari»  
D) «Yuraginga yaqin kishilar», «Kuylarim sizga»

26. *Safar insonni tarbiyalaydi.*

*Darhaqiqat, asarda badavlat xonadonning lo'mbillagan o'g'li G'avvos Muhammad safar davomida chidamsizligi, inijligi, badfe'lligi bilan hamrohlariga ozor yetkazadi. Safar nihoyasida esa hammaga yordam beradi va unda yaxshi sifatlar shakllanadi.*

Ushbu parchada fikr yuritilgan G'avvos Muhammad obrazi qaysi asarda uchraydi?

- A) «Me'mor» (Mirmuhsin)
- B) «Ulug'bek xazinasi» (Odil Yoqubov)
- C) «Yulduzli tunlar» (Pirimqul Qodirov)
- D) «Zulmat ichra nur» (Mirkarim Osim)

27. «Odamlarning soddaligi! Odamlarning sofigi... aziz armonlari. Yo'q, bular meni bu dunyoga sig'dirmaydi. Men qayoqqa borishim kerak? ...Qora yerda men yotsam bo'lmasmidi! ...Men yana o'zimni o'ylayapman. Nahotki shundan boshqaga yaramasam?.. Yarar edim, o'sha bir zum – daqiqadan o'tib olsam, albatta yarar edim. Lekin endi... endi kech. Bir zumlik xato. Bir nafas tubanlik... uni endi butun hayotni berib ham tuzatib bo'lmaydi». Ushbu lavhada tasvirlangan, alamlı iztiroblar ichida qolgan adabiy qahramon nomi keltirilgan javobni aniqlang.

- A) Akbarali («Chinor»)
- B) Tursunboy («Ufq»)
- C) Shoikrom («Urushning so'nggi qurboni»)
- D) O'rozqul («Qutlug' qon»)

## XX asr o'zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti.

*Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Ozod Sharafiddinov, Xudoyberdi To'xtaboyev, To'ra Sulaymon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Tohir Malik, O'tkir Hoshimov, Tog'ay Murod, Muhammad Yusuf, Xayriddin Saloh*

## 1. O'tkir Hoshimovning hikoyalari qaysi javobda berilgan?

- A) «Urushning so'nggi qurboni», «Muhabbat»
- B) «Dunyoning ishlari», «Oltin zanglamas»
- C) «Odamlar nima derkin?», «Odam bo'lish qiyin»
- D) «Nur borki, soya bor», «Tushda kechgan umrlar»

## 2. Qaysi qatorda Pirimqul Qodirovning qissalari berilgan?

- A) «Yayra institutga kirmoqchi», «Diyonat»
- B) «Najot», «Meros»
- C) «Qora ko'zlar», «Avlodlar dovoni»
- D) «Erk», «Dunyoning ishlari»

## 3. Qaysi javobda Odil Yoqubovning qissalari berilgan?

- A) «Qanot juft bo'ladi», «Billur qandillar»
- B) «Yurak yonmog'i kerak», «Bir koshona sirlari»
- C) «Qadrdon dalalar», «Hukm»
- D) «Ko'hna dunyo», «Olma gullaganda»

## 4. Qaysi javobda Erkin Vohidov haqida ma'lumot berilgan?

- A) U «Yillar armoni», «Sohibqiron» asarlari muallifidir.
- B) Shoirning matbuotda birinchi marta «Qushcha» she'ri bosilib chiqadi.
- C) U «Osmonning oxiri», «Qora quyosh» dostonlari muallifidir.
- D) U nemis shoiri Gyotening «Faust» asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

## 5. Qaysi ma'lumot Odil Yoqubov haqida emas?

- A) Ijodkor ma'lum muddat Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasining vitse-prezidenti vazifasini ham ado etgan.
- B) Ijodkorniing dastlabki yirik asari «Tengdoshlar» qissasidir.
- C) Ijodkor Mo'g'ilistonning cheksiz Gobi cho'lini piyoda bosib o'tib, Yaponiyaga qarshi olib borilgan urushda ishtirok etgan.
- D) Ijodkorning birinchi marta respublika matbuotida «Xatingni kutaman» nomli asari bosilib chiqqan.

6. Qaysi javobdagi ma'lumot Erkin Vohidov haqida emas?
- U «Oltin devor», «Istanbul fojiasi» kabi dramalar muallifidir.
  - U Dantening «Ilohiy komediya»sini o'zbek tiliga o'g'irgan.
  - O'n yoshga yetar-yetmas ham ota, ham onadan ajrab qolgan yosh shoirni tog'asi o'z tarbiyasiga oladi.
  - Uning el-yurt va adabiyot oldidagi xizmatlari inobatga olinib, «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlangan.
7. Qaysi javobda Odil Yoqubovning pyesalari berilgan?
- «Muzaffar Temur», «Chin muhabbat»
  - «Dastlabki qadam», «Er boshiga ish tushsa»
  - «Ko'hna dunyo», «Adolat manzili»
  - «Shohi so'zana», «Ayajonlarim»
8. «...to'ladan kelgan, novcha, qirraburun, o'sha davrda rasm bo'lgan to'mtoq mo'ylovli, xushqad, salobatli... diydasi qattiq, o'ktam, kamgap odam edi».
- Ushbu parchada ta'riflangan «Muzqaymoq» hikoyasi qahramoni kim?
- bolaning qo'shnisi
  - kapitanlardan biri
  - bolaning pochchasi
  - bolaning otasi
9. Qaysi javobdagi ma'lumot «Muzqaymoq» hikoyasi haqida emas?
- Hikoyada shahar komsomol qo'mitasining kotibi bolani «Ha, qashqirdan tug'ilgan qashqircha!» deb haqoratlaydi.
  - Hikoyada do'stining handalak yeb turganini ko'rgan bola otasidan handalak olib berishini iltimos qiladi.
  - Hikoyada Egamberdi Yoqubovning oilasiga SAKUda birga o'qigan o'rtoqlari mehmonga kelishi tasviri uchraydi.
  - Hikoyada tintuv o'tkazayotgan kapitanlardan biri bolani Pavlik Morozovga o'xshatadi.
10. Bu suratlar ham juda g'alati, ularning aksariyati charm palto kiyib, bellariga qilich va to'pponcha taqib olgan harbiy, ba'zilari esa ot o'ynatgan, qizil alvon ko'tarib dushman sari ot surib ketayotgan mard-u maydonlar bo'lsa ham, negadir barchasining ko'zlari o'yib olingan yoki ko'zlariga ko'k siyoh tortilgan edi.
- Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
- «Kecha va kunduz» (Cho'lpon)
  - «Shum bola» (G'afur G'ulom)
  - «Muzqaymoq» (Odil Yoqubov)
  - «Qutlug' qon» (Oybek)
11. «Muzqaymoq» hikoyasida «yosh, xushqad, xushsurat yigitcha» deb tasvirlangan, bolaning oilasi boshiga kulfat tushgunga qadar ularning uyiga bo'zchining mokisidek qatnagan, ammo otasi qamalgandan keyin qorasini ham ko'rsatmay ketgan, hattoki uni «Ha, qashqirdan tug'ilgan qashqircha!» deb haqoratlagan ikkiyuzlamachi qahramon kim?
- bolaning pochchasi
  - komsomol qo'mitasining kotibi
  - qamoqxona qorovuli
  - rus kapitanlaridan biri
12. Qaysi ijodkor turmushdagi oddiygina holatdan – choy quyilayotganda choynakning piyolaga «egilishi», choy ichayotganda inson piyolaning «peshonasidan o'pishi»dan foyladalanib ajoyib she'r yozgan?
- Muhammad Yusuf
  - Abdulla Oripov
  - Xayriddin Saloh
  - Erkin Vohidov
13. Qaysi javobda Erkin Vohidovning dostonlari berilgan?
- «Orzu chashmasi», «Quyosh maskani»
  - «Tong nafasi», «Istanbul fojiasi»
  - «Quyosh qoraymas», «Ruhlar isyoni»
  - «Nido», «Jannatga yo'l»



14. Qaysi ma'lumot Erkin Vohidov haqida emas?
- Ijodkor Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida dunyoga kelgan.
  - Ijodkor «Yoshlik» jurnalining dastlabki bosh muharriri sifatida yoshlarning adabiyotga kirib kelishi uchun jonbozlik ko'rsatgan.
  - Ijodkorning birinchi marta respublika matbuotida «Qushcha» nomli she'ri bosilib chiqqan.
  - Ijodkor shoir G'ayraty tomonidan tashkil etilgan adabiy to'garakda ijod sirlarini o'rgangan.
15. «Buloq», «Sevgi», «Ona tuproq» she'rlari, «Palatkada yozilgan doston», «Quyosh maskani» dostonlari kimning qalamiga mansub?
- Abdullar Oripov
  - Muhammad Yusuf
  - Erkin Vohidov
  - To'ra Sulaymon
16. Qaysi ma'lumot Tog'ay Murod hayoti va ijodi haqida?
- Ijodkor tarjimon sifatida Ernest Seton-Tompsonning «Yovvoyi yo'rg'a» asarini o'zbek tiliga mohirlik bilan og'irgan.
  - Uning qissasini o'qigan Abdulla Qahhor yozuvchiga maktub bitib, asar uni suyuntirib yuborganini aytgan, «sof, samimiy, tabiiy, iliq, rohat qilib o'qiladi»gan asar yozgani bilan tabriklagan.
  - Ijodkor Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida oddiy zahmatkash odamlar oilasida tug'ilgan.
  - Uning otasini ham «xususiy mulk egasi», «mushtumzo'r» sifatida quloq qiladilar. 1939-yilda uning otasi qamoqdan qaytadi va oilasini Sirdaryoga ko'chirib ketadi.
17. Qaysi javobda Tog'ay Murodning romani berilgan?
- «Otamdan qolgan dalalar»
  - «Ot kishnagan oqshom»
  - «Yulduzlar mangu yonadi»
  - «Oydinda yurgan odamlar»
18. Ushbu asar Tog'ay Murodning iste'dodli yozuvchi sifatida ko'rsatgan dastlabki yirik asar edi. Unda ming yillar mobaynida unutilmay, elda ardoqlanib kelinayotgan tarixiy qadriyat – kurash, kurashchi polvonlar, ular orasidagi muomala-munosabatlar, ziddiyatli hayotiy muammolar qalamga olinadi. Ushbu ma'lumot Tog'ay Murodning qaysi asari haqida?
- «Oydinda yurgan odamlar»
  - «Otamdan qolgan dalalar»
  - «Ot kishnagan oqshom»
  - «Yulduzlar mangu yonadi»
19. Bu asarda buyuk muhabbat rishtasi bilan bir-biriga mangu bog'langan go'zal insonlarning butun hayot yo'li tarannum etilgan. Qoplonbekka cheksiz kuch-quvvat, mardlik va shijoat, Oymomoga behad xushro'qlikni ato etgan ona tabiat, afsuski, ularni farzand ne'matidan bebahra qilganligi aks ettirilgan. Ushbu parchada Tog'ay Murodning qaysi asari haqida ma'lumot berilgan?
- «Otamdan qolgan dalalar»
  - «Ot kishnagan oqshom»
  - «Yulduzlar mangu yonadi»
  - «Oydinda yurgan odamlar»
20. Tog'ay Murodning qaysi asarida butun umr davomida farzandsizlik azobidan qiynalgan, qo'shni kelinning beshikdagi bolasini ovutib o'tirganda onalik baxtidan bir lahza totinib dunyodan ko'z yumgan Oymomo obrazi uchraydi?
- «Oydinda yurgan odamlar»
  - «Otamdan qolgan dalalar»
  - «Ot kishnagan oqshom»
  - «Yulduzlar mangu yonadi»
21. Tog'ay Murodning qaysi asari o'zbek xalqining Chor Rossiyasi va sho'ro bosqini ostida o'tgan hayotini – yuz yildan ortiqroq tarixni o'zida mujassam etgan?
- «Yulduzlar mangu yonadi»
  - «Oydinda yurgan odamlar»
  - «Otamdan qolgan dalalar»
  - «Ot kishnagan oqshom»

22. Tog'ay Murodning qaysi asarida qadimiy xalq musobaqasi – kurash san'atining butun qonun-qoidalarini eng mayda jihatlarigacha batafsil tasvirlangan?
- A) «Ot kishnagan oqshom»  
 B) «Yulduzlar mangu yonadi»  
 C) «Otamdan qolgan dalalar»  
 D) «Oydinda yurgan odamlar»
23. ... *na'rasiga*  
*Aks sado berdi jahon.*  
*She'riyat mulkida bo'ldi*  
*Shoh-u sulton o'zbekim.*  
 Erkin Vohidovning «O'zbekim» qasidasidan olingan ushbu parchada nuqtalar o'rnida qaysi ijodkor nomi tushirib qoldirilgan?
- A) Mirzo Bobur                      B) Shoh Mashrab  
 C) Mir Alisher                      D) Mirzo Ulug'bek
24. Qaysi javobdagi ma'lumot Odil Yoqubov haqida?
- A) U «Alhazar» satirik va yumoristik asarlar to'plami muallifidir.  
 B) U bolalarga bag'ishlab «Dunyo bolalari» nomli hikoyalar to'plamini nashr qildirgan.  
 C) Uning ilk asari – «Tengdoshlar» qissasi, harbiy xizmatda ekanida yozilgan.  
 D) Uning «Xandon pista» deb nomlangan hajviy to'plami bor.
25. Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» romaniga oid qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) Hoshimjon biroz ishlab pul topish uchun uyini tashlab ketib qoladi.  
 B) Hoshimjon brigadalarining birida kompost bilan kompotning farqiga bormasdan rosa izza bo'ladi.  
 C) Dono va Oysha Hoshimjonning singillari bo'ladi.  
 D) Hoshimjon o'zi va do'sti Qosimga yettita fandan choraklik chiqarib qo'rganligini avval ona tili, keyin fizika o'qituvchisi bilib qoladi.
26. Bu asarda urush tufayli qo'lidan ayrilgan Xol aka, bir oyog'idan ajralgan Rustamning akasi va otasidan ayrilgan Tal'at kabi insonlarning iztiroblarini tilga olish orqali urushning butun dahshati va insoniyatga yetkazgan og'ir judoliklari, jarohatlari ta'sirli aks ettirilgan. Ushbu parchada keltirilgan ma'lumot qaysi asar haqida?
- A) «Chinor» romani  
 B) «Ufq» romani  
 C) «Nido» dostoni  
 D) «Surat bilan suhbat» dostoni
27. Qaysi javobda «Sohibqiron» dramatik dostoni qahramonlaridan biri bo'lgan Aloviddin haqida ma'lumot berilgan?
- A) Boyazidning elchisi bo'lib, u Rumodan yetib kelgan edi.  
 B) Betakror iste'dod egasi edi, asarda Amir Temur tomonidan «shatranj sohasida jahongirdirsan» deya ta'riflangan.  
 C) U Rum sultoni asir olingani xabarini olgan kelgan yasovul.  
 D) Asarda ifoda etilishicha, u xohlasa, ko'zining rangini ham o'zgartira oladigan epchil xufya edi.
28. Shoir «Iltijo» she'rida «Bahor, sensiz sahro-yu tog'-u toshga jon qayda?» – der ekan, bu sahro – beminnat makon qidirib sargardon kezgan vatangado kimsalarning tog'-u toshlar – qilmishi qing'ir zotlarning ramziy ifodasi ekanini ilg'aymiz. Demak, bu zotlarning bahori yo'q. Ular o'z umri bahoriga mensimay qaragan, unga noshukurlik qilgan, bahorini toptagan kimsalardir. Ular hayot bahorini xazonga almashganlar. Ushbu parchada tahlili keltirilgan she'r muallifini aniqlang.
- A) To'ra Sulaymon  
 B) Muhammad Yusuf  
 C) Asqad Muxtor  
 D) Hamid Olimjon

## Mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan badiiy asarlar

1. *U tomdan varrak uchiraman deb yiqilib tushgan, shundan keyin biroz esini yo'qotgan. Uning yig'laganini hech kim biror marta ko'rmagan. Qachon qarasangiz, u iljayib turadi. Mahallada hamma ma'rakalarda samovarchilik qiladi. U g'alatiroq gapiradi, «z» va «s»ni aytolmaydi, «dz» va «ts» deydi. Muallifning onasi (Poshsho aya) vafot etganda «Oyi!» «Oyi!» deya yer mushtlab ilk marotaba yig'lagan. Ushbu parchada berilgan ma'lumot «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi qahramon haqida?*
  - A) Shayx
  - B) Toy
  - C) Xo'ja
  - D) Vali
2. *Akalari kinoga olib bormay aldab tashlab ketganida ham, o'rtog'i Qahramon teplitsa oynasini sindirib unga (muallifga) to'nkaganida ham, eng yaqin do'sti uning yoqtirgan qizi bilan yurib ketganida ham onasi tasalli beradi. Ushbu mazmundagi voqealar «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi hikoyada keltiriladi?*
  - A) «Gilam paypoq»
  - B) «Imon»
  - C) «Qanoat»
  - D) «Xiyonat»
3. *Bu hikoyada dunyodagi eng yaxshi, saxiy, mehribon chol va kampirning og'ir kechgan hayoti tasvirlanadi. Ular qishda ham, yozda ham mahalla bolalarini uyiga yig'ib mehmon qilardi. Ularning Oltmishvoy degan o'g'li urushga ketib qaytib kelmaydi. Ushbu mazmundagi voqealar «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi hikoyada keltiriladi?*
  - A) «Ermon buvaning tilagi»
  - B) «Oy quyoshdan nur oladi»
  - C) «Qarz»
  - D) «Mening Acha xolam»
4. *Bu hikoyada muallifning onasi ammasining qistoviga binoan folbinga borib qo'shnisi Sepkilli xolani o'g'riga chiqarib qo'yadi. Ammo onasining yo'qotgan narsasi keyin topilib rosa uyatga qoladi. Aybini yuvish uchun Sepkilli xolaning o'g'li – Hakimjonning to'yida (to'yga aytilmagan bo'lsa ham) astoydil xizmat qilib, «Kelinsalom» marosimida kelinga qimmatbaho sovga beradi. Xullas, bu hikoyadan «folbinning gapiga kirib badnom bo'lib qolish, eng yomoni, begunoh insonlarning dilini jarohatlab qo'yish mumkin», degan xulosa chiqarishimiz mumkin. Ushbu parchada «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi hikoya haqida fikr yuritilgan?*
  - A) «Qarz»
  - B) «Oltin baldoq»
  - C) «Kaltakesakning dumi»
  - D) «Havas»
5. *«...uzun bo'ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. ... ning harakati yengil va lafzi tez edi... . ko'zi o'ynab, har sekuntda o'n yoqqa alanglar edi... . bolalik chog'idayoq uy ichi va qo'ni-qo'shni unga «shaddod» deb ism berganlar, chunki kimdan bo'lsa-bo'lsin, aytganini qildirmay qo'ymas, agar birorta ish uning tilagiga teskari ketsa, shovqin-suronni ... boshig'a kiyib olar edi. Shuning uchun ... ning ra'yini bilmasdan qozon osilmas, unga yoqmagan gapga og'iz ochilmas, ul bor joyda qadam ham sanalib bosilur edi».*

Mazkur parchada «O'tkan kunlar» romanidagi qaysi qahramon haqida fikr yuritilgan?

  - A) Kumush
  - B) Xushro'y
  - C) Saodat
  - D) Zaynab

6. «O'tkan kunlar» romanida Otabek tomonidan Mirzakarim qutidorning uyiga kimlar sovchilikka boradi?
- A) Sodiq, Rahmat  
B) Yusufbek Hoji, usta Farfi  
C) usta Alim va Muhammad Rajab  
D) Ziyo shohichi va Hasanali
7. ... ni bolalik vaqtida Erondan kishi o'g'irlab kelguchi bir turkman qo'lidan Otabekning bobosi o'n besh tillo barobariga sotib olgan edi ... ning Otabeklar oilasida qulliqda bo'lg'aniga ellik yillar chamasi zamon o'tib, endi Otabeklar oilasining chin bir a'zosi bo'lib ketkan. Xojasi Yusufbek hojiga, ayniqsa xo'jazodasi Otabekka itoat va ixlosi tom bo'lib, buning evaziga ulardan ham ishonch va hurmat ko'rar edi...
- «O'tkan kunlar» romanidan olingan ushbu ma'lumot qaysi adabiy qahramon haqida?
- A) Hasanali  
B) Ziyo shohichi  
C) Rahmat  
D) usta Farfi
8. «... ning zulmini iqrar etish haqiqatan ham taajjubka loyiq edi... . ning Turkiston xonlig'ining eng zolim va mustabid sanalg'an beklarining biri va uning o'z qaramog'ida bo'lg'an Toshkent aholisig'a qilg'an zulmlari Farg'onaga doston...
- «O'tkan kunlar» romanidan olingan ushbu parchada fikr yuritilgan Toshkent aholisini o'z istibdodidan to'ydirgan zolim bek nomi qaysi javobda keltirilgan?
- A) Normuhammad qushbegi  
B) Azizbek  
C) Xudoyorxon  
D) Musulmonqul
9. «O'tkan kunlar» romanida Otabek va Mirzakarim qutidorni yurti qipchoqlarga qarshi qayragan qora choponlar tarafdori sifatida yomonlab qo'rboshi bilan til biriktirgan, tuhmat qilgan qahramon kim?
- A) Homid  
B) Sodiq  
C) Ziyo shohichi  
D) Rahmat
10. «O'tkan kunlar» romanida qipchoqlarga qarshi bo'lgan qora choponlar tarafdori sifatida ko'rsatilib tuhmat bilan qamalgan qahramonlar nomi qaysi javobda keltirilgan?
- A) Yusufbek hoji, Otabek, Hasanali  
B) Otabek, Mirzakarim qutidor, Ziyo Shohichi, Rahmat  
C) Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor, Hasanali  
D) Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor, Ziyo Shohichi, Rahmat
11. «O'tkan kunlar» romanida Yusufbek hojining maktubini olib kelib dor ostiga olib borilgan Mirzakarim qutidor va Otabekni qutqarib qolgan kim?
- A) Kumushbibi  
B) Ziyo shohichi  
C) Hasanali  
D) Oftoboyim
12. «O'tkan kunlar» romanida: «...Yaxshi deb yo'lida jon berganing Azizbek bu kun senlarga yaxshilig'ingni o'ttuz ikki tanga soliq bilan qaytarmoqchi bo'ldi. Hozir senlarga ikki yo'l: o'g'ul, qizingni sotib bo'lsa ham o'ttuz ikki tangani Azizbek xazinasiga to'lash yoki es borida etakni yopib Azizbekni oradan ko'tarish... Uying kuydi, musulmonlar!» – deya xalqqa xitob qilgan, «Soliqni bermangiz demayman, chunki sizning itoatingiz menga bundog' to'nlarni berar!» – deya istehzoli so'zlagan qahramon kim?
- A) Ziyo shohichi  
B) Yusufbek hoji  
C) Otabek  
D) Mirzakarim qutidor

13. Hatto farzandlari tufayli eridan kaltak yesa ham, oilasining sha'nini ko'zlab uyidagi muammolarga parda tutib yashovchi onaning tamoman aksi bo'lgan, «Hozir ham eri sal qovog'ini solsa, «melisa» bilan qo'rqitib, «o'n besh sutkani» pesh qiladigan ba'zi xotinlar»ni eslatuvchi, eri bilan janjallashib, uni to'xtamay qarg'ovchi qo'shni xotin – Kelinoyi obrazi «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi hikoyada uchraydi?
- A) «Sovchilar»  
B) «Tasalli»  
C) «Qanoat»  
D) «Toy»
14. «Men turgan joyimda qotib goldim. Onam yolg'on gapirardi. Yolg'on gapirardi-yu, negadir bu menga juda yoqar edi...» «Dunyoning ishlari» qissasidagi qaysi hikoyada muallif hatto farzandlari tufayli eridan kaltak yesa ham, oilasining sha'nini ko'zlab uyidagi muammolarga parda tutib yashagan onaning fazilatlarini va ichida gap yotmaydigan, uyidagi gapni ko'chaga olib chiqib shang'illaydigan, eri bilan janjallashib, uni to'xtamay qarg'ovchi qo'shni xotin – Kelinoyi haqida hikoya qiladi?
- A) «Gilam paypoq»  
B) «Qarz»  
C) «Ermon buvaning tilagi»  
D) «Qanoat»
15. Qaysi asarda oqpodsho Nikolay Soniy Romanovni maqtab, uning taxti ming yillar turishini tilagan, xalqni uning qarorlariga itoat qilishga chaqirgan Ko'sa maddoh obrazi uchraydi?
- A) «Kecha va kunduz» romani  
B) «O'tkan kunlar» romani  
C) «Dunyoning ishlari» qissasi  
D) «Shum bola» qissasi
16. «Shum bola» qissasida Shum bola kimga birinchi qor yog'ganda yetim shogird nomidan «Qorxat» yozib, undan gunafsha duxoba qalpoq olgan edi?
- A) Sariboy bo'lisga  
B) Hoji boboga  
C) Sulton o'g'riga  
D) Eshonga
17. – *Ishga kirganiga to'rt oy bo'ldi-yu, to'rt yillik charchadi bolam! – dedi ona. – To'rt yillik qaridi bolam! Bola tug'ish, katta qilish osonmi? Ko'cha-ko'yda yurib, gapira berasizlar-da!*  
«To'rt oy endi bo'ldi-ya!..» Og'zingizning bir chekkasidan chiqadi!.. Yo'q, aravakashligi qursin! Boshqa ishga beramiz... bo'lmadi bu.  
«Kecha va kunduz» romanidan olingan ushbu parchada onasi tomonidan qayg'urilayotgan aravakash obrazi nomi qaysi javobda berilgan?
- A) Hakimjon  
B) O'lmasjon  
C) Zunnun  
D) Xolmat
18. «*Millatni uyg'otish – uyg'onganlarning vazifasi. Mana siz: ancha eslik, hushyor, ziyarak odam ko'rinasiz. Ish bilasiz ekan. Davlatingiz bor ekan. Faqat birgina aybingiz shuki, zamon ahvolidan xabardor emassiz. Gazet o'qimaysiz.*»  
Jadid kattalaridan birining tilidan aytilgan millatni uyg'otish haqidagi ushbu fikrlar qaysi asardan olingan?
- A) «O'tkan kunlar»  
B) «Dunyoning ishlari»  
C) «Shum bola»  
D) «Kecha va kunduz»



19. ... ga eng ma'qul bir masalani bo'lsa ham uqtirib roziligini olmoq uchun yo o'zining piri, yoki katta bir davlatga ega bo'lish kerak edi. U odam o'z tenglaridan hech birining hech qachon hech bir gapini tinglagan emasdi. Ayollardan maslahat, ayniqsa, o'z xotinidan bir taklif eshitmoq uchun ... ning qayta boshdan bunyodga kelishi kerak bo'lardi...

Ushbu parchada «Kecha va kunduz» romanidagi qaysi qahramon haqida fikr yuritilgan?

- A) Akbarali                      B) Razzoq so'fi  
C) Miryoqub                      D) Xolmat

20. «Sohibqiron» dramasida uning tug'ilishi bilan bog'liq:  
Nabiramiz sen, ...  
Shohruhning o'g'li,  
Tug'ilganding jang mahali,  
Eronzaminda, yillar o'tib ketibdi-ya...  
Yodimda hamon  
Tavalluding sharafiga raqiblarimni  
Afv etgandim, bergan edim elga  
omonlik...» kabi misralar bor. Keyinchalik bu bolakay asardagi hatto Aloviddinni ham shatranj o'yinida mag'lub etadi.  
Ushbu ma'lumot Temurning qaysi zukko nabirasi haqida?

- A) Pirmuhammad              B) Ulug'bek  
C) Abu Said                      D) Ibrohim Sulton

21. «...uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, chuvoq soqol, o'ttuz besh yoshlarda bo'lg'an ko'rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshigina davlatmand bo'lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo'lmay, «...xotinboz» deb shuhratlangan, kishilar (uning) orqasidan so'zlashkanda uning otig'a taqilg'an laqabni qo'shib aytmasalar...» U Ziyo shohichining qaynisi, Rahmatning tog'asi edi.  
Ushbu parchada «O'tkan kunlar» romanidagi qaysi qahramon ta'riflangan?

- A) Akram Xoji                  B) Mirzakarim qutidor  
C) Homidboy                      D) Usta Alim

22. Ayol kishiga

Qo'l ko'tarish nimaligin bilurmisan?  
Ayt!

Sen-ku odam bolasisan,

Qaysi bir hayvon

Emayotib, uzib olar onasin ko'ksin.

Shohlarni-ku qo'ya turay, payg'ambarlar ham,

Nabilar ham tug'ilgan-ku ayol zotidan.

Unutibsan,

Senga bir vaqt aytib bergandim,

To'maris deb atalguvchi yovqur

momomiz

Turon zamin erki uchun maydonga chiqib,

Eron shohin kallasini qonga bo'ktirgan.

u ham ayol bo'lgan,

Bilib qo'y, o'g'lim!

Rafiqasiga qo'l ko'targan

o'g'ilga qarata ota tomonidan

aytilgan ushbu misralar qaysi

asarda uchraydi?

- A) «Sohibqiron»  
B) «Yulduzli tunlar»  
C) «O'tkan kunlar»  
D) «Mirzo Ulug'bek»

23. «Bu chol ... oltmish yoshlar chamasida, cho'ziq yuzlik, do'nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to'garak qora ko'zlik, oppoq uzun soqollik edi. Soqolining oqlig'iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha o'zgarish yo'q edi». Uning «o'g'il-qizlari bo'lmag'an, bo'lsalar ham yoshliqda o'lib ketkanlar. Shuning uchun bo'lsa kerak, Otabekka izlos» qo'ygan edi.

Ushbu parchada «O'tkan kunlar» romanidagi qaysi qahramon haqida fikr yuritilgan?

- A) Sodiq  
B) Hasanali  
C) Ziyo shohchi  
D) Mirzakarim qutidor

24. «O'tkan kunlar» romanida Otabek va Mirzakarim qutidorni o'limga qilib, Yusufbek hojining Otabekka yozgan xati bilan tanishgandan keyin ularni o'limdan saqlab qolgan Marg'ilon hokimining nomi qaysi javobda berilgan?

- A) O'tabboq qushbegi
- B) Normuhammad qushbegi
- C) Musulmonqul
- D) Azizbek

25. «Ayb Sadriddin cho'loqning o'zida edi. Tevarak-atrofdan ko'p sovchi chiqdi bu qizga. Hammasini qaytardi. Ba'zilariga qiz o'zi ham roziydi, onasi ham yo'q demasdi. Yo'q, – dedi Sadri cho'loq, – ikki qizimni qishloqiga berdim, bittasini shaharlikka beraman. Juda loyiq, qobil joyini topib, badavlat, obro'lik odamga beraman!»

Ushbu parchada uning qizlarini uzatishi bilan bog'liq voqealar keltirilgan Sadriddin cho'loq obrazi qaysi asarda uchraydi?

- A) «Shumbola»
- B) «Dunyoning ishlari»
- C) «O'tkan kunlar»
- D) «Kecha va kunduz»

26. O'rinsiz aytgan gapi uchun vazirlik lavozimidan olib tashlangan, biror joyda ishga olishmagani sababli qassoblik qilishga majbur bo'lgan, asar oxirida esa qassoblarning xalqqa yetkazayotgan zararini shohga arz qilgani bois, ya'ni xalq dardini o'ylagani uchun saroyga qaytarilgan Muhammad qovchin obrazi qaysi asarda uchraydi?

- A) «Sohibqiron» (Abdulla Oripov)
- B) «Mirzo Ulugbek» (Maqsud Shayxzoda)
- C) «Ruhlar isyoni» (Erkin Vohidov)
- D) «Yulduzli tunlar» (Pirimqul Qodirov)

27. Qovoq devona belidagi qovoqlardan bitta egri maymog'ini ko'rsatib: – Manov Musulmon cho'loq, – dedi, uning yonidagi kichkina tomosha qovoqni turtib: bunov, Xudoybachcha (Xudoyorbachcha), – dedi, suv qovog'ini erkalab «Nor kalla» (Normuhammad qushbegi), – dedi. Qolg'an ikkita silliq qovoqchalarni «nosqovoq, yupqa tomoq», deb qo'ydi. Ermakchilar kulishdilar. Bu qovoq o'g'rilari ichidan tezroq qochib qutulish uchun ketishka intilgan edi, biravi ushlab qoldi.

Mazkur parchada keltirilgan Qovoq devona haqidagi hangomalar qaysi asardan o'rin olgan?

- A) «O'tkan kunlar»
- B) «Dunyoning ishlari»
- C) «Kecha va kunduz»
- D) «Shum bola»

28. Xushro'y, Oybodoq, Saodat, To'ybeka kabi obrazlar qaysi asarda ishtirok etadi?

- A) «Kecha va kunduz»
- B) «O'tkan kunlar»
- C) «Yulduzli tunlar»
- D) «Shum bola»

29. «Yomon temuriyzodalar qilgan gunohlar uchun nechun Bobur javob berishi kerak? Axir buning o'zi senga yomonlik qilgani yo'q-ku. Bir hafta qor tepib senga yo'l ochib kelmadimi?

Yaxshilikka javoban yomonlik qilsang, keyin qasosi o'zingga qaytmaydimi?» «Yulduzli tunlar» romanidan olingan ushbu parchada Boburdan qasos olish niyatida Hindikush tog'laridagi qor bo'roni ostidagi xatarli dovon yo'lida Bobur va uning navkarlariga yo'lboshchilik qilishga rozi bo'lib, so'ng «insof va diyonat tuyg'usi uyg'ongan» qaysi qahramonning ruhiy holati tasvirlangan?

- A) Tohir
- B) Xo'ja Ubaydulla
- C) Sulton
- D) Ali Do'stбек

30. «O'tkan kunlar» romanida Kumushga soxta taloq xatini olib borgan qahramon ismini toping.

- A) Jannat
- B) Sodiq
- C) Homid
- D) To'ybeka

31. Yulduzli tunlar romanida tasvirlanishicha, «Bobur temuriylardan ekani, Abusaid mirzo uning bobosi bo'lgani» bois «Nohaq o'ldirilgan, otasi va akasi, nomusi toptalgan opasi uchun mana bu temuriyzodadan xun talab qilib qasd olish» niyatida Hindikushning qor bo'roni ostidagi dovon yo'llarida Bobur va uning navkarlariga yo'lboshchilik qilishga rozi bo'lgan, lekin safar davomida yigirma besh yoshli Boburning fazilatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rib: «Men sizdek mard podshohni umrimda birinchi ko'rishim. Uyga qaytib, barcha pashoyilarga sizning to'g'ringizda so'zlab bermogchiman», – deya bu niyatidan qaytib unga yordam bergan qahramon nomini toping.

- A) Tohir
- B) Xoja Ubaydulla
- C) Ali Do'stbek
- D) Sulton

32. Qovog'idan doim qor yog'adi, vajohati d qish, doim izg'irin... Yo bir maslahatni aytib boladi, yo ro'zg'or ishini. Koshki, boshqa mo'min-musulmonday bir kasb qilib, besh-o'n tanga topib kelsa... Yo'q, yo'q! O'zi to'y-mo'yga borib, qornini to'yg'azib kelsa bo'ldi, boshqa bilan ishi yo'q! «Uyda xotinim bor, qizim bor, ulan nima yeydi?» deb o'ylamaydi.

«Kecha va kunduz» romanidan olingan ushbu parchada ta'riflanayotgan obraz n qaysi javobda berilgan?

- A) Razzoq so'fi
- B) Eshon
- C) Miryoqub
- D) Akbarali mingboshi

33. Kuchli qor bo'ronlari tug'dirgan o'lim xavfi tufayli «Hindikush deb bejiz aytmas ekanlar! Bu tog' odamkush tog'ga o'xshaydir!» deya ta'riflangan tog' yo'lidagi mashaqqatlar hamda asar bosh qahramonining, yosh bo'lishiga qaramay, sabr-matonati, irodasi bilan o'zgalarga ib bo'lishi, ularga g'amxo'rlik qilishlari hat qasos olishga niyatlangan yovni o'z fikri qaytara olgani ishonarli tasvirlangan asa nomini toping.

- A) «Kecha va kunduz»
- B) «Yulduzli tunlar»
- C) «O'tkan kunlar»
- D) «Yulduzlar mangu yonadi»

### Jahon adabiyoti

1. O'z asarlaridan birida Alisher Navoiyni «Manzuri shohanshoi Xuroson» deb ulug'lagan shoir kim edi?

- A) Lutfiy
- B) Jomiy
- C) Bobur
- D) Fuzuliy

2. Musa Jalilning bastakor Jiganov bilan hamkorlikda yozilgan, davlat mukofoti bilan taqdirlangan operasini toping.

- A) «O'rtoqqa»
- B) «Xat tashuvchi»
- C) «Oltinsoch»
- D) «Ordenli millionerlar»

3. Uch, qushcha, hur

Qo'shig'im bo'lib! –

Shudir senga so'nggi tilagim.

Tanim qolsin bunda (Tan nima?)

Ona yurtga borsin yuragim ...

Ushbu otashin misralar kimning qalamiga tegishli?

- A) Usmon Nosir
- B) Haynrix Hayne
- C) Aleksandr Pushkin
- D) Musa Jalil

Musa Jalilning qaysi asarida Temirbulat va Fayro'zaning sof muhabbati, samimiy insoniy kechinmalari yorqin aks ettirilgan?

- A) «Kechir, yurtim!»
- B) «Oltinsoch»
- C) «Xat tashuvchi»
- D) «Ishonma»

*Taqdir kuldi, o'lim tegmasdan*

*O'tib ketdi, qilmadi jur'at.*

*Netay, axir so'nggi minutda*

*Pistoletim qildi xiyonat ...*

Ushbu misralar kimning qalamigi tegishli?

- A) Haynrix Hayne
- B) Usmon.Nosir
- C) Musa Jalil
- D) Sergey Yesenin

*«...asirlikda va tutqunlikda yozgan*

*115 she'ri bor. U shular uchun*

*qayg'uradi. Shuning uchun 115 she'rning*

*60 tasini bo'lsa hamki, ko'chirib qoldirishga ulguradi».*

Ushbu ma'lumot Musa Jalilning qaysi to'plami haqida?

- A) «Ordenli millionerlar»
- B) «Okopdan xatlar»
- C) «Oltinsoch»
- D) «Moabit daftari»

Quyidagi qaysi ma'lumot Musa Jalil hayoti va ijodiga oid?

- A) Derjavin uning she'rlarini eshitib buyuk shoir bo'lajagini bashorat qiladi.
- B) Jukovskiy unga «G'olib shogirdga mag'lub ustozdan», – degan yozuv bilan o'z portretini sovg'a qiladi.
- C) Oq podshoh sharafiga she'r yozishdan bosh tortganligi sababli intizomiy batalyonga jo'natilgan.
- D) Uning asirlikda va tutqunlikda yozgan she'rlaridan iborat «Moabit daftari» to'plami mavjud.

8. Quyidagi qaysi ma'lumot Abay haqida emas?

- A) Ijodkor Iroqning Bag'dod, Hilla, Najaf degan shaharlarida hayot kechirgan. Umrining oxirida o'zi tug'ilib-o'sgan Karbaloga ko'chib kelgan. Shu yerda vabo kasalligidan vafot etgan.
- B) Uning falsafiylik bilan yo'g'rilgan «Iskandar», «Mas'ud», «Azim rivoyati» kabi dostonlari hozirgacha el orasida mashhur.
- C) Ijodkorning ijodi yoshlik chog'laridan she'r yozish va o'lan aytishdan boshlangan, u o'zigacha og'zaki kuylab kelingan o'lanlarni yozma adabiyotga olib kirgan.
- D) Uning ijodiy merosining salmoqli qismini xalqni ilm-ma'rifatga, madaniyatga da'vat qiluvchi «Naqliya so'zlar» majmuasi tashkil etadi.

9. Qaysi qatorda Abayning faqat she'rlari berilgan?

- A) «Shoirlik qozog'im», «Boy bolasi bilan kambag'al bolasi», «Ilm o'rgan», «O'lan»
- B) «Iskandar», «Mas'ud», «Azim rivoyati», «Nasihatlar»
- C) «Ilm o'rgan», «O'lan», «Mas'ud», «Nasihatlar»
- D) «Iskandar», «Shoirlik qozog'im», «Azim rivoyati», «Qadrdon so'qmoqlar»

10. Qaysi qatorda Abayning dostonlari berilgan?

- A) «Iskandar», «Mas'ud», «Azim rivoyati»
- B) «Matla' ul-anvor», «O'lan», «Nasihatlar»
- C) «Boy bolasi bilan kambag'al bolasi», «Nasihatlar», «Maxzan ul-asror»
- D) «Sho'irlik qozog'im», «Ilm o'rgan», «Salomon va Absol»

11. Abayning inson hayotida muhim o'rin tutadigan aql, ilm-ziyo, insof va adolat, yaxshi xulq, muomala madaniyati, din, e'tiqod, davlatni idora qilish, xalqlar, elatlarning ahil, do'stona munosabatda bo'lishlari haqida mulohaza yuritgan nasriy asari qaysi javobda ko'rsatilgan?
- A) «Naqliya so'zlar»  
B) «Boy bolasi bilan kambag'al bolasi»  
C) «Iskandar»  
D) «Ilm o'rgan»
12. Abayning «Naqliya so'zlar» («Nasihatlar») asari kim tomonidan o'zbekchaga tarjima qilingan?
- A) Asil Rashidov  
B) Nosir Fozilov  
C) Usmon Qo'chqor  
D) Nizom Komil
13. *O'zi bilan yovlashgan yurtim, tingla!  
O'zi bilan dovlashgan yurtim, tingla!  
Dardingga davo bo'lsin o'lanlarim,  
Bir-birini ovlashgan yurtim, tingla!*  
Chaqiriqqa aylangan ushbu misralar kimning qalamiga mansub?
- A) Avaz O'tar  
B) Maxtumquli  
C) Abay  
D) Cho'lpon
14. Qaysi qaytorda Ibroyim Yusupovning o'zbek tilida nashr etilgan kitoblari berilgan?
- A) «Kun chiqish yo'lovchisiga», «Qoraqalpoqni ko'p maqtamang ko'zimcha», «Naqliya so'zlar»  
B) «Akatsiya gullagan joyda», «Gilamchi xotin haqida haqiqat», «Turnalar», «Azim rivoyati»  
C) «Buloqlar qaynaydi», «Oltin qirg'oq», «Dala armonlari», «Cho'l to'rg'ayi»  
D) «Qirq qiz», «Aktrisaning iqboli», «Umirbek laqqi», «Nasihatlar»
15. Abayning «Nasihatlar» asarining «O'n yettinchi so'z»ida Aql, G'ayrat va Yurak bahsiga hakamlik qilgan Ilm qaysi bir(lar)ining tanaga boshliq bo'lishini ma'qullaydi?
- A) Yurakning  
B) G'ayratning  
C) Aql va Yurakning  
D) Aqlning
16. «Asrga tatigulik kun» asari qahramoni Edigey haqida berilgan ma'lumotni aniqlang.
- A) U farzandlaridan qadr topmagan do'stini rasm-rusumini o'rniga qo'yib dafn etishni insoniy burch deb biladi.  
B) U temiryo'l ishchisi edi. O'g'lini ham temiryo'lchilarning bolalari uchun ochilgan maktab-internatga topshirgan edi. U goh yo'lovchi poyezdda, goh tuyada o'g'lini ko'rishga borardi.  
C) Uning otasi jungjanglar tomonidan halok etilgan. Edigey jungjanglardan o'chini olish uchun omomsiz olishuvga o'tlanadi.  
D) U ota-bobolarning urf-odatlarini qattiq hurmat qilar edi, o'z jasadini Ona Bayit qabristoniga qo'yishlarini vasiyat qilgan edi.
17. U kechagi kunini unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashashga o'zida kuch topa olgan adabiy qahramon. U haqda muallif: «Tabiatan qo'rsroq, qiziqqonroq edi u, shuning uchun ham uni «Bo'ron» deb atashadi-da», – deb yozgan edi. Ushbu parchada fikr yuritilgan adabiy qahramon nomini aniqlang.
- A) Edigey («Asrga tatigulik kun»)  
B) Nizomjon («Ufq»)  
C) Kazangap («Asrga tatigulik kun»)  
D) Ikromjon («Ufq»)

8. *U avval-avval rasmlar chizdi.*

*Rassom bo'lmog'chi bo'ldi. Qator-qator rasmlar chizdi. Rasmlarni ko'rgazmaga qo'ydi... U ajoyib animalist – jonivorlar tasvirini yaratuvchi rassom bo'ldi.*

*Ammo «baxt qushi»ni tabiatshunos olimlikdan, adiblikdan topdi...*

Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?

- A) Jonatan Svift
- B) Ernest Seton-Tompson
- C) Antuan de Sent-Ekzyuperi
- D) Hans Kristian Andersen

9. *Yomon fe'lli, baxil odam, unga har*

*qancha yaxshilik qilmang, og'irini yengil qilaman, yordam beraman, deb o'ylamang, baribir u sizning yaxshiligingizni bilmaydi. Bil'aks, o'zining yomonlik qilmaganini yaxshilikka yo'yadi. Bu bilan o'z tubanligini yana bir marta namoyish etadi.*

Ezopning qaysi masalidan xuddi shunday xulosa chiqarish mumkin?

- A) «Bo'ri bilan laylak»
- B) «Ustiga tuz ortilgan eshak»
- C) «Eshak bilan baqalar»
- D) «Burgut, zag'cha va cho'pon»

10. *Har qanday qiyinchilikni bardosh*

*bilan yengib o'tishga harakat qilgan odam, albatta, maqsadiga yetadi. Ayrim ishyoqmas, havoyi kishilar maqsadlariga tez va oson yetishish uchun turli nayranglar o'ylab topadilar-u, ammo kutilmaganda pand yeb qoladilar.*

Ezopning qaysi masalidan xuddi shunday xulosa chiqarish mumkin?

- A) «Yovvoyi echkilar bilan chopon»
- B) «Bo'ri bilan laylak»
- C) «Ustiga tuz ortilgan eshak»
- D) «Eshak bilan baqalar»

21. Qaysi ertakda sun'iylik, ikkiyuzlamachilik, soxtalik qoralanadi, ayniqsa, baliqchilar obrazlari orqali soxtalik hech qachon tabiiylikka teng kela olmasligi ishonchli tasvirlanadi?

- A) «Susambil»
- B) «Uch og'a-ini botirlar»
- C) «Hurishni eplolmagan kuchukcha» (J. Rodari)
- D) «Bulbul» (H.K. Andersen)

22. *... qaysi ishga qo'l urmasin, muvaffaqiyatsizlikka uchrayveradi. Sababi o'sha – odamlar haqiqat uchun kurashishdan ko'ra boshlari tinch bo'lishini o'ylaydilar, mutelikni ma'qul biladilar. Uning haqsizlik himoyasi uchun qilgan har bir harakati temir devorga urilgan chinni buyumdek sinib, chil-chil boraveradi. Urinishlari puchga chiqqan qahramon qonunni ham yig'ishtirib qo'yib, hatto politsiya xodimini do'pposlash darajasiga boradi.*

Ushbu parchada qaysi adabiy qahramon haqida fikr yuritilgan?

- A) Bill
- B) Yevgeniy
- C) Shoshibushon
- D) Yanguli

23. *U san'at magistri va huquq bakalavri unvonini olgan... Lekin hech qanday ish bilan mashg'ul bo'lmadi. Hech kim bilan ortiqcha inoq ham bo'lmadi; majlislarda qatnashsa ham, biror marta ikki og'iz so'zlagan emas.*

Ushbu parchada qaysi adabiy qahramon haqida fikr yuritilgan?

- A) Yevgeniy
- B) Xorkumar
- C) Yanguli
- D) Shoshibushon



24. Yigit odatda burchakdagi bir xonada, kushetkada o'tirar, atrofida inglizcha kitoblar sochilib yotardi, u kitoblarni tanlab o'tirmas, qo'lga tushganini o'qiyverardi. Uning ishi shundan iborat edi. Xo'jalik ishlari uni qiziqitirmasdi. Ushbu parchada qaysi adabiy qahramon haqida fikr yuritilgan?
- A) Jo Kalon («Yovvoyi yo'rg'a»)  
 B) Shoshibushon («Nur va soyalar»)  
 C) Yanguli («Hellados»)  
 D) Seydahmad («Oq kema»)
25. Senga mendan xabar bersalar,  
 «U yiqildi charchab», – desalar,  
 Yo'q, ishonma, jonim!  
 Bu so'zni  
 Do'stlar aytmas yaqin ko'rsalar.  
 «Ishonma» she'ridan olingan ushbu misralar muallifini aniqlang.
- A) Sergey Yesenin      B) Haynrix Hayne  
 C) Musa Jalil          D) Rasul Hamzatov
26. Qaysi javobdagi ma'lumot Musa Jalil haqida emas?
- A) U huquqshunoslik fakultetini juda yaxshi baholar bilan bitirib, diplom olgan bo'lsa-da, bu sohada biror kun ham ishlamagan.  
 B) Uning «Okopdan xatlar» nomli kitobiga jamlangan she'rlarida urushning butun dahshati ro'yirost tasvirlangan.  
 C) U sof muhabbat, samimiy insoniy kechinmalar aks ettirilgan «Xat tashuvchi» poemasining muallifidir.  
 D) Uning bastakor Jiganov bilan hamkorlikda yaratgan «Oltin soch» operasi davlat mukofoti bilan taqdirlangan.
27. Qaysi javobda Vilyam Shekspirning komediya janriga oid asarlari berilgan?
- A) «Venera va Adonis», «Lukresiya»  
 B) «Romeo va Julietta», «Hamlet»  
 C) «Xatolar komediyasi», «Makbet»  
 D) «Yoz kechasidagi tush», «O'n ikkinchi kecha»
28. Qaysi javobda Chingiz Aytmatovning romanlari berilgan?
- A) «Oq bayroqlar», «Abadiyat qonuni»  
 B) «Kassandra tamg'asi», «Tog'lar qulaganda»  
 C) «Qiyomat», «Tungi parvoz»  
 D) «Asrga tatigulik kun», «Yuzma-yuz»
29. U «Turkman binosi», «Adolat yaxshi» she'rlari muallifidir. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?
- A) Fuzuliy  
 B) Avaz O'tar  
 C) Mashrab  
 D) Maxtumquli
30. Italiyada va boshqa mamlakatlarda mohir ertakchi adib sifatida tanilgan, «Chippolinoning sarguzashtlari», «Telefon aytilgan ertaklar», «Jelsamino yolg'onchilarning mamlakatida» kabi hikoyalar turkumini yaratgan yozuvchini aniqlang.
- A) Janni Rodari  
 B) Jonatan Svift  
 C) Hans Kristian Andersen  
 D) Antuan de Sent-Ekzyuperi
31. Tabiat va jamiyatda hamma narsaning, har bir shaxsning o'z o'rni bo'lishi lozim, har bir inson hayotdagi chinakam vazifasini anglamog'i lozim, buning uchun insonga, avvalo, yaxshi bir ustoz darkor. Xususan, asarda: «Nihoyat, yaxshi ustozni topib oldim!» degan so'zlarning baxtiyorlik ifodasi sifatida keltirilishi bejiz emas. Ushbu ma'lumot kimning qaysi asari haqida?
- A) Jonatan Svift, «Gulliverning sayohatla...»  
 B) Hans Kristian Andersen, «Bulbul»  
 C) Janni Rodari, «Hurishni eplolmagan kuchukcha»  
 D) Antuan de Sent-Ekzyuperi, «Kichkina shahzoda»

32. ... qaysi ishga qo'l urmasin, muvaffaqiyatsizlikka uchrayveradi. Sababi o'sha – odamlar haqiqat uchun kurashishdan ko'ra boshlari tinch bo'lishini o'ylaydilar, mutelikni ma'qul biladilar. Uning haqsizlik himoyasi uchun qilgan har bir harakati temir devorga urilgan chinni buyumdek sinib, chil-chil bo'laveradi. Urinishlari puchga chiqqan qahramon qonunni ham yig'ishtirib qo'yib, hatto politsiya xodimini do'pposlash darajasiga boradi. Ushbu parchada qaysi asar qahramoni haqida fikr yuritilgan?

- A) «Hellados»                      B) «Oq kema»  
C) «Yovvoyi yo'rg'a»              D) «Nur va soyalar»

33. «Uni ishlashga majbur etish uchun qilingan harakatlari hech qanday natija bermagach, otasi uni qishloqqa keltirib, xo'jalikka qarashib turishni topshirdi. U qishloq aholisidan ... ko'pgina ta'nalar eshitdi. Buning o'ziga xos sabablari bor edi: ... osoyishtalik, tinchlikni yaxshi ko'rardi, shuning uchun uylanishni ham xohlamasdi». Ushbu parchada qaysi asar qahramoni haqida fikr yuritilgan?

- A) «Nur va soyalar»  
B) «Hellados»  
C) «Oq kema»  
D) «Yevgeniy Onegin»

### Adabiyot nazariyasi va badiiy tahlil

1. Quyidagi qaysi baytda ijodkor tazod san'atidan foydalangan?

- A) Ilohi, har kuning navro'z bo'lsun,  
Hamisha toleing feruz bo'lsun.  
B) Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek  
o'lturur,  
G'oyati nozuklukindin suv ila yutsa bo'lur.  
C) G'amim pinhon tutardim man, dedilar:  
«Yora qil ravshan»,  
Desam, ul bevafo, bilman, inonurmi,  
inonmasu?  
D) Yuzing guliga ko'ngil ravzasin yasa  
gulshan,  
Qading niholig'a jon gulshanin chaman  
qilg'il.

2. Qaysi javobda to'g'ri ma'lumot berilgan?

- A) Mumtoz she'riyatimizda qofiyadagi ohangdoshlikni hosil qiluvchi unli yoki undosh tirgak tovush raviy deb yuritiladi.  
B) Radif har doim bir so'zdan iborat bo'ladi.  
C) Har doim g'azal tarkibidagi har bir bayt alohida-alohida radifga ega bo'ladi.  
D) Raviy bilan tugallangan qofiyalarni mutlaq qofiya deb atash qabul qilingan.

3. Tuyuq haqida berilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?

- A) Tuyuqda ijodkor tajnisni yuzaga keltirish uchun bir necha so'zlar ishtirokida ohoriy (original, ya'ni bir martalik) shakldoshliklar yaratishi mumkin.  
B) Tuyuqlar turkiy xalqlar og'zaki adabiyoti ta'sirida vujudga kelgan.  
C) Tuyuq ramali musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida yoziladi.  
D) Tuyuq, albatta, to'rt misradan iborat bo'lishi kerak va har doim a-a-a-a tarzida qofiyalanishi, ya'ni har to'rtala misra o'zaro qofiyalanishi shart.

4. Qaysi javobdagi ma'lumot to'g'ri emas?

- A) Radif bir yoki bir necha so'zdan iborat bo'lishi mumkin.  
B) Mumtoz she'riyatda faqat cho'ziq va qisqa unlilar raviy bo'lib kela oladi, undosh tovushlar raviy bo'lib kela olmaydi.  
C) She'riy janrlarda bir band doirasida ahamiyati jihatidan bir-biridan farq qiluvchi ikki xil – ichki va asosiy radif ishlatilishi mumkin.  
D) Mumtoz she'r ilmiga ko'ra odatda raviy so'zning asosida (o'zagida) bo'lishi talab etilgan. Ba'zan bu talabdan chetga chiqish kuzatiladi.

5. Mumtoz she'r ilmiga ko'ra odatda raviy so'zning asosida (o'zagida) bo'lishi talab etilgan. Quyidagi qaysi baytda bu talabdan chetga chiqish kuzatiladi?
- Ikki mahbubni ko'rdum, bir-birinin ko'rmagan, Ikkisining o'rtasiga, do'stlar, qil ham sig'magan.
  - Ul nadurkim, sabzto'nlik, yoz yog'ochning boshida, Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qoshida.
  - Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul, Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.
  - Ko'nglung istar yorlar birla hamesha shod bo'l, Mendin-u, kimdinki, ko'nglung istamas – ozod bo'l.
6. Qaysi baytda husni ta'lil san'atidan foydalanilgan?
- Quyosh Oydek yuzungning xijlatidin Qochib, to'rtinchi ko'k uzra chiqibdur.
  - Nafs kofiri birla tun-u kun qildim urushni, Tanho qilichi birla urub, qiymalab o'ttum.
  - Dushman-u do'st orasida men g'ofilni mudom Besar-u po qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.
  - Haq ul kunkim, jamoling bor etibdur, Jahon husnin borin sizga beribdur.
7. Qaysi javobdagi baytda tazod san'atidan foydalanilmagan?
- Ohkim, bo'ldi yana subhi nashotim shomi g'am, Chehra pinhon etti ul Xurshidi tobon oqibat.
  - Bu kun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim, Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim.
  - Anda bir shoh hokim-u voliy, Mulki ma'mur-u himmati oliy.
  - Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar, Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.
8. Nasriy didaktik asarlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
- «Zarbulmasal», «Qutadg'u bilig»
  - «Gulzor», «Miftohi ul-adl»
  - «Qobusnoma», «Hayrat ul-abror»
  - «Mahbub ul-qulub», «Guliston»
9. Qaysi javobdagi baytda tazod she'riy san'at qo'llanmagan?
- Nastarin yuvib yuzni, yosuman tuzib o'zni, Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar
  - Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqib Seli g'amin bu imorat bo'ldi vayron oqibat.
  - Doda keldim, ey salotin sarvari, dodin eshit, Sen shah-u, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.
  - Bevafolar zulm-u bedodig'a ermassen ha Ey sinuq ko'nglum, agar xud shisha, ga po'lod bo'l.
10. *Mani jondan o'sondirdi, jafodan yor o'sonmazmi?*  
*Falaklar yondi ohimdan, murodim shan yonmazmi?*  
Ushbu bayt o'rin olgan Fuzuliyning «Mani jondan o'sondirdi...» g'azali haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- G'azalda mutlaq qofiyadan foydalanilgan.
  - G'azalda radifdan foydalanilmagan.
  - G'azalda «z» tovushi raviy hisoblanadi.
  - G'azal ohangdorlik jihatidan g'azali musajja usulida yozilgan.
11. *O'ttim fash-u dastorini devonalig' aylab Parvonasifat jonimi o'tqa qalab o'ttum.*  
Ushbu baytda qanday she'riy san'atdan foydalanilgan?
- tardi aks
  - tashbeh
  - tarse'
  - talmeh

12. Qaysi javobda hikoya janrida yozilgan hajviy asarlar berilgan?
- Hamzaning «Tuhmatchilar jazosi» va Gogolning «Revizor» asarlari
  - Hamzaning «Maysaraning ishi» va Abdulla Qahhorning «Og'riq tishlar» asarlari
  - Ne'mat Aminovning «Yelvizak» va Muqimiyning «Dodhohim» asarlari
  - Abdulla Qahhorning «Adabiyot muallimi» va Chexovning «Qiyshiq oyna» asarlari
13. *Sensen sevarim, xoh inon, xoh inonma, Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.* Ushbu she'riy misralar haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri?
- Ushbu misralarda tardi aks san'atidan foydalanilgan.
  - Qofiyasi mutlaq qofiya hisoblanadi.
  - Radifi qisqa radif sanaladi.
  - Qofiyadosh so'zlarda «n» tovushi raviv bo'lib kelgan.
14. *Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin, Ko'ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!* Ushbu she'riy misralar haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri?
- Qofiyadosh so'zlarda «n» tovushi raviv bo'lib kelgan.
  - Radifi yoyiq radif hisoblanadi.
  - Baytda tajnis san'atidan foydalanilgan.
  - Ushbu misralarda tanosub san'atidan foydalanilgan.
15. *Ko'nglung istar yorlar birla hamesha shod bo'l, Mendin-u, kimdinki, ko'ngling istamas – ozod bo'l.* Ushbu she'riy misralar haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- Ushbu misralarda tardi aks san'atidan foydalanilgan.
  - Qofiyadosh so'zlarda «d» tovushi raviv bo'lib kelgan.
  - Muqayyad qofiya qo'llanilgan.
  - Radifi qisqa radif hisoblanadi.
16. *Ko'ngli tilagan mureddig'a yetsa kishi Yo barcha mureddlarni tark etsa kishi. Bu ikki ish muyassar bo'lmasa olamda, Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.* Ushbu she'riy misralar haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri?
- Mutlaq qofiyadan foydalanilgan.
  - Ushbu she'r tuyuq janrida yozilgan.
  - Radifi yoyiq radif hisoblanadi.
  - Qofiyadosh so'zlarda «sh» tovushi raviv bo'lib kelgan.
17. *Har tilni biluv emdi bani odama jondur, Til vositai robilai olamiyondur.* Ushbu she'riy misralar haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- Ushbu bayt bilan boshlanuvchi she'r g'azal janrida yozilgan.
  - Ushbu baytda radif qo'llanmagan.
  - Ushbu misralarda tardi aks san'atidan foydalanilgan.
  - Mutlaq qofiya qo'llangan.
18. *Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina, Qatlim uchun «nas» kelturur «nun» eltibon «sod» ustina.* Ushbu she'riy misralar haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- Qofiyadosh so'zlarda «d» tovushi raviv bo'lib kelgan.
  - Radifi qisqa radif hisoblanadi.
  - Qofiyasi mutlaq qofiya hisoblanadi.
  - Ushbu misralarda tanosub san'atidan foydalanilgan.
19. *Ul qaro ko'z ko'zlariga surma bejo tortadur, Balki andin dahr eli ortiqcha g'avgo tortadur.* Ushbu she'riy misralar haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- Radifi qisqa radif hisoblanadi.
  - Baytda muqayyad qofiya qo'llangan.
  - Ushbu baytda tanosub san'atidan foydalanilgan.
  - Qofiyadosh so'zlarda «r» tovushi raviv bo'lib kelgan.

20. Qaysi javobdagi baytda tazod san'atidan foydalanilmagan?

- A) Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar,  
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.
- B) Orzu qildim: «Tutarmen», – deb visoli domanin,  
Pora bo'ldi hajr ilgida giribon oqibat.
- C) Bu kun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,  
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim.
- D) Mumkin o'lsa ko'rmog'im, ey sarvi ra'no, surating,  
Aylasa chashmim aro mardum kabi jo surating.

21. Qaysi javobdagi baytda tazod san'atidan foydalanilgan?

- A) Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar,  
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.
- B) Ko'z bila qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,  
Yuz bila so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi.
- C) Anda bir shoh hokim-u voliy,  
Mulki ma'mur-u himmati oliy.
- D) Ilohi, har kuning navro'z bo'lsun,  
Hamisha toleying feruz bo'lsun.

22. Qaysi javobdagi baytda tazod san'atidan foydalanilgan?

- A) Ul yuzi oykim, jahonning jonidir,  
Shu zamona xublarning xonidir.
- B) Orzu qildim: «Tutarmen», – deb visoli domanin,  
Pora bo'ldi hajr ilgida giribon oqibat.
- C) Anda bir shoh hokim-u voliy,  
Mulki ma'mur-u himmati oliy.
- D) Ko'z bila qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,  
Yuz bila so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi.

23. *Azm ayla sabo, yet guli xandonimg'a,  
Ne gulki, quyoshdek mahi tobonimg'a.*

Quyida berilganlardan ushbu bayt haqida berilgan to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

- 1) Baytda mutlaq qofiya qo'llangan;
- 2) Baytda tashbeh san'atidan foydalanilgan;
- 3) Baytda tardi aks san'atidan foydalanilgan;
- 4) Ushbu baytda «a» unlisi raviy bo'lib kelgan.

A) 1, 2

B) 3, 4

C) 2, 4

D) 1, 3

24. Tuttim o'lmakdin tirilmak hajrida, tengdur manga

Emdi gar bergil ziloli Xizr, agar jallod bo'l.

Ushbu baytda quyidagi qaysi she'riy san'atlardan foydalanilmagan?

- 1) tazod; 2) tajnis; 3) talmeh;
- 4) tardi aks

A) 1, 3

B) 1, 2

C) 3, 4

D) 2, 4

25. Qaysi javobdagi baytda tarse' she'riy san'at qo'llangan?

A) Hech kim mendek, ilohi, yoridin ayrulmasun,  
Mehribon munis o'shal dildoridin ayrilmasin.

B) Har nechakim sabr ta'mirini bunyod ayladim,  
Ashk selobida vayron o'ldi obodim, eshit.

C) Sendek menga bir yori jafakor topilmas,  
Mendek senga bir zori vafodor topilmas

D) Ikki mahbubni ko'rdum, bir-birisin ko'rmagan,  
Ikkisining o'rtasiga, do'stlar, qil ham sig'magan.

26. *Sendek menga bir yori jafokor  
topilmas,  
Mendek senga bir zori vafodor  
topilmas.*

Ushbu bayt haqida berilgan qaysi  
javobdagi ma'lumot to'g'ri emas?

- A) «s» undoshi raviiy bo'lib kelgan.
- B) Radifi qisqa radif sanaladi.
- C) Tazod she'riy san'ati qo'llangan.
- D) Tarse' she'riy san'ati qo'llangan.

27. *U musulmon Sharqi xalqlari  
adabiyotlarida eng ko'p tarqalgan  
lirik janr. U dastlab arab she'riyatida  
milodiy VI-VII asrlarda paydo  
bo'lgan. XIII-XIV asrlarga kelib she'rning  
bu turi to'la shakllangan va mukammal  
holga yetgan. U arabcha so'z bo'lib,  
«oshigona so'z», «ayollarga xushomad»  
kabi ma'nolarni anglatadi. Turkiy  
adabiyotda uning ilk namunalari  
Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asari  
va Xorazmiyning «Muhabbatnoma»sida  
uchraydi.*

Ushbu parchada qaysi mumtoz janr haqida  
fikir yuritilgan?

- A) g'azal
- B) tuyuq
- C) qit'a
- D) ruboiy

28. *U to'rt misradan iborat bo'lib,  
misralar a-a-a-a yoki a-a-b-a tarzida  
qofiyalanadi. U ramali musaddasi mahzuf  
(yoki maqsur) vaznida yozilishi shart.  
Eng muhimi, qofiyadosh so'zlar, albatta,  
tajnisli bo'lishi, ya'ni omonim so'zlardan  
yoki shakldosh so'zlar turkumidan tashkil  
topishi darkor.*

Ushbu parchada qaysi mumtoz janr haqida  
fikir yuritilgan?

- A) g'azal
- B) ruboiy
- C) qit'a
- D) tuyuq

29. *Bunday g'azallarda baytlar  
bir-biridan o'ta mustaqil bo'ladi,  
ularning o'rni almashtirilsa ham,  
unchalar sezilmaydi. Navoiy Hazratlari  
bu kabi g'azallarni qattiq tanqid  
qilgan.*

Ushbu parchada g'azalning baytlar  
mustaqilligi, ya'ni qo'shmisralarning  
o'zaro bog'liqligi, mantiqiy ketma-ketligi,  
bir-birini taqozo etishi darajasiga ko'ra  
qaysi turi haqida fikr yuritilgan?

- A) musalsal g'azallar
- B) voqeaband g'azallar
- C) yakpora g'azallar
- D) parokanda g'azallar

30. 1. G'azalning birinchi bayti «matla'»  
deyiladi. Undagi ikkala misra o'zaro  
qofiyadosh bo'ladi. Shu bayt vazni  
va qofiyasi (yoki radifi bo'lsa radifi  
ham) g'azalning oxirigacha qat'iy  
saqlanadi.

2. Baytlar ketma-ketligini sujet, ya'ni  
muayyan voqea tasviri boshqaradigan  
g'azallar voqeaband g'azallar deyiladi.

3. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov  
maqta' haqida shunday degan: «Bu baytda,  
shoir kimni maqtagisi kelsa, maqtaydi,  
kimni yomon ko'rsa, undan alamini  
oladi, g'azal umum yo'nalishiga u qadar  
bog'lanmaydiganroq gapi bo'lsa ham,  
shu yerda aytib qoladi».

4. Qit'a to'rt misradan iborat bo'lib,  
misralar a-a-a-a yoki a-a-b-a tarzida  
qofiyalanadi. U ramali musaddasi mahzuf  
(yoki maqsur) vaznida yozilishi shart.  
Eng muhimi, qofiyadosh so'zlar, albatta,  
tajnisli bo'lishi darkor. Adabiyot  
nazariyasiga oid yuqoridagi qaysi  
ma'lumotlar to'g'ri?

- A) 2, 3
- B) 1, 2
- C) 3, 4
- D) 1, 4



31. Qaysi javobda barmoq she'riy tizimining qo'shma vaznida yozilgan she'riy parcha berilgan?

- A) Qani, ayt, maqsading nimadir sening?  
Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang?  
Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim?  
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?
- B) Qubbon sohilida qomating bukib,  
Oltin barglaringni ko'l uzra to'kib,  
Nimalar haqida surasan xayol,  
So'yla, majnuntol?
- C) Garchi shuncha mag'rur tursa ham  
Piyolaga egilar choynak.  
Shunday ekan, manmanlik nechun,  
Kibr-u havo nimaga kerak?
- D) Tuproq ko'chalardan chopgan bolalik,  
Yillar changi ichra asta yo'qoldi.  
Bolalik ketdi-yu, sho'x suhbatlarda  
Uni kula-kula eslamog qoldi.

32. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,  
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.  
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,  
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.  
Ushbu she'riy misralar haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri?

- A) Ushbu misralarda talmeh san'atidan foydalanilgan.
- B) She'rning 1-, 2-, 3- va 4-misralari o'zaro qofiyalangan.
- C) Radifi qisqa radif hisoblanadi.
- D) Ushbu she'r qit'a janrida yozilgan.

33. Quyidagi qaysi asarlar roman janrida yozilmagan?

- 1) «Oqqushlar, oppoq qushlar» (O. Yoqubov)
  - 2) «Jar yoqasidagi chaqmoq» (A. Muxtor);
  - 3) «Adolat manzili» (O. Yoqubov);
  - 4) «Sevgim, sevgilim» (O'. Umarbekov);
  - 5) «Davr mening taqdirimda» (A. Muxtor).
- A) 2, 4    B) 1, 2, 3    C) 1, 3, 5    D) 4,

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                                            |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>KIRISH</b> .....                                                                                                                                                                                        | 3  |
| <b>Abituriyentlarga maslahat</b> .....                                                                                                                                                                     | 4  |
| <b>«Ona tili va adabiyot» fanidan abituriyentlarga tavsiyalar</b> .....                                                                                                                                    | 5  |
| <b>Til haqida umumiy ma'lumot. Fonetika</b> .....                                                                                                                                                          | 7  |
| <b>Grafika va Orfografiya</b> .....                                                                                                                                                                        | 9  |
| <b>Leksikologiya</b> .....                                                                                                                                                                                 | 14 |
| <b>Morfologiya. So'z yasalishi</b> .....                                                                                                                                                                   | 21 |
| <b>Morfologiya. Mustaqil so'z turkumlari</b> .....                                                                                                                                                         | 24 |
| <b>Morfologiya. Yordamchi va alohida olingan so'zlar</b> .....                                                                                                                                             | 36 |
| <b>Sintaksis. Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi</b> .....                                                                                                                                               | 40 |
| <b>Sintaksis. Sodda gap sintaksisi</b> .....                                                                                                                                                               | 47 |
| <b>Qo'shma gap sintaksisi</b> .....                                                                                                                                                                        | 55 |
| <b>Uslubshunoslik, til birliklarini qo'llash uslubiyati</b> .....                                                                                                                                          | 60 |
| <b>Punktuatsiya. Tinish belgilari qo'llanilishi</b> .....                                                                                                                                                  | 66 |
| <b>Xalq og'zaki ijodi</b> .....                                                                                                                                                                            | 70 |
| <b>Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan adabiyot.</b>                                                                                                                                               |    |
| <i>D'rrun-Enasoy obidaları («To'nyuquq», «Kultegin»), Imom Ismoil al-Buxoriy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Nosiruddin Rabg'uziy, Atoiy, Lutfiy, Zahiriddin Muhammad Bobur</i> ..... | 75 |
| <b>Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan adabiyot.</b>                                                                                                                                               |    |
| <i>Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Xamsachilik an'anasi</i> .....                                                                                                                                          | 80 |
| <b>Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan adabiyot.</b>                                                                                                                                               |    |
| <i>Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, Gulxaniy, Uvaysiy, Nodira, Muhammad Rizo Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Anbar Otin, Avaz O'tar</i> .....                                                           | 85 |
| <b>Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan adabiyot.</b>                                                                                                                                               |    |
| <i>Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan adabiyot namunalari tahlili</i> .....                                                                                                                       | 89 |
| <b>XX asr o'zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti.</b>                                                                                                                                             |    |
| <i>Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir</i> .....                                                                                         | 93 |
| <b>XX asr o'zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti.</b>                                                                                                                                             |    |
| <i>G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir, Zulfiya</i> .....                                                                                       | 98 |

**XX asr o'zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti.**

*Shuhrat, Turob To'la, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Saida Zunnunova,*

*Mirmuhsin, O'lmas Umarbekov ..... 10*

**XX asr o'zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti.**

*Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Ozod Sharafiddinov, Xudoyberdi To'xtaboyev,*

*To'ra Sulaymon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Tohir Malik, O'tkir Hoshimov,*

*Tog'ay Murod, Muhammad Yusuf, Xayriddin Saloh ..... 10*

**Mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan badiiy asarlar ..... 11**

**Jahon adabiyoti ..... 11**

**Adabiyot nazariyasi va badiiy tahlil ..... 12**

# ONA TILI VA ADABIYOT DAVLAT TEST MARKAZI

2019

*To'plam davlat-xususiy sheriklik asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi hamda «Davr press» nashriyot-matbaa uyi qo'shma loyihasi doirasida tayyorlandi.*

*To'plamdan Davlat test markazi tomonidan shakllantirilgan 2019-yilgi test sinovlarida foydalanilgan test topshiriqlari o'rin olgan. Test topshiriqlari Davlat ta'lim standartlari asosida mazkur fan bo'yicha umumiy o'rta maktab hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quv dasturlarida keltirilgan mavzular doirasida tuzilgan. To'plam o'qituvchilar, oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan abituriyentlar va keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.*

*Hozirda Davlat test markazi tomonidan to'plamda keltirilgan test topshiriqlari asosida abituriyentning fan mavzularini qay darajada o'zlashtira olganligini tekshirishga imkon beruvchi onlayn xizmat ko'rsatish tizimini ishga tushirish rejalashtirilgan. Tizimdan foydalanishda to'plamga ilova qilingan javoblar varaqalari yordam beradi. Xizmat ko'rsatish tizimidan foydalanish tartibi haqida batafsil ma'lumotni Davlat test markazining <http://dtm.uz> rasmiy saytidan olish mumkin.*

*Abituriyentlarning o'zlashtirgan bilimlarini tekshirib borishlaridagi faolliklari keng jamoatchilik bilan Davlat test markazi o'rtasidagi muloqotni rivojlantiradi va bu o'z navbatida test topshiriqlari bazasi hamda test sinovlari jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.*

*Barcha abituriyentlarga omad tilagan holda, ushbu to'plam fan bo'yicha bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun xizmat qilishiga umid qilib qolamiz.*

# DTM

ISBN 978-9943-5831-9-1



9 789943 583191